

**XALQ  
PEDAGOGIKASI**

**M.J.MUTALIPOVA**

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2015

Muharrir:	N.Rasulmuhamedova
Tex. muharrir:	M.Holmuhamedov
Musavvir:	D.Azizov
Musahhih:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	Sh.Mirqosimova

**XALQ  
PEDAGOGIKASI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan 5110900 – pedagogika va psixologiya yo'naliishi talabalari  
uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

E-mail: tipografiyacent@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.  
Nashr.lits. AIN<sup>№</sup>149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi: 16.11.2015.

Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ . «Timez Uz» garniturasi.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 9,5. Nashriyot bosma tabog'i 10,0.

Tiraji 500. Buyurtma №170.

«Fan va texnologiyalar Markazining  
bosmaxonasi» da chop etildi.  
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.

**TOSHKENT – 2015**

**M-90 M.J.Mutalipova.** Xalq pedagogikasi. –T.: «Fan va texnologiya», 2015, 160 bet.

ISBN 978-9943-998-15-5

Mazkur o'quv qo'llanma 5110900 – pedagogika va psixologiya bakalavriat yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda xalq pedagogikasining nazariy asoslari, o'zbek xalqining milliy, ma'rifiy, ma'naviy va madaniy meroslarining barkamol shaxsini tarbiyalashda tutgan o'rni, bo'lg'usi pedagog kadrlarni ta'lim-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasi manbalaridan o'z o'rnida, maqsadga muvofiq samarali foydalanish yo'llari yoritilgan.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi OO'MTVning 263-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Xalq pedagogikasi» fanining namu-naviy dasturiga asosan yozildi.

**UO'K: 37.035.6(075)**  
**KBK 74.03**

**Taqrizchilar:**

**Sh.Q.Mardonov** – pedagogika fanlari doktori, professor;

**N.M.Egamberdiyeva** – pedagogika fanlari doktori, professor

ISBN 978-9943-998-15-5



© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2015.

**SO'Z BOSHI..... 3****I BOB. XALQ PEDAGOGIKASI FANINING NAZARIY ASOSLARI**

I.1. Xalq pedagogikasi fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va manbalari.....	5
I.2. Xalq pedagogikasi va O'rta Osiyo buyuk mutafakkirlarining pedagogik g'oyalaridagi uyg'unlik.....	18
I.3. Xalq og'zaki ijodi va dostonlar xalq pedagogikasining muhim manbai sifatida.....	31
I.4. Xalq pedagogikasida milliy urf-odatlar, an'analar, udumlar, xalq o'yinlari va o'yinchoqlari, bayram va marosimlarning tarbiya vositasи sifatidagi o'rni.....	51

**II BOB. XALQ PEDAGOGIKASI YOSH AVLOD TARBIYASI HAQIDAGI BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALAR IN'IKOSI**

II.1. Oila tarbiyasining xalq pedagogikasida aks etishi.....	68
II.2. Xalq pedagogikasida yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari.....	76
II.3. Xalq pedagogikasida diniy ta'limotlarning ahamiyati.....	83

**III BOB. O'ZBEK MILLIY MADANIYATI VA MA'NAVIYATINING XALQ PEDAGOGIKASIDA IFODALANISHI**

III.1. Xalq pedagogikasida xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi, milliy me'morchilik, milliy musiqa, qo'shiqchilik, raqs va milliy teatrلarning tarbiyaviy ahamiyati.....	97
III.2. O'zbek xalqining axloqiy me'yordari, muomala mada-niyati, turmush kechirish tartib-qoidalarining xalq pedago-gikasida aks etishi.....	109
III.3. Xalq pedagogikasida tabiat va inson munosabatlari, xalq tabobati va sog'lom turmush tarzining ifodalaniishi.....	119

Foydalanilgan adabiyotlar ..... 137

O‘qitishni nazariyani amaliyot bilan bog‘lash principi xalqimizning qaysi maqoliga to‘g‘ri keladi?	Bilim qaytarish va takrorlash mevasi	So‘ragan-ning aybi yo‘q	Ming marta eshitgan dan bir marta ko‘rgan afzal	Beshik-dan Qabrga-chacha ilm izla
----------------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------	-------------------------	-------------------------------------------------	-----------------------------------

## SO‘Z BOSHI

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘zbek xalqi ta’lim-tarbiya sohasida o‘ziga xos maktab yaratgan. Zaminimizda zardushtiylik dini hukm surgan paytda ham ma’lum pedagogik mafkura mavjud bo‘lganini «Avesto»ning bizgacha yetib kelgan ayrim sahifalari mazmunidan bilamiz.

Xalqimizning madaniy-ma’rifiy taraqqiyoti asrlar davomida rivojlanib, takomillashgan va bu jarayonlar xalq pedagogikasida o‘z aksini topa borgan. Bu haqda yurtboshimiz «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida bizning ulug‘ ajdodlarimiz o‘z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash joizligini ta’kidlaganlar. Demak, xalq pedagogikasi xalq ommasining turli davrlar mobaynida turmush faoliyati jarayonida to‘plagan boy tajribalari, axloqiy, ma’rifiy, ma’naviy yetuklik borasidagi qarashlari va xulosalarini ifodalaydi, etnologiya, etnografiya, etnopsixologiya va etnopedagogika, qadrshunoslik, qadimshunoslik (arxeologiya), udumshunoslik va xalq og‘zaki ijodining barcha yo‘nalishlarini qamrab oladi, ulardagi axloqiy-ma’rifiy g‘oyalarni o‘rganadi. Xalq pedagogikasi asrlar davomida minglab avlodlarni tarbiyalash jarayonida yuzaga kelgan ilg‘or axloqiy g‘oyalalar va tajribani o‘zida umumlashtirgani uchun faqat tarixiy-madaniy qadriyat sifatidagina emas, balki zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirishda ham muhim ahamiyatga egadir.

Jamiyatimizda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy o‘zgarishlar o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi darajasini oshirishni taqozo etayotgan bir paytda ta’lim-tarbiya borasida xalqimiz yaratgan pedagogik qarashlar va g‘oyalalar, milliy odob-axloq an‘analari, milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi xalq pedagogikasini ilmiy o‘rganish, puxta tahlil qilish va hayotga tatbiq etish hamda kelgusi avlodga yetkazish bugungi kunning muhim va dolzarb masalasidir.

Mazkur o‘quv qo‘llanma aynan shu masalalarni keng va atroficha yoritishga mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanmada xalq pedagogikasi fanining mazmun-mohiyati, tadqiqot obyekti, manbalari, maqsadi va vazifalari, jamiyatimiz hayotida ushbu fanning tutgan o‘rni va amaliy ahamiyati keng qamrovli yoritilgan. Qo‘llanmada xalq pedagogikasi manbalariga

kiruvchi xalq og‘zaki ijodi janrlarining tarbiyaviy ahamiyati, milliy ursodatlar, an’analalar, udumlar, xalq o‘yinlari va o‘yinchoqlari, bayram va marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o‘rnii, xalq pedagogikasida oila tarbiyasi, yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari, islom dinining odob-axloq, ilm-fan haqidagi ta’limotlari, xalq pedagogikasida xalq amaliy san’ati va hunarmandchiligi, milliy me’morchilik, milliy musiqa, qo’shiqchilik, raqs san’ati va milliy teatrlearning axloqiy tarbiyadagi o‘rni, o‘zbek xalqining muomala madaniyati, axloqiy me’yorlari, xalq pedagogikasida tabiat va inson munosabatlari, sog‘lom turmush tarzi masalalari alohida boblarda o‘z aksini topgan.

Xalq pedagogikasining tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlari va xalq tarbiyaviy an’analardan o‘quv-tarbiyaviy jarayonda foydalanish masalalari ham yoritilgan.

Shuningdek, har bir mavzudan keyin nazorat savollari, matnli topshiriqlar, «Bilasizmi?» va «Bu qiziq!» ruknlarida mavzu bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlar berilgan.

*Muallif.*

<b>Angom hayit qanday nom bilan atalgan?</b>	Sada	Yozning eng uzun kuni yoki suv sayli	Navro‘z	Mehrjon
<b>G.N.Volkov tadqiqot olib borgan soha:</b>	Etnopeda-gogika	Xalq pedagogika	Oila pedagogikasi	Xalq psixologiyasi
<b>An’ana va urs-odatning tarkibiy qismi bo‘lib, inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan hayotiy tadbirlar</b>	Qadriyatlar	Marosimlar	Udumlar	Odatlar
<b>Turli xalqlarning ta’limi-tarbiya tarixi va nazariyasini - o’rganuvchi fan</b>	Xalq pedagogikasi	Etnoje daga-gogika	Oila pedago-gikasi	Ijtimoiy pedagogika
<b>Suvning qadriga yetish, uni e’zozlash va isrof qilmaslik odatlarini tarbiyalovchi bayram</b>	Mehrjon	Sada	Navro‘z	Angom hayit
<b>Qadimga dalaga qo’sh chiqarish kuni qanday bayram sifatida nishonlangan</b>	Oblo baraka	Shox-moylar	Suv sayli	Navro‘z
<b>O‘zbek milliy shirinliklarini tayyorlaydigan ustalar kimlar deb atalgan</b>	Qandolatchi	Qandolatchi shirapaz, hol-vagar	Shirapaz novvoy	Shakarpaz
<b>Yagona qahramon va ixcham syujetga ega bo‘lgan janr</b>	Afsona	Doston	Rivoyat	Latifa
<b>«Yigit boshi omon bo‘lsa, mol-dunyo topiladi», «Boshingiz omon, joningiz sog‘ bo‘lsin» kabi xalq iboralari kimlarga nisbatan ishlatalidi?</b>	Yaxshilknibilmagan kishiga	Birovdan qarz olgan kishiga	Birovga qarz berib ololmagan kishiga	Mansabparast kishiga

Ertaklardagi asosiy o'ziga xoslik nima?	Ixcham syujetga egaligi	Ezgulikning g'ala-basi, yomonlikning mag'lubiyati	Kulgu va xazilga asoslanganligi	Obrazlar kurashi
Xalqimizda bolalarga oilada «uvol, gunoh, savob, halol, harom» so'zlari orqali qanday tarbiya tarkib toptirilgan	Axloqiy tarbiya	Ekologik tarbiya	Vatanparvarlik tarbiyasi	Aqliy tarbiya
O'zbek xalqining o'yin merosi guruhiga kirmaydigan qatorni belgilang	Tabiiy-mavsumiy o'yinlar	Hududiy o'yinlar, qaroqchi kazaklar	Hududiy o'yinlar	Vositali o'yinlar
Qanday an'ana mehnatsevarlik, bonyodkorlik, tashabbuskorlik xislatlarini tarbiyalaydi?	Ustoz-shogirdlik an'anasi	Mehmondo'stlik an'anasi	Hashar	Bir kishining ko'pchilikka ko'magi
Xalq pedagogikasi zaminda qanday pedagogika shakllanadi?	Etnopedagogika	Oila pedagogikasi	Ilmiy pedago-gika	Jadid-chilik
Kuzgi hosildan nochor oilalarga yordam sifatida berish qaysi bayramning asosiy mohiyatini bildiradi?	Hosil bayrami	Xayit	Navro'z	«Mehr-jon»
Serhimmat, qo'li ochiq, saxiylik xislatlarini ulug'lovchi o'yinning nomi nima?	Ko'pkari	Beshtosh	Chav-g'on	Qorxat
Olov kashf etilgan kun qanday bayram?	Sada bayrami	Kuzning eng uzun tuni	Yozning eng uzun kuni	Qishki teng-kunlik
Polo o'yining avvalgi nomi nima?	Shatranj	Futbol	Chav-g'on	Basketbol
Go'zal hislarni tarbiyalashning eng muhim vositasi nima?	Tabiat	Ona	Vatan	Odamlar

## I bob. XALQ PEDAGOGIKASI FANINING NAZARIY ASOSLARI

### I.1. Xalq pedagogikasi fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va manbalari

Insoniyat tarixining har bir bosqichida rivojlanish yo'nalishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning metodologik birligi qonuniyati asosida belgilangan. Ushbu qonuniyat jamiyatda hukm surgan ijtimoiy-iqtisodiy qarashlar, g'oyalalar va ideallar asosida ijtimoiy ong shakllari bo'lgan fan, san'at, madaniyat, ishlab chiqarish va turmush tarzi rivojlanishiga omil bo'lgan. Shu tariqa tarixiy taraqqiyot davomida barkamol shaxsni tarbiyalash va voyaga yetkazish yuzasidan to'plangan boy ma'naviy meroslar xalq pedagogikasida o'z ifodasini topib borgan.

Demak, bo'lg'usi pedagog kadrlarni tayyorlashda aynan shu ma'naviy meros - xalq pedagogikasining ta'lim-tarbiyaga oid asosiy g'oyalari bilan tanishtirish orqali ularda pedagogik faoliyatda samarali foydalanishga zamin tayyorlaydigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallahshlariga asosiy e'tiborni qaratishimiz zarurdir.

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek xalqi va uning madaniy-ma'rifiy taraqqiyoti asrlar davomida rivojlandi, tarbiya g'oyalari turli davrlardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini o'zida mujassamlashтиrdi. Xalqimiz yaratgan ana shu ma'rifiy fikr va g'oyalalar, ta'lim-tarbiyaga oid boy meros minglab avlodlarni umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyaladi. Demak, ajdodlarimiz merosi bo'lgan xalq pedagogikasini xalq donishmandligi va odobnomasining nodir sohasi deyilishi bejiz emas.

Xalq pedagogikasi asrlar davomida avlod-ajdodlarimizning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida muhim o'rinn tutgan. Chunonchi, xalq o'zining ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik qarashlari, falsafiy-axloqiy tushunchalari, hayotiy, ta'lim-tarbiyaviy xulosalarini xalq pedagogikasida aks ettirgan. Xalq pedagogikasining muhim yo'nalishi milliy tarbiyani amalga oshirishdir, muhim xususiyatlardan biri esa millatga xos bo'lgan xususiyatlarning saqlanishini ta'minlash sanaladi.

Shuni qayd etish kerakki, xalq pedagogikasidagi pedagogik qarashlar, allomalarimiz tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil

etish va o'qituvchining insoniy fazilatlari va kasbiy tayyorgarligi xaqidagi bildirilgan fikrlar hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan.

Insoniyat jamiyatining barcha bosqichlarida barkamol shaxsni voyaga yetkazish dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Xalqimiz pedagogik qarashlarining tahlili bu borada juda boy ma'naviy – ma'rifiy meros mavjudligini ko'rsatadi. Demak, bo'lg'usi pedagogik kadrlarni xalqimizning ta'lif-tarbiya nazariyasi va amaliyoti bo'yicha to'plagan boy ma'naviy-ma'rifiy meros va pedagogik qarashlari bilan tanishtirish ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

**Xalq pedagogikasining asosiy tadqiqot ob'ekti** xalqimizning axloqiy, ta'lif-tarbiyaviy qarashlari bo'yicha to'plangan boy ma'naviy-ma'rifiy meros va pedagogik g'oyalari bilan tanishtirish jarayoni sanaladi. Mazkur jarayonda quyidagilar o'rganiladi:

- xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy va milliy qadriyatlar;
- oilada farzand tarbiyasi, tarbiya metodlari, usul va vositalari;
- o'zbek xalqining axloqiy me'yori, muomala madaniyati;
- xalq pedagogikasida tabiat va inson munosabatlari, sog'lom turmush tarzining aks etishi;
- buyuk mutafakkirlarning pedagogik g'oyalari;
- xalq og'zaki ijodi va dostonlarning tarbiyaviy ahamiyati;
- milliy urf-odatlar, marosimlar, an'analar, udumlar, xalq o'yinlari va o'yinchoqlarining tarbiya vositasi sifatidagi o'rni;
- xalq pedagogikasida diniy ta'lifotlar;
- xalq pedagogikasida xalq amaliy san'ati, hunarmandchiligi va h.

**Xalq pedagogikasi fanining asosiy maqsadi** – bo'lg'usi pedagogik kadrlarda pedagogik tafakkurni shakllantirish va kengaytirish, xalqimizning o'qitish jarayonini tashkil etish va tarbiya nazariyasi bo'yicha to'plangan boy ma'naviy-ma'rifiy merosi va pedagogik qarashlari, ta'lifiy-tarbiyaviy imkoniyatlari bilan tanishtirish orqali ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini orttirishdir.

**Fanning vazifalari** - xalq pedagogikasining ta'lif-tarbiyaga oid boy tajribasi, tarbiya usullari, insoniy fazilatlari va qadriyatlar, xalq pedagogikasining sharqona va turkona an'analar, ta'lif-tarbiya jarayonlarining xalq og'zaki ijodida, milliy urf-odatlarda, diniy ta'lifotlarda ifodalananish masalalarini o'rganish hamda kelajak avlodga uning mazmun-mohiyatini tushuntirishdan iborat.

O'zbek xalqining o'tmishdagi tarixiy tajribasi, ma'naviy, madaniy, ijtimoiy hayoti, oilada farzand tarbiyasi bilan bog'liq masalalarini ilmiy

Halollik so'zi yana qanday ma'nolarni o'z ichiga oladi?	Kamtarlik	Ma'naviy mardlik	Mas'uлиyat	To'g'rilik, rostgo'ylik
<b>Diniy bayramlar qaysilar?</b>	Ro'za hayiti, Qurbon hayiti	Xotira va qadrlash kuni	Sada bayrami	Mehrjon bayrami
<b>«Qissa, shonu-shuhrat, hikoya, ta'rif, maqtov» ma'nolarini anglatuvchi janr</b>	Masal	Doston	Latifa	Rivoyat
<b>Xalq pedagogikasi manbalariga kirmaydigan javobni belgilang</b>	Milliy xunarmand-chilik	Xalq og'zaki ijodi, opera va halet	Milliy urf-odatlar	Xalq og'zaki ijodi
<b>Ozbek xalqining birovga yaxshilik sog'in-ganda aytadigan gaplariga zid fikr qaysi qatorda berilgan?</b>	Uyingiz bug'doyga to'lsin	Tuproq olsangiz oltin bo'lsin	Topganningiz to'yga buyursin	Topganningiz buyurmasin
<b>«Mehrjon» bayrami qachon nishonlanadi?</b>	Kech kuzda 29-noyabrdan	Erta bahorda 11dan 12-martga o'tar kechasi	Kuz faslida, 25dan 26-oktyabrga o'tar kechasi	Yozda 12-iyunda
<b>Asotirlarning turlarini ayting</b>	Antropogenik, etnogenik, kosmogenik, esxatologik	Og'zaki, etnologik	Yozma, esxatologik	Kosmogenik, badiiy
<b>Xalq pedagogikasida ulug'lanadigan tarbiya metodlari berilgan qatorni toping</b>	Ibrat, namuna, o'git-nasihat	Jismoniy jazo berish, zarda qilish	Qo'rqi-tish, urushish, koyish, qarg'ash	Yomonlash va vaysash, ta'na qilish
<b>Qadriyat ta'rifiga zid ma'noli qatorni toping</b>	O'tmishdan kelajakka qoladigan meros	Oilada amal qilinadigan qadriyatlar	Omaviyi mandaniyat	Avlod-dan-avlodga o'tadigan qadriyat

<b>deb ko'rsatiladi?</b>			ifligida, limning ozligida	
<b>Al-Jome' as-Sahih asarining mazmuniga nimalar kirmaydi?</b>	Badiiy asarlar	Hadislar	Islom huquq-shunosligi	Axloq, odob, ta'limg' tarbiya
<b>Tangri nazdida eng yaxshi gap qaysi?</b>	Shirin gap	Rost gap	Maqtov gap	Yolg'on gap
<b>Kuy va qo'shiqni «Ruh ozuqasi» deb atagan alloma .</b>	Aflatun	Alisher Navoiy	Sa'diy Sheroziy	Jomiy
<b>Xalq raqs san'ati nimalar orqali ichki kechinmalarni aks ettiradi?</b>	Imo-ishora orqali	So'zlar orqali	Mysiqa orqali	Chirolyi mutano-sib harakatlar orqali
<b>Qaysi qatorda xalq dostonlarida uchray-digan oqila va mehribon singillar obrazi berilgan?</b>	Qaldirk'och, Oppog'oy	Zulhumor, Qaldirk'och	Zamon-gul, Qaldirk'och	Oppog'-oy, Oyqiz
<b>«Qunt bilan o'rgan hunar....»</b>	Hunar seni to'yg'izar	Hunardan rizqing unar	Har kimning kasbi o'ziga	Hunarli kishi och qolmas
<b>Bir ishga jazm qilish, yangi faoliyatni boshlash, polvonlik, kurash tushish kabi lahzalarda qanday xitoblar ishlataladi?</b>	«O'zing madad ber»	«Yo rabbim»	«Yo pirim»	«Yo rabbim» «Yo pirim» «Yo ali»
<b>Adolatsizlik oldida ojiz qolib, yig'lab-zorlanib turgan odamni xalqimiz qanday so'zlar bilan ovutadi?</b>	«Tushungan da kech bo'ladi»	«U buni tushun-maydi»	«Kuyma ng, keng bo'ling», «u Hudoning g'azabiga uchraydi»	Aha-miyat bermang
<b>Bolalar o'yinlarining nomlari qaysi qatorda berilgan?</b>	Chillak, uloq	Loysuvoq, chavg'on	Xam-mompish, loysuvoq, chillak	Besh-tosh, chavg'on

jihatdan to'la bilish uning kelajakdag'i taraqqiyot yo'lini aniq belgilab beradi. Zero, o'z elining murakkab tarixini, etnik xususiyatlari va pedagogik g'oyalarini aniq bilish ma'naviy barkamollikni ta'minlovchi bir omildir.

Yurtboshimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqida ta'kidlaganlaridek: «Mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'limg' tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talabi bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda».

Bu esa bizdan boy ma'rifiy merosimizning bebafo manbalaridan ta'limg' tarbiya jarayonida unumli foydalanishimizni taqozo etadi.

I.A.Karimov o'z asarlarida ajdodlarimiz qoldirgan boy milliy qadriyatlarning ahamiyati haqida ham alohida fikr bildirib: «Xalqimiz tayanchi ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi bir hazina, bu hazinadan oqilona foydalanishimiz lozim»,<sup>1</sup> - deydi.

Ana shu ma'naviy merosning bir ko'rinishi bo'lgan xalq pedagogikasi obidalari faqat pedagogik xaqiqatlar majmuasigina bo'lib qolmay, balki xalqimiz unda o'z ideallari hamda muhim didaktik prinsiplarini ham aks ettirgan. Shu o'rinda turli xalqlar pedagogikasi bilan shug'ullanuvchi etnopedagogika fani haqida to'xtalib o'tsak.

**Etnopedagogika** - etnik guruhlarning ta'limg' tarbiya borasidagi tajribalari, oila, urug', avlod, millatning qadimiy qadriyatlariiga ma'naviy, botiniy va zohiriylar qarashlari haqidagi fandir. U xalq pedagogikasidan zamonaviy sharoitlarda foydalanish yo'llarini ko'rsatadi, etnik guruhlarning bu boradagi tajribalarini yig'adi va tatbiq etadi.

Boshqacha qilib aytganda, etnopedagogikani turli xalqlar tarbiyasining tarixi va nazariyasi sifatida ko'rish mumkin. Barcha xalqlarda benazir aql, xushmuomalalik, mardlik, xaqgo'ylik, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat, xalqiga sodiqlik kabi xislatlar yuqori baholanadi.

Etnopedagog G.N.Volkovning ta'kidlashicha, «Har bir xalqning kuchli va o'ziga xos jihatlarini ta'kidlovchi stereotip tavsiflar hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas»<sup>2</sup>. Nemischa batartiblik, amerikacha ishbilarmonlik, fransuzcha xushmuomalalik, inglizcha rasmiyatchilik, o'zbekcha mehmondo'stlik kabi ijobjiy fazilatlar shular jumlasidandir.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik.- T.: O'zbekiston, 1993.

<sup>2</sup> Volkov G.N. Этнопедагогика. -T.: Фан, 2000.

O'tmishning buyuk pedagoglari xalqning pedagogik qarashlari va pedagogik tajribalarni o'rganishga juda ko'p e'tibor bergenlar. Klassik pedagoglarning ta'kidlashicha, xalq pedagogikasi tarbiya haqidagi fanni boyitadi, uning tayanchi va asosi bo'lib xizmat qiladi. Xalq pedagogikasi o'z navbatida etnopedagogikaning predmetidir. U pedagogik fanlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Badiiy adabiyotning yaratilishi bilan og'zaki ijod bartaraf etilmagani kabi pedagogik fanlar ham xalqning kundalik hayotidan pedagogik qarashlarni siqib chiqara olmadidi. Pedagogik fanlar va xalq pedagogikasi o'zaro munosabatga kirishdi, bir-birining rivojlanishiga yaxshi ta'sir qildi va buning natijasi o'laroq pedagogik madaniyat vujudga keldi.

Xalqlarning pedagogik madaniyati bilan juda qiziqqan rus yozuvchisi V.G.Belinskiy: «Har bir millatning o'ziga xosligi, asosan faqat shu millatga xos dunyoqarash, din, til, urf-odatlar va an'analardir», - deydi. O'tmishda yig'ilgan ma'rifiy boyliklarni buyuk faylasuf Gegel «o'zidan kuch taratuvchi ona yer» bilan taqqoslagan. Uning ta'kidlashicha, «ilm-fan va ta'limning har bir yangiligi uning qadimiylikka murojaatidan kelib chiqadi». Demak, madaniyatning, jumladan pedagogik madaniyatning an'anaviyligi xalqlarning yuqori madaniyatining muhim belgisidir. Buyuk alloma Abu Nasr Forobiy: «Xalqlarning o'z qadimiy madaniyatiga e'tibori va qiziqishning uyg'onishi ularning xaqqiy donoligidan dalolatdir»,<sup>3</sup> - deydi.

Demak, **xalq pedagogikasi** xalq ommasining turmush faoliyati jarayonida to'plangan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan tarbiya borasidagi tajriba va bilimlari yig'indisidir.

Folklorshunos T.Mirzaev ta'rifi bilan aytganda: «Xalqimiz antik davr va o'tgan asrlarning klassik epopeyalari – «Iliada» va «Odisseya», «Maxobxorat» va «Ramayana», «Igor jangnomasi» va «Shohnoma», «Manas» va «Jangar» kabi shoh asarlar bilan bellasha oladigan va ular bilan teng turgan hayratomuz dostonlarga, rang-barang ertaklarga, xalqning hayot tajribalarini o'zida mujassamlashtirgan ajoyib maqol va matallarga, juda ko'p topishmoqlar, latifalarga egaki, bular ma'naviy boyligimiz, zo'r iftixorimizdir»<sup>4</sup>.

O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqi boshqa xalqlar kabi moddiy-ma'naviy boyliklar yaratuvchi ijodkor xalq. Ko'p qirrali tarixiy va boy madaniyatning ajralmas qismi bo'lgan xalq pedagogikasini o'rganish orqali kamolotga erishgan ajdodlarimiz, buyuk

<sup>3</sup> Форобий Абу Наср. Рисолалар. – Т.: Фан, 1975.

<sup>4</sup> Т.Мирзаев. Ходи Зариф. -Т.: F.Фулом, 1967.

Qaysi Sharq mutafakkirlari o'z asarida 12 xislatni birlashtirgan odamni axloqli odam deb hisoblaydi?	Forobiy	Sa'diy	Zarnujiy	Imom Buxoriy
<b>Kimning qaysi asari Sharq allomalarining pedagogik g'oyalari uchun ilmiy zamin vazifasini bajargan?</b>	Imom Buxoriyning «Al Jome' as-sahih»i	Sa'diyning «Guliston»i	Zarnujiyning «O'qituvchiga ta'limgo'lida qo'llanma»si	Forobiyning «Aql to'g'risida risola»si
<b>Kayqovus bolani kim orqali jazolashni tavsija etadi?</b>	O'qituvchi orqali	Ota-onা orqali	Jamaa orqali	Do'stlari orqali
<b>Ulug'bek qaysi tarbiyaga alohida e'tibor qaratadi?</b>	Aqliy tarbiyaga	Axloqiy tarbiyaga	Mehnat tarbiyasiga	Ekologok tarbiyaga
<b>Ulug'bek ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyati kimiga bog'liq deydi?</b>	Ota-onaga	O'qituvchiga	Jamiyatga	Bolaning o'ziga
<b>Navoiy o'zining qaysi asarida o'qituvchilarga alohida bob ajratgan?</b>	«Mahbub ul-qulub»da	«Hayratul abbor»da	«Xamsa»da	«Tarixi muluki Ajam»da
<b>Davoniy muallimlarni kim deb ataydi?</b>	Ma'naviy ota	Ustoz	Rah-noma	Donish-mand
<b>Kimning qaysi asari maktab, madrasalarda o'quv qo'llanmasi bo'lib xizmat qilgan?</b>	Davoniyning «Axloqi Jaloliy» asari	Forobiyning «Aql to'g'risida»gi risolasi	Zarnujiyning «O'qituvchiga ta'limgo'lida qo'llanma»si	Qayqvusning «Qobus-noma» asari
<b>Fitrat o'qituvchining qaysi hislatini birinchi o'ringa qo'yadi?</b>	Dunyoqarashini	Bilimini	Aqlini	Axloqini
<b>Qur'onda nafsga berilishning sababi nimada</b>	Loqaydlikda	Muhtojlikda	Iroda-ning za-	Xastalikda

ma'noni anglatuvchi so'z:				
Ko'pkari o'yinining ikkinchi nomi nima?	Chavgon	Uloq	Chillak	Beshtosh
Ramazon qo'shig'ini aytish maqsadiga kirmaydigan qatorni toping	Odamlarga ezgi niyat bildirish	Shunchaki qo'shiq aytish	To'kin-sochinlik, oso-yishtalik tilash	Kam ta'-minlan-ganlarga yordam berish
Hasharning zamonaviy ko'rinishi bu...	Saxovat	Moddiy yordam berish	Bepul o'qitish	Homiylilik qilish
O'tmishda yig'ilgan ma'rifiy boylilarni buyuk filosof Gegel nima bilan taqqoslagan?	Tog'larning ulug'vorligi bilan	Dengiz mavjlarib ilan	O'zidan kuch taratuvchi ona yer bilan	Quyosh nurlari bilan
Milliy marosimlar ko'rsatilmagan qatorni toping	Beshik to'y, tushov kesish	Qiz uzatish, cho'qintirish	Sunnat to'yi, qiz uzatish	Aqiqa to'yi, uylantirish
«Amir al-mo'miniyn» degan nomga ega bo'lgan muxaddis	Imom at-Termizi	Imom al-Buxoriy	Imom Muslim ibn al-Xajjoj	Imom Abu Dovud Sijisdoniy
O'zbek xalqining boy o'yin merosini o'rgangan olim	Maxmud Sattorov	Malik Murodov	Saodat Yo'ldosh eva	Muhammadjon Quronov
Xalqimiz Luqmoni xakimni kim sifatida e'tirof etishgan?	Xakim, avlyyo, donnishmand, tabib	Tilshunos olim	Muhad-dis olim	Falaki-yotshunos olim
Qaysi gulni xalqimiz bahor elchisi deb hisoblaydi?	Binafsha	Lola	Boyche-chak	Marvarid gul
«Inisi borning – irisi bor» maqolida iris so'zining ma'nosini	Omad	Nasiba	Boylit	Mansab
«Alpomish» dostonining 1000 yilligi qachon va qayerda nishonlanadi?	1999 yil Termizda	2000 yil Shaxri-sabzda	2001 yil Toshkentda	2000 yil Farg'onada

allomalarimizning ilm-fan, san'at va adabiyot sohasidagi durdonalari uzoq asrlar davomida jahon madaniyati xazinasidan o'ziga munosib o'rinn egallagan.

«Xalqimizning ma'naviy madaniyatidan biri bo'lgan xalq pedagogikasining eng ilg'or va eng noyob fikr va mulohazalari, tarbiya borasida qo'llanib kelingan usul, vosita, ko'nikma va malakalar bizning zamonomizda ham o'z qimmati va ahamiyatini yo'qtograman»<sup>5</sup>.

Xalq pedagogikasi tom ma'nosini bilan umuminsoniy, xalqchil pedagogikadir. Uni xalqlar tarixi, xalq falsafasi, psixologiyasi, etnografiysi, va xalq tibbiyotidan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuningdek, xalq pedagogikasi o'zining udumshunoslik, elshunoslik, qadrshunoslik, ruhshunoslik, mumtoz adabiyot, san'at, og'zaki ijod kabi fan sohalaridagi eng yaxshi namunalarni, hayotning, tafakkurning, odobahloq, ta'lim-tarbiyaning hamma jabhasini qamrab oladi. Xalq pedagogikasining bunchalik ta'sir kuchi, ahamiyati va yashovchanligining boisi, «birinchidan uning hayotiyligi, ta'sirchanligi, serqirra, serma'noligida bo'lsa, ikkinchidan, uning bevosita xalq tomonidan mavjud hayot jarayonida jonli an'analarda yaratilishi, hayot, inson muammolarini qamrab olishi, tarbiyaning eng dolzarb masalalari yechimini hal qilishga qaratilgani, uchinchidan, umuminsoniy yo'nalishga, umumbashariy g'oya maqsadlarga qaratilganidadir»<sup>6</sup>.

Vatanimizga mukammal, axloqan pok, har tomonlama yetuk, o'z xalqi va vataniga fidoiy, jismoniy barkamol yoshlarni tarbiyalashda xalq pedagogikasining barcha imkoniyatlaridan foydaalanish masala'lari mazkur fanni o'rganish maqsadini belgilab beradi. Chunonchi milliy va ma'naviy qadriyatlar mohiyatini kelgusi avlodga tushuntirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumki, qadriyatlarni yaratuvchi ham, avloddan-avlodga yetkazuvchi ham xalqning o'zi. Shu bois ham xalq pedagogikasida qadriyatlar pedagogik jihatdan keng o'rganiladi, bunda ular quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: oilaviy qadriyatlar, mehnat qadriyatları, maishiy turmushni ifodalovchi qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy mazmundagi qadriyatlar, madaniy-ma'rifiy qadriyatlar, badiiyestetik qadriyatlar, sog'lom turmush tarziga oid qadriyatlar, ma'naviyruhiy qadriyatlar.

Oilaviy qadriyatlar oila va oila a'zolari tomonidan qadrlanadigan o'zaro munosabatlar, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi mehr-oqibat kabilarni qamrab oladi.

<sup>5</sup> З.Миртурсунов. Ўзбек халқ педагогикаси, -Т.: Фан, 1973.

<sup>6</sup> Ҳошимов К., Очил С. Ўзбек педагогикаси антологияси. -Т.: Ўқитувчи, 1995, 14-бет.

Sog'lom turmush tarziga oid qadriyatlarga esa xalqimizning o'z farzandlarini sog'-salomat, mard va vatanparvar bo'lib yetishishida qo'llaniladigan tarbiya usullari kiradi. Badiiy-estetik qadriyatlarga xalq amaliy san'ati, hunarmandchiligi, musiqa, raqs, qo'shiqchilik, tasviriy san'at, milliy bayramlar, urf-odatlar, an'analar, to'y-tomoshalar, motam marosimlari, kiyinish madaniyati va boshqalarni kiritish mumkin.

Ma'naviy-ruhiy qadriyatlar mehnatsevarlik, insonparvarlik, mehrmuruvvat, saxovat kabi xislatlardan iborat bo'lsa, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlaradolat, tinchliksevarlik, erkinlik, do'stlik, tenglik kabi tushunchalarmi o'z ichiga oladi. Mehnat qadriyatlariga hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik kabi sohalar kiradi, inson maishiy turmushiga oid qadriyatlar esa milliy taomlar, xalq tabobati, sharqona mehmondo'stlik kabilarni qamrab oladi.

Madaniy-ma'rifiy qadriyatlarga turli yodgorliklar, maqbaraalar, tariixiyanasambllar, masjidlar, madrasalar kiradi. Ilmiy-ma'naviy qadriyatlarga esa insoniyat rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy manbalar, mantiq, falsafa, riyoziyot, handasa(geometriya), jabrumuqobil(algebra), jug'rofiya, ilmi nujum(astronomiya), adabiyot, ulum alislom(islom ilmi) kiradi.

Demak, yuqorida ta'kidlaganimizdek, xalq pedagogikasi xalqimizning qahramonona o'tmishi, milliy qadriyatlari, tarixi, urf-odatlari, ta'lim-tarbiyadagi ilg'or g'oya va tajribalarini o'zida aks ettiradi. Ana shu beba ho merosni o'rganish va undan o'quv tarbiya jarayonida foydalanish uchun avvalo xalq ommasi to'plagan pedagogik ma'lumotlar, bilimlar, ko'nikma va malakalar qanday manbalardan olinishini bilishimiz kerak. Zotan, xalq pedagogikasi manbalarida qator o'ziga xoslik va takrorlanmaslik mavjuddir (Chizmaga qarang).

Etnopedagogika fanining asoschilaridan biri G.N.Volkovning quyidagi ta'rifi **xalq pedagogikasi manbalari** haqida yorqin tasavvur uyg'onishiga yordam beradi: «Xalq pedagogikasi – xalq og'zaki ijodida, urf-odatlarida, marosimlarda, bolalar o'yinlari va o'yinchoqlarida va hokazolarda saqlanib qolgan pedagogik ma'lumotlar va tarbiya tajribasining majmuasidir».<sup>7</sup>

O'zbek xalq pedagogikasi o'z tarbiya borasidagi tajribalarini quyidagi manbalarda aks ettiradi:

1. O'zbek xalq og'zaki ijodi (folklori).
2. Milliy urf-odatlar, an'analar va marosimlar.
3. Xalq o'yinlari va o'yinchoqlari.


<sup>7</sup> Волков Г.Н. Этнopedagogika.- Т.: Фан, 2000.

«Qorxat» o'yini xalqimizning qanday fazi-latlarini ulug'lagan?	Serhimmat, qo'li ochiq, saxiylik	Vatan-parvarlik, tantilik	Inson-parvarlik, saxiylik	Mehnat-sevarlik
Xalqimizda insonning yetti avlodni nomlanishi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping:	Farzand, nevara, evara, chevara, kavara, ovora, begona	Farzand, nevara, chevara, evara, kavara, ovora, begona	Farzand, nevara, evara, kavara, chevara, ovora, begona	Farzand, nevara, evara, kavara, chevara, ovora, begona
«Har bir millatning o'ziga xosligi asosan faqat shu millatga xos dunyoqarash, din, til, urf-odatlar va an'analaridir» fikrining muallifi kim?	V.G.Bellinskiy	Aristotel	Beruniy	Forobiy
O'tmishda o'zbeklarda uning qaerlik ekanligi nimasiga qarab aniqlangan?	Bosh kiyimiga	Ust kiyimiga	Oyoq kiyimiga	Ko'chalik kiyimiga
Kuy va qo'shiqlarni hisqilish uchun kishida nima shakllangan bo'lishi kerak?	Farosat	Odob	Badiiy did	Aql
Go'zal hislarni tarbiyalashning eng muhim vositasi nima?	Tabiat	Ona	Vatan	Odamlar
Xalq go'zal qizlar siyosini yaratishda ulardag'i qaysi xislatlarni bo'rttirib ko'rsatgan?	Hayosini, vafosini	Husnini	Odobini	Nozikligini
Yozning eng uzun kuni qanday nom bilan atalgan?	Angom hayit	Sada	Navro'z	Mehrjon
G.N.Volkov tadqiqot olib borgan soha:	Etnopedagogika	Xalq pedagogikasi	Oila pedagogikasi	Xalq psixologiyasi
Inglizchada «xalq donishmandligi» degan	Folklor	Roman	Pesa	Ballada

«Axloqi buzuq kishi-larni muallimlikka emas, maktabda qorovullikka ham yaqinlashtirmaslik kerak» degan fikr muallifi kim?	Fitrat	Avloniy	Behbu-diy	Cho'lpion
Xalqimiz nazdida kamtarlik nimaning belgisi?	Nasabning	Boylikning	Donolikning	Mansabning
Xalq pedagogikasida kasbga tayyorganlik usullari:	Ustoz-shogirdlik an'anasi, ota-onadan meros kasb-hunar	Daromadli kasb-hunar	Ota-onadan meros kasb-hunar	Shogirdlikka tushish
Xalqimizning go'zal mehnat an'anası	Urug' qadash	Marosimlar	Mehmon kutish	Hashar
Kichiklarning kattalarga salom berishi, mehnarlarni alohida hurmat bilan kuzatish bu:	An'ana	Urf-odat	Marosim	Tantana
Sada bayrami qanday bayram?	Olov kashf etilgan kun	Yozning eng uzun tuni	Kuzning eng uzun tuni	Qishki tengkunlik
«Oblo baraka» marosimi qachon o'tkazilgan?	Hosil yig'im-terimida	Navro'z arafasida	«Mehrjon» bayramida	Bug'doy o'rimi oxirida
Chavgon o'yinining hozirgi nomi nima?	Polo	Futbol	Shatranj	Basketbol
Ollohdan so'raladigan istak-niyatlarning yana bir nomi nima?	Alqashduolar	Olgishlar	Tilaklar	Umidlar
«Musiqa insonlarni tarbiyalashda harqanday o'zga vositalardan afzaldir. Chunki ohang va uyg'unlik inson ruhi va ruhiyati tomon yo'l oladi.» Ushbu fikr muallifi kim?	Aflatun	Abu Ali ibn Sino	Suqrot	Sa'diy Sheroziy

4. Diniy ta'limotlar.
5. Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi.
6. Milliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati.
7. Tasviriy san'at.
8. Tarixiy yodgorliklar va milliy me'morchilik.
9. Xalq raqs san'ati (xoreografiyasi).
10. O'rta Osiyo va o'zbek xalqi mutafakkirlarining asarlari.

### Xalq pedagogikasi manbalari



#### 1. O'zbek xalq og'zaki ijodi

Xalqimiz o'z tarixiy ijtimoiy taraqqiyoti mobaynida boy og'zaki ijod merosini yaratgan. Xalq og'zaki ijodi qadim zamonlardan buyon xalq pedagogikasining tarbiya vositalaridan biri bo'lib kelgan.

O'zbek xalq og'zaki ijodining barcha janrlari, jumladan, afsonalar, asotirlar, rivoyatlar, ertaklar, naqlar, latifalar, loflar, xilma-xil qo'shiqlar, allalar, termalar, maqollar, matallar, topishmoqlar, dostonlar, askiyalar, aytishuvlar, tez aytishlarning tarbiyaviy imkoniyatlari cheksizdir. Barkamol shaxsni shakllantirishning hamma tarkibiy qismlari, ya'ni aqliy, axloqiy, jismoniy mehnat, nafosat tarbiyasiga oid

ajoyib ma'lumotlar o'zbek xalq og'zaki ijodining barcha janlarida o'z ifodasini topgan.

## **2. Milliy urf-odatlar, an'analar va marosimlar.**

Milliy urf-odatlar, an'analar, marosimlar zamirida katta tarbiyaviy imkoniyatlar mavjud, zero ularning barchasi ajodolarimizdan qolgan madaniy meros sanaladi. Milliy to'ylar, ommaviy bayram – sayllar, sharqona va turkona an'analar, hayit bayramlarida xalqimizning o'ziga xosligi yorqin aks etadi.

## **3. Xalq o'yinlari va o'yinchoqlari.**

O'zbek xalq o'yinlari o'zlarining serharakatligi, chidamlilikka o'rgatuvchanligi, chiniqtiruvchi harakatlardan iboratligi bilan ajralib turadi. Xalq o'yinchoqlarida xalqning turmushi, uning qadriyatları va orzu istaklari ustalik bilan tasvirlangan.

## **4. Diniy ta'limotlar.**

Islom dinining muqaddas manbalari bo'lgan «Qur'oni Karim», hadis va boshqa diniy ta'limotlarda odob-axloqqa, insoniylikka oid qimmatli pedagogik g'oyalar ilgari surilgan.

## **5. Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi.**

Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligining sohalari xalq moddiy hayotining ko'zgusi va ijtimoiy hayotining aksi bo'lib, o'quvchilarda nafosat his-tuyg'ularini shakllantiradi.

## **6. Milliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati.**

Musiqa ma'lum darajada hayotni va davrni aks ettiradi. Jumladan, o'zbek musiqa va qo'shiqchilik san'ati xalqimizning turmushini, uning orzu-istiklarini o'zida mujassamlashtirgan.

## **7. Tasviriy san'at.**

Xalqning hayoti, u turmush kechirayotgan tabiiy sharoit, insoniy obrazlar ma'lum darajada pedagogik bilimlar va ma'lumotlarni ifodalab bergen.

## **8. Tarixiy vodgorliklar va milliy me'morchilik.**

Har bir tarixiy yodgorlik zamirida xalqning ma'lum davrdagi tarixiy taraqqiyoti va ijtimoiy hayoti yotadi. Har bir tarixiy obidalar yoshlarda vatanparvarlik hissini, bunday betakror obidalarni yaratgan ajodolar bilan faxrlanish tuyg'usini uyg'otadi.

## **9. Xalq raqs san'ati.**

O'ziga xos ma'nioni anglatuvchi chiroyli, mutanosib harakatlar nafosat tarbiyasining muhim vositalaridan biri bo'lib kelgan.

Maqolni davom ettiring.				
<b>Oilaning ijtimoiy vazifasi nima?</b>	Bolani tarbiyalash	Bolani dunyoga keltirish	Bolaga ilm berish	Uni uy-lantirish, uzatish
<b>Ota-onaning bolaga beradigan eng yaxshi sepi nima?</b>	Mehri	Boyligi	Yaxshi xulq-odobi	Nasihat
<b>O'zbek odatiga ko'ra qaysi uyg'a erkak mehmon kirmaydi?</b>	Erkagi yo'q uyg'a	Yangi kelin tush-gan uyg'a	Azali uyg'a	To'y-xonaga
<b>Farzandlarda kimning haqqi ko'p?</b>	Onaning	Otaning	Qarin-dosh-larning	Mahal-laning
<b>Xalq pedagogikasida odobning birinehi belgisi nima?</b>	Salom berish	Tanbeh berish	Hurmat qilish	Ultimos qilish
<b>Milliy tarbiyada bosh maqsad nima?</b>	Barkamol shaxsni tarbiyalash	Sog'lom avlodni tarbiyalash	Axloqli yoshlarni tarbiyalas	Bilimli yoshlarni tarbiyalash
<b>19-asrda yozilgan «Oila» asari kimning qalamiga mansub?</b>	Rizouddin ibn Faxriddin	Behbudiy	Fitrat	Avloniy
<b>Axloqsizlikka beriladigan eng oliy jazo nima?</b>	El nazaridan qolish	Kaltaklash	Koyish	Nasihat qilish
<b>Odob nimaning belgisi?</b>	Aqlning	Tarbiya-ning	Sog'liq-ning	Boylik-ning
<b>Xalq bisotidagi eng yaxshi tabarruk so'zlar:</b>	Duo-olqishlar	Maqtov	Iltimos	Istak
<b>Tangri nazdida eng yaxshi uy qaysi?</b>	Yetimlar izzat qilinadigan uy	Mehmon kelgan uy	Ahil oila	Ota-ona bor uy
<b>Hadisda aytilishicha eng boy kishi kim?</b>	Qanoat qilgan kishi	Mol-mulk-ka ega bo'lgan kishi	Mansabdor kishi	Ota-onasi bor kishi
<b>Yoshlarni el oldida ulug'ko'rsatadigyn narsa?</b>	Odobi	Boyligi	Marta-basi	Nasabi

			talim yo‘lida qo‘llanma» asarida	asarida
<b>Avloniy «Taraqqiyot ... dandir»deydi?</b>	Ilmdan	Ota-onadan	Boylid-dan	Mari-fatdan
<b>Avloniy fikrning quvvati, ziynati, kengligi kimga bog‘lik, deydi?</b>	O‘qituvchiga	Ota-onaga	Muhitga	Jami-yatga
<b>Ilm ahli uchun savob narsa nima?</b>	Saxovatli bo‘lish	Ehson qilish	Ibodat qilish	O‘z ilmini bosh-qalarga o‘rgatish
<b>Xalqimiz shogirdsiz ustozni kimga o‘xshatadi?</b>	Suvsiz daryoga	Mevasiz daraxtga	Zolim pod-shoga	Xasis boyga
<b>Inson ikki narsadan tashkil topgan. Birinchisi moddiy narsa. Ikkinchisi:</b>	Hissiyot	Ruhiy holat	Ong	Aql
<b>Islomda qaysi fazilat insonning ruhiy tayanchi deb hisoblanadi:</b>	Sabr	Qanoat	Ilmlib o‘lish	Aqli bo‘lish
<b>«Al-Jome as-sahih» kimning asari:</b>	Ahmad Yassaviy	Imom al-Buxoriy	Ahmad Yugnakiy	Yusuf Xos Hojib
<b>Yassaviy hikmatlarida qaysi xususiyat asosiy o‘rin egallaydi:</b>	Nasihat	Maqtov	Tanqid	Ilm
<b>«Salomatlik ota-onadan, fikrlash muallimdan». Bu kimning fikri?</b>	Avloniy	Fitrat	Behbudiyy	Shakuriy
<b>Ota-onaning burchiga nima kirmaydi?</b>	Mansabga mindirish	Chiroqli ism qo‘yish	Savodli qilish	Hunar o‘rgatish
<b>«Ota bilimli bo‘lsa, farzandlar bilimli bo‘ladi. Ona bilimli bo‘lsa, ... bilimli bo‘ladi».</b>	Mahalla	Vatan	Oila	Millat

## 10. O‘rta Osivo va o‘zbek xalqi mutafakkirlarining asarlari.

Buyuk allomalarning asarlarida ilg‘or pedagogik fikrlar, qarashlar va g‘oyalar ifodalangan bo‘lib, ularni o‘zbek xalqi tarbiya madaniyatining tarkibiga kiritish juda o‘rinlidir.

**Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari** deganda xalq tarbiya tajribasidan joy olgan eng ilg‘or pedagogik bilimlar, malaka va ko‘nikmalar, zamonaviy o‘quv dargohi va oila tarbiyaviy tizimida yoshlarni tarbiyalash maqsad va vazifalarini hal etish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish tushuniladi. Masalan, xalq maqollarining tarbiyaviy imkoniyatlari tarbiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqadi. Tarbiyaning asosiy maqsadi esa har tomonlama yetuk inson, yuksak ma’naviyatlari shaxsni shakllantirishdir. Chunonchi, xalq pedagogikasi qadriyatlarini ma’naviy yetuk, malakali mutaxassislarni tayyorlash, barkamol shaxs tarbiyasi hamda ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish imkoniyatlarini yaratib beruvchi manbadir.

**Xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari** deganda xalqning yoshlarga bilim va amaliy ko‘nikmalar berish, ularni ijodiy ishslash uslublari bilan qurollantirish, dunyoqarashlarini o‘stirish, axloqiy nafosat g‘oyalarini egallashlarida qo‘llab kelgan empirik pedagogik tajribasini zamonaviy milliy ta’lim jarayonida qo‘llash uchun qulayligi tushuniladi. Masalan, milliy amaliy san’atga o‘rgatish uslubiyotini xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari doirasiga kiritish mumkin. Xususan, ganch va yog‘och o‘ymakorligi, zardo‘zlik, musiqa asboblarini yasash, kulolchilik va boshqa amaliy san’at turlarini egallashning xalq ustalari va chevarlari tomonidan tajribada yaratilgan o‘z usullari, uslub va vositalari mavjud.

Nazariy bilimlarni o‘zlashtirishda kundalik hayotdagi tanish hayotiy voqealarni misol tariqasida qo‘llash o‘quvchilarning faolligini oshiradi, bilimlarini mustahkamlaydi va dunyoqarashini kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, milliy ta’lim-tarbiya xalq pedagogikasi an’analari asosida o‘qitish va tarbiyalashdan boshlanadi. Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan ta’lim-tarbiya tizimining barcha tarkibiy qismlarida foydalinish mumkin. Milliy tarbiya an’analaring didaktik imkoniyatlari asosan o‘qitish jarayonida qo‘llaniladi.

Ko‘pgina fan o‘quv dasturlari va darsliklarida xalq donishmandligidan olingan va boy tarbiyaviy ahamiyatdagi mavzular hamda o‘quv materiallari berilgan. Buni matabning boshlang‘ich sinfigan tortib to olyi ta’limning bakalavriat va magistratura yo‘nalishlaridagi fanlarni

o'rganishda ko'rish mumkin. Maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlaridagi «O'zbek tili», «Vatan adabiyoti» kabi darsliklarida atroficha yoritilgan xalq og'zaki ijodiyoti, o'zbek adabiyoti klassiklari asarlari xalq pedagogikasi manbalari sifatida chuqur tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. Xalq og'zaki ijodi namunalari va o'zbek mutafakkirlari asarlari bilan yoshlarni tanishtirishda o'qituvchi yorqin badiiy obrazlarga asosiy e'tiborini qaratishi zarur. O'quvchilar esa bu obrazlarni qabul qilishlari, tushunishlari va his etishlari kerak. Zero, badiiy obraz orqali o'quvchilarda turli hissiyotlarni vujudga keltirish mumkin. Masalan, «Farhod va Shirin» dostonini o'rganishda Farhodning jasoratli mehnatiga tan berish, Shirinning vafodorligi va go'zalligiga lol qolish, Xisravning yovuzligi va makkorligiga g'azablanish kechinmalari uyg'otiladi. O'zbek tili darsliklarida o'zbek adabiy tili me'yorlarini o'rganishda, grammatik qoidalarni egallahsha chuqur tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan folklor asarlari, ya'ni dostonlar, rivoyatlar, qo'shiqlar, ertaklar, maqollar, naqllar, hikmatli so'zlar va hokazolardan tuzilgan misollardan iborat mashqlar qo'llaniladi.

Maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o'tiladigan tarix darslarida turli tarixiy davrlarda xalqimizning milliy urf-odatlari va an'analari, me'morchiligi va amaliy san'ati, hamda fan va madaniyatning boshqa sohalari qanday rivojlanganligi haqidagi qator bilimlar o'zlashtiriladi. Bunday bilimlar o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirib-gina qolmay, ularda axloqiy nafosat xususiyatlarini shakllantirishga, vatanparvarlikni tarbiyalashga ko'maklashadi, ya'ni xalq tarixi – milliy ongning bir bo'lagi sifatida o'quvchilarning har tomonlama yetuk inson bo'lib shakllanishlarida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Biz o'zbek tili, adabiyoti, tarix darslari misolida gumanitar fanlar mazmunida xalq pedagogikasini qo'llashning imkoniyatlari haqida so'z yuritdik. Lekin aniq fanlarni o'qitishda ham o'quv materiali mazmuning tarbiyaviy xususiyatlarini aniqlash va ulardan yoshlar tarbiyasida foydalanishga ko'proq ahamiyat berish talab etiladi, zero barkamol shaxsni shakllantirish uchun tarbiyaga kompleks yondashish zarur.

Avvalo, aniq fanlarda darsning didaktik maqsadlarga erishishining o'zi o'quvchilar tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aniq fanlarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishning asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdir. Masalan, fizika, biologiya, geografiya va boshqa aniq fanlar bo'yicha darslar davomida aniq tabiiy qonuniyatlar, hodisalar, jarayonlarni tushuntirish orqali ulardagi eng umumiy belgilar, sifatlar va xossalari

«Qori»deb kimlarga aytilgan?	Mullaga	Ustozga	Qur'oni yod bilgan kishiga	Hammasiga
«Ming marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal» maqoli o'qitishning qaysi prinsipiga taalluqli?	Ma'lumdan noma'lum-ga qarab borish	Takrorlash	Yodlash	Nazariyani amaliyot bilan bog'lash
Tarbiya usullarini qo'l-lashda ota-onas, murabbiy, mahalla qanday qoidaga suyanadi?	Axloq qoidasiga	O'qitish qoidasiga	Diniy qoidaga	Mahalla qoidasiga
Xalq an'analari bolaga nimani o'rgatadi?	O'zini tutishni	Diniy ta'limotni	Burchni	Huquqini
Tarbiyada hamma narsani chippakka chiqaradigan narsa nima?	Loqaydlik	Shaxsiy ibratning yo'qligi	Urishish	O'ta maqtashi
Shariatda jami nechta xonodon qo'shni deb hisoblangan?	160	40	60	100
Xusnixat sohiblari qanday atalgan?	Mudarris	Xattot	Muftiy	Voiz
Diniy talimot insonlarni nimaga davat etadi?	Ilm-marifatga	Mavqega	Hoki-miyatga	Man-sabga
Dunyoqarashning kengligi nimaga bog'liq?	Zehnga	Muhitga	Tarbi-yaga	Bilimga
Hadisda bilimning ofati ikitadir: biri – bilimga rag'bat yo'q kishilarga bilim o'rgatish, ikkinchisi esa:	Unutish	Takrorlash	Amal qilmaslik	Xudbinlik
Ilm egallah odobining 54 qoidasi haqida kimning qaysi asarida bahs yetiladi?	Imom Buxoriyning «Al Jome as-sahih» asarida	Sadiyning «Guliston» asarida	Burxoniddin Zarnujiyning «O'qituvchiga	Forobiying «Aql to'g'risida risola»

<b>o'tqazilgan?</b>				
<b>Xalq pedagogikasi qachon paydo bo'lgan?</b>	XX asrda	Xalq paydo bo'lgan kundan boshlab	Mustaqillikka erishganimizdan so'ng	Sho'rolik davrida
<b>Xalq pedagogikasida bolaning birinchi tarbiyachisi kim?</b>	Hayot, oila	Ona	Maktab, ustoz	Adabiyot
<b>Quyidagi qaysi janrlar xalq og'zaki ijodiga kirmaydi?</b>	Qur'oni karim, hadisi sharif	Ertaklar, dostonlar	Topishmoqlar, maqollar	O'lanlar, termalar
<b>O'zbek xalq pedagogikasining yaratuvchisi kim?</b>	Xalq	Ustozlar	Baxshilar	Oila
<b>Xalq pedagogikasi an'analarining markaziy o'rnda nima turadi?</b>	Bilimi	Inson odobi	Boyligi	Husni
<b>Xalq dostonlaridagi asosiy g'oya nima?</b>	Or-nomus uchun kurash	Vatanga muhabbat	Xalqiga sadoqat	Yorga muhabbat
<b>Vatan mustaqilligi uchun kurash nimadan boshlanadi?</b>	O'zligini anglash	Vatanni sevishdan	Do'st-larga sadoqat	Xalqiga xizmat
<b>Xalq pedagogikasiga munosabat qachon o'zgardi?</b>	Mustaqillik davrida	XX asr boshlarida	XX asr oxirida	Sho'rolik davrida
<b>Ilmiy pedagogika qanday zaminda shakllanadi?</b>	Milliy pedagogika zaminida	Xalq pedagogikasi zaminida	Etnope-dagogika zaminida	Jadid-chilik zaminida
<b>O'tmishda maktabdagi asosiy o'quv predmeti?</b>	Islom qoidalari to'plami	Tabiiy fanlar	Kasb-hunar mehnati	Lo'hi tili
<b>«So'raganning aybi yo'q» maqoli xalq pedagogikasidagi qaysi asosiy o'qitish principiga asoslanadi?</b>	So'rash, yodlash	Yodlash	Ifodali o'qish	O'rganish, so'rash
<b>«Bilim —qaytarish va takrorlash mevasi» gapining muallifi kim?</b>	Avloniy	Fitrat	Behbudiy	Beruniy

yoritib beriladi. Jumladan, fizika darslarida materiya haqida tushuncha berishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan biri – topishmoqlardan keng foydalanish mumkin. O'quvchilarga fizik hodisalar yoki osmon jismlari haqida topishmoq tarzida aytib berish havola etiladi. Masalan:

Ko'k ko'yakka qo'l yetmas. (Osmon)

Uzoq tog'da o't yonar. (Quyosh)

Shu o'rinda U.Gadoyboev, K.Yo'ldoshevlarining «Fizika darslarida xalq maqol va masallaridan foydalanish» xususidagi maqolasiga murojaat etish mumkin.<sup>8</sup>

Astronomiyani o'rganishda buyuk alloma Mirzo Ulugbekning hayoti va asarlari, biologiya darslarida Abu Ali Ibn Sino asarlari, matematikada Al-Xorazmiy, Umar Hayyomning hayoti va asarlarini, falsafiy she'rlar bilan qo'shib o'rganish ham katta samara beradi.

Aniq fanlar, xususan iqtisodiyotga oid fanlarni o'qitishda avloddan -avlodga o'tib kelayotgan xarid qilish, mahsulotni xaridorgir qilib tayyorlash, raqobatga bardosh berish, savdo usullari, tejamkorlik haqidagi ma'lumotlarni o'zbek xalq maqollari, diniy ta'limotlar, hadislardan namunalar keltirib berilsa, yoshlarning g'oyaviy-siyosiy va iqtisodiy tarbiyasi samarali bo'ladi.

Shu o'rinda barcha fanlarni o'qitishda mehnat tarbiyasining ham o'rni katta ekanligini ta'kidlash joiz. Yoshlarda ijtimoiy foydali mehnatga hurmatni tarbiyalash, ya'ni uni mehnat qilishga ruhan tayyorlash o'zgalar mehnatini e'zozlash, ularda mehnatsevarlik, chidamlilik, tirishqoqlikni shakllantirish – mehnat tarbiyasining asosiy vazifalaridan biridir. Bunda buyuk allomalar asarlariga murojaat etish ham o'rindadir. Jumladan, Forobiyning «Buyuk ishlarning naqlaridan» asarida shunday yozilgan: «Qiyinchilik va tajribasizlik barcha xulqiy va fikriy fazilatlar oldida ko'ndalang turadi, umuman, har qanday hunarni o'rganishda o'ziga yarasha qiyinchilik bor».<sup>9</sup>

Shu o'rinda yoshlarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, mehnatsevarlik haqidagi xalq og'zaki ijodi namunalaridan ko'plab misollar keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilishda ham xalq pedagogikasi manbalaridan unumli foydalanish mumkin. Bunda o'quv fanlari bo'yicha turli to'garaklar, tematik kechalar, muloqotlar, savolvavob kechalar, tanlovlар, olimpiadalar, sayohatlar, «Quvnoqlar va zukkolar» bellashuvlarini tashkil qilish lozim. Xalq pedagogikasi

<sup>8</sup> Shu nomli maqola. Sovet maktabi. 1991 yil, 10-son. 19-bet.

<sup>9</sup> Форобий. Рисолалар. –Т.: Фан, 1975.

asosida tashkil qilinadigan yuqoridagi kabi tadbirlarning yagona talabi: mashg'ulotlar ma'lum maqsadga yo'naltirilgan va mazmuni hayot bilan bog'liq bo'lishi hamda tizimli olib borilishi, mashg'ulotlarda yoshlar faoliyati xilma-xil va yangi ma'lumotlar, bilimlar, malakalar va ko'nikmalarini egallashdan iborat bo'lmog'i kerak.

Axloqiy mavzuda o'tkaziladigan munozaralar, savol-javob kechalar, yoki o'zbek xalqi tarixi va madaniyati bo'yicha ko'rik-tanlovlar o'quvchilarni xalq pedagogikasi asosida tarbiyalashga katta imkoniyatlar yaratadi.

Xususan, pedagogika va psixologiya mutaxassisligini mukammal egallashda ham xalq pedagogikasining o'rni beqiyos, «Pedagogika tarixi», «Pedagogik konfliktologiya», «Oila pedagogikasi», «Pedagogik korreksiya», «Tarbiyaviy ishlar nazariyasi va metodikasi», «Ijtimoiy pedagogika» kabi pedagogika yo'nalishidagi hamda psixologiya tsiklidagi qator fanlarni o'qitishda ham xalq pedagogikasi manbalaridan unumli foydalanish mumkin. Bu esa har bir fan o'qituvchisidan o'z kasbiga, mehnatiga vijdonan yondashishni va uning shaxsiy namunasini talab qiladi. Zero, o'zbek xalq pedagogikasi, uning manbalari, tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlarini har bir fan o'qituvchisi avvalo o'zi yaxshi o'zlashtirib olishi, bunda fanni o'qitish metodikasi bo'yicha egallagan bilim va ko'nikmalariga asoslanishi lozim bo'ladi.

### **Mavzu bo'yicha nazorat savollari:**

1. Xalq pedagogikasining muhim yo'nalishi va muhim xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Xalq pedagogikasining asosiy tadqiqot ob'ekti nima?
3. Xalq pedagogikasi fanining asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
4. Etnopedagogika fani nimalarni o'rganadi?
5. Pedagogik madaniyat tushunchasini ta'riflang.
6. Gezel o'tmishdagi ma'rifiy boyliklar haqida qanday fikrlar bildiradi?
7. Xalq pedagogikasiga ta'rif bering.
8. Xalq pedagogikasi qanday fanlar bilan o'zaro aloqada o'rganiлади?
9. Xalq pedagogikasi manbalariga nimalar kiradi?
10. Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari deganda nimalarni tushunamiz?

<b>Insonning yetta avlod qanday nomlanadi?</b>	Farzand, nevara, evara, chevara, kavara, ovora, begona	Nevara, chevara, ovora, evara, farzand, begona, kavara	Nevara, ovora, chevara, evara, farzand, begona, kavara	Farzand, nevara, chevara, ovora, evara, kavara, begona.
<b>«Qo'shnining qo'shnida yettidan bir haqqi bor» maqolining ma'nosini tushuntiring.</b>	To'y va ma'-rakalarda qo'shnining yonida turish	Qo'shni daraxting mevasini yeyish	Non yopganda qo'shniga ilinish	Farzandning kamida 30% yurib-turishlari yaxshi qo'shniglardan ibrat olgani tufayli boilib, qo'shnining haqqi shunda
<b>O'zbek xalqining tarbiya metodlari berilgan qatorni toping.</b>	O'git-nasihat qilish, ibrat-o'rnak ko'r-satish, rag'-batlantirish	Odatlanti-rish, maqtash	Kun tartibi-ni rejalah-tirish	Vasiyat qilish, olqish-lash
<b>Rag'batlantirish metoda kiruvchi shakllarni ko'rsating.</b>	Maqtash, ma'qullah, alqash, mukofotlash	Vasiyat qilish	Tasalli berish	Odatlantirish
<b>Musiqa va qo'shiqning tarbiyaviy ahamiyati nimada?</b>	Axloqiy tarbiyada	Yuksak did va na-fosat tarbiyasida	Ijtimoiy tarbiyada	Vatan-parvarlik tarbiyasida
<b>Hunarmandchilikka oid halq maqolini toping.</b>	Mehnat qilib topganing qandu asal totganing.	Hunar, hunardan rizqing unar	Farzand belning quvvati.	Ko'kka boqma, ko'pga boq.
<b>O'zbek oilasida o'g'il farzand tug'ilsa, unga atab qanday ko'chat</b>	Mevali daraxt	Terak	Manzarahali daraxt	Archa

<b>paliklar «XV asr astronomi» deb atashgan?</b>	Ulug‘bek	Forobiy	Rayxon Beruniy	Farg‘oniyy
<b>Xalq og‘zaki ijodi janrlarini ko‘rsating:</b>	Ertak, matal, lof, afsona	Maqol, rivoyat, masal, novella	Topish-moq, asotir, roman	Qo‘sinq, askiya, ballada
<b>Afsonalar «haqiqatdan xabar beruvchi yolg‘on hikoyalar» degan fikrni kim aytgan?</b>	Ezop	Abu Nasr Farobi	Aristotel	Gulxaniy
<b>Mavsumiy-marosim qo‘shiqlarning turlarini aytng.</b>	«Sust xotin», Choy momo», «Yo, Haydar»	Alla qo‘sing‘i	Lirik qo‘shiqlar, «Sust xotin»	«Sust xotin», «Choy momo», «Yo, Haydar», alla
<b>«Zehni o‘tkir, so‘zamol, zakovatli» ma’nalari bildiruvchi xalq og‘zaki ijodi janri:</b>	Masal	Askiya	Lof	Maqol
<b>Xalq og‘zaki ijodining qaysi janri faqat o‘zbek xalqigagina xos?</b>	Asotir	Maqol	Masal	Askiya
<b>Vogelik majoziy obrazlar orqali tasvirlanuvchi janr?</b>	Masal	Terma	Askiya	Lof
<b>Qadimda o‘ynalgan musobaqa o‘yinlar qaysilar?</b>	Tuya jangi, quvlamachoq	Tuya poygasi, otliqlar poygasi, qilich jangi	Bekin-machoq, arqonda sakrash	Chav-gon, qorxat
<b>Turli vositali o‘yinlarda nimalardan foydalanilgan?</b>	Qishloq xo‘jaligi asboblari	Arqon, yog‘och ot	Junli koptok	Qo‘g‘irchoq, tosh, tayoq, to‘p, yong‘oq, arqon
<b>Xalqimizda qaysi sonlar sehrli hisoblanadi?</b>	3,4,5,7,9,40	3,7,4,8,9,10	5,9,3,6,14	2,5,7,40,20

11. Xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari deganda nimalarni tushunamiz?

12. Milliy ta’lim-tarbiya nimadan boshlanadi?

13. Aniq va gumanitar fanlarni o‘qitishda xalq pedagogikasi manbalaridan foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati nimada?

14. Pedagogika – psixologiya fanlarini o‘qitishda xalq pedagogikasining qaysi manbalaridan foydalanish mumkin?

15. Oilaviy qadriyatlarga nimalar kiradi?

16. Sqg‘lom turmush tarziga oid qadriyatlarga ta’rif bering.

17. Badiiy-estetik qadriyatlar va ma’naviy-ruhiy qadriyatlarga nimalar kiradi?


18. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar va mehnat qadriyatlari haqida tushuncha bering.

19. Madaniy-ma’rifiy va ilmiy-ma’naviy qadriyatlarni ta’riflang.

**TOPSHIRIQ.** Quyidagi matnni o‘qing. Mardlik haqida maqollar topib, yod oling. (O‘zbek tilida mardlik haqida 40ga yaqin maqol bor.)

## MARDLIK - MANGULIK

Mardlik, botirlik, qahramonlik, jasurlik insonning qanchalik oliy fazilati bo‘lsa, nomardlik, qo‘rqoqlik, sotqinlik uning shunchalik tuban illatidir. Xalq o‘zining ko‘pdan-ko‘p maqollarida ana shu ijobjiy va salbiy xislatlarni zo‘r mahorat bilan ifoda etadi: «Mardlik-kishining husni», «Mard bir so‘zda turadi», «Mard maydonda bilinadi», «Mardning qirq ishidan bir ishi nosoz bo‘lsa ham o‘zi hijolat» va hokazo. «Mardlik - yiqitmoq emas, turg‘izmoq» maqolining ma’nosi kurash musobaqasi bilan bog‘liq. Polvonlarning odati shuki, kurash tushganda yiqitgan polvon yiqilgan polvonni ko‘tarib o‘rnidan turg‘izadi-da, yelkasiga qoqib qo‘yadi. Bu uning mardligini bildiradi. Xalqimiz mazkur maqol bilan majozan: «Qiyin ahvolga tushib qolgan odamga yordam, madad berish, qo‘llab-quvvatlash – mardlik belgisi, demoqchi bo‘ladilar. «Er yigit el chetida, yov betida» maqolida esa «Haqiqiy mard yigit o‘zini katta olmay, el ichida kamtarlik bilan chetlab yuradi-yu, ammo yov kelganda o‘zining kimligini ko‘rsatadi», - degan ma’no bor. «Ming qarg‘a bir tuyg‘unga yetmaydi» maqoli «Mingta qo‘rroqdan bitta botir zo‘r» degan ma’noni anglatadi. Bunda tuyg‘un - sezgir, chaqqon, olg‘ir ov qushi, qirg‘iy yo qarchig‘ayning erkagi. Bu qushni majozda botirga, qarg‘ani esa qo‘rroqlarga o‘xshatadilar. «Mardning har yerda



manzili bor» maqolining mazmuniga ko'ra mardlik ko'rsatgan, mardlik bilan dong chiqqargan odamni hamma yerda taniydarlar, hurmat-ehtirom bilan qabul qiladilar degan ma'noni uqish mumkin.

### BILASIZMI?

«Qadrdon – qirq yillik, Qimmatdon – qirq kunlik» maqolining ma'nosini bilasizmi?

Qimmatdon – ishi bitguncha, manfaatlanib qolguncha seni maqtab, shirin muomalada bo'lib, laganbardorlik qilib, atrofingda girdikapalak bo'lib yuruvchi, ishi bitgandan keyin esa teskari qarab, ipini uzib ketadigan soxta do'st. Maqoldagi «qirq yillik, qirq kunlik» deganda eng uzoq va eng yaqin davr nazarda tutilgan.

### BU QIZIQ!

«Bilganing daryo bo'lsa, bilmaganing – dengiz» iborasi «Men bilaman, ko'p narsani bilaman, hamma narsani bilaman, deb maqtanma, chunki hali bilmagan narsalaring ko'p, sendan ortiq biladiganlar ham ko'p», - degan ma'noni anglatadi.

## I.2. Xalq pedagogikasi va O'rta Osiyo buyuk mutafakkirlarining pedagogik g'oyalaridagi uyg'unlik

Jamiyatimizda yangilanish jarayoni ketayotgan, qadriyatlarimiz tiklangan bir paytda milliy – ma'rifiy boyliklarimiz sirasiga kiruvchi o'tmish donishmandlari, buyuk allomalar va mutafakkirlarning bizga qoldirgan bebafo merosini o'rganish katta ahamiyat kasb etmoqda. Xalqimizni jahonga tanitgan buyuk siymolar, ulug' allomalar, mard va qahramon farzandlarning hayot yo'li, butun faoliyati bugungi va kelajak avlod uchun ibrat maktabi bo'lib qoladi, zamonlar o'tishi bilan bu nodir ma'naviy durdonalarning qimmati va ahamiyati yanada oshib boraveradi. Ulug' ajdodlarimizning ana shu boy merosidagi pedagogik g'oyalar xalq pedagogikasida atroficha o'rganiladi. Chunonchi, xalq pedagogikasi xalqning tarbiya bo'yicha tajribalar majmui deb qaraladigan bo'lsa, allomalarimizning yosh avlodni axloqiy tarbiyalash borasidagi pedagogik g'oyalari xalq donishmandligi, xalq dunyoqarashi bilan o'zaro uyg'un va chambarchas bog'liqidir.

		haqida	odam haqida	inson haqida
Dostonlarni kimlar aytgan?	Shoirlar	Baxshilar	Askiyachilar	Polvonlar
«Yorg'ichoq qo'shiqlari» qanday qo'shiqlar qatoriga kiradi?	Mavsumiy – marosim qo'shiqlar	Marosim qo'shiqlar	Chorvachilik bilan bog'liq qo'shiqlar	Mehnat qo'shiqlari, dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar
Keltirilgan xalq mollaridan nuqtalar o'rnda inson ma'naviyatiga doir qanday toifa nomi bo'lishi lozimligini aniqlang. ... bog'i ko'karmas. Yema, ichma bo'l... Boyimasang men kafil.	Xasis	Sahiy	Baxil	Aqli
O'rta Osiyo xalqlari qadimiyligi sivilizatsiyasining moddiy va ma'naviy asoslari nimada bo'lgan?	«Avesto»	«Tib qonunlari»	«Ziji Ko'ragoni»	«Mahbub ul-qulub»
«Avesto»da zardo'shtiylik dini nima deb atalgan?	Mazdayasna	Zardo'sht	So'fiylik	Fikratun
Xalq pedagogikasida bolalarni insonparvar qilib tarbiyalashda tarbiyaning qaysi turi ustun turadi?	Pand, nasihat	Olgish	Ibrat, namuna	Uqtirish
«Qadrdon qirq yillik, qimmatdon qirq kunlik» maqolidagi «Qimmatdon» so'zining ma'nesi nima?	Doimo birrovni manfaat uchun maqtab yuruvchi soxta do'st	Ishi bitguncha manfaatlanib qoluvchi soxta do'st	Laganbardorlik qiluvchi	Aldoqchi do'st
Qaysi olimni yevro-	Mirzo	Abu Nasr	Abu	Axmad

<b>chiqarma» Baytda qanday illat qoralangan?</b>				
<b>Oyto'ldi, O'zg'urmish, O'gdulmish, Kuntug'- mish - qaysi asarning qahramonlari?</b>	A.Yugnakiy «Hibatul - haqoyiq»	Yu.X. Hojib «Qutadg'u biling»	Rab-g'o'ziy «Qissasi Rab-g'o'ziy	S.Saroiy «Guliston bit turkiy»
<b>O'zbek milliy musiqa asboblari berilgan qatorni toping?</b>	Dutor, nay, rubob, tanbur, g'ijjak	G'ijjak, karnay, skripka	Nog'ora, doira, balalayka	Gitara, fleyta, do'mbira
<b>Hashar nima?</b>	Bir kishining ko'pchilikka ko'magi	Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan udum	Ko'pechi likning bir kishiga ko'magi	Ko'pechi likning bir yoqadan bosh chiqarib, bir maqsadda birlashib harakat qilishi.
<b>«Kishining bilimdonligi uning ... orqali namoyon bo'ladi» gapini to'lg'azing.</b>	Tili	Ko'zi	Qalbi	Odobi
<b>«Yil boshi, yangi kun, bahor, shodlik kuni, mehnat bayrami, san'at bayrami» kabi ta'riflar qaysi bayramga tegishli?</b>	Navro'z bayrami	Yangi yil bayrami	8 Mart bayrami	Kulgi bayrami
<b>Mardlik nima?</b>	Inson qalbidagi quyosh	Qaxramonlik	Sadoqatlik, vafo	Yurt qalqoni, xalq su-yanchig'i
<b>«Olaqarg'ada olaring bo'lsa, yoz bor, qish bor, olarsan» maqolining mazmunini toping?</b>	Qarz olib bermagan betayin odam haqida	Ota-onani uyatga qo'ygan farzand	Avvallari boy bo'lib keyin kamba-g'allashgar	Kunda yesa ham nafsiyi maydigan

Zaminimizda yashab o'tgan, bugun ham dunyo ahlini hayratga solayotgan buyuk allomalarimizning ibratli hayoti va mislsiz ilmiy-ijodiy kashfiyotlari, ulardagi axloqiy ta'limotlar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish juda muhimdir. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, «Bizning o'z oldimizga qo'ygan maqsadimiz bunday ulug' zotlarning hayot yo'li va qoldirgan merosini to'liq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyandalari timsolida ma'rifat, ilmu fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini o'zida uyg'unlashtirgan xalqimizning ma'naviy olami naqadar boy va rang-barang ekanini isbotlab berishdan iboratdir. Bunday noyob va bebaho boylikni har tomonlama chuqr o'rganish, uning ma'no-mazmunini farzandlarimizga yetkazish masalasi barchamiz, birinchi galda, ziylolarimiz, butun jamoatchiligidimiz uchun ham qarz, ham farz bo'lishi shart deb hisoblayman.»<sup>10</sup>

Bu fikrlar tarixda o'chmas iz qoldirgan buyuk ajdodlarimizning ibratli hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqidagi bilimlarimizni kengaytirishga da'vat etadi.



## MUHAMMAD AL - XORAZMIY (783-850)

Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy 783 yil Xorazmda tavallud topgan. Yevropada «Algorismus» nomi bilan mashhur bo'lgan. U o'z ilmiy faoliyatining asosiy qismini Bog'dodda, xalifa al-Ma'mun boschchiligidagi ilmiy markaz «Bayt ul-hikma»da o'tkazgan. Xalifa al-Ma'mun al-Xorazmiyni olim sifatida juda qadrlaganligi bois mazkur ilm dargohini boshqarish ishlarini ma'lum muddat unga topshirgan.

Al-Xorazmiy hind va yunon olimlarining asarlarini puxta o'zlashtirib, undagi g'oyalarni yanada rivojlantiradi. U hozirgi zamon matematika fanining fundamental qoidalari asoschisi, zamonaviy algebra fanining birinchi ta'sis etuvchisi bo'lib hisoblanadi. Olimning «Al-Jabr val-Muqobala» asaridagi birinchi «Al-Jabr» so'zidan Yevropada «algebra» so'zi kelib chiqqan. U 0(nol) sonini arifmetikaga olib kirdi va shu tariqa sonlarning o'nlik pozitsion tizimi butun dunyoga tarqaldi.

<sup>10</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият. 2008. 44-бет.

Al-Xorazmiyning sonlar tizimi haqidagi asarlaridan biri Yevropada «Algorizm» nomi bilan tanildi va bu nomdan zamonaviy «algoritm» so‘zi kelib chiqdi.

Al-Xorazmiy matematikadan tashqari astronomiya ilmiga oid turli mavzularda bir qancha ilmiy maqolalar yozgan. Ulardan eng mashhuri «Astronomiyaga oid jadvallar» («Zij») asaridir. Olim geografiya fanining rivojiga ham salmoqli hissa qo‘shtigan. Uning muhim geografik asarlaridan biri «Yerning tasviri» («Surat al-Arz») kitobidir.

Mashhur tarixchi Jorj Sarton al-Xorazmiyi «...O‘z davrining eng buyuk matematigi va agar barcha shart-sharoitlar nazarga olinsa, barcha davrlarning ham eng buyuklaridan biri» deb ta’rif bergan.

Buyuk allomaning didaktik qarashlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, u bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishlariga va olgan bilimlaridan o‘rinli foydalanishlariga katta e’tibor beradi. Bunda u ilm o‘rganuvchilarning ilmiy manbalarni topish, o‘rganish va tushuntira olish malakalarini hosil qilish zarurati haqida to‘xtaladi. U o‘zining «Al-Jabr val-Muqobala» asarida olimlar uch guruhga bo‘linishini aytadi: «Ulardan biri o‘zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o‘zib ketadi va uni o‘zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qoldiradi. Boshqasi o‘zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi va bu bilan asarni tushunishdagi qiyinchiliklarni osonlashtiradi, uni tushunarliroq qiladi. Keyingisi esa sochilib yotganni to‘playdi, o‘zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo‘ladi».

Al-Xorazmiyning bu fikrlari o‘sha davrdagi ilmiy-tadqiqot ishlari va ta’lim metodlari haqida yorqin ma’lumot beradi.



### AHMAD AL – FARG’ONIY (798-865)

O‘rtalarning eng ko‘zga ko‘ringan allomalaridan biri Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg’oniyning hayoti va ilmiy faoliyati haqidagi ma’lumotlar juda ham oz bo‘lib, taxminan 798 yil Farg’onada tug‘ilgan. Yevropada «Alfraganus» nomi bilan tanilgan. Olim voyaga yetgach, Bag‘dod shahriga ketadi, xalifa al-Ma’mun saroyidagi ilmiy maktab «Bayt ul-hikma» («Hikmatlar uyi»)da dunyoغا dong taratgan mashhur O‘rtal Osiyo allomalari bilan birga ijod qiladi.

janrning nomini toping?				
Xalq og‘zaki ijodining qaysi janrida xalqning dono, purxikmat va lo‘nda qarashlari uzoq davrlar mobaynida ham o‘zgarishsiz ifodalanib kelinadi?	Hikmatlar	Masal	Topish-moq	Maqol
Xalqning tarbiya tajribasi va empirik pedagogik qarashlarini o‘rganuvchi fan...	Xalq pedagogikasi	Qiyosiy pedagogika	Oila pedagogikasi	Taqqoslash pedagogikasi
Xalq og‘zaki ijodida eng yirik janr qaysi?	G’azal	Doston	Lapar	Ertak
Xalqning tarixiy o‘tmishi haqidagi badiiy yodnomalari bu ...	Asotirlar	Maqollar	Rivoyatlar	Masallar
Dostonlarning tuzilishiga ko‘ra turlarini aniqlang?	Lirik, epik va dramatik dostonlar	Qahramonlik dostonlari	Jangnomma dostonlar	Qahramonlik, dramatik dostonlar
«Temirni qizig‘ida bos», «Chumchuq so‘ysa ham qassob so‘ysin» majoziy iboralari qaysi janrga xos?	Maqol	Matal	Masal	Terma
Dostonlarning mazmuniga ko‘ra turlarini aniqlang?	Qahramonlik, jangnomma, tarixiy, kitobiy dostonlar	Lirik dostonlar	Epik, dramatik dostonlar	Qahramonlik, dramatik
«Har bir inson (zardo’sht) kuniga besh marta yuvinib, poklanib, quyoshni olqishlab sig‘inishi shart» qaysi asardan olingan?	«Avesto»	«Sab’ai - sayyor»	«Qutad-g‘u bilig»	«Al-Jome’ as-sahih»
«Ichirib elga qoshiq birla sho‘rva, cho‘mich sopi bilan ko‘zni	Takabbur-lik	Beparvolik	Minnat	Zo‘rvonlik

Nafosat tarbiyasining muhim manbai nima?	Musiqa	Hunar-mandchilik	Amaliy san'at	Me'morci hilik
Quyidagi javoblardan qaysi birida xalq ertaklari tasnifi to‘g‘ri sanalgan?	Sehrli, maishiy va hayvonlar haqida ertaklar	Sehrli, maishiy va novella ertaklar	Hayvonlar haqi-dagi, se-hrli va topish-moq ertaklar	Maishiy, topish-moqli va novella ertaklar
Folklor janrini toping?	Hikoya	Qissa	Maqol	Roman
Xalq og‘zaki ijodida hamda yozma adabiyotda qo‘llaniladigan adabiy janrlar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?	Doston, ertak, latifa	Latifa, qasida, marsiya	Matal, yo‘qlov, ertak	lapar, ovunma-choq, doston
«Yog‘ yeganda yot yaxshi, Qon yutganda - qarindosh». Ushbu ma-qol g‘oyasi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?	Ota – onaga hurmat	Janjal-kashlik	Sevgida vafodorlik	Mehr-oqibat
«Sehr, makr, avrash» ma’nolarini anglatadigan so‘z orqali ifodalangan janrni belgilang?	Rivoyat	Afsona	Qissa	Qasida
Xalq orasida «jumboq», «ushuk» degan nomlar bilan ham yuritiladigan janr qaysi?	Ertak	Qo‘schiq	Maqol	Topish-moq
Xalq turmushi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan adabiy–badiiy janrni belgilang?	Ertak	Topishmoq	Maqol	Bunday janr yo‘q
Quyidagi maqolning davomini toping? Betashvish bosh qayda...	Kurmaksiz osh qayda	Qup - quruq tosh qayda	O’smasiz qosh qayda	Mehnat-siz osh qayda
Yagona qahramonga ega bo‘lgan, kulgi va hazilga asoslangan	Askiya	Latifa	Lapar	Aytishuv

Bag‘dod va Damashq shaharlarda olib borilgan qator astronomik tajribalarda faol ishtirot etadi. Olim 861 yil Nil daryosi suvining miqdorini o‘lhash uchun mo‘ljallangan Qohiradagi Ravdo oroliga o‘rnatilgan nilometrni ta’mirlagan. Bu uning iqtidorli muhandis ekanligidan ham dalolat beradi.

Al-Farg‘oniyning asosiy astronomik asari «Osmon jismi harakati va yulduzlar ilmi to‘plami»dir. Shuningdek, «Geometriya va arifmetika yordamida mukammal shimoliy va janubiy asturloblarni yasash», «Asturlobdan foydalanish haqida kitob», «Oy yer ustida yoki uning ostida ekanida vaqtini aniqlash», «Quyosh soatini yasash», «Al-Xorazmiy zijini tushuntirish» kabi asarlari ma’lum.

Al-Farg‘oniyning astronomiyaga oid asarlari bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiya fani bo‘yicha asosiy darslik bo‘lib keldi. Olim bundan tashqari astronomik jihozlar va gidroinshootlar qurish ishlarida katta iste’dod sohibi ekanligini namoyon eta oldi.



**ABU NASR FOROBIY  
(873-950)**

Faylasuf va qomusiy olim Abu Nasr Forobiy Sirdaryoning Forob (O’tror) shahrida tug‘ilgan. U Sharqda juda mashhur bo‘lib, qadimgi yunon ilmini juda yaxshi bilgani uchun «Sharq Aristotel», «Ikkinchi muallim» (Aristoteldan so‘ng) nomlari bilan ulug‘langan. Forobiy boshlang‘ich ma’lumotni o‘z vatanida, Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlarda oлganidan so‘ng Bag‘dod, Damashq, Misr kabi yurtlarda ilm olishni davom ettirgan.

Forobiy 70ga yaqin til bilgan, undan ilmning turli sohalariga bag‘ishlangan juda katta ilmiy meros qolgan, ya’ni falsafa, matematika, tibbiyot, astronomiya, mantiq, grammatika, fizika, kimyo kabi fanlarga oid asarlar yaratgan. «Masalalar manbai», «Qonunlar haqida kitob», «Ruhning mohiyati haqida», «Falsafaga izohlar», «Falsafa tushunchasining ma’nosи» risolalarida mashhur yunon faylasufi Aristotel va boshqa yunon olimlari asarlariga sharhlar yozgan.

«Fizika usullari haqida kitob», «Alkimyo ilmining zarurligi», «Inson a’zolari haqida risola», «Lug‘atlar haqida kitob», «Xattotlik haqida» kabi asarlar Forobiyning qomusiy bilimga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Forobiyning «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi» kitobida 30dan ortiq ilm-fanning ta'rifi beriladi, tabiiy va aniq fanlar bilan bir qatorda she'riyat, grammatika, orfografiya, lug'atshunoslik, mantiq, fiqh, siyosatshunoslik kabi gumanitar ilmlar haqida ham ma'lumotlar beriladi. «Inson a'zolari haqida» risolasida tibbiyot haqida ma'lumotlar, «Ilm va san'atning fazilatlari», «Aql masalalari haqida» risolalarida esa o'ta muhim falsafiy masalalar xususida so'z yuritadi. Forobiy aqli insonlar haqida shunday deydi: «Aqli deb shunday kishilarga aytildiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo'r iste'dodga ega: yomon ishlardan o'zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydi. Yomon ishlarni o'ylab topish uchun zehn-idrokka ega bo'lganlarni aqli deb bo'lmaydi, ularni ayyor, aldoqchi degan nom bilan atamoq lozim».

«Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola» asarida o'rta asrlarda bиринчи bo'lib jamiyatning tuzilishi haqida ta'limot yaratdi. Bu ta'limotda o'zi orzu qilgan fozil jamiyat, davlatni boshqarish, ta'limtarbiya, axloq, ma'rifat, diniy e'tiqod, tinchlik, mehnat kabi mavzular yoritilgan. Fozil jamiyatda komil inson xislatlari vujudga kelishini ta'kidlagan.

Forobiy o'z hayoti davomida mashhur olim sifatida nom qozondi, uning asarlari turli tillarga tarjima qilindi, Sharq va G'arb olimlari tomonidan chuqur o'rganildi.

Quyida allomaning «Baxt-saodatga erishuv» asaridagi pedagogik qarashlaridan turfa misollar keltiramiz:

1.Ziyaraklik – bu insondagi tez fikrlilik, o'yagan narsasini darrov topa olishi qobiliyatidir.

2.Ta'lim faqat so'z va o'rganish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir. Agar ular shu kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladilar.

3. Maqsadni amalgalashishda qasd va g'ayrat qilish mo'ljallangan ishni bajarishda katta ta'sirga egadir.

4. Inson o'z mulohazasi, ziyarakligini hamisha oshirib borishi kerak, agar aql yomonlikka qaratilsa, bu xislatlar razilik, makkorlik, aldamchilikka olib boradi.

5.Xalq aqli kishilarni dono deb ataydi. Chunki ular insonlarga kerakli va foydali narsalarni o'ylab topadilar.

## «Xalq pedagogikasi » fanidan mavzular bo'yicha test savollari

Test savollari	A	B	C	D
<b>O'tmisni unutmaslik, bugunning qadriga yetish, kelajakka umid bilan qarash qaysi fanning shiori?</b>	Xalq pedagogikasi	Oila pedagogikasi	Ijtimoiy pedagogika	Qiyosiy pedagogika
<b>Qadim afsonalarda xalq va vatan ozodligi uchun o'zini qurban qilgan qahramonning ismi nima?</b>	To'maris	Go'ro'g'li	Shiroq	Alpomish
<b>Jadidchilar millatni qanday qilib ozodlikka olib chiqsa bo'ladi, deb bilishgan?</b>	Ma'rifat orgiali	Diniy targ'ibotni kuchaytirish orgiali	Mustamlakachi-larga itoat qilmaslik orgiali	Amaldorlarni xalqning ahvoliga achintirish orgiali
<b>O'zbek adabiyoti yirik janrlaridan bo'lgan «Aytishuv»ning xalq og'zaki ijodida qo'llaniladigan nomini toping.</b>	Bag'ishlov	Faxriya	Alla	Lapar
<b>Hayit bayramining yana bir nomi qanday?</b>	Ramazon	Mustaqillik	Iyd	Muborak
<b>Maqolni davom ettiring: Yaxshini bil o'zidan, yomonni bil...</b>	Ko'zidan	So'zidan	Qara-shidan	Tilidan
<b>Xalq o'yinlari orasida eng murakkabi, jasorat va ziyaraklikni talab qiladigan qaysi?</b>	Ko'pkari	Kurash	Darbozlik	Nard
<b>Ko'pkari qanday o'yin?</b>	Ommaviy musobaqa	Chavandozlar bahsi	Chavgon o'yini	Kurash tushish
<b>Xalq amaliy san'ati va hunarmandchilik sohalariga nimalar kiradi?</b>	Zargarlik, zardo'zlik, kulolchilik	O'ymakorlik, kulolchilik, bas-takorlik	Maishiy buyumlar yasash, musiqa	Zargarlik, kurash tushish

23. Mahmudov N. Til. O'zbeknoma. – T.: «Yozuvchi», 1998.
24. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Hikmatnoma.(O'zbek maqollarining izohli lug'ati) – T.: «O'zbek ensiklopediyasi bosh redaksiyasi», 1990.
25. Yo'ldosheva S. Xalq urf-odatlari va an'analari. – T.: «Ijod dunyosi» nashriyot uyi, 2003.
26. Alimasov V. Falsafa yohud fikrlash lazzati. – T.: «Ma'naviyat», 2001.
27. Malik T. Iymonlashish umidi. – T.: «Yangi asr avlodи», 2004.
28. Hoshimov O'. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – T.: «Sharq», 2008.
29. Asotirlar va rivoyatlar. To'plovchi: Murodov M., Shayxova M. – T.: 1990.
30. Abdullaev Yo. Qiziqarli statistika. – T.: «Iqtisod-moliya», 2005.
31. Quronov M. Biz anglayotgan haqiqat. – T.: «Ma'naviyat», 2008.
32. Musurmonova O., Telegenov A. Dostonlar – tarbiya manbai.– T.: «Ma'naviyat», 1999.
33. Salohiddinova M. Islomiyat va ilm. – T.: «Movarounnahr», 2004.
34. Almetov N.Sh. «O'quv-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish». - Chimkent.6 1993.
35. Usmonxo'jaev A. Musiqiy muolaja. – T.: «Fan», 2007.
36. Karimov A. Bir gapim bor – uch tillo.(Rivoyatlar). – T.: «Adolat», 1992.
37. Oz-oz o'rganib dono bo'lur. To'plovchi: Komiljonov M. – T.: «Ijod dunyosi», 2003.
38. Mahmudov O. Ota nega farzandiga tanbeh beradi. – T.: «G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodi yui», 2005.
39. Gadoyboev U., Yo'ldoshev K. Fizika darslarida xalq maqol va masallaridan foydalanish. «Sovet maktabi». 1991 yil, 10-soni.
40. Besh kunlik dunyo. «Tafakkur» j., 1999, №1.
41. Tantoviy M.S. Islomda muloqot odobi. – T.: «Movarounnahr», 2007.
42. Xolmatov X.X. va b. O'zbekiston shifobaxsh o'simliklari. – T.: «Ibn Sino», 1991.
43. Matjon S., Sariev Sh. O'zbek adabiyoti. – T.: 2007.
44. Buyuk iste'dod sohiblari. Tuzuvchi: M.M.Xayrullaev. – T.: «Adolat», 2002.
45. Hikmatlarga to'la bu dunyo. Tarj.: A.Irisov. – T.: «O'qituvchi», 1997.



**ABU RAYHON BERUNIY  
(973-1048)**

Abu Rayxon Beruniy 973 yil Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shahrida tavallud topgan. U o'spirinlik va yoshlik yillarini turli ilmlarni egallashga bag'ishlagan va olim sifatida shakllangan. Zamonasining mashhur olimi Abu Nasr Mansur ibn Iroqda tahsil olgan va ilk astronomik tajribalarini 16 yoshida o'tkazgan. U fors, yunon, arab, sug'd, sanskrit tillarini o'rgangan.

Xorazmdagi siyosiy vaziyat tufayli olim 998 yil Jurjon shahriga ketadi va shu yerda 1004 yilgacha yirik izlanishlar olib boradi. Astronomiya, tabiiy fanlar, tarix, din tarixi bilan ham shug'ullanadi. Olimning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asari unga katta shuhrat keltiradi.

Beruniy 1004-1007 yillarda Xorazmga qaytib, Xorazmshoh Ma'mun rahbarligidagi ilmiy markazda faoliyat olib boradi. Lekin Xorazm Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olingandan keyin, uni G'azna shahriga asir qilib olib ketiladi. Olim Mahmud G'aznaviy saroyida kechgan yillarida astronomiya va geodeziyaga oid asarlar yaratadi. 1029 yili G'aznada «Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar» asarini tugatadi.

Mahmud G'aznaviyning Hindistonga qilgan yurishlari sababli Beruniy ham munajjim sifatida bir muddat Hindistonda yashaydi va sanskrit tilini mukammal o'rganib oladi. Olim hindlarning tarixi, urfodati, madaniyati bilan yaqindan tanishadi va o'zining mashhur «Hindiston» asarini yaratadi.

1030 yil Mahmud G'aznaviy vafotidan so'ng uning o'rniiga o'g'li Ma'sud o'tiradi. Olim o'zining astronomiyaga oid eng yirik asarini shu hukmdorga bag'ishlab «Ma'sud qonuni» deb atagan. 1041-1049 yillari «Mineralogiya» va «Farmakognoziya» deb nomlangan ikkita asarini yozadi. Bu asarlarning har biri mazkur sohalar bo'yicha jahon madaniyatining noyob durdonalaridan hisoblanadi. Abu Rayhon Beruniy 1048 yili G'azna shahrida vafot etadi.

Qomusiy olimning astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, arifmetika, tabobat, farmakognoziya, tarix, filologiya va boshqa fanlar bo'yicha yozib qoldirgan 160dan ortiq asarlari ushbu fanlarning rivojiga ulkan hissa qo'sha oldi.

Beruniyning pedagogik qarashlari oilada bola tarbiyasi, aqliy ta'lif, axloqiy va jismoniy tarbiya, mehnat va insonparvarlik tarbiyasi kabi masalalarini qamrab olgan. Buni quyidagi misralarda ko'rish mumkin:

1. Butun kuchimni yig'ib, bor imkoniyatni ishga solib, goh eshitish. goh ko'rish va qiyos qilish orqali, bilimim yetganicha, u narsalarni bayon etishga bel bogladim. («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asari.)
2. Yaxshilik xislatlari: taqvodorlik, to'g'rilik, o'zini saqlash, odillik, insoniy kamtarlik, latofat, sobitqadamlik, ehtiyyotkorlik, saxiylik, muloyimlik, siyosat va boshqarish ishlarida bilimdonlik, tadbirkorlik, to'g'ri taxmin qila olish kabi sifatlardan iboratdir. («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asaridan.)
3. Til so'zlovchi istagini eshituvchiga etkazuvchi tarjimondir. («Hindiston» asaridan).
4. Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir. («Hindiston» asaridan.)
5. Fanlarning foydasi – ular yordamida oltin va kumush to'plash emas, balki kerakli narsalar hosil qilishdir. («Maskanlar orasidagi masofalarni aniqlash uchun joylarning chegaralarini belgilash» asaridan.)
6. Inson hamisha o'zgalarning baxt-saodatlari haqida o'yashi kerak. Har bir insonning qadr-qimmati o'z ishini qanday bajarayotgani bilan o'chanadi. («Mineralogiya» asaridan.)
7. Mehnatsiz shon-shavkatga, martabaga erishgan kishi hurmatga loyiqli? Yuqori martabaga mehnatsiz erishgan kishi farosat va rohat soyasida yashaydi, yaxshi kiyinadi, ammo ulug'lik libosidan mahrum, yalang'ochdir. («Mineralogiya» asaridan.)
8. Kishi tabiatni bilolmagan narsani bilishga muhabbatlidir. Faqat haqiqiy bilimga ega bo'lganda, bilolmagan narsani bilishga ehtiyojli bo'lib, axtarganini topadi, bilimni chuqurlashtiradi. («Hindiston» asaridan.)

### ABU ALI IBN SINO (980-1037)



Buyuk olim va mutafakkir Abu Ali ibn Sino 980 yil Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tavallud topgan. U Buxorodagi ilmiy muhit ta'sirida ulg'ayadi. Uning yoshligi va o'spirinligi Somoniylar hukmronligi yillariga to'g'ri keladi. U saroyning boy kutubxonasidan foydalanadi. IX esr boshlariida Ibn Sino Xorazmga ko'chib

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik. – T.: «O'zbekiston». 1993
2. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. – T.: «O'zbekiston», 1994.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengimas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008.
4. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: «O'zbekiston», 2000.
5. Forobiy. Risolalar. – T.: «Fan», 1975.
6. Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub. – T.: «Sharq», 2000.
7. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis. Al-Jome' as-Sahih (Ishonarli to'plam). 4 kitob. 1 – kitob. – T.: «Qomuslar Bosh tahririysi», 1991.
8. Mashriqzamin - hikmat bo'stoni. Tarj., to'pl. H.Homidiy, M.Hasaniy.-T.: «Sharq», 1997.
9. Axloq-odobga oid hadis namunalari. – T.: «Fan», 1990.
10. Ibn Faxruddin, Rizouddin. Oila. – T.: «Mehnat», 1991.
11. Volkov G.N., Baubekova G.D. Etnopedagogika. –T.: «Fan», 2000.
12. Alaviya M. O'zbek xalq qo'shiqlari. – T.: «Fan», 1959, 209-bet.
13. Jabborov I. O'zbeklar. – T.: «Sharq», 2008.
14. Hoshimov K., Ochil S. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: «O'qituvchi», 1995.
15. Murodov M. va b. Etnomadaniyat. – T.: «Adolat», 2003.
16. Иzmайлов А.Е. Народная педагогика: педагогические воззрения народов Средней Азии и Казахстана. М.: «Педагогика», 1991.
17. O'zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: Mirzo T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. - T.: «Sharq», 2005.
18. Ashirov A., Atadjanov Sp. Etnologiya. – T.: «Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti», 2007.
19. Shoda-shoda marvarid: O'zbek xalq qo'shiqlari . To'plovchi: Ochilov E. – T.: «Sharq», 2006.
20. Sattor M. O'zbek udumlari: millatning kenja bo'g'iniga. – T.: «Fan», 1993.
21. Qo'shmoqov M. Chechanlikda so'zga suvdayin oqib... - T.: «G.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti», 1978.
22. Формирование личности в народной педагогике национальных традициях, обычаях и обрядах. Составители: Махмудов М.Х., Рахимова З.Р. – Бухара, 1995.

85. Xalqimiz hayotida ishlataladigan yaxshi tilaklar, oлg'ishlarga misol keltiring.
86. Tabiat bilan bog'liq qadriyatlar haqida ma'lumot bering.
87. Mavsumiy bayram va marosimlarning ekologik tarbiyadagi ahamiyati nimada?
88. Shifobaxsh o'simliklarning mo'jizaviy xosiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
89. Xalq tabobatida musiqa va qo'shiqning ahamiyatiga oid nimalarni bilasiz?
90. «Sog'lom turmush tarzi» tushunchasiga ta'rif bering.
91. Tozalik, shaxsiy gigiyena ko'nikmalariga oid xalqona ibratlar dan misollar keltiring.
92. Ekologik tarbiya va sog'lom turmush tarzi haqida xalq og'zaki ijodi janrlaridan misollar keltiring.
93. I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch» asarida buyuk allomalar va muhaddislar haqida qanday fikrlar bildirilgan?
94. «Xalq pedagogikasi» fanidan siz nimalarni o'rgandingiz?
95. O'z farzandingizni komil shaxs qilib tarbiyalash uchun qaysi xalqona usullardan foydalangan bo'lardingiz?
96. Oila ma'naviyatiga xalqona qarash deganda nimani tushunasiz?
97. Xalq pedagogikasida nafosat tarbiyasi qanday amalga oshirilgan?
98. Xalq pedagogikasida mehnatsevarlik va vatanparvarlik tarbiyasi omillari nimalardan iborat?
99. Xalq pedagogikasida insonparvarlik g'oyalarining ifodalanishi.
100. Xalq pedagogikasida tarbiya metodlarining ijobiy va salbiy shakllarini aytинг.

keladi va shoh Ma'mun saroyidagi olimlar bilan tanishadi.

Ibn Sino yunon, arab, fors olimlarining kitoblarini, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Bakr Roziy, Ahmad Farg'oniy kabi vatandoshlarining asarlarini, shuningdek, qadimgi yunon ilmi vakillari Aristotel, Platon, Evklid, Fales, Geraklit, Suqrot, Pifagor, Gippokrat asarlarini chuqr o'rganadi.

Buyuk olim falsafa, tabobat, tabiat ilmlariga bag'ishlangan «Shifo kitobi», «Tib qonunlari», «Najot kitobi», «Bilimlar kitobi» kabi yirik asarlarini yozadi. Uning falsafiy asarlarining eng yirigi «Shifo kitobi» to'rt qism, 22 jilddan iborat bo'lib, unda mantiq, metafizika, fizika, matematikaga oid masalalar talqin etiladi. Olimning «Tib qonunlari» asari o'z mazmuniga ko'ra tibbiy bilimlarning qomusi hisoblanadi. U besh mustaqil tibbiy asardan iborat bo'lib, har biri ma'lum sohani izchil yoritib beradi. Birinchi kitobda tibbiyotning nazariy asoslari, ikkinchi kitobda asosan o'simliklardan tayyorlanuvchi 760 ta dorining xususiyati, uchinchi kitobda insonning ayrim a'zolarining kasalliklari, to'rtinchi kitobida inson organizmining umumiylashtirishini kasalliklari va davolash usullari, beshinchi kitobida esa murakkab dorilarning organizmiga ta'siri, ularning tayyorlanishi haqida qilingan. «Tib qonunlari» asari sakkiz asr davomida ham Sharq, ham G'arb mamlakatlarda tibbiyot sohasida qo'llanma bo'lib kelmoqda.

Ibn Sino matematika, astronomiya, fizika, ximiya, mineralogiya, geologiya, botanika, filologiya, she'riyat va boshqa qator sohalarga oid asarlar yaratgan.

Ibn Sino yaratgan 450 dan ziyod asarlaridan 242 tasigina bizgacha yetib kelgan. Shundan 80tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga tegishli, 43 tasi tabobatga oid, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi psixologiyaga, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 9 tasi etikaga, 4 tasi adabiyotga oid, 8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan yozishmalardan iborat.

Yirik qomusiy olim va buyuk iste'dod sohibi Abu Ali ibn Sino Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lgan.

Alloma asarlarida ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalar ham talqin etilgan. U komillikka erishishning eng maqbul yo'li ilm egallah ekanligini uqtiradi. Bilimsiz kishilar johil bo'ladi va haqiqatni bila olmaydilar, bilimni egallahda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak degan g'oyani ilgari suradi. Bolalarning mакtabda jamoa bo'lib o'qitishining foydali jihatlarini sanab o'tadi.

Ibn Sino ta'lismotida o'qitishning qaysi metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi haqida ham ma'lumotlar bor. Uning

ta'kidlashicha, qaysi ta'lif metodidan foydalanishdan qat'i nazar bilim oluvchida haqiqiy bilim hosil qilish, mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarni amaliyotga tadbiq eta olish qibiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsaddir.



## YUSUF XOS HOJIB (XI asr)

Yusuf Balasog'uniy Yettisuv o'lkasidagi Kuzo'rda (Balasog'un) shahrida 1016-1018 yillar orasida tug'ildi. Alloma haqida uning «Qutadg'u bilig» asaridan boshqa birorta ma'lumot yo'q.

«Qutadg'u bilig» – «Baxtga eltuvchi bilim» demakdir. Asar turkiy tilda yozilgan bo'lib, uni Vatan, el-yurt madhiyasi deyish mumkin. Asarda turkiy xalqlarning davlat tuzilishi, el-yurt farovonligi yo'lidagi tadbirlar talqin etiladi. Dostonning asosiy qahramonlari to'rt timsoldan tashkil topgan. Birinchisi – bosh hukmdor Kuntug'di, u Adolat ramzi. U quyoshdek barchaga barobar nur taratadi. Ikkinchisi – bosh vazir Oyto'ldi, u Davlat ramzi. Lekin davlat, baxt, omad, boylik doimiy emas, ular goh oy kabi to'lishadi, goh hilol singari noziklashib, ko'rinxmay qoladi. Uchinchisi – hukmdorning yaqin maslahatchisi, Oyto'ldining o'g'li – O'gdulmish, u aql va bilim ramzi. Boylik, omad, baxt, davlat, amal o'tkinchi bo'lsa, aql va bilim doimiydir. To'rtinchisi – Oyto'ldi va O'gdulmishning qarindoshi O'zg'urmish, u qanoat ramzi. Agar jamiyatda, insonda qanoat bo'lmasa oqibati yomon bo'ladi. Oyto'ldi davlati va boyligiga ishonib qarindoshi O'zgurmishni eslamaydi, aql va bilim egasi O'gdulmish aksincha, u haqida hukmdorga xabar beradi.

Yusuf Xos Hojib ushbu asarida goh mutafakkir, goh muarrix, goh zukko olim, goh hassos shoir obrazida ko'rinxadi, shuningdek, o'z vatanining fidoiy oshig'i, o'z elining sadoqatli farzandi sifatida namoyon bo'ladi.


«Qutadg'u bilig»- ta'lif va tarbiya, axloqodobga oid pedagogik darslikdir. Asardan keltirilgan quyidagi misollar buning yorqin dalilidir:

Bilimni buyuk bil, uquvni ulug',  
Shu ikkov ulug'lar kishini tyliq.  
- Yana bir hikmat bor: Hazrati odam-  
Bilim, aqlu idrok sabab muhtaram.

58. Rag'batlantirish metodining qanday shakllarini bilasiz?
59. Alqash va alqash-duolarga misollar keltiring.
60. Zararli tarbiya metodlariga nimalar kiradi?
61. Xalqimiz qanday tarbiya vositalaridan foydalangan?
62. Nima uchun diniy ta'lilmotlarni xalq pedagogikasi bilan bog'lab o'rGANAMIZ?
63. Ilm o'rganishga da'vat qiluvchi hadislardan misollar keltiring.
64. Islom dinida qaysi fazilatlar ulug'lanadi va qaysi illatlar qoralanadi?
65. Islom dunyosidagi oltita muhaddisning nomini ayting.
66. Turli diniy oqimlarning zararli oqibatlari haqida gapiring.
67. Toshkent shahrining «Islom madaniyati markazi» deb e'lon qilinishining sababi nimada deb o'ylaysiz?
68. «Amir al-mo'miniyn» degan sharafga ega bo'lgan muhaddis haqida gapiring.
- Imom al-Buxoriy asarlari nomlarini ayting.
69. «Al-Jome' as-sahih» asaridan misollar keltiring.
70. Imom at-Termizi qanday asarlar yozgan?
71. Imom at-Termiziyning «Sunan» hadislari to'plamidan misollar keltiring.
72. Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi, milliy me'morchilik, milliy teatr va musiqa, qo'shiqchilik va xalq raqs san'ati nima uchun xalq pedagogikasi manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi?
73. Hunarmandchilikning qanday sohalarini bilasiz?
74. Hunarmandchilikka oid xalq maqollaridan misollar keltiring.
75. Bayramlar, ommaviy xalq sayillarida qanday san'at turlari namoyish etilgan?
76. Musiqaning tarbiya vositasi sifatidagi o'rni nimada?
77. Xalq qo'shiqlarida nimalar kuyylanadi?
78. Yurtimizdagи tarixiy obidalar, milliy me'morchilik namuna-larinining yoshlari tarbiyasidagi ahamiyati nimada?
79. O'zbek milliy mentalitetiga xos jihatlar haqida gapiring.
80. Xalqimizga xos bo'lgan axloqiy me'yorlar nimalardan iborat?
81. Nima uchun mehmonorchilik madaniyatimizning ko'hna manbalari bo'lib hisoblanadi?
82. Mehmonorchilikda ishlatiladigan tavozeli jumlalarni ayting.
83. Xalqimizga xos bo'lgan nutq madaniyati, so'zlashish odobi haqida nimalarni bilasiz?
84. Diniy ta'lilmotlarda muloqot odobi to'g'risida nimalar deyilgan?

27. Xalq og'zaki ijodi janrlariga nimalar kiradi va ularda qanday xislatlar talqin etiladi?
28. Ertaklarning o'ziga xos xususiyatlari ta'rif bering.
29. Maqol va matallarning farqi nimada?
30. Qo'shiqlarning turlari va tarbiyaviy ahamiyati haqida gapiring.
31. Afsona va rivoyatlar ta'rifini misollar bilan tushuntiring.
32. Asotirlarning qanday turlarini bilasiz?
33. Topishmoq va tez aytishlarning tarbiyaviy ahamiyati nimada?
34. «Askiya» va «latifa» so'zlarining ma'nolarini tushuntiring.
35. Xalq og'zaki ijodining qaysi janri faqat o'zbek xalqigagina xos?
36. Masallarda vogelik nimalar orqali tasvirlanadi?
37. «Doston» va «baxshi» so'zlariga ta'rif bering.
38. Og'zaki va yozma dostonlar nomlarini ayting.
39. Dostonlar mazmunan qanday tavsiflanadi? Ularning har biriga misol keltiring.
40. «Alpomish» dostonida qanday masalalar, tarbiyaviy tushunchalar va munosabatlar aks etadi?
41. «Alpomish» dostonining axloqiy tarbiyadagi ahamiyati nimada?
42. Milliy urf-odatlarning tarbiyaviy ahamiyati nimada?
43. Nima uchun milliy urf-odatlar va an'analar xalq pedagogikasi manbalari deb hisoblanadi?
44. Qadriyat tushunchasiga ta'rif bering.
45. An'ana, urf-odat, marosim tushunchalarining farqi nimada? Misollar keltiring.
46. Sizning shahringizda olov bilan bog'liq urf-odatlar saqlanib qolganmi? Ularning tarbiyaviy ahamiyati nimada deb o'ylaysiz?
47. O'zbek xalqi o'yinlar merosi qanday guruhlarga bo'linadi?
48. Raqamlar bilan bog'liq urf-odatlarga misollar keltiring.
49. Oila ma'naviyati tushunchasini ta'riflang.
50. Barkamol avlod tarbiyasida oilaning o'rni va ta'siri nimada?
51. «Oila – milliy tarbiyaning o'chog'i» deganda nimani tushunasiz?
52. Oilada farzand tarbiyasiga oid xalq og'zaki ijodidan misollar keltiring.
53. Barkamol shaxs qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak?
54. Xalq pedagogikasida qanday tarbiya metodlari mavjud?
55. Tarbiya metodlarining ijobiy va salbiy shakllarini ayting.
56. O'git-nasihat metodi haqida gapiring.
57. Ibrat-namuna metodining o'ziga xosligi nimada?

Kishi so'z tufayli bo'ladi malik,  
Ortiq so'z bu boshni etadi egik.  
Tilingni avayla – omondir boshing,  
So'zingni avayla uzayar yoshing.  
Dono maqtov olar, nodon-chi, so'kish,  
O'zing o'yla, senga ma'qul, qaysi ish?  
- Agar bo'lsa ezgu yomonga ulfat,  
Yomondan ko'ra ko'p keltirar kulfat.  
Quyida allomaning pedagogik qarashlari va tarbiyashunoslikka oid asarlaridan misollar keltiramiz:  
- Quyosh nurlarini berkitib bo'lmanidek, haqiqatning chirog'ini ham so'ndirib bo'lmas.  
- Yoki ilmli bo'l, yoki ilmga tayanib ish tutadigan bo'l, laoqal ilmni tinglab eshitadigan bo'l, biroq to'rtinchisi bo'lma, chunki kasodga uchrab halok bo'lasan.  
- Ahmoq kishi hikmat lazzatini bilmaydi, bamisoli tumov kishi gulning hidini sezmagandanidek.  
- Agar tilingning ortiqcha so'zlashiga ega bo'la olmasang, unda tizgining jilovini shaytonga topshirgan bo'lasan.  
- Kimki baxt-iqbolli, soliq kishilarning etagiga yopishsa, u albatta murodu maqsadiga erishib, xayru baraka topar.



**AHMAD YASSAVIY  
(1041-1167)**

XII asrda Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan ilk tasavvufiy tariqatning asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy 1041 yilda Sayramda Shayx Ibrohim oиласида dunyoga kelgan. Yoshligida ota-onasidan ajralgan Ahmadni bobosi Arslonbobo tarbiyalab, voyaga yetkazadi. U dastlab Yassida, so'ngra Buxoroda Yusuf Hamadoni qo'lida ta'lim oladi. U erda tasavvuf ilmini o'rganib, o'z yurti Turkistonga qaytadi, shogirdlar tayyorlay boshlaydi.

Ahmad Yassaviy madaniyatimiz tarixida ilk turkiyzabon mutasavvuf shoir sifatida tanildi. Alisher Navoiy unga «Turkiston mulkinining ulug' Shayx-ul-mashoyixi» deb ta'rif beradi.

«Yassaviya» tariqatining barcha aqidalari Ahmad Yassaviyning asosiy asari bo‘lmish «Hikmatlar»da to‘liq bayon etilgan. Asarda poklik, halollik, to‘g‘rilik, mehr-shafqat, mehnatsevarlik kabi ilg‘or umuminsoniy qadriyatlar o‘z ifodasini topgan.

Xoja Ahmad Yassaviy nafaqat Xuroson va Movarounnahr, balki turkiyzabon xalqlarning ma’naviy tarixida taniqli bo‘lgan, mutasavvuf donishmand, insonparvar shoir hisoblanadi.

### **ABULQOSIM MAHMUD AZ - ZAMAXSHARIY (1075-1144)**

Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy Xorazmda tavallud topgan. U dastlabki bilimni o‘z davrin ng savodli, diyonatli, muruvvatli kishisi bo‘lgan otasidan oladi. O‘g‘lidagi ilmga bo‘lgan zo‘r ishtiyoqni sezgan ota o‘g‘lini madrasaga o‘qishga beradi. Madrasada arab tili va adabiyotini, diniy ilmlarni, xattotlik san‘atini o‘zlashtiradi. 12 yoshga to‘lgach, ilm istab avvalo Buxoro shahriga, so‘ngra xorijiy o‘lkalar Xuroson, Bog‘dod, Makka, Damashqqa boradi. Buyuk mutafakkirning boy va ulkan ilmiy merosi diniy ilmlar, tafsirshunoslik, lug‘atshunoslik, grammatika, aruz, adabiyot, mantiq, geografiya kabi fanlardan iborat.

Mahmud az-Zamaxshariy «al-Mufassal», «al-Kashhof», «Muqaddimat al-adab», «Asos al-balag‘a» va boshqa qator asarlar muallifi. Uning «Muqaddimat al-adab» asari fan, madaniyat, san‘at, ijtimoiy hayotning turli sohalari bo‘yicha ma’lumot beradi. «al-Kashhof» asari esa Qur‘onga yozilgan tafsir bo‘lib, muslimon dunyosida hozirga qadar asosiy manba hisoblanadi.

Az-Zamaxshariy asarlarining ilmiy ahamiyati olimlar tomonidan yuqori baholanib, unga «Ustoz al-arab va-l-ajam», «Ustoz ad-dunyo», «Ka‘bat al-udaba» kabi sharafli nomlarni berishgan.

### **MIRZO ULUG‘BEK (1394-1449)**

Amir Temurning o‘g‘li Shohruh Mirzoning to‘ng‘ich o‘g‘li, buyuk davlat arbobi va olim Mirzo Ulug‘bek 1394 yil tavallud topadi. Uni bolaligidagi buvisi Saroymulkxonim tarbiyaladi. O‘zi Qozizoda Rumiyni ustozim deb ta‘riflaydi.

1411 yili Shohruh Mirzo 17 yoshli o‘g‘li



### **«Xalq pedagogikasi» fanidan nazorat savollari:**

1. Xalq pedagogikasining muhim yo‘nalishi va muhim xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Xalq pedagogikasining asosiy tadqiqot ob‘ekti nima?
3. Xalq pedagogikasi fanining asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
4. Etnopedagogika fani nimalarni o‘rganadi?
5. Pedagogik madaniyat tushunchasini ta’riflang.
6. Gegel o‘tmishdagi ma‘rifiy boyliklar haqida qanday fikrlar bildiradi?
7. Xalq pedagogikasining mazmun mohiyatiga ta’rif bering.
8. Xalq pedagogikasi qanday fanlar bilan o‘zaro aloqada o‘rganiladi?
9. Xalq pedagogikasi manbalariga nimalar kiradi?
10. Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari deganda nimalarni tushunamiz?
11. Xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari deganda nimalarni tushunamiz?
12. Milliy ta’lim-tarbiya nimadan boshlanadi?
13. Aniq va gumanitar fanlarni o‘qitishda xalq pedagogikasi manbalaridan foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati nimada?
14. Pedagogika – psixologiya fanlarini o‘qitishda xalq pedagogikasining qaysi manbalaridan foydalanish mumkin?
15. Abu Nasr Forobi qanday nomlar bilan ulug‘langan?
16. Abu Rayxon Beruniy qanday kashfiyotlar qilgan?
17. Abu Ali ibn Sinoni G‘arbda nima deb atashar edi?
18. Mashhur tarixchi Jorj Sarton Al-Xorazmiy haqida nima degan?
19. Abu Ali ibn Sino kimlarning asarlarini o‘rgandi va qanday asarlar yozdi?
20. «Qutadg‘u bilig» asarining g‘oyasi nima?
21. «Qutadg‘u bilig» asaridagi ramziy obrazlar haqida gapiring.
22. Alisher Navoiy Ahmad Yassaviyni nima deb ta‘riflaydi?
23. Mahmud az-Zamaxshariyning ilmiy merosi qanday fanlarni qamrab oladi?
24. Mahmud az-Zamaxshariy qanday asarlar yaratgan?
25. Mirzo Ulug‘bek ilmiy asarlarining nomini ayting.
26. Qaysi buyuk alloma haqida qiziqarli ma’lumotlarni bilasiz?

Bilolmadim Farangu Afriqoda qanaqa?  
Dunyo hayron bo'lsa ham, o'zbeklarda shunaqa.

Qanday yashab bo'ladi handalaksiz, qovunsiz?  
Erkak erkak bo'ptimi uloq, kurash o'yinsiz?  
Busiz ham elman, degan safsatani qo'ying, siz  
Bilolmadim Farangu Afriqoda qanaqa?  
Dunyo hayron bo'lsa ham, o'zbeklarda shunaqa.

Beshik mayli, sumagin ko'rib lol bo'lganlar bor,  
Ming yil oldin ham bu el edi buyuk ijodkor,  
Farzandlarin qonida yashar o'sha iqtidor,  
Bilolmadim Farangu Afriqoda qanaqa?  
Dunyo hayron bo'lsa ham, o'zbeklarda shunaqa.

Yurt aylanib kuzatsang, bozori yo'q baqqolsiz.  
Yurishmaydi chollari nosqovoqsiz, soqolsiz,  
Tilin uchida hazil, gap gapirmas maqolsiz,  
Bilolmadim Farangu Afriqoda qanaqa?  
Dunyo hayron bo'lsa ham, o'zbeklarda shunaqa.

Yangi pishgan anjirin ilinar qo'shni siga,  
Non yoping, deb tandirin ilinar qo'shni siga,  
Uch kun uyda bo'lmasa bilinar qo'shni siga,  
Bilolmadim Farangu Afriqoda qanaqa?  
Dunyo hayron bo'lsa ham, o'zbeklarda shunaqa.

Shu millatning ko'ksida turib oy sochar ziyo,  
Shunday yashash kerakdir aslida butun dunyo,  
Bu elatni boshqacha qilib bo'lmas, Marhabo,  
Bilolmadim Farangu Afriqoda qanaqa?  
Dunyo hayron bo'lsa ham, o'zbeklarda shunaqa.

*Marhabo Karimova.*

Ulug'bekni Mavarounnahr va Turkiston hokimi etib tayinlaydi. Lekin Ulug'bekni harbiy yurishlar emas, ilm-fan ko'proq qiziqtiradi. U 20 yoshlaridayoq o'z davrining yirik olimlari safidan o'rinn egallaydi, qadimgi yunon astronomlarining astronomiya, matematika sohasidagi kashfiyotlarini chuqur o'rganadi. Mamlakat ravnaqini ko'zlab, bir vaqtning o'zida Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda uchta madrasa qurdiradi. Samarqanddagi madrasada astronomiya maktabi shakllanadi, u yerda turli sohalardagi olimlarning soni 100tadan ortib ketadi.

Ulug'bek astronomiya fanini yanada rivojlantirish maqsadida 1424 yildan 1429 yilgacha osmon jismlarini, yulduzlarni o'rganish uchun rasadxona (observatoriya) qurdirdi.

Buyuk allomadan bizga to'rtta asar yetib kelgan. Ular «Zij jadidi Kuragoniy», «Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola», «Risolayi Ulug'bek», «To'rt ulus tarixi» asarlaridir.

Hozir ham Ulug'bekning «Zij»i o'z ahamiyatini yo'qotmagan va olimlar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. (Tuzuvchi M.M.Xayrullaevning «Buyuk iste'dod sohiblari» risolasidan qisman foydalanildi).

Ulug'bek ta'lim-tarbiya masalalarining rivojiga ham o'z hissasini qo'shgan, «Bilimga intilish har bir muslim va muslimanining farzidir» degan shiorni ilgari surgan. Shuningdek, o'z pedagogik qarashlarida bolalarning jismonan sog'lom, harbiy hunarni puxta egallagan, jasur va mard bo'lib etishuviga alohida ahamiyat bergen.

### **Mavzu bo'yicha nazorat savollari:**

1. Abu Nasr Forobiy qanday nomlar bilan ulug'langan?
2. Abu Rayxon Beruniy qanday kashfiyotlar qilgan?
3. Abu Ali ibn Sinoni G'arbda qanday atashar edi?
4. Mashhur tarixchi Jorj Sarton Al-Xorazmiy haqida nima degan?
5. Abu Ali ibn Sino kimlarning asarlarini o'rgandi va qanday asarlar yozdi?
6. «Qutadg'u bilig» asarining g'oyasi nima?
7. «Qutadg'u bilig» asaridagi ramziy obrazlar haqida gapiring.
8. Alisher Navoiy Ahmad Yassaviyni qanday ta'riflaydi?
9. Mahmud az-Zamaxshariyning ilmiy merosi qanday fanlarni qamrab oladi?
10. Mahmud az-Zamaxshariy qanday asarlar yaratgan?
11. Mirzo Ulug'bek ilmiy asarlarining nomini aytинг.
12. Qaysi buyuk alloma haqida qiziqarli ma'lumotlarni bilasiz?

**TOPSHIRIQ.** Boshqa buyuk allomalarining hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlarni mustaqil o'rganing va qisqacha bayonini daftaringizga yozib oling.

**TOPSHIRIQ.** Abu Ali ibn Sinoning ta'lim-tarbiya, axloq haqidagi sikrlarini o'qing va mazmunini tushuntirib bering.

### **Ulug' hakim saboqlari**

Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi.

Men yuksak maqsadlarning eng cho'qqisiga chiqib, yuksalishni istayman. Past maqsadlarga hech rozi bo'lmayman. Yo istagan maqsadimga erishaman, yo o'lim meni bu yo'lda halok qiladi.

Xulqning muvozanatda bo'lishi badan salomatligini saqlaydi.

So'zning yomoni amal qilinmay bekor ketganidir.

Siringni barchaga aytishdan ehtiyyot bo'l, chunki mulohazakor degani-ehtiyyotkor bo'lish deganidir. Agar siringni saqlasang, u sening asiringdir, agar oshkor bo'lsa, sen siringni asiri bo'lib qolasan.

Boylikni topishibdi-yu, aql-idrokni yo'qotishibdi. Ajabo, topgan narsalari bilan yo'qotgan narsalarining bahosi bir xilmidi?

Ma'rifatchi botir odam bo'ladi, shunday bo'lmay ham bo'larmidi? U o'limdan ham qo'rqligida sahovat egasi bo'ladi. Shunday bo'lmay ham bo'larmidi! U barcha behuda narsalarga hirs qo'yishdan uzoq va barcha adashganlarga mehribondir, shunday bo'lmay ham bo'larmidi? U o'z nafsoniyati bilan ulug'vor bo'ladi, shunday bo'lmay ham bo'larmidi!

Menga hasad qilgan kishilar bilan aloqamni uzdim, hatto ularning nomlarini ham eslamadim, ular bo'lsa bir umr menga hasad qilib kun kechirdilar.

Modomiki, mening do'stim dushmanim bilan ko'p o'tirgan ekan, endi men uni hech do'stim deb bi'lmayman. Chindan ham zahar aralashgan shakardan parhez qilish kerak; ilonga qo'ngan pashshadan qochish kerak bo'ladi.

### **BILASIZMI?**

XVI asrda Oydagi kraterlardan biriga ulug' ajdodimiz Ahmad Farg'oniy nomi berilgan. Yevropalik olimlar Mirzo Ulug'bekni «XV asr astronomi» unvoniga loyiq deb hisoblashgan. AQShda joylashgan Xalqaro Astronomiya Birlashmasi (IAU) esa Oyning ko'rinish turadigan sirtidagi katta bir kraterni «Ulug'bek krateri» deb atagan.

### **BU QIZIQ!**

Xalqimiz dunyoda odamni to'ydiradigan va boy qiladigan tabiatning yettita xazinasi bor, deb bilgan. Ular quyidagilar:

1. Sigir – ro'zg'orning qassobi va baqqoli.
2. Asalari – oilaning tabibi.
3. Ipak qurti – qizlarning sepi.
4. Objuvoz – qozonning yog'i.
5. Tegirmon – qorinning belbog'i.
6. O'rmon – imorat «suyagi» va qozon olovi.
7. Tovuq – ham obiyovg'on, ham dori-darmon.

### **O'zbeklarda shunaqa**

So'ritoklarda uzum, novdasi quloch-quloch,  
Ayvonida har bahor bola ochar qaldirg'och,  
Salom berib kirsa kim, to'yib chiqar bo'lsa och,  
Bilolmadim Farangu Afriqoda qanaqa?  
Dunyo hayron bo'lsa ham, o'zbeklarda shunaqa.

Yashab yurishi mumkin qo'l, oyog'u barmoqsiz,  
Ammo yashay olmaydi el-yurt, urug'-aymoqsiz,  
Kuzatishmas mehmonni novvot, mayiz, qaymoqsiz,  
Bilolmadim Farangu Afriqoda qanaqa?  
Dunyo hayron bo'lsa ham, o'zbeklarda shunaqa.

Kampirlarin qo'lida kuylaydi urchug'iyam,  
Bolamga deb don cho'qir kaptar, chug'urchug'iyam,  
O'g'il ko'rsa to'y qilar, hattoki chumchug'iyam,  
Bilolmadim Farangu Afriqoda qanaqa?  
Dunyo hayron bo'lsa ham, o'zbeklarda shunaqa.

To'y qilib el-yurtiga, edirib mazza qilar,  
Qudalariga chopon kiydirib mazza qilar,  
Bu mazzani londonlik boy ota qaydan bilar,

**TOPSHIRIQ.** Abu Ali ibn Sinoning sog‘liq-salomatlik haqidagi fikrlarini diqqat bilan o‘qib chiqing.

### Sog‘lik - boylik

1. Agar havoda chang va tutun bo‘lmasa edi, kishi ming yil yashagan bo‘lardi.
2. Sog‘lijni saqlashning asosiy tadbiri badantarbiya bo‘lib, keyin ovqat va undan so‘ng uyqu tadbiridir.
3. Jismoniy mashqlar bilan mo‘tadil shug‘ullanib borgan kishi hech qanday davoga muhtoj bo‘lmaydi.
4. Badantarbiya sog‘lijni saqlashda ulug‘vor usuldir.
5. Nozik va yengil badantarbiya turlariga arg‘imchoqda uchish, belanchakda tik holda, o‘tirib, yotib uchish, qayiq va kemada sayr qilish kiradi.
6. Badanning tashqi ko‘rinish ofatlari o‘taketgan oriqlik va o‘taketgan semizlikdir.
7. Ovqatlanishda odatga rioxal qilmoq kerak.
8. Sog‘lijni saqlovchi kishi o‘z ovqatining asosiy qismini sabzavotlar, mevalar va bulardan boshqa davo bo‘ladigan ovqatlardan bo‘lishiga ahamiyat bermog‘i lozim.
9. Lazzatlari ovqatning zarari uni ko‘p yeb qo‘yishda.
10. Shodlikning ko‘p bo‘lishi badanning yavrashi demakdir.

### BILASIZMI?

1. Tasbeho‘t haqida eshitganmisiz? Bu o‘t tog‘li joylarda o‘sadi. Vaqtisi-soati kelgach, uning mevasi yig‘ib olinib, po‘stidan tozalanadi. Natijada chiroyligi, yaltiroq, rang-barang donalar paydo bo‘ladi. Ularni ipga tizib, tasbeh holiga keltiradilar. O‘z-o‘zidan ma‘lumki, tasbeh bandasi uchun Alloho yodga solib turish, bir zum bo‘lsada, g‘aflatda qolmaslik vositasi, ilohiy narsa. Shu bois unga talab, ehtiyoj kuchli. Tasbehning ahamiyati yana shundaki, uni o‘girgan kishi Alloho oldidagi qarzini uzish bilan birga fikrinib joyga jamlaydi. Hayolparishonlik va yomon hayolga bordirmaydi, xotirasini bir nuqta – Alloha tikishga yordam berib turadi.

2. Hozirda meditsina so‘zi barcha xalqlar tilida har xil yangrashiga qaramay, ibn Sinoning jahon sivilizatsiyasi va tibbiyotining rivojanishiga salmoqli hissa qo‘shganligi bois u so‘zning lug‘aviy ma’nosi «Madadi Sino» so‘zidan kelib chiqqanligini ham ta’kidlash joizdir.

Atoqli astronom Yan Geveliy 1647 yili nashr qilingan «Selenografiya» kitobida Oydagi kraterlarning ikkitasi vatandoshlarimiz Ahmad Farg‘oniy va Mirzo Ulug‘bek nomi bilan atalishini ta’kidlagan.

Biz-chi? Buyuk bobolarimizni va ularning asarlarini qanchalik bilamiz?

### BU QIZIQ!

Abu Ali ibn Sinoning yozishicha, u buyuk yunon faylasufi Aristotelning «Metafizika» kitobini 11 marotaba o‘qib, tushuna olmagan ekan va bundan ma‘yus tortib, hafsalasi pir bo‘lib, kitobni tokchaga tashlab qo‘ygan ekan. Kunlardan bir kuni u kambag‘al, bechora bir kishi qo‘lidagi kitobni odamlardan sotib olishlarini yolvorib turganini, yeyishga bir burda noni ham yo‘qligini aytib, zorlanib turganini ko‘rib qolibdi.

Ibn Sino rahmi kelib, kitobni ko‘rib ham o‘tirmay, sotib olibdi-da, uuga kelib varaqlay boshlabdi. Ko‘ribdi-yu, xursandchiligi ichiga sig‘may ketibdi. Kitob, o‘zi izlab yurgan, Farobiyning Aristotelning «Metafizika» kitobiga yozgan sharhi ekan. Kitobni bir marta o‘qib chiqishdayoq, Aristotelni tushuniib, uni to‘la o‘zlashtirib olgan ekan.

### I.3. Xalq og‘zaki ijodi va dostonlar xalq pedagogikasining muhim manbai sifatida

Xalq pedagogikasi ko‘p qirrali tarixiy, boy madaniyatimiz va ma‘naviyatimizning ajralmas bir qismi bo‘lsa, olis o‘tmishda yaratilgan va asrlar osha sayqal topib, bizgacha yetib kelgan xalq og‘zaki ijodi namunalari xalqimizning ana shu boy madaniyat merosining durdonalaridir.

Xalq og‘zaki ijodining o‘lmas namunalari xalqimizning ma‘lum davrdagi turmush tarzi, urf-odatlari, mehnat faoliyati, xalqimiz qalbidagi orzu-umidlari, g‘am-tashvishlari, armon, quvonchlarini ifodalaydi, shu bilan birga har bir davrga hamnafas bo‘lib yashaydi.

Xalq tomonidan yaratilib, og‘izdan-og‘izga, avloddan-avlodga o‘tib kelgan badiiy asarlar xalq og‘zaki ijodi yoki folklor (ingl. «folk» – xalq, «lore»- donolik, ya’ni xalq donoligi, donishmandligi) deb yuritiladi. Xalq og‘zaki ijodiga quyidagi janrlar kiradi: qo‘shiqlar, maqol, matal,

afsona, rivoyat, asotir, ertak, latifa, lof, lapar, termalar, askiya, doston, tez aytish, masal, alla, yor-yorlar, kelin salomlar, topishmoq, naqlar, hikmatlar, pandnomalar, aforizmlar va b. Xalq og‘zaki ijodining yuqorida sanab o‘tilgan barcha janrlarida yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash yo‘llari, tarbiya usullari, mehr, muhabbat, saxiylik, oljanoblik, qadr, vafo, sadoqat, yaxshilik, oqibatlilik, mehnatsevarlik, kasbhunarga muhabbat, halollik,adolat, insof, andishalilik, insonparvarlik, kabi xislatlar ulug‘lanadi, yomonlik, bevafolik, baxillik, xasislik, qo‘rkoqlik, nomussizlik, manmanlik, kaltabinlik, xushomadgo‘ylik, andishasizlik, ochko‘zlik, mas’uliyatsizlik, farosatsizlik kabi illatlar qoralanadi. Shu o‘rinda og‘zaki ijod namunalari odob-axloq, ta’limtarbiya borasida o‘ta hayotiy, xalqchil va ibratlilagini, shu bois uning umumbashariy ahamiyatga molik ekanligini ta’kidlashimiz joiz.

Xalq og‘zaki ijodining eng qadimiylar keng tarqalgan janrlaridan biri ertakdir.

**Ertaklar** – hayolot va fantastikaga keng o‘rin berilgan, hayot haqiqatiga asoslangan, ibrat-o‘git beruvchi og‘zaki hikoyalardir. Ertaklardagi ijobiy qahramonlar yengilmas kuchga aylanib, har qanday yovuzlik,adolatsizlik, haqsizlik ustidan g‘alaba qozonadi, umumxalq manfaatini himoya qiladi. Ertaklarda xalqning orzulari hayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida hikoya qilinadi, ya’ni real hayotiy voqealar ongli tarzda uydirmalar orqali tasvirlanadi. Ertaklar o‘ziga xos xususiyatlarga ega, jumladan, «bir bor ekan, bir yo‘q ekan...» kabi maxsus boshlamalar bilan boshlanib, «shunday qilib ular murod-maqsalriga yetibdilar...» kabi maxsus tugallanmalar bilan yakunlanishi tinglovchini o‘zi yashab turgan real dunyodan ertak olamiga olib kirish uchun xizmat qiladi.

Darhaqiqat, ertaklarda bola tarbiyasining hamma tarkibiy qismlari-jismoniy va aqliy kamolot, ilm va hunarga muhabbat, ma’naviy axloq va estetik didning tarbiyasiga oid ko‘pdan-ko‘p pedagogik materiallarni uchratish mumkin. Zotan, xalqimizda «Ertaklar yaxshilikka yetaklar» deb bejiz aytilmaydi.

**Maqollar** – xalqning hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgan dono fikrlarini ixcham shaklda ifodalovchi asardir. Maqollar she’riy va nasriy tuzilishga ega, har ikkala turda ham xalqning jonli so‘zlashuv tiliga yaqin bo‘ladi. Ular mazmun va shakl jihatidan uzoq davrlar mobaynida kam o‘zgarishlarga uchraydi va uzoq yashovchanlik xususiyatiga ega. Maqollar kishilarning asrlar davomidagi hayotiy tajribalari va kundalik turmu-shida ko‘p bora sinovlardan o‘tadi. Ko‘proq falsafiy, axloqiy-ta’limiy

oti bilan Kenjaoyim ismli xotinini yaxshi ko‘rar ekan. Ro‘parasiga bog‘langan otini erkatalmay xon yum-yum yig‘labdi. Ibn Sino: «Yana nimani yaxshi ko‘radi xoninglar?» deb so‘rabdi. «Kenja oyimni jonlaridan ortiq yaxshi ko‘radilar», deyishibdi. Ibn Sino: «Kenja oyimni olib kelib, otga mindirib qo‘yinglar», debdi. Saroy kishilari Kenja oyimni olib kelib, xonning suyukli oti ustiga mindirib qo‘yishibdi. Podsho Kenja oyimni ko‘rib, dodlab yuboribdi. Ammo tili dodga kelmasdan nuqul «g‘uldur-g‘uldur» qilarmish.

Ibn Sino saroyning kattasini bir chetga olib chiqib: «Men bir gap aytaman, sizlar uni aniq bajarasizlar, ya’ni men xon yonida o‘tirib, sizni tuzata olmagan bo‘lsam ham, bu yerga bekor kelmabman, dori-darmonga otingiz bilan kenja xotiningizni olib ketyapman, deyman-da, otga minib qamchi bosaman, - debdi. – Kenja oyimga ham tayinlab qo‘yinglar, yana meni olib qochib ketar ekan, deb qo‘rqib-pisib yurmasin. Ammo men otga qamchi bosganda dod-faryod ko‘tarsin», debdi. Ibn Sinoning aytganini qilishibdi.

Podsho nima gapligini bilolmay hayron emish. Ibn Sino xonning oldiga kirib, tiz cho‘kib: – Endi, xon hazratlari, sizni davolay olmadim, kasalingiz bedavo ekan. Bergan dori-darmonlarim, shuncha kun qaraganlarimga saroydagি kishilaringiz ana bu otingiz bilan Kenja oyim xotiningizni tuhfa qilishdi. Menga ruxsat bersangiz, uyimga qaytsam, - debdi. Ibn Sino shunday deb otga qarab chopibdi-da, shoshib-pishib unga minib, ustma-ust qamchi bosibdi. Podsho avval g‘udir-g‘udirlagancha o‘rnidan turib ketibdi. Keyin bir kuchanib baqirgan ekan, tili chiqib ketibdi... Tovushi butun saroyni larzaga keltiribdi. Ibn Sinoning orqasidan: «Ushla, ushla anavi qaroqchi o‘g‘rini, kupper-kunduz kuni otim bilan xotinimni o‘g‘irlab ketdi-i-i! – deb baqiraveribdi, chaqiraveribdi. Bir payt ibn Sino otni choptirganicha bir joyga borib, keyin orqasiga qaytib kelibdi. Uni ko‘rgan xon: «Xoy, o‘g‘rimisan, tabibmisan, - debdi. Shunda ibn Sino: «Men tabibman, o‘g‘rimasman», debdi. Xon: «Bo‘lmasa, nega bunday qilding?» deb so‘rabdi. Ibn Sino:

- Shunday qilmasam bo‘lmasdi. Siz tushingizda qo‘rqqaningizdan tildan qolgan edingiz. Sizni qo‘rqtish orqaligina davolash mumkin edi. Boshqa har qanday dori-darmon sizga foyda berolmasdi. Mana tilingiz chiqdi, endi xotiningiz ham, otingiz ham o‘zingizga buyursin, - debdi. Ibn Sino otdan tushib, uning tizginini xonga tutqazibdi. Xon ibn Sinoning aqlu-karomatiga qoyil qolib, boshdan-oyoq sarpo beribdi-da, o‘ziga bosh tabib qilib tayinlabdi.

## Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Tabiat bilan bog'liq qadriyatlar haqida ma'lumot bering.
2. Mavsumiy bayram va marosimlarning ekologik tarbiyadagi ahamiyati nimada?
3. Shifobaxsh o'simliklarning mo'jizaviy xosiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Xalq tabobatida musiqa va qo'shiqning ahamiyatiga oid nimalarni bilasiz?
5. «Sog'lom turmush tarzi» tushunchasiga ta'rif bering.
6. Tozalik, shaxsiy gigiyena ko'nikmalariga oid xalqona ibratlardan misollar keltiring.
7. Ekologik tarbiya va sog'lom turmush tarzi haqida xalq og'zaki ijodi janrlaridan misollar keltiring.

**TOPSHIRIQ.** Rivoyatni diqqat bilan o'qib chiqing. Davolashning turli xalqona usullari haqida eshitganlaringizni eslang.

## Tildan qolgan xon

Bir yurtning xoni tush ko'ribdi. Tushida go'rda yotgan mish, munkarnakirlar kelib, unga do'q-po'pisa qilibdi. Xon qo'rqib ketibdi, ertalab tursa, tildan qolibdi. Xon gapirmoqchi bo'larmish-u, gapira olmas mish, tili nuqul g'o'ldir-g'o'ldir qilarmish. Xonning jahli chiqibdi, baqirib-chaqirmoqchi bo'libdi, ammo tili yana g'o'ldir-g'o'ldirdan nariga o'tmabdi. Saroydagilar ham xonimiz nima deyaptilar, deb hayron bo'lisharmish. «Ins-jins tegdi» deb, alas-alas qildirishibdi, dev chaldi deb, qator-qator qo'y so'yishibdi, arvoj urdi deb, xayr-ehson qilishibdi, lekin xonning tili chiqmabdi. Navbatma-navbat tabiblar qarashibdi, ammo hech kim xonning tilini chiqarolmabdi. «Samarqandda ibn Sino degan bir tabib chiqibdi. U o'likka jon kiritar emish», - deb eshitishgan ekan. Bosh vazir Samarqandga borib, ibn Sinoni boshlab kelibdi. Ibn Sino xonning u yoq-bu yog'ini ko'rgan bo'libdi, dori-darmon ichtiribdi. Keyin o'zicha: «Bu xon hech qanday kasalga chalinmagan. Tushi yo o'ngida qo'rqqanidan tili yo'qolgan. Buni ta'sir-aks yo'li bilan, ya'ni qo'rqtish usuli bilan davolab, tilini chiqaraman», deb o'ylabdi-da, xonni tashqariga olib chiqib, o'rindiqqa o'tqazib qo'yishni buyuribdi. Saroy kishilari xonni tabib aytganday qilib, o'rindiqqa o'tqazib qo'yishibdi. Shundan keyin Ibn Sino: «Xonning eng yaxshi ko'rgan narsasini olib kelinglar-da, ro'parasiga qo'yinglar», - deb buyuribdi. Xon Qorabayir

mavzularda yaratilganligi bois juda katta tarbiyaviy va didaktik ahamiyatga ega. Xalq maqollarining mavzu doirasi juda keng bo'lib, ularda aks etmagan xalq hayotining biron sohasi yo'q. Chunki xalq o'z hayotiy kuzatishlari va tajribalarini maqollar shaklida abadiylashtiradi va shu tariqa kelgusi avlodga qoldiradi. Maqollarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ilmparvarlik, insonparvarlik, mardlik, adolat, insof, sof muhabbat, olijanoblik, sadoqat, do'stlik kabi chin insoniy xislatlar o'z ifodasini topgan. Shu o'rinda ayrim maqollar mazmuniga e'tibor beraylik:

- Vatani borning baxti bor, mehnati borning – taxti.
- El g'amini bilgan elga doston.
- Birlashgan daryo bo'lar, tarqalgan irmoq bo'lar.
- Oltin olma, bilim ol,  
Bilim olsang, bilib ol.
- Aqling ko'r bo'lsa, ko'zdan ne foyda.
- Yaxshi xulq – kishining husni.
- Egri yo'ldan yursang ham to'g'ri yur.
- Niyating – yo'ldoshing.
- Yo'jni borday qil, borni bolday qil.

**Matallar** xalq majoziy iboralarining ko'chma ma'noda ishlataluvchi bir turi. Matal o'z ma'nosidan boshqa ma'noga ko'chirilgan so'z birikmalaridan iborat bo'ladi, unda o'xshatish, kinoya, qochirma so'z va boshqa til vositalari qo'llaniladi. Bunda ma'joziy iboralarning o'z asl ma'nosi bilan ko'chirilgan ma'nosi o'rtasida mantiqiy bog'lanish bo'ladi. Masalan:

«Temirni qizig'ida bos».

«Chumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin» va h.

**Topishmoqlar** narsa yoki hodisalarning shakli, hatti-harakati, holati va vazifasini boshqa narsa yoki hodisalarga qiyoslash, ularning belgisini ataylab yashirish asosida topishga asoslangan savol yoki topshiriqlardir. O'tmishda topishmoqlar kattalar orasida keng yoyilgan, hozirgi kunga kelib, yoshlarga xos janr bo'lib qoldi. Topishmoqlar qadim-qadimdan jonli va jonsiz mavjudot, narsa va hodisalarni bir-biriga solishtirish, taqqoslash, o'xshatish orqali borliqni, undagi mavjud xususiyatlarini ko'proq bilishga, anglashga, fikr yuritishga undaydi. Insonning zehnini qayraydi, fikr doirasini kengaytiradi, fikrlash qobiliyatini oshiradi, kuzatuvchanlik va topqirlikni shakllantiradi. Buning isboti uchun quydagi topishmoqlar yechimini topib, o'z zehningizni sinab ko'rishingiz mumkin:

- 1) Kechasi xizmatda, kunduzi izzatda.
- 2) Devorda bor so‘zanam,  
Unda yashar keng olam.
- 3) Qozon ichi oppoq qor.
- 4) Yeri oq, urug‘i qora.
- 5) O‘zi ming xil, so‘zi bir xil.
- 6) Ko‘k otim ko‘kka qarab yo‘rg‘alar.
- 7) Qo‘l bilan sochar, og‘iz bilan o‘rar.
- 8) Gulsiz meva qiladi,  
Ko‘p esang til shiladi;
- 9) G’ip-g‘ildirak oy kulcha,  
Bu nima, kim biladi?  
Daraxt emas u o‘zi,  
Majnuntoldek bosh egar;
- 10) Osti yam-yashil marmar,  
Soyasiz salqin berar.
- 11) Sochi o‘sgan, beli bog‘langan,  
Ifloslikka qarshi chog‘langan.
- 12) Teg desam tegmaydi,  
Tegma desam tegadi.
- 13) Zar gilam, zargar gilam,  
Ko‘taray desam og‘ir gilam.
- 14) Zuv-zuv borar, zuv-zuv kelar,  
Doston o‘qir, g‘alvir to‘qir.
- 15) Asaldan shirin, zahardan achchiq.

**Qo‘sishiq** - xalq og‘zaki ijodining eng qadimiylari va ommaviy shakllaridan biri bo‘lib, kuyga solib aytildigan kichik lirik she’rdir. Qo‘sishiqlar ham boshqa xalq og‘zaki ijodi janrlari kabi shu xalqning mehnati, kurashi, ma’naviy ehtiyojlari natijasida vujudga keladi. Ular g‘oyaviy-mazmuniy va janr xususiyatlariga ko‘ra xilma-xil bo‘ladi. Mahmud Qoshg‘ariyning «Devoni lug‘otit-turk» asaridan qo‘sishiqlarning eng qadimiylari turlari ma’lum. Jumladan, ov qo‘sishiqlari, mehnat qo‘sishiqlari, mavsum, marosim qo‘sishiqlari, marsiya, madhiya va b. Qo‘sishiqlarning yoshlarda go‘zallik tuyg‘ularini shakllantiradi, dillarga orom bag‘ishlaydi, shuningdek, yoshlarni vatanga sadoqat, xalqqa muhabbat ruhida tarbiyalaydi. Bolalar dastlab ona allasini eshitadi, asta-sekin ovunchoq qo‘sishiqlari, o‘yin qo‘sishiqlari bilan tanishib boradilar. Masalan, «Boy-chechak», «Oq terakmi, ko‘k terak», «Hayu chitti gul» kabi qo‘sishiqlarning zavq-shavq bag‘ishlaydi.

- Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topilar.
- Sog‘ olma shoxidan tushmas.
- Chilim chekkan kishini, urib sindir tishini.
- Omon bo‘lgan ot minar, ola parcha to‘n kiyar.
- Omon bo‘lsang olam seniki va h.

«**Ibn Sino shogirdlari**» deb nomlangan rivoyatda sog‘lom turmush tarzi, salomatlikning besh garovi haqida so‘z yuritiladi:

«Tabiblarning tabibi, ulug‘ hakim ibn Sino kunlardan bir kun qattiq og‘rib, ko‘rpa-to‘shak qilib yotib olibdi. Ibn Sinoning shogirdlari, eng yaqin do‘st-birodarlar yig‘ilishibdi. Do‘st-birodarlar yaxshi so‘z aytib, ulug‘ tabibning ko‘nglini ko‘tarishga, kayfiyatini yaxshilashga harakat qilishsa, shogirdlari ustozini dori-darmonlar bilan davolashga kirishib-dilar.

Ibn Sino do‘st-birodarlariga rahmatlar aytib, shogirdlariga esa shunday debdi:

- Ey, shogirdlarim, mening kunim bitgan ko‘rinadi. Shu boisdan meni davolayman deb behudaga harakat qilmanglar. Bordi-yu, kunim bitib, vafot etsam, yig‘i-sig‘i, oh-voh qilib o‘tirmanglar. Faqat haqqimga duo qilib, onda-sonda qabrimni ziyorat qilsanglar, bas. Va yana, ustoz olamdan o‘tdi, endi tabobat oqsaydi, deb qayg‘urmanglar. O‘rnimga besh zo‘r tabibni qoldirib ketmoqdaman. Shu tabiblarning maslahatlariga o‘zingizlar ham doim amal qilinglar, boshqalarni ham ularga da‘vat etinglar, - debdi.

Shogirdlardan biri:

- Ustoz, siz aytgan tabiblar kimlar? – deb so‘rabdi. Shunda ibn Sino:
- Men qoldirib ketayotgan zo‘r tabiblarimning biri - **tozalik**, ikkinchisi - **parhez**, uchinchisi - **badan tarbiyadir**. Va qolgan ikkisi **mijoz** va **kayfiyatdir**. Doimo pokiza, ozoda bo‘lishlik, ko‘ringan narsani, ya’ni ovqatni kelsa-kelmasa yeyabermaslik, apil-tapil ovqatlanmaslik, ovqatlanishda parhez, me’yorni bilishlik, ichkilikka ruju qo‘ymaslik, badan a’zolarini harakatsiz qoldirmaslik, mijozni unutmaslik va nihoyat, kayfiyatni yaxshi tutishga harakat qilish – mana shu aytganlarimga amal qilinsa, kasallanish u yodqa tursin, bevaqt o‘lim ham orqaga chekinadi.

Muxtasar qilib aytganda, insonning tug‘ilganidan to oxirgi kungi gacha sog‘lom turmush tarzini ta‘minlashga kerakli shart-sharoitlarni yaratish va unga amal qilish yo‘llarini o‘rgatish bo‘yicha xalq pedagogikasining tajriba va an‘analari ajdodlarimizning o‘sib kelayotgan avlodning ma’naviy-axloqiy va jismoniy sog‘ligi va farovonligi haqida qayg‘urishidan darak beradi.

tashqarida, toza havoda o'ynalgan. Bu o'yinlar turli-tuman bo'lib, juda katta serharakatlilikni talab qilgan. Shu bois tanani ham chiniqtirgan. Bunday o'yinlar faqat sog'liq uchun foydaligina bo'lib qolmay, balki chaqqonlik, jasurlikni ham tarbiyalagan.

Ajdodlarimiz o'z farzandlarining sog'ligini ular hali tug'ilmasdan ona qornida bo'lgan paytidan o'ylaganlar, vujud sog'ligi bilan aql-tafakkur sog'ligini uyg'un holda bo'lishini ta'kidlaganlar, muhit, oila, turmush sog'lomligi haqida bosh qotirganlar. Aqliy-ruhiy toliqishdan so'ng dam olib, hordiq chiqarishga alohida ahamiyat bergenlar. Quvnoq, tetik, sog'lom tanda ruhiy sog'lik bo'lishini ta'kidlaganlar, shu bilan birga yaxshi dam olishni ham bilganlar. Bu xalq og'zaki ijodi namunalari va dostonlar aytish, qo'shiqlar kuylash, topishmoqlar, xikmatli so'zlar, hikoyatlar, ertaklar aytish, xalq milliy o'yinlarini o'ynash orqali amalga oshirilgan. Mazmunli dam olish kishi salomatligi, ruhan tetikligi, aqliy va jismoniy kamolotidagi ahamiyati xalq og'zaki ijodining turli janrlarida, jumladan, maqollarda aks etgan:

- Yaxshi dam – mehnatga hamdam.
- Sayohat tanga rohat.
- Yaxshi dam olding, ishingga unum solding.
- Mol ketsin, pul ketsin, eson-sog'liqqa ne etsin.
- Chiniqqanga gard yuqmas, tiniqqanga - dard.

Sog'lom turmush tarzining asosiy garovi tozalik ekanligini tasdiqlovchi qator maqollar ham mavjud:

- Pokliling – sog'liging.
- Toza ko'zaning suvi toza.
- Toza uyda dard qolmas.
- Ayolning sarishtasi – ro'zg'orming farishtasi.
- Uyi tozaga gard yuqmas, gard yuqsa ham dard yuqmas.

Ovqatlanish gigiyenasiga rioya qilish sog'liqni saqlovchi asosiy omil ekanligini tasdiqlovchi maqollar ham bor:

- Och bo'l, yalang'och bo'l, salomat bo'l.
- Kechki ovqat-zahar, ovqat yegin sahar.
- Sihat tilasang ko'p yema, izzat tilasang ko'p dema.
- Tishsiz og'iz – tohsiz tegirmon.
- Qorning ochmasdan ovqat yegin,
- Qorning to'ymasdan qo'l artgin.
- Uzoq chaynasang, uzoq yashaysan va h.

Xalqimiz «boylikning boshi sog'liq» ekanligini juda yaxshi bilganlar va uni quyidagi maqollarda aks ettirganlar:

Qo'shiqlarning quyidagi turlari mavjud:

- 1. Lirk qo'shiqlar.** Bunday qo'shiqlarda insonlarning ruhiy olami, turli kechinmalari aks etadi, ular kasb, vaqt, joy tanlamaydi.
- 2. Mehnat qo'shiqlari:** mehnat turi jarayonida ijro etiladi. Uning quyidagi turlari mavjud:

- A) dehqonchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari;*
- B) chorvachilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari;*
- V) hunarmandchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari.*

Mehnat qo'shiqlari mehnat qiluvchilarga ruhiy ko'tarinkilik bag'ishlab, ularga kuch-g'ayrat, bardamlik ato etgan. Misollar:

Charx yigirib, charx yigirib,  
Chorbog' olgan man o'zim.  
Soyalarda o'zlashtirib,  
Kashta tikkan man o'zim.

Og'am to'ni, qo'zim to'ni,  
Tiklab-tiklab tikay uni.  
Yorim to'ni, jonim to'ni,  
Jonim bilan tikay uni.

Men og'amga to'n bichay  
Juma, chorshanba kuni.  
Uni og'am kiysinlar,  
Ro'zayu navro'z kuni.  
O'rmagimni to'qiymen,  
Kecha-kunduz no'qiymen.  
Qachon tamom bo'ladi,  
Deb ashula to'qiymen.

**3. Mavsumiy-marosim qo'shiqlari** – yil fasllari, turli marosimlar tasvirlangan qo'shiqlar bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- A) «Sust xotin» (yomg'ir chaqirish qo'shig'i).** Sust xotin zardushtiylarda yomg'ir tangrisi (osmon suvlari xudosi) hisoblangan. Bahor oyalarida yomg'ir yetarlicha yog'masa, «Sust xotin» qo'shig'ini aytib, xonadonlarga kirib yurishgan. Yig'ilgan xayr-sadaqaga Sust xotinga atab is chiqarishgan. Quyidagi misralarda yomg'ir hadya etish uchun Sust xotinga iltijo qilinmoqda:

Hosillar mo'l bo'lsin, sust xotin,  
Dehqonning uyi to'lsin, sust xotin,  
Yomg'irlarni yog'dirsin, sust xotin,  
Yomonning uyi kuysin, sust xotin,  
Osmondan tomchi tashlab, sust xotin,  
Elu yurtni to'ydirsin, sust xotin.

**B)** «*Choy momo* (shamol to'xtatish) qo'shig'i. Bunday qo'shiqlarda iltijo qilinadigan Choy momo, ya'ni «shamol momo» zardushtiylarning shamol tangrisi hisoblangan.

**V) «*Yo, Haydar*» (shamol chaqirish) qo'shig'i.** Qo'shiqda shamol homiysi sifatida Haydarga murojaat qilinadi.

«**Alla**» qo'shig'i – bolalarni tinchlantirish va uxlatish uchun aytildigan qo'shiq. Bu qo'shiqqa juda behisob ta'riflar keltirish mumkin. Jumladan, V.Alimasov: «Alla-mangulik madhiyasi. Allada barcha donishmandlar topgan va hali topolmagan donishmandlik yashiringan»<sup>11</sup>, - deydi. Quyidagi alla qo'shig'ini diqqat bilan o'qib, xir-goyi qilib ko'ring:

Yot, bolam, uxla qo'zim,  
Uylarda o'chdi chiroq.  
Uxlar asalarilar,  
Uxlar baliqlar tinchroq,  
Ko'kda oy yarqiraydi,  
Derazadan qaraydi.  
Ko'zlarining yumgin, qo'zim,  
Yot, quvonchim, qunduzim!  
Allayo, alla.  
Yig'lama hech, yulduzim!  
Baxtiyor o'tsin umring!  
Yot, quvonchim, qunduzim!  
Allayo, alla.

Qo'shiqlarda nafosat tarbiyasiga oid ma'lumotlar bilan birga jismoniy, aqliy, axloqiy tarbiyaga oid qarashlar ham katta o'rin egallaydi. Quyidagi qo'shiqda o'z farzandini «salomlashishga» odatlantira olgan ota-onasi maqtaladi:

Qizil-qizil olma terdim, tepa shoxdan egilib  
Qizlarjon o'tib boradir sochbog'i yerga tegib.

Demak, oilaviy-kundalik udumlarda bola sog'lig'ini saqlash va gigiyena qoidalariga rioya qilish bo'yicha asrlar davomida o'ziga xos tajriba yig'ilgan bo'lib, undan hozirgi kunda ham ta'lif-tarbiyada foydalaniшимиз mumkin.

Zamonaviy pedagogik fanlar va oilada bola tarbiyasi amaliyotining rivoji uchun shuni ta'kidlash joizki, deyarli barcha xalqlar, shu jumladan o'zbek xalqiga oila qurish, onalik, bola tug'ilishi va uni beshikdanoq tarbiyalash, bolalarni shaxslararo munosabatlarga va mehnatga tayyorlash bilan bog'liq sog'liqni saqlashga oid ko'plab urf-odatlar, an'analar ma'lum.

O'zbek xalqi o'zining shaxsiy tajribasiga ko'ra insonning jamiyatdagi hayotini ta'minlash uchun eng avvalo mustahkam sog'liq, jismoniy chiniqqanlik, harakatchanlik va h. muhimdir, degan xulosaga keldi. Bu xislatlar esa bolada turli yo'llar va vositalar orqali shakllanadi. Masalan, yangi tug'ilgan chaqaloqni cho'miltirish, yo'rgaklash, o'z vaqtida ovqatlantirish (emizish), yo'rgaklashdan oldin gimnastika mashqlarini qildirish – xalq onalik tarbiya maktabining muhim tarkibiy qismidir.

O'zbek xalqi bolaning dunyoga kelgan birinchi kundanoq uning sog'ligi haqida qayg'urganlar. Bu juda ko'p xalq urf-odatlarlarida o'z aksini topgan. Masalan, bola tug'ilgan dastlabki soatlardayyoq uni tuzli suvda cho'miltirilgan, shunda bola terisi butun umrga «mustahkam» bo'ladi deyilgan. So'ng uning chillasi chiqquncha yoniga onasi, enagasi, doyasidan bo'lak hech kim kiritilmagan. Yangi dunyoga kelgan bolani yomon ko'zdan asrash, gigiyenik himoya qilish uchun shunday qilingan. Chilla kunlari ona va bola yaxshi parvarish qilinib, oq yuvib, oq tarab, gard ham yuqtirmay, ozoda uyda saqlangan.

Har bir o'zbek xonardonida oila boshliqlari, kattalar bolalarda tozalik, shaxsiy gigiyena ko'nikmalarining shakllanishiga katta e'tibor beradilar, o'zlar ibrat bo'ladilar. Masalan, ovqat yeyishdan oldin albatta qo'llar yuvilgan, sochiqlarga artilgan, tozalik-ozodalik talab qilingan. Ovqatdan keyin qo'l yuvdirish udumi o'zgacha bo'lgan. Ovqatlanib bo'lib, dasturxon savobiga fotiha qilingach, oilaning dastyor bolalari chopqillab, dastsho'y va oftobada iliq suv keltiradi. Yelkada sochiq bilan kattalarning qo'liga suv quyib, dastsho'yda yuvdiradi. Qo'l kamida uch marta suvda yuvilishi talab qilinadi. Yuvilgan qo'l silkinmaydi, artiladi. Dasturxon yig'ishtirilgach, oilaviy suhbatlar, gurung davom etadi.

Xalqimiz milliy o'yinlarga jismoniy rivojlanishning muhim vositasi sifatida juda katta e'tibor qaratganlar. Xalq o'yinlarining ko'pchiligi

<sup>11</sup> Алимасов В. Фалсафа ёхуд фикрлаш лаззати. –Т.: Маънавият, 2001, 19-бет.

An'anaviy xalq madaniyati moddiy va ma'naviy yaxlitlikda insonning sog'lom turmush tarzini ta'minlashga qaratilgan, tarixiy jihatdan sinalgan ko'p asrlik xalq tajribasining juda katta bilim, ko'nikma va malakalariga ega. Xalq tajribasining bu imkoniyatlarini uning amaliy ahamiyatini hisobga olib, «Xalqning salomatlik pedagogikasi» deb atasak ham bo'ladi.<sup>58</sup>

Xalq madaniyati ijobjiy imkoniyatlarining barchasini hisobga olmasdan, eng asosiysi, yoshlikdan insonni ma'naviy-etik va jismoniy qiyofasini izchillik bilan shakllantirmasdan turib, ta'lim va tarbiyada yaxlitlikka erishib bo'lmaydi. Bir so'z bilan aytganda, xalq tushunchasiga ko'ra sog'lom turmush tarzi faqat jismoniy kuch, chaqqonlik, harakatchanlik va h.larning yig'indisi emas, balki insonning jamiyatdagi jismoniy va ruhiy muvozanati, axloqiy va sanitar-gigienik ozodaligi, etik vazminligi, psixologik xotirjamligi va boshqalardir.

Xalq pedagogikasi manbalari, tarixiy-etnografik, madaniyatshunoslik, xalq og'zaki ijodi va badiiy publitsistik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, insonning sog'lom turmush tarzini ta'minlashga qaratilgan xalq tajribasi juda ham ko'plab og'zaki tarbiya vositalarida, jumladan, allalar, maqollar, matallar, afsonalar, rivoyatlar, asotirlar, ertaklar, topishmoqlar, masallar, dostonlarda o'z aksini topgan.

Masalan, «Sog'lom tanda sog' aql», «Tozalik – sog'liq garovi», «Salomatlik – tuman boylik», «Bola sog'ligi – ona boyligi», «Boshingni salqinda saqla, oyog'ingni – issiqda», «Yurakda o't bo'lsin, miyada muz bo'lsin» kabi maqollar shular jumlasidandir.

Shuningdek, turli o'yinlar, mehnat sayillari, kundalikdagi jamoaviy tadbirlar, shaxslararo o'zaro munosabatlар, urf-odatlar, udumlar, an'analar, bayram tomoshalari kabi aralash va yaxlit holda birlashgan tarbiya vositalarida ham sog'lom turmush tarzi o'z ifodasini topgan.

Oila insonning tug'ilishi va rivojlanishi, uning jismoniy va axloqiy-etik qiyofasini shakllantiruvchi bevosita muhit sifatida asosiy, tarixiy yuzaga kelgan va asrlar davomida mustahkamlangan ijtimoiy institutdir. Shu bois dunyo xalqlarining juda ko'p o'ziga xos yaratuvchan an'analari, urflari va udumlarining «tug'ilishi», birinchi qo'llanishi, barqaror sinovdan o'tishi va ma'qullanishi aynan oilada amalga oshirilishi qonuniyidir. Shunga ko'ra insonning sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha xalq tajribasini aynan oiladan, uni rejalashtirish va har bir oila a'zolarining sog'lig'ini saqlash tizimidan boshlab o'rganish maqsadga muvofiqlirdi.

<sup>58</sup> Г.Н.Волков, Г.Д. Баубекова Этнопедагогика – Т.: ФАН, 2000, стр.82

Salom bersam alik oldi tol xivichdek egilib,  
O'stirgan onangga rahmat, o'lmagaysan ko'z tegib.<sup>12</sup>

O'z farzandini yaxshi tarbiyalay olmagan ota-onaning turli ta'na va isnodga qolishi mana bu qo'shiqda kuyylanadi:

Ikki yuzing pishgan olma,  
Noz etib hargiz buralma.  
Ishdan hech bo'yin tovlama,  
Chiroylisan, ko'rdik, kelin.

Onang seni o'stirgan xom,  
So'zlarimni uqqin tamom.  
Kattalarga bergil salom  
Shunda qadring ortar, kelin.<sup>13</sup>

**Afsonalar** – hayoliy uydirmalar asos bo'lgan kichik nasriy hikoyalari bo'lib, forscha «fusun», ya'ni «sehr, avrash, makr» so'zidan olingan. Afsonalar asosida tarixiy voqeа va hodisalar yotadi, lekin davrlar o'tishi bilan aniq ildizlarini yo'qotadi. Aristotel afsonalarini «haqiqatdan xabar beruvchi yolg'on hikoyalari» deydi. O'zbek xalqi qahramonlik afsonalaridan «To'maris» va «Shiroq» O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi ajdodlari, ularning erk va ozodlik uchun olib borgan qahramonona kurashlarini aks ettiruvchi asar sifatida ulkan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Quyidagi **«Bobur va kabutar»** afsonasida ziyraklik va topqirlik xislatlari ulug'lanadi:

Mirzo Bobur yoshlidan ziyrak bola bo'lib o'sibdi. Kunlardan bir kun Umarshayx saroy a'yonlari bilan qasrda o'tirgan ekan bir kabutar uchib kelib ayvon peshtoqiga qo'nibdi-da «g'ulu-g'ulu-g'ulu» qilaveribdi. Umarshayx a'yonlaridan «Kabutar ne deydur?»- deb so'rabdi. Anchadan beri urush ko'rmay, qilichiari qonsirab qolgan a'yonlar: «Oliy hazrat, qilichlarni qindan sug'urmoq kerak, deydur», - deb javob berishibdi. Shunda bir chekkada jim o'tirgan Mirzo Bobur: «Yo'q, kabutar unday demaydur. Bobo u qovun sayliga chaqiribdur. Jonivor xushxabarni keltiribdur», - debdi. Umarshayx kabutarni tutib keltirishni buyuribdi. Kabutarni tutib kelib, oyog'idagi mis halqani olib qarashsa, ichidan bir xat chiqibdi. Xatda: «Oliy hazrat, qovun ayni pishdi. Kelib qo'l urib bersalar», - deb yozilgan emish. Mirzo Boburning gapi to'g'ri

<sup>12</sup> Алавия М. «Ўзбек халқ қўшиклари». – Т., «Фан», 1959, 209-бет.

<sup>13</sup> Алавия М. «Ўзбек халқ қўшиклари». – Т., «Фан», 1959, 209-бет.

chiqqanidan hayratga tushgan Umarshayx o'g'lidan «Bunchalik topqirliging boisi nedur?», - deb so'rabdi.

«Ota,- debdi Bobur,- bu kabutarga e'tibor qilmadingiz. O'tgan yili qovun sayli xushxabarini xuddi ana shu jonivor xabar qilg'on erdi, kaminaning ko'zi kabutarning o'ng qanotidagi qora xolga tushgan zahoti ani tanidi va shu so'zni taxmin etdi.» - deb javob beribdi.

Yosh Mirzoning hushyorligi, topqirligiga qoyil qolgan Umarshayx a'yonlariga qarab: «Qilichni emas, aql-idrokni ishga solmoq lozimdir. Xabar qilinglar, barcha qovun sayliga otlansun!» - deb farmoyish beribdi.

**Rivoyatlar** – xalqning tarixiy o'tmishi, ajdodlarimiz ko'rsatgan buyuk qahramonliklar haqidagi badiiy yodnomalardir. Rivoyatlar afsonalarga qaraganda tarixga yanada yaqin turadi. Shunday qo'hna rivoyatlar borki, ularning mavzusi hali-hanuz o'z hayotiyligini, tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmagan. Quyidagi «**Ustoz o'giti**<sup>14</sup>» rivoyati mazmunidan yuqoridagi fikrlarning tasdig'ini ko'ramiz:

Alisher Navoiy butun umri davomida yaxshilarni qo'llab-quvvatlab o'tgan ekanlar. Lekin shoir yashagan davrda yaxshilar oz-u, yomonlar ko'p ekan. SHunda Husayn Boyqaro: «Do'stim Alisher, yurtda o'g'ri, poraxo'r, johil odamlar ko'payib ketdi. Buning oldi olinmasa, saltanat inqirozga yuz tutishi tabiiyidir. Shuning biror tadbirini qilmasak bo'lmaydi», - debdi.

Navoiy kishilarni yomon yo'ldan qaytarib, yaxshi yo'lga solish rejasini tuza boshlabdi, ustozining oldiga borib, voqeani aytib beribdi. Ustozi: «Buning birdan - bir yo'li odamlarning qabristonda ko'proq bo'lishlariga erishmoqdir. Ular qarindosh-urug'larining qabrlarini ziyorat qilsalar, bu hol o'zgacha ta'sir qiladi. Mozorga borgan kishi uni supurib-sidiradi, gullarga suv quyadi, toat-ibodat qiladi. Shunday paytda u bir kunmas-bir kun shu yerga kelishini o'laydi, vaqt(soati yetganda shu joyda yotishini anglaydi. Keyin: «Bu dunyoda yaxshilik qilgan ham, yomonlik qilgan ham o'tar ekan, kel men yaxshilikka yuz tutay, deb o'laydi va insofga kelib o'zgaradi, yaxshilik yo'lini tutadi,» - debdi. Navoiy ustoziga tasannolar aytib, do'sti sulton Husayn Boyqaroga: «Shunday bir farmon bitmoq kerakki, hamma shodlik kunlarini ham, noxush kunlarini ham qabristonda o'tkazsin», - deb maslahat beribdi. Husayn Boyqaro shunday deb farmon chiqaribdi. Hamma bayram kunlarini ham, ma'raka marosimlarini ham qabristonda o'tkaza boshlashibdi. Qabriston bamisolari tarbiya makoniga aylanibdi. Bora-bora

«Bolam katta bo'lsangiz kim bo'lasiz?» - deb so'rab qolibdi. Ibn Sino avvaliga nima deb javob berishni bilmay, duduqlanib qolibdi. Keyin:

- Tabib bo'laman, sizni, enamni, davolab yuraman, - deb javob beribdi.

- Boshqalarni-chi, boshqalarni davolamaysizmi? - so'rabdi otasi. Ibn Sino:

- Hamma-hammani davolayman, katta tabib bo'laman, - debdi. Ibn Sino kunu tun tabiblikni o'ylabdi, o't-giyohlarni, meva-chevalarni yeb, suvidan ichibdi. Ammo tabib bo'lomabd. Otasi katta-kichik shaharlarga olib borib, tabiblarga shogird beribdi, ammo ulardan bironbir narsa o'rganishga aqli yetmagan Ibn Sino qayerga borsa, u yerdan qochib kelaveribdi. Menden tabib chiqmas ekan-da, deb o'ylabdi. Otonasi ham o'g'limizdan tabib chiqmas ekan, boshqa hunarga o'rgatsak bo'larkan, degan xulosaga kelishibdi. Shu orada ibn Sino oltidan o'tib, yettiga kiribdi. Yetti yoshga to'lgan kuni kechasi tush ko'ribdi. Tushida ilonlar ko'p bo'lgan «Ilon o'rda»da yurgan yemish. Oq ilon unga oq suv berib, u dardga davo dermish; qizil ilon unga qizil suv berib bu dardga davo dermish; qora ilon ibn Sinoga qop-qora sut berib, falon kasalga davo dermish; sariq ilon sariq suv berib, piston dardga shifo dermish. ilonlar bilan o'ralib-o'ralib, yumalab-dumalab, o'ynab-kulib turib uyg'onib ketibdi. Uyg'onib ketgach, tundayoq ilon izlab ketibdi. Izlaysizlay ilonlardan bir-ikkitasini ushlab kelib, ulardan zahar olibdi-da, uni echki, qo'ylarning sutiga qo'shib, kasallarga davo bo'ladi, deb beraveribdi. Keyin esa har xil giyohlarni terib kelib, ezib, ilon zaharini qo'y-echki sutlariga qo'shib, kasalman deganlarga bera boshlabdi. Kim kasalman deb kelsa, ibn Sino davosidan davolanaveribdi. Yetti yoshidayoq yetti iqlimga ovoza bo'lgan ibn Sino tabiblar tabibi degan unvonga sazovor bo'libdi. Keyin o'ylab-o'ylab, tibbiyot timsoli sifatida ilon bilan uning zaharini tanlabdi.

Demak, hozirgi zamонавији farmasevtika va tabobat ilмининг асоси xalq tabobati ekanligini inkor etib bo'lmaydi, zero xalqimiz qadimdan turli xastaliklarni davolash usullarini bilishgan, bunda tabiatda mavjud barcha imkoniyatlardan foydalanishgan. Shu bilan birga tabiatning xalq tabobatidagi ahamiyatini yoshlarga tushuntirib, ularni tabiatni e'zozlash, undan oqilona foydalanishga o'rgatishgan.

Sog'lom turmush tarzi ham har bir xalqning eng muhim tabiiy ehtiyoji hisoblanadi va tarixiy shakllangan an'anaviy xalq mada-niyatining ajralmas qismi sanaladi.

<sup>14</sup> Асодирлар ва ривоятлар. – Т., «Ёш гвардия», 1990, 64-бет. (қискартириб олинди)

Luqmoni Hakim bemorga shunday debdi: «To‘g‘ri aytasan, men ham sening qayering kasalligini ko‘rib-bilib turibman: sening ko‘zing og‘rigan, bizning fahmu-farosatimizga ko‘ra ko‘zning bir tomiri oyoq ostida joylashgan. Sening o‘sha joying, ko‘zingning oyog‘ing ostiga ulashgan tomiri shamollagan. Shunga xina qo‘ysang, zora ko‘zing tuzalib, asli holiga qaytsa.» Tabibning aytganini qilgan bemorning ko‘zi ikki-uch kun o‘tmasdan tuzalib ketibdi.

Xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda musiqa, qo‘shiq-chilikdan ham foydalanilgan. **«So‘nggi pushaymon»** rivoyati bunga yorqin dalildir:

«Luqmoni Hakimning yakka-yu-yagona bolasi kasal bo‘lib qolibdi. Tabobat olamining bu ulug‘ vakili bolani davolashga har qancha urinmasin, vafot etibdi. «Luqmoni Hakim degan nomim bo‘lsa-yu, tanho farzandiimni saqlab qololmasam, unda ulug‘ligim qayoqqa ketdi, aqalli nega vafot etganini bilayin,» deb bolasining ichini yorib ko‘ribdi. Bolaning ichki a‘zolari sog‘ ekanu, faqat yuragiga qil o‘ralib qolgan ekan, natijada qon aylanish va yurak harakati susayib, o‘g‘li vafot etgan ekan. Buni ko‘rgan tabib nihoyatda afsuslanib debdi: «Evo, yo do‘mbira chertishni, yoki ko‘pkari chopishni o‘rgatmagan ekanman. Mabodo, ikkalasidan birontasini bilganida ham omon qolar edi-ya. Chunki do‘mbira chertganda kuy sehridan, ko‘pkari chopib, uloq ayriganda esa zavq-shavqdan yuragi kengayib, unga o‘ralgan qil uzilib ketishi va farzandim o‘lmay qolishi aniq edi».

Xalq tabobatida qo‘llaniladigan shifobaxsh o‘simgan va giyohlar haqida turli afsona, rivoyatlar to‘qilgan, «ulardan ba‘zilari timsollahtirilgan, ba‘zilari ilohiylashtirilgan, ba‘zilari esa muqaddaslashtirilgan.»<sup>57</sup> Masalan, mehrigyo o‘tining fazilati shundaki, bu giyohni qo‘lga kiritgan kishida shunday bir xosiyat paydo bo‘larmishki, kishilar uning oldidan ketolmay qolisharmish. Yonidan odamlar ketmaydigan, deimo ularga yaxshilik qiladigan, oqibatli, muruvvatli, saxovatlari kishilarga nisbatan «Mehrigiyosi bor», «Mehrigiyoli kishi» iboralarining qo‘llanishi bejiz emas ekan.

Dunyo tibbiyotda mashhur alloma Abu Ali ibn Sinoning mo‘jizaviy davolash usullari haqida ma‘lumotlar ko‘plab afsona va rivoyatlar orqali bizgacha yetib kelgan. **«Ibn Sino va ilon»** afsonasida aytlishicha, Ibn Sino juda yoshligidanoq zehni o‘tkir, didi baland, ishi bilan so‘zi bir bola bo‘lib o‘sgan ekan. Bir kuni otasi o‘g‘li bilan gaplashib o‘tirib:

o‘g‘rilar ham, poraxo‘rlar ham qabristonga borib, o‘zlarining xattiharakatlarini, xulq-atvorlarini o‘zgartira boshlabdilar.

Shunday qilib Navoiy bilan ustozining harakatlari tufayli yurtda o‘g‘ri, johil, badfe‘l odamlar kamayib, odamlar o‘rtasida ahillik, birodarlik va mehr-oqibat kuchayib borayotganini ko‘rgan Husayn Boyqaro Navoiy bilan ustoziga tasannolar aytibdi.

**Asotirlar (miflar)** – ibridooy insonlarning koinot, tabiat hodisalarining mohiyati, paydo bo‘lish sabablarini o‘zlaricha izohlash maqsadida yaratgan og‘zaki hikoyalari bo‘lib, voqealar yaxshilik va yovuzlik, yorug‘lik va zulmat, issiqlik va sovuqlik o‘rtasidagi abadiy kurashlar misolida ifodalanadi. Asotirlar bir qancha turlarga bo‘linadi:

**Antropogenik miflar** – insonlarning paydo bo‘lishi haqidagi asotirlar.

**Etnogonik miflar** – biror urug‘, qabila, xalqlarning paydo bo‘lishi haqidagi miflar.

**Exsatologik miflar** – insonlarning kelajagi haqidagi asotirlar.

**Etiologik asotirlar** – tabiat hodisalari, tabiatdagi biror predmet yoki hodisaning paydo bo‘lishi haqidagi miflar. Masalan, «Xazorasp» mifida uchar otlarni tutib, qo‘lga o‘rgatilganligi haqida hikoya qilinadi:

«Qadim – qadimlarda bir mamlakatda uchar otlar bo‘lgan ekan. Ular uchib kelib, buloqdan suv ichib bo‘lishgach, yana kelgan tomonlariga qarab uchib ketishar ekan. Odamlar ana shu otlarni tutib minmoqchi, qo‘shga qo‘shmoqchi bo‘lishibdi. Hech qanday yo‘l bilan ularni ushholmagach, uchar otlar doim kelib suv ichadigan buloqqa behush qiladigan dorilardan sepib qo‘yishibdi. Otlar uchib kelib, odatdagiday buloq suvidan sipporib, to‘yib-to‘yib ichishibdi-da, hushdan ketib, birin-ketin qulay boshlabdilar. Butazorlarda poylab turgan odamlar yugurishib chiqib, otlarni ushlab minib olaveribdilar. Keyin qanotlarini qirqib, ustiga minibdilar, qo‘shga qo‘shibdilar. Shu buloq atrofi obod, ko‘rkam bo‘lib ketibdi. Ekinzorlar paydo bo‘libdi. Odamlar bu joyning nomini Xazorasp, ya’ni ming ot qo‘ngan, ming ot tiligant joy, deb yurita boshlabdilar.

**Kosmogonik miflar** – dunyoning paydo bo‘lishi, koinot jismlari haqidagi miflar. Koinot jismlari o‘rtasidagi nisbatni o‘zining insoniy turmush doirasiga kiritib izohlash kosmogonik asotirlarga xos yetakchi xususiyat hisoblanadi. Uzoq ajdodlarimiz koinot sirlarini tushunmaganlar, shu bois Oy va Quyoshni ota-onasi, yulduzlarini esa ularning bolalari sifatida izohlaganlar. Ularning kun va tunda doim o‘rin

<sup>57</sup> М.Муродов. Этномаданият. – Т.: Адолат. 2003. 133-6.

almashib turishini esa er-xotinning nizolashib qolganliklari tarzida tushuntirganlar.

Quyidagi asotirda esa Oy va Yulduzning muhabbatি talqin qilinishi orqali «Yulduzning uchishi» izohlanadi: Osmonda turib olam-jahonni yorituvchi Oy tun malikasi Yulduzni sevib qolibdi. Yulduzning ishqи ham Oyga tushibdi. Ikkalovi bir yostiqqa bosh qo'yib, birga yashaymiz deb ahdu paymon qilishibdi. Buni Quyosh bilib qolibdi. Oy bilan Yulduzning bir-birini sevib, ahil oila qurishiga qarshi chiqibdi. Oyga: «Bu yo'lingdan qayt», - debdi. Oy: «Yo'q, qaytmayman. Ahdim ahd, Yulduzga uylanaman», - debdi. Quyosh Yulduzga: «Bu niyatingdan qayt», - debdi. Yulduz: «Yo'q, bu yo'ldan qaytmayman. Va'dam va'da», - debdi. Quyosh: «Hali shunaqami, mana bo'lmasa», - deb Oy bilan Yulduzga tashlanibdi. Yulduz qochib qolibdi. Oy qocholmabdi. Quyosh uning yuzini timdalab olibdi. Yulduzning uchishi shundan emish. Oyning yuzida dog' bo'lishi shundan emish...

**Tez aytishlar** – xalq og'zaki ijodining juda qiziqarli janrlaridan bo'lib, ma'lum so'z, so'z birikmasi yoki tovushni to'g'ri talaffuz qilishga, xotirani mustahkamlashga va nutqni o'stirishga mo'ljallangan. Quyidagi misollarni tez aytishga urinib ko'ringchi:

- Qishda kishmish pishmasmish, pishsa kishmish qishmasmish.
- Namanganda usta Muso puch pistafurushning oltmis uch pud pistasi bor ekan. Oltmis uch pud puch pistasi bo'lsa ham o'sha usta Muso puch pistafurush, oltmis uch pud pistasi bo'lmasa ham o'sha usta Muso puch pistafurush.
- O'ktam ko'm-ko'k, ko'rak ko'klam rasmini ko'p ko'k qalamda chizmoqchi.
- Qurilishga terak kerak, demak terak ekish kerak.
- Oydinga oynadan oldin oy mo'raladi, keyin Oydinga oynadan oyisi mo'raladi.
- Saharlab shahardan hasharga bordim, shahardan hasharga saharlab bordim.
- Haskash hashakni hash-pash deguncha haskashlaydi.
- Zang bosganga rang yuqmas, rang yuqqani zang bilmas.
- Kishmish yegan kishining tishi qamashmasmish.

**Masal** – arabcha «namuna» so'zidan olingen, unda voqelik o'simlik, hayvon, ba'zan inson obrazlari orqali tasvirlanadi. Masal ta'limiy-tarbiyaviy mazmunga ega bo'lgan, ko'proq maishiy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi kichik hikoyachalardan iborat. Ko'proq achchiq kesatiq, piching ustun keladi.

kelishidan xabar qilishardi, kattalar esa boychechakni ko'zlariga surtib, «omonlik-esonlik» qilishardi.

Qozog'iston bilan chegaradosh bo'lgan hududlarda oyni ilohiy bilib, unga sig'inishgan. Yangi oyni ko'rganda: «Oy yangi chiqibdi, yanagi oy, yanagi kunlargacha eson-omon, o'ynab-kulib etaylik, Allohu akbar», - deb fotiha o'qilgan. Bolalar uchun «Oymoma, kulcha tashlang», - deb so'ralgan.

Xalq pedagogikasida ekologik tarbiyaga oid misollarning barchasi tabiatni e'zozlash, ko'z qorachig'iday asrash, tabiat saxovatidan me'yorida foydalanish, tabiat go'zalligini asrab-avaylab, kelgusi avlodga yetka-zish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, o'simlik-giyohlarni timsollashtirish esa ona-tabiatni asrashning xalqona tarbiya ko'rinishiga aylangan.

2.Olimlarning aniqlashicha, O'zbekistonda o'sadigan o'simliklar soni qariyb 4150taga etadi. Shulardan 577tasi shifobaxsh xususiyatlarga ega.<sup>56</sup>

Ana shu shifobaxsh o'simliklarning mo'jizaviy xosiyatlari qadim zamonalardan xalqimizga ma'lum bo'lgan va xalq tabobatida ulardan turli kasalliklarni davolash uchun foydalanib kelangan. Donishmand xalqimiz turli dov-daraxtlar, giyohlar, o'simliklarning guli, bargi, mevasi va tanasidan har xil dori-darmonlarni tayyorlashni bilganlar. Xalq tabobati haqida gap ketar ekan, dunyoga dong'i ketgan Luqmoni xakim albatta tilga olinadi. Luqmoni xakim – miloddan avvalgi ming yillikdan oldingi davrlarda tug'ilgan, ming yil umr ko'rgan. Xalqimiz uni buyuk xakim, avliyo, donishmand sifatida e'tirof etishgan. Quyidagi «**Luqmoni xakim**» rivoyatida uning ajoyib davolash usuli haqida so'z yuritiladi:

«Luqmoni hakim dunyoga dong'i ketgan tabib ekan. U odamlarning dil-dilini, giyohlarning, jamiki hayvon, jonli-jonsiz mavjudotlarning tilini ham bilar ekan. Ular xastalansa, dardga chalinsa davolar ekan. Kunlardan bir kuni bir kishining ko'zi qattiq og'rib qolibdi. U ko'zini juda ko'p tabiblarga ko'rsatibdi, davo topa olmabdi, olimu ulamolarga boqtiribdi, shifolanmabdi. Oxiri izlab-izlab uzoq bir o'lkada yashovchi Luqmoni Hakim haqida darak topib, uning oldiga boribdi. Luqmoni Hakim ko'zi og'rigan kishining u yoq-bu yog'ini ko'rgan bo'libdi-da, oyog'iga xina qo'yishni maslahat beribdi. Shunda bemor tabibga qarab: «Ey, ulug' hakim, bu nima deganing, yo men bilan hazillashyapsanmi? Axir mening oyog'im og'rigani yo'q-ku, unga xina qo'ysam. Ko'zim og'riyapti, ko'z qayoqda-yu, oyoq qayoqda? - deb hafa bo'libdi. Shunda

<sup>56</sup> Холматов X.X. ва б. Ўзбекистон шифобахш ўсимликлари. Т., «Ибн Сино», 1991, 3-6.

ajdodlarimiz shu odobnoma asosida ekologik tarbiya topib kelgan. Xalq pedagogikasi manbalariga kiruvchi turli urf-odatlar, irim-sirimlar, udumlar, oila va qo'ni-qo'shnichilik, xalq og'zaki ijodi, san'at asarlari va boshqalar vositasida ekologik odobnoma farzand tug'ilishi bilan o'rgatila boshlangan. Shu jumladan xalq maqollarida har bir faslning fazilati, tabiatning mo'jizaviy jarayonlari falsafiy jihatdan chuqur ifodalangan. Masalan:

- Tabiatga boqsang -boqadi, oltin isirg'a taqadi.
- Yaxshi yil bahoridan ma'lum, yaxshi kun saharidan.
- Yozning yomg'iridan qo'rq, qishning qirovidan.
- Qish o'chog'i tor, tur, uyingga bor.
- Kuzning bir kuni qishning bir oyini boqar.
- Qora bulutdan tiniq suv tomar.
- Kuningdan bir kun qolsa ham ko'chat ek!

O'zbek xalqining tabiatni asrash bilan bog'liq qadriyatlar rang-barang. Jumladan, isiriq, ko'ztikan, qalampirmunchoq, tasbeho't, sedana, rayhon, do'lana, otquloq, chaqirtikan, kiyiko't, yalpiz kabi o't-giyohlar «ko'z tegmasin» degan maqsadda uy peshtoqlariga, darvoza tepalariga osib qo'yilgan. Xalqimiz turli dov-daraxtlar bilan bog'liq qadamjolar, ziyoratgohlarga shifo izlab borganlar. O'simliklarga turli balo-qazova falokatlardan saqllovchi omil sifatida e'tiqod qilish an'analari ekologik qadriyatlarning bir ko'rinishiga aylangan. «Demak, ayrim o'simlik-giyohlar va daraxtlarni timsollashtirib, unga e'tiqodda bo'lish, ekologik tarbiyaning eng qadimgi, xalqona va ta'sirchan ko'rinishidir.»<sup>55</sup>

Xalq pedagogikasida tabiatdagi nafaqat o'simlik dunyosi, balki hayvonot olamini ham himoya qilish, saqlash kabi ibratli fikrlar bor. Bu tabiat va hayvon, hayvon va inson munosabatlarini aks ettiruvchi maqol, ertak, doston, afsona va rivoyatlar, asotirlar va qo'shiqlarda o'z ifodasini topgan. Xalqimiz nutqida tez-tez ishlataladigan «gullarni uzma, yomon bo'ladi», «quşlar, hayvonlarga ozor berma, yomon bo'ladi» kabi ogohlantiruvchi so'zlarning ta'sir kuchi ham tabiatni asrashda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Tabiat bilan bog'liq marosim va bayramlar ham insonning axloqiy, jismoniy va ekologik tarbiyasida muhim o'rin tutadi.

Ilgari bolalar bahor elchisi - boychechak gulini terib, uning sha'niga «boychechagim boylandi» degan ashulani aytib, uyma-uy yurib, bahor

**Askiya** – arabcha «zakiy» so'zining ko'plik shakli «askiyo» so'zidan olingen bo'lib, «zehni o'tkir, so'zamol, zakovatli» ma'nolarini bildiradi. Askiya ommaviy janr hisoblanadi, odatda xalq sayillarida, to'ylarda va boshqa marosimlarda ijro etiladi, hozirjavoblik, ziyraklik va donishmandlikni, til boyligini, badiiy estetik didni talab qiladi. Askiyada tanlab olingen mavzu atrofida kulgu uyg'otiladi. Dunyodagi birorta xalqda og'zaki ijodning askiya turi yo'q. Bu hol o'zbek tilining boyligi, ifoda imkoniyatlarining ko'pligi, ta'bi nozik va serzavqligidan dalolat beradi.

**Lof** – hazil-mutoyibaga asoslangan janr bo'lib, biror voqeani o'ta bo'rttirib aytishdir.

**Termalar** - ijtimoiy hayotdagি turli hodisalar, shaxs va jonivorlarning ta'rifi va tanqidiga bag'ishlangan, pand-nasihat, odob-axloq haqida yaratilgan, 10-12 satrdan 150-200 dan misragacha bo'lgan lirik, liroepik she'r bo'lib, baxshilar tomonidan kuylanadi.

**Latifa** – arabcha «latif» so'zidan olingen bo'lib, «nozik», «yoqimli», «zarif» degan ma'nolarni anglatadi. Mayin kinoya, qochiriqlar ishtirok etuvchi kulgili, kichik hajmli hikoyalardir. Latifalardagi Nasriddin Afandi xalqning yuksak ideallarini, orzuistaklarini aks ettiruvchi obrazdir. U o'ta aqli, so'zamol, nozik tabiatli, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan mehnatsevar, insonparvar, adolatli, mehr-oqibatli, xushta'b, qiziqchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Latifada har bir davning yutuq va kamchiliklari Afandi obrazi orqali o'z ifodasini topadi, shu bois u o'zbek xalq og'zaki ijodining hamisha navqiron, hozirjavob, ommabop janri hisoblanadi.

Misol: Nasriddin Afandiga: «Asal bilan sirka qo'shilmaydi, ular birga tanovul qilinmaydi», -dedilar. «Nega endi qo'shilmas ekan», -deb yarim kilo asal bilan yarim kilo sirkani aralashtirib, ichib yubordi. Biroz o'tgach, yuzining ko'karayotganligini ko'rgan sheriklari: «Ha, asal bilan sirka bir-biriga qo'shilmaydi-a? –deyishganda, Afandi past kelmay: «Yo'q, nega endi, asal bilan sirka bir-biriga qo'shilib olib, meni o'rtadan chiqarib tashlamoqchi bo'lishyapti!...»- dedi.

Ko'rib turganimizdek, xalq pedagogikasining manbai sifatida xalq og'zaki ijodining o'rni beqiyos bo'lib, yosh avlodning kamol topishida uning tarbiyaviy ta'siri juda kuchlidir. Ayni choqda, xalq og'zaki ijodidagi pedagogik g'oyalar o'zbek klassik adabiyotiga, yozma adabiyotdagi g'oyalar esa xalq og'zaki ijodiga ta'sir ko'rsatadi, natijada mushtarak pedagogik qarashlar tarkib topib boradi. Jumladan, hind xalqining «Kalila va Dimna», Nizomul Mulkning «Siyosatnoma», Nosir

<sup>55</sup> Муродов М. Этномаданият. – Т.: Адолат, 2003. 113-6.

Xisravning «Saodatnoma», «Ro'shnama», Yusuf xos Xojibning «Qutadg'u bilig», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Ahmad Yugnakiyning «Xibatul haqoyiq», Kaykovusning «Qobusnoma» kabi buyuk asarlarida xalq og'zaki ijodidagi pedagogik g'oyalar muhim o'rinni egallaydi.

Xalq og'zaki ijodida yoshlarni insoniy fazilatlarga odatlantirish borasida juda ko'p misollar mavjud. Masalan, «halollik» va «to'g'rilik» so'zlari bir ma'noda ishlatilishini quyidagi maqollarda ko'rishimiz mumkin:

- To'g'ri o'zadi, egri to'zadi.
- To'g'ri bo'lsang yetarsan murodga, egri bo'lsang qolarsan uyatga.

Halollik va rostgo'ylikni tarbiyalash, ya'ni bolalarni rost so'zlashga odatlantirish birinchi navbatda oila tarbiyasiga bog'liqligi qator xalq og'zaki ijodi namunalari, maqol, ertak va dostonlarda aks etgan:

- Qush uyasida ko'rganini qiladi.
- Yolg'onchiga qo'shilma, rost so'zingni yashirma.

Qo'shnilarini bir necha bor uyimga o't ketdi deb aldab, haqiqatdan uyiga o't tushganda hech kim yordamga kelmay, xonavayron bo'lgan yolg'onchi haqidagi ertak, «To'g'ri va egri», «To'g'rilik-boylig» kabi ertaklarning so'ngida doimo to'g'rilik, halollik, rostgo'ylik g'olib chiqadi.

Xalq pedagogikasida kamtarlik hamisha ardoqlanadi, maqtanchoqlik esa qoralanadi. Buni quyidagi maqollarda ko'rish mumkin:

- Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma.
- G'ururlik g'urbatga solar.
- Kamtarga – kamol, manmanga – zavol.
- Manmanlik – xudo urganlik.

Haqiqiy kamtar kishilar sahiy va sahovatli bo'la olishi ham xalq og'zaki ijodida o'z aksini topgan. Insonning saxiy yoki baxil bo'lishi dastavval oilada aka-uka, opa-singil munosabatlarda shakllanadi va rivojlanadi. Buni quyidagi maqollarda ko'rish mumkin:

- Saxiy topsa barcha yer, baxil topsa bosib yer.
- Saxiy bilan xasis bir quduqdan suv ichmas.

Xalq pedagogikasida «yxaxshi kishilar» hamma oliyanob insoniy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan kishilar, «yomon kishilar» ana shu fazilatlardan mahrum bo'lgan kishilar ekanligi haqida ham qator misollarni topish mumkin:

- Yaxshidan ot qoladi, yomondan – dod.
- Yaxshi bilan bo'lsang yo'ldosh, og'ir ishingga qo'ldosh.

qobiliyat, sevgi va hokazo. Qo'shib borayotgan har bir nol insoniylikni o'n baravar kuchli qiladi.

Keyin qo'liga lattani olib, qator boshidagi «1»ni o'chirib tashladi. Doskada bir talay «0»lar qoldi. Ustoz jumjilikka mazmun berdi:

- Ko'rdingizmi, insoniylik bo'limasa, barchasi bekor.

Sinfda so'zsiz sukunat xukm surardi.

## BILASIZMI?

O'zbek odatlari ko'ra oilada o'g'il farzand tug'ilsa, unga atab qurilish ashyosi bo'ladigan ko'chatlar ekilgan, u voyaga yetguncha navnihol ko'chatlar terakzorga aylanib ketgan.

## BU QIZIQ!

O'zbeklar qayerda va qanday sharoitda bo'limasin yonidagi yaqin kishi, safdoshini o'z taomiga sherik qilish rasm bo'lgan. Bu udumning ancha kuchli ekanligini tasdiqlovchi «ko'z haqi» iborasi hozirgacha saqlanib, safdosh rizqini berish ma'nosida ishlatiladi. Bu odatga ko'ra, kimning ko'z oldida non yopilsa yoki ovqat tayyorlansa, shu kishi o'zining ko'z haqiga ega bo'lishi mumkin, deb hisoblangan. Uyda, ayniqsa, bayram va hayit paytlarida shirin taomlar pishirilsa, qarindosh va yaqin qo'shnilariga bir kosa suzib chiqarish odati hozirgacha saqlangan. Shu tarzda ayrim marosimlarda dasturxon qilib kelinsa, undagi oziq-ovqatlarni qavmu-qarindosh va qo'shnilariga tarqatish rasm-rusumi mavjud. Shuningdek, shaxsiy bog' va undagi sabzavot va mevalar pishganda o'z yaqinlari bilan bo'lishish odat bo'lib qolgan. Mazkur urf-odat o'zbeklarda milliy an'anaga aylanib, hozir ham amal qilinadi.

### III.3. Xalq pedagogikasida tabiat va inson munosabatlari, xalq tabobati va sog'lom turmush tarzining ifodalananishi

1. Ma'lumki, ona tabiat o'zining beqiyos saxovati bilan insonlarga xizmat qilib keladi. O'z navbatida xalqimiz ham tabiatni asrash, avaylash, ardoqlash bo'yicha o'ziga xos odobnama yaratganki, avlod-

omillardan biri uning so‘zi, nutqidir, zero suvning mazasi muz bilan, odam yaxshiligi so‘z bilan bilinadi», deydi («Mahbub ul-qulub»).

Xulosa qilib aytganda, yoshlarga xalqimizga xos bo‘lgan axloqiy me’yorlarni o‘rgatish va ularga insoniy fazilatlarni shakkantirishda hamda barkamol shaxs tarbiyasi masalalarida xalq pedagogikasining barcha manbalarida, ya’ni halq og‘zaki ijodida janrlarida ham, diniy ta’limotlarda ham, buyuk mutafakkirlar ijodida ham yaxlit uyg‘unlik borligiga amin bo‘ldik.

### Mavzu bo‘yicha nazorat savollari:

1. O‘zbek milliy mentalitetiga xos jihatlar haqida gapiring.
2. Xalqimizga xos bo‘lgan axloqiy me’yorlar nimalardan iborat?
3. Nima uchun mehmonorchilik madaniyatimizning ko‘hna manbalari bo‘lib hisoblanadi?
4. Mehmonorchilikda ishlatiladigan tavozeli jumlalarni aytинг.
5. Xalqimizga xos bo‘lgan nutq madaniyati, so‘zlashish odobi haqida nimalarni bilasiz?
6. Diniy ta’limotlarda muloqot odobi to‘g‘risida nimalar deyilgan?
7. Xalqimiz hayotida ishlatiladigan yaxshi tilaklar, olqishlarga misol keltiring.

**TOPSHIRIQ.** Quyidagi insoniylik fazilati haqidagi matnni o‘qing va o‘z fikringizni bildiring.

### Nolning qiymati

Universitet qoshidagi litseyning 2-kurs o‘quvchilari iqtisodiyot fani o‘qituvchisini kutishayotganda sinfxona o‘quvchilarning shovqin-suronidan larzaga kelar ekan, eshikdan qattiqqa'l ustozning qorasi ko‘rindi. U bolalarga nigohlarini qadab, doskaga l raqamini yozib qo‘ydi.

- Qaranglar! – dedi u. – Bu insoniylikdir. Insoniylik - hayot bizga berishi mumkin bo‘lgan eng qimmatbaho narsa.

Keyin «1»ning yoniga «0» raqamini yozdi va:

- Bu muvaffaqiyat. Insoniylik muvaffaqiyat bilan birga bo‘lsa «1»ni «10»ga aylantiradi,- dedi. So‘ngra doskadagi raqam yoniga yana bir «0»ni qo‘shdi.

- Bu esa tajriba. «10» bo‘lsangiz «100»ga aylanasiz. Shu tariqa «0»larni istaganingizcha qo‘shishingiz mumkin: intizom, malaka,

- Yomonga bo‘lsang yo‘ldosh, tegar boshingga oxiri tosh.

Muxtasar qilib aytganda, yaxshi insonlarga xos fazilatlarning sanog‘i ko‘p, unga xalq og‘zaki ijodida keltirilgan namunalar ham behisobligi bois xalq pedagogikasida xalq og‘zaki ijodining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Shu sababli ham ma’naviyatimiz, madaniyatimizning beba boyligi bo‘lmish xalq og‘zaki ijodi namunalarini yanada chuqurroq o‘rganish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ming yillik madaniyatimiz tarixida xalqimiz badiiy tafakkurining mahsuli sifatida yuzaga kelgan nafis so‘z san’ati durdonalari behisob. Ana shu ma’naviy namunalarni o‘zida mujassam etgan badiiy og‘zaki ijod turlaridan biri eposdir. Epos mazkur xalq haqidagi barcha ma’lumotlarni qomusiy qamrab oluvchi janrdir. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunda yosh avlodni ma’naviy, jismoniy barkamol qilib tarbiyalashda qadimiy, milliy qadriyatlarning o‘rni alohida ta’kidlangan. Bu qadriyatlar ning tarkibiy qismi bo‘lgan dostonlar yoshlarga insoniy fazilatlarni singdirishda, ularni komil inson qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida dostonlar avlodlar dunyoqarashi va pedagogika olamining ko‘zgusi bo‘lib, komil insonni tarbiyalashda o‘ziga xos beba boq qadriyatlardan biri hisoblanadi. Zero, xalq dostonlari qahramonlarining sarguzashtlari, ularning qiyinchiliklarni yengib, har jihatdan chiniqib borishi har bir yosh uchun ibratdir. Dostonlar xalqning o‘zligini, tilini, urf-odatlarini, qadriyat va an‘analarini ifodalab beruvchi ko‘zgu ekanligini yuqorida ta’kidladik. Xalq donishmandligi ruhi bilan sug‘orilgan dostonlarni chuqur va atroficha o‘rganish esa yosh avlodning ma’naviy kamolotini yuksaltirishga xizmat qiladi.

«Doston» so‘zi qissa, hikoya, shonu shuhrat, sarguzasht, ta’rif va maqtov ma’nolarida ishlatiladi. Adabiy termin sifatida yirik hajmli epik asar nazarda tutiladi. Dostonlarda tasvirlangan voqeа-hodisalar yakka shaxs - favqulodda kuch-qudratga ega bo‘lgan xalq idealidagi bahodir atrofiga birlashtiriladi. Badiiy adabiyotda asosan ikki usulda yaratilgan dostonlar bor. Birinchisi, asrlar davomida xalq og‘zaki ijodida baxshilar tomonidan og‘zaki tarzda kuylab kelingan dostonlar bo‘lsa, ikkinchisi, yozma shaklda shoirlar tomonidan ijod qilingan dostonlardir. Masalan, «Alpomish», «Go‘ro‘g‘li» turkumidagi dostonlar, «Malikai ayyor», «Ravshan», «Kuntug‘mish», «Rustamxon» kabilalar og‘zaki doston namunalaridir. Yusuf Xos Xojibning «Qutadg‘u bilig», Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro‘z», A.Navoyning «Hayratul abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnum» kabi asarlari esa yozma adabiyotdagи dostonlar hisoblanadi. Og‘zaki ijoddagi dostonlarni

baxshilar kuylaydilar. Qadimda «Baxshi» so‘zi xalqona usullar bilan bemorni davolovchi «tabib», ayrim hududlarda «ustoz» ma’nolarini anglatgan. Bugungi kunda «xalq dostonlarini kuylaydigan san’atkor» ma’nosini bildiradi. Dostonlar ham she’riy, ham nasriy parchalardan iborat bo‘lib, baxshi soz chertganda sozanda, she’riy parchalarni kuyga solib aytganda xonandaga aylanadi. Ijrochi baxshilar do‘mbira, tor, dutor chalib, qo‘biz chertib doston aytganlar. Shu bois dostonchilik kechalari tinglovchilar uchun katta bayram bo‘lgan. Bunday kechalarda odamlar o‘rtasidagi hamma ginaxonliklar unutilgan, turmush tashvishlari chekingan. Folklorshunoslar tomonidan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Islom shoir, Po‘lkan shoir, Amat baxshi, Murod baxshi, Qurbannazar Abdullaev (Bola baxshi) kabi o‘zbek xalq baxshilaridan 150 dan ortiq (variantlari bilan 400 dan ortiq) dostonlar yozib olingen bo‘lib, ularning ko‘pchiligi alohida-alohida kitoblar sifatida nashr etilgan. Dostonlar mazmuniga ko‘ra qahramonlik, jangnoma, romantik, tarixiy, kitobiy kabi bir necha turlarga tavsiflanadi.

Dostonlarda ezgulik, ozodlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, qahramonlik kabi insoniy g‘oyalar mislsiz mahorat bilan tarannum etilgan va insonni hamisha ma’naviy kamolot sari yetaklagan.

Ana shunday umrboqiy asarlardan biri «Alpomish» dostonidir. O‘n asrki bu doston nafaqat xalq tilida balki xalq dilida yashab keladi. Filolog M.Qo‘shmoqovning yozishicha: «Alpomish alp bo‘lgani uchun ming yillar davomida xalq yuragida o‘lmay yashab keladimi? Aslo! Alplik Alpomish obrazining bir qirrasi, xolos. Alpomish aslida ma’naviyat qahramonidir. U vatan mustaqilligi, xalqning ma’naviy birligi uchun ozodlik, ezgulik, tinchlik uchun kurashgan qahramon... Ma’naviyat qahramoni bo‘lgani tufayli ham u xalqning ideal qahramoniga aylandi. Shuning uchun o‘zbek xalqi o‘z tarixining eng qora kunlarida ham Alpomishni yuragida saqladi, undan madad oldi. Undan ibrat qilib Alpomish o‘g‘illarni, Barchin qizlarni voyaga yetkazdi». <sup>15</sup>

«Alpomish» dostonida ishq - muhabbat, jang lavhalari, tarixiy ma’lumotlar bor, ma’lum sabab bilan ajralib ketgan xalqni birlashtirish yo‘lida xizmat ko‘rsatgan xalq farzandining yurt ozodligi, elni birlashtirish maqsadidagi safarlari, o‘zidan son va kuch jihatidan ustun turgan dushman bilan olishuvlar aks etadi. Dostonda kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish kabi ibratlari tarbiyaviy tushunchalar, oilada farzandlar fikriga qulq solish, ular bilan maslahatlashish, aka-ukalar

<sup>15</sup> Кўшмоков М. «Чеченликда сўзга сувдайни оқиб...» - Т.: F.Фулом иомидаги «Адабиёт ва санъат» нашр, 1978.

do‘sit sifatida ko‘rishi kerak. Agar u xatoni ochib bersa va haqiqatni aytsa, minnatdorchilik bildirish zarur»,<sup>54</sup> - deydi.

3. Nutq madaniyati, muloqot, bahs-munozarani tartibga solish uchun islom dini joriy qilgan odoblardan yana biri tavozeli bo‘lish, kibrdan saqlanishdir.

Buning ma’nosи shuki, o‘zini ko‘z-ko‘z qilish, gerdayish, boshqalardan ustunligini ta’kidlash ruhiga qurilgan muloqot samarasiz tugaydi, eng yomoni, ikki tomon orasidagi tafovut kuchli ziddiyatga aylanadi.

4. Suhbatdoshning fikrini bosiqlik bilan tinglash, uning so‘zini og‘zidan tortib olmaslik, shaxsiyatiga tegmaslik, sabr-toqat va bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lishdir.

Tomonlardan biri boshqasiga o‘z fikrini bayon qilarkan, go‘zal muomala doirasida, mantiqqa tayanib, hurmat bilan muloqot qilishi kerak. Donishmandlar bejiz aytishmagan: «Men to‘g‘ri deb bilgan fikrimda xato ham bo‘lishi mumkin. Menga yanglishdek tuyulgan boshqa birovning fikri esa, ehtimol, to‘g‘ridir. Biz faqat haqiqatni aniqlash va o‘zaro kelishish uchun muloqot qilamiz. Bahs nihoyasiga yetib, masala hal bo‘lgach, bir-birimizdan uzr so‘raymiz.»

5. Islomdagi so‘zlashuv odoblaridan yana biri bu haqgo‘y, go‘zal xulqli, ta’masiz, qalban pok, oqil insonlarning hurmatini joyiga qo‘yish bo‘lsa, yana biri xukm va xulosalarni umumlashtirish, so‘zlayotgan paytda o‘ta ehtiyyot bo‘lish, muammo va masalalarning mohiyatini sinchiklab o‘rganish, iboralarni o‘z o‘rnida ustalik bilan ishlatishdir. Shuningdek, hoyi-xavaslarga ergashib, ko‘zlarini ko‘r, qulqlari kar bo‘lib qolganlar bilan oqilona muomalada bo‘lish ham Islomning o‘ziga xos muloqot odoblari sirasiga kiradi.

6. O‘zaro muloqot har ikki tomonga ham foydali bo‘lishi, go‘zal oqibat va yaxshi natijalarga erishish uchun lozim bo‘lgan odoblardan biri – yolg‘on mish-mishlarga emas, to‘g‘ri gaplarga tayanish, uydurma xabarlarga emas, balki aniq ma’lumotlarga asoslanishdir.

Darhaqiqat, nutqiy farosat, nozik muomala odobi Turonda inson umumiyligi axloqining tayanch ustunlaridan sanalgan. Hadisi sharifda: «Kishining zebu-ziynati, go‘zalligi uning tilidadir», deyilsa, xalq maqollarida: «Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib gapiradi», deyiladi. Buyuk allomalarimizdan Majdiddin Xavofiy: «So‘zni me’yor bilan so‘zlagan, hayot qadrini anglagan, butun kuch va qudratini ilm va kamolot hosil qilishga sarflagan kishilar aqli kishilardir», - degan bo‘lsa, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy «Insonning odob-axloqini belgilaydigan

<sup>54</sup> Имом Фаззолий. Ихё улумуд-дин.

- O'zingni bos, - debdi yo'lovchi. – Birinchi yili sen menga «donishmand» deb murojaat qilding. Men senga donishmandning javobini berdim. Natijada sen boyib ketding. Keyingi safar esa menga «gado» so'zini munosib ko'rning va men senga gadoning javobini berdim, - degan ekan.<sup>52</sup>

**Tabib va ilon** haqidagi rivoyatda esa, tilning zahri ilon zahridan ham dahshatliroq ekanligi haqida gap ketadi:

Tabib bir bemorni davolash uchun ilon izlab topadi. Shunda ilon undan so'raydi: - Sen meni o'ldirib, zahrim bilan bir odamning hayotini saqlab qolmoqchi bo'lyapsan, to'g'rimi?

Tabib: - To'g'ri, - debdi.

– Endi qulq sol, - debdi ilon. – Bekor qilyapsan, bemor mening zahrim bilan tuzalmaydi. Agar biz chaqqanimizda tuzalar edi. Uni do'sti chaqqan. Odamning zahrini ilonning zahri yo'q qila olmaydi. Bilasanmi, Olloh bizni shunday sovuq, yerda sudralib yuruvchi qilib yaratdi, qo'l-oyoq ham, insonlar kabi aql ham bermadi. Ammo biz ilonlar bir-birimizni chaqmaymiz. Siz insonlarga esa aqlga qo'shib butun borliqni berdi. Shunda ham noshukurchilik qilib, bir-biringizni chaqasizlar, - debdi. Tabib ilonni qo'yib yuboribdi. Haqiqatdan ham bemorni o'z do'sti haqoratli so'zlar bilan chaqqan ekan, hech qanaqa dori kor qilmay olamdan o'tibdi. Bemorning do'sti tishi bilan emas, tili bilan, zahar-zaqqum gaplar bilan chaqib, boshiga yetgan.

Rivoyatning ma'nosiga uyg'un keluvchi xalq maqollari tili bilan aytganda:

- Til borki, bol keltiradi, til borki balo keltiradi;
- Ilonning zahri ketsa ham, so'zning zahri ketmas.

Xalq pedagogikasi manbalariga kiradigan diniy ta'limotlarda ham so'zlashish odobi, nutq madaniyatini haqida juda ko'p misollar, pand va o'gitlar mavjud. Masalan, «Islomda muloqot odobi»<sup>53</sup> kitobida nutq odobi quyidagi tartibda ifoda etiladi:

1. Insonlar o'rtasidagi so'zlashuv to'g'rilikka va haqiqatga yo'g'-rilgan, yolg'on, safsata, xomhayollardan uzoq bo'lishi kerak.

2. Islom ta'limotida tortishuvlarga barham berish uchun aniq dalil, hujjat bilan gapirish talab etiladi hamda tortishuv mavzuida tomonlarning bir-biriga haqiqatni aytishlari lozimligi uqtiriladi.

Imom G'azzoliy «Ihyo ulumud-din» kitobida «Bahslashayotganlar xatoni aniqlab, haqiqatga intilishlari lozim. Raqibini dushman emas,

o'rtasidagi munosabatlar ham tasvirlangan. Shuningdek, o'zbekning qadimiy urf-odatlardan bo'lgan sovchilarni kutish, mehmon qilish, ularning hurmatini joyiga qo'yish, izzatini qilish, shirinso'zlik bilan muomala qilish kabi axloqiy xislatlar ham o'z ifodasini topgan.

Dostondagi qahramonlik jasoratlarini Barchin obrazida ham ko'rishimiz mumkin. Barchin alplarning eng zo'ri Ko'kaldoshdan olti oy muhlat so'raydi, ular ko'nishadi; o'n yigitga o'n bedov ot ni berib xat yozib Alpomishga jo'natadi: «Olti oychalik yo'lga keldim, qalmoqning eliga keldim, zo'r yovning qo'lida qoldim, olti oylik muhlat oldim, mendan umidi bo'lsa, Alpomish kelsin, bo'lmasa javobimni bersin», - deydi. Doston yoshlarda yoriga vafodorlik, sadoqatlik kabi xislatlarni shakllantirishda ham muhim vosita sanaladi.

Dostonda aka-singil o'rtasida mehr-oqibat, oila sha'nini himoya qilish, singilning akaga mehri kabi fazilatlar ham ifodalangan. Alpomishning singlisi Qaldirg'och «ahmoq qalmoq» elida to'qson alpning orasida talash bo'lib, ular zug'umidan azoblar ichra o'rtangan Barchinni qutqarmoqqa shoshilmagan akasidan o'pkalab, unga so'z tig'ini sanchadi: «Aka, aytgan so'zim og'ir olmagin, Nar-moda ishini bunda qilmagin», - deydi va o'sha gaplarni yanada qamchinliroq qilib aytadi:

«Har kim o'z elida bekmi, to'rami,  
Nar – modalar sendan kamroq bo'lami,  
Mardning yori toy talashda qolami?»

Ayni, «nar-moda», ya'ni «erkak-urg'ochi» so'zi o'zining ta'nador quadrati bilan yigitning hamiyatini uyg'otib, Alpomishni Boychiborga mindiradi, Barchinni ozod qilishga otlanib, shijoat bilan yelib boradi:

«Dubulg'a boshda dungullab,  
Kark qubba qalqon qarqillab,  
Tilla poyanak urilgan  
O'zanglarga sharqillab,  
Bedov otlari dirkillab,  
Olg'ir qushdayin charqillab,  
Qo'lda nayzasi so'lqillab,  
Yurmoqchi uzoq yo'liga,  
Qaramay o'ngu so'liga,  
Yetsam deb yorning eliga  
Siltab yuradi Boychibor...  
Yo'l yurar davlatli shunqor...»

<sup>52</sup> А.Каримов. Бир гапим бор уч тилло. – Т.: Адолат, 1992.

<sup>53</sup> Тантовий М.С. Исломда мулокот одоби. Т.: Мовароуннахр. 2007.

Alpomish Qalmoqshox yurtiga borib, Qorajon bilan do'st tutinadi, u Alpomish nomidan Barchinoga sovchi bo'lib boradi va shunday deydi:

- «Qani, Barchin, Alpomish bo'lsa keldi, alplarning muhlati bo'lsa bitib qoldi, sen nima javob aytasan?» Barchin aytadi: «Alpomish kelsa kelibdi-da, Alpomish keldi deb, men Alpomishning etagidan ushlab keta berayinmi? Bu alclar ham umid bilan olti oyga muhlat bergen. Har kim maydonga ot soladi. Mening to'rt shartim bor, shu shartimni bajar-gan kishiga tegaman. Xohi Alpomish qilib olsin, xohi Qalmoqlarning biri qilib olsin. Shu so'zimni xon to'ramga aytib bor», - deydi.

Barchin qanchalik Alpomishni sevsaga ham, lekin o'zbekona hayo bilan hamma qatori shartni bajarishini, ya'ni odillikni talab qiladi. Dostondagi bu parcha qizlarimizni iboli, hayoli, oqila, or-nomusli qilib tarbiyalashda juda ahamiyatlidir.

Barchin aplarga to'rtta shart qo'yadi: «Poyga qilaman, otini o'zdirganga tegaman, kurashda alplarning barini yiqqanga tegaman, yoy tortishsa yoyi sinmay qolganga tegaman, ming qadamda tanga pulni urgan qarag'ay merganga tegaman», - deydi. Dostondagi qahramonlik jasoratlari mana shu to'rtda shartni bajarishda o'z ifodasini topadi.

«Alpomish» dostoni o'zbek xalqining sevikli dostoni bo'lgani bejiz emas. Undagi voqealar hayotiyligi va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi, mardlik, fidoiylik, samimiyat, to'g'rilik, hamiyatlilik, do'stga sodiqlik, yorga vafodorlik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlardan iborat bo'lgan o'zbek milliy ruhiyati yaqqol ko'rindi.

Shu bois ham «Alpomish» dostonining 1000 yilligi 1999 yilda Termiz shahrida keng nishonlandi. Zero, «Turkiy tarixning eng chuqur qatlamlaridan ibrido olgan bu doston o'zbekning o'lmas so'zi timsoli sifatida munavvarlik olib kiradi. Chinakam xalq so'zining umri boqiydir.»<sup>16</sup>

Xalq dostonlarining juda katta katta qismi sevgi sarguzashtlarini tasvirlashga bag'ishlanadi. Ishqiy-romantik dostonlarda voqeal tuguni oshiqning ma'shuqa haqida xabar topishidan boshlanadi. Masalan, «Ravshan» dostonida Ravshan Zulkumorni uzukda ko'rib qoladi. «Kuntug'mish»da Holbeka yigitni tushida ko'radi, Kuntug'mish qizning suratiga oshiq bo'lib qoladi, ya'ni bir-birini ko'rmagan odamlar o'rtasida g'oyibdan sevgi paydo bo'ladi. Sof sevgi esa hamisha odamni qaxramonlikka, jasurlikka, jasoratga undaydi.

kishilar bilan do'stlik aloqalarini o'rnatib, fisqu-fujur ahlidan qochar-digan kishidir.

Suhbatidan qochish lozim bo'lgan sakkiz kishidan birinchisi – tuz xaqini bilmaydigan va tuzlig'ingga tupuradigan, ikkinchisi – besabab g'azablanadigan va g'azabini bosolmaydigan; uchinchisi – uzoq umri bilan mag'rurlanadigan, o'zini oddiy axloq qonun-qoidalardan ozod deb hisoblab, ko'ngliga yoqadigan ishlarni qilaveradigan; to'rtinchisi – har bir ishni makru-hiyla bilan ado qiladigan va bu yo'lni to'g'ri deb tushunadigan; beshinchisi – yolg'on va xiyonatni shior qilib olib, rostlik va vijdonlilikni tan olmaydigan; oltinchisi – nafs ko'yiga tushib, hoyuhavasni maqsad qiblesi deb tushunadigan; yettingchisi – besharm, behayo bo'lib, sho'rlik va beodoblik bilan kun o'tkazadigan; sakkizinchisi – hech qanday sababsiz yaxshi odamlar haqida yomon o'laydigan va hech qanday hujjatsiz ilmu donish arboblariga tuhmat toshini otadigan kishidir (Donolar bisotidan.).<sup>51</sup>

Nutq madaniyati, muloqot odobi, go'zal va ta'sirli so'zlash Sharqda, xususan, o'zbeklarda tarbiyalanganlikning, ma'rifatlilikning, ziyolilikning asosiy belgilardan biri hisoblangan. Shu bois ham xalqimiz so'zlashish odobi masalalariga katta e'tibor qaratgan. Jumladan, «**Nima eksang, shuni o'rason**» rivoyatida so'zning sehri va kuchi haqida, insonning yuqori martabalarga erishishi, boyishi bir og'izgina xushmuomalalik bilan aytilgan so'zga bog'liq ekanligi haqida hikoya qilinadi. Zero, muomala odobi, so'z sehri kishining qanday odob-axloqqa ega ekanligini ko'rsatuvchi ko'zgudir: Bir dehqon yo'lda ketayotgan yo'lovchidan:

- Ey donishmand, nima eksam men boyib ketaman? – deb so'rabdi. Yo'lovchi unga piyoz ekishini tavsiya etibdi. Qarangki, notanish yo'lovchining gapiga kirgan dehqon o'sha yili chindan ham boyib ketibdi. Shodligidan bosar-tusarini bilmay qolgan dehqonga yana o'sha odmigina yo'lovchi uchraganida:

- Ey gado, nima eksam men yanada boyib ketaman? – deb ikkinchi marotaba murojaat qilindi. Shunda u yana bir ekinning nomini aytib, yo'lida davom etibdi. Falakning gardishini qarangki, keyingi yili dehqonning omadi chopmay, ilgarigidan ham kambag'allashib ketibdi.

Bundan g'oyatda g'azablangan dehqon haligi yo'lovchini sabrsizlik bilan kuta boshlabdi. Nihoyat u notanish yo'lovchi bilan duch kelibdi va:

- Ey notavon, nega meni aldading? Sening gapingga kirib yana boyish o'rniiga butkul kambag'allashib ketdimku? – deb g'azab qilibdi.

<sup>16</sup> Н.Махмудов. Тил. Т.: Ёзувчи, 1998. 37-6.

<sup>51</sup> Саломатлик тақвими (Донолар бисотидан) – Т.: Янги аср авлоди. 2009.65-бет.

Anjumandagilarning hammasi beixtiyor «Oh!» deb yuboribdilar. «Nima bo'larkin endi?» – degan savol bilan Sultonga qarashibdi. Lekin Boyqaro kayfiyatidagi samimiyat aslo yo'qolmabdi. U jilmayganicha sochiq bilan liboslarini artib, yiqilgan xizmatkorga: «Bo'tam, tur o'rningdan, ko'zingga qarab yursang bo'lardi. Bora qol, kiyimlaringni almashtirib ol, - debdi mehribonlik bilan. Sultondan bunday olijanoblikni kutmagan kishilar hayrat bilan Xusaynga boqishibdi. Shunda mehmonlardan biri o'z hissiyotini yashirolmay: «Ey, saxovatli Xusay! Shu lahzadagi olijanobligingiz hammamizni maftun etdi. Boshqa sulton bo'lganida gunohkorni o'limga buyurishi hech gap emas edi», - debdi.

- Tavba! - debdi Xusayn Boyqaro yengil jilmayib. - Ul xizmatkorimiz falokat bosib yiqilib tushganidayoq hijolatdan o'lib bo'lganku! Nechuk endi biz o'lgan odamni yana o'limga buyurar ekanmiz.

Mehmonlar Xusaynning olijanobligi-yu, donishmandligiga tahsinlar o'qibdi. Zero, «Gunohni yashirgan kishilar marddir, zulmkor johillik bedavo darddir,» – deb xulosa qilishibdi.

Xalq pedagogikasi manbalaridan biri bo'lgan diniy ta'limotlarda ham xalqimizga xos insoniy fazilatlar o'z aksini topgan, yosh avlodni fozil, oqil va barkamol qilib tarbiyalash masalalari keng yoritilgan. Masalan, Hazrat Xoja Bahouddin Naqshbandning insonlarga bergen ta'limoti sakkiz fasldan iborat bo'lib, ular:

1. Xush har dam – doimo hushyor va ogoh bo'lmoq.
2. Nazar va qadam – yurgan yo'lni bilib bosmoq.
3. Safar dar Vatan – Vatanni kezib ko'rmoq va uni sevmoq.
4. Xilvat dar anjuman – hamma joyda o'zlikni anglamoq.
5. Yodkard – iyomon-e'tiqodni doimo dilda saqlamoq.
6. Bozgasht – yomon fikrlarni dildan, hayoldan quvmoq.
7. Nigohdasht – hayolu-fikrlarni sof saqlamoq.
8. Yoddosht – Haq taoloni hamisha yodda tutmoqdan iboratdir.

Dono xalqimizning ta'kidlashicha, quyidagi sakkiz xil kishining suhbatini g'animat bilmoq kerak: birinchisi - yaxshilikni biladigan, haq-huquqni ado qiladigan; ikkinchisi – mehru-muhabbati zamonaning har qanday hodisalari ostida ham o'zgarmaydigan; uchinchisi – ulug' kishilarni tarbiya qilgan arboblarga izzat va hurmat ko'rsatadigan; to'rtinchisi – fisqu-fujurdan, yolg'ondan, takabburlikdan parhez qiladigan; beshinchisi – g'azab paytida o'zini qo'lga oladigan; oltinchisi – saxovat bayrog'ini ko'tarib, bechoralar hojatini chiqaradigan; yettinchisi – sharmu-hayoni o'ziga quroq qilib olib, har qanday holatda ham odob chegarasidan tashqariga chiqmaydigan; sakkizinchisi – olim va dono

«Zavarxon» dostonida Zevar va Malikai Xubon o'rtasidagi chuqr insoniy munosabatlar, visol va xijron, vafo va sadoqat, do'stlik taranum etiladi.

«Kuntug'mish» dostonida yoshlarni kasb-hunar o'rganishga undovchi misralar behisob. Qilichxon laqabli podshoning Kuntug'mish degan yolg'iz o'g'li bo'lib, o'n to'rt yoshga to'lguncha ilm-hunar o'rganadi, kasb-kamolot hosil qiladi. O'n to'rt yoshdan keyin esa qilichbozlik, miltiq otish, nayzabozlik, ko'pkari chopish kabi sipohilik hunarlarini o'rganadi, har tomonlama komil shahzoda bo'lib yetishadi.

«Ravshan» dostoni ham ishqiy – sarguzasht dostondir. Bu doston ham «Go'ro'g'li» turkumiga mansub, «Ravshan» pok va samimi muhabbatini kuylovchi, maqsadga erishish yo'lida mardlik va botirlikni ulug'lovchi, zulm va adolatsizlikni qoralovchi asardir.

«Malikai ayyor» dostoni ham «Go'ro'g'li» turkumiga kiradigan dostonlardan biri. Unda muhabbat hangomalari va ishqiy sarguzashtlar serob. Dostonda or-nomus, iyomon-e'tiqod, insoniy iroda, chidam, topqirlik singari ezgu ma'naviy sifatlar tasvirlanadi. O'zbek yigitlariga xos eng olijanob fazilatlar Avaz timsolida aks etgan. Dostonda xalq maqol, matal va qo'shiqlaridan juda keng foydalanilgan.

«Oysuluv» dostonidagi Oysuluv o'zbek xotin-qizlarining umumlashma obrazidir. Uning hozirgi zamon xotin-qizlariga ibrat bo'luvchi go'zal xislatlari juda ko'p. Masalan, Oysuluv o'g'lining zindonband bo'lganini eshitib esankirab qolmaydi, balki sabr-toqat qilib, mulohaza bilan ish ko'radi, qo'rqmay Eron elchilariga qarata: «Men Turon mamalakatimni, elu-xalqimni unga bermayman!» deb xitob qiladi.

Ko'rib turganimizdek, dostonlar yigitlarimizni mardlikka, jasurlikka, mehnatsevarlikka chorlaydi. Shuningdek, do'stga vafodorlik, aka-uka o'rtasidagi mehribonlik, ota-onaga g'amxo'r bo'lishga o'rgatadi. Masalan, aka-uka o'rtasidagi mehribonlik «Kuntug'mish» dostonida Gurkiboy va Mohiboy obrazlarida, do'stlar o'rtasidagi sadoqatlik «Zavarxon» dostonida Zevarxon va Xasanxon, «Alpomish» dostonida Alpomish va Qorajon obrazlarida tasvirlangan.

Dostonlar xalqimizning o'ziga xos badiiy tarixi bo'lib, tarixiy-madaniy ahamiyati tengsizdir. Ularda xalqimizning asrlar bo'yи qilgan orzu-umidlari, kelajak haqidagi o'y-fikrlari mujassamlashgan. Xalq dostonlari milliy iftixor va o'z-o'zini anglash, vatanparvarlik, o'zaro ishonch, do'stlik tuyg'ularini tarbiyalashda juda katta g'oyaviy-estetik vazifani o'taydi.

Shuningdek, dostonlarda ko'plab hikmatli so'z va maqollarni uchratish mumkin. Masalan: «G'aribning ko'nglini ovlamoq savob», «Qilichdan seskanmas botirning tani», «Kamlikning kamoli bordir, manmanning savoli bordir», «Yaxshilarning yuzin ko'rsang jannatdir, yomon odam qilgan ishi minnatdir», «O'zingdan kattani uchratsang pir bil, o'zingni er bilsang, birovni sher bil» kabilar shular jumlasidandir. Xususan, «Alpomish» dostonida xalq donoligining durdonalari – hikmatli so'zlar juda serob. Ularni xalqimiz boshidan o'tkazgan tajribalar asosida yuzaga kelgan xulosalar, desak adashmaymiz:

- «Kuchuk bosmas yo'lbars-sherning izini,  
Esi bor biladi gapning tuzini».
- «To o'lguncha so'y lab qolgan til bo'lsin,  
G'animning shavkatni kuyib kul bo'lsin».
- «Dam shu damdir, o'zga damni dam dema,  
Boshing eson, davlatingni kam dema».
- «Davlat qo'nsa bir chibinning boshiga,  
Semurg' qushlar salom berar qoshiga».
- «Sozandalar sozin chertar qo'l bilan,  
Yomon odam kuydiradi til bilan».
- Shahar vayron bo'lsa sulton tebranar,  
Mol borida hamma odam do'st edi,  
Boshdan davlat qaytsa tuqqan emranar.»

Dostonlar mavzusiga singdirilgan yuqoridagi kabi maqollar va hikmatli so'zlarning axloqiy tarbiyadagi ahamiyati cheksizdir. Ishqiy – romantik dostonlar yoshlarni sevgida vafodor, do'stga sadoqatli qilib tarbiyalasa, qaxramonlik va jangnoma dostonlar yoshlarda insonparvarlik, vatanparvarlik kabi chin insoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Go'zal xulq, mukammal ma'naviy - axloqiy fazilatlarni har bir insonda mujassam bo'lishi ta'lim- tarbiyaga bog'liq. Shu bois yuksak ma'naviy axloqli yoshlarni tarbiyalashda xalq pedagogikasining boshqa manbalari qatori dostonlarning tarbiyaviy ahamiyatini ta'lim -tarbiya jarayoniga singdirishimiz lozim.

Xalq dostonlarida milliy an'analar, urf-odatlar, insoniy qadriyatlar doim ijobiy obrazlar, xatti-harakatlar bilan bog'lab tasvirlanadi, ular timsolidaadolatparvarlik, rostgo'ylik, mardlik, insonga mehr-muhabbat bilan qarash, halollik, vafodorlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, do'stlik va samimiyyat kabi xislatlar, mehnat tarbiyasi, jismoniy

ezgu niyatlar bilan ziyoratga chiqib, mozor bosib, ulug' avliyolarni ziyorat qilib qaytibsiz, yaxshi niyatlariningizni xudo o'z dargohida qabul qilsin, deyilyapti. Oxiri yaxshilikka olib bormaydigan, ko'ngillari to'limgan ish, yoki shaxs haqida «oxiri baxayr bo'lsin, oxirini yorlaqasin, noumid shayton», deb mulohaza-tilak aytishadi.

Dardkashlik, hamdardlik, kishining ko'ngliga qarash o'zbek xalqining nozik xislatidir. Shu bois ham o'zbek o'zganing shodligidan quvonib, dard-tashvishiga sherik bo'ladi. Marhumlar xotirasiga fotiha o'qilganda «xudo dargohida qabul bo'lsin, arvohi shod bo'lsin, joylari jannatdan bo'lsin» kabi tilaklar ishlatiladi. Xonodon sohibiga «xudo sabr bersin, marhumning qolgan umrini sizga, farzandlaringizga bersin, xudoning irodasi shu ekan, bandalik», deya yupatiladi. Jabrdiyda kishidan ko'ngil so'raganda «ko'nglingizni cho'ktirmang, oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug'», «boshingiz omon, joningiz sog' bo'lsin», «bu kunlar unut bo'lib ketadi» kabilar, maqol va naqlar ishlatiladi. Adolatsizlik oldida ojiz qolib, zorlanib-yig'lab turgan odamga «kuyinmang, keng bo'ling, u xudo bexabarga ham boqqan balo bordir», «xudoning g'azabiga uchraydi», «o'shanda meni aytdi deysiz», deya tasalli berishadi. O'zbek o'zga xonadonga qadam ranjida qilganda «iloho tinchlik – xotirjamlik, omonlik bo'lsin, qadam yetdi, balo yetmasin», deya fotiha o'qiydi. Yangi libos kiygan kishiga «qulluq bo'lsin, muborak bo'lsin, nasib etsin, tepkilab-tepkilab kiying, egningizda to'zisin, yarashibdi, buyursin», deyiladi. Odamlarga yaxshilik qilish, birovning koriga yarash, odamgarchilik xalqimizda insoniy burch sanaladi.

Demak, «o'zbekning har gapida ishlatiladigan yaxshi niyat, olqishduolari xalqimizning odob-axloqi yuksak bo'lgan qadimiy madaniyat egasi ekanligidan dalolat beradi.»<sup>49</sup>

Xalq og'zaki ijodida o'zbek xalqiga xos bo'lgan olijanoblik, iltifotlilik, saxovatlilik fazilatlarini tarannum etuvchi namunalar juda ham ko'p. Shulardan biri «Oliyjanoblik» rivoyatida hikoya qilinishicha,<sup>50</sup> Sultan Xusayn bir qancha olimu shuarolarga ziyofat berib, suhbatdan qulfi-dili ochilib o'tirar ekan. Xizmatkorlar nafis kosalarda suyuq taomlarni tashiy boshlabdilar. Shunda xizmatkorlardan biri ostonada nimagadir qoqildi-yu, qo'lidagi mastavali idish to'g'ri Xusayn Boyqaroning quchog'iga tushib to'kilibdi.

Sultonning zarrin liboslari mastavadan shalabbo bo'lib ketibdi.

<sup>49</sup> М.Саттор. Ўзбек удумлари. – Т.: Фан, 1993й

<sup>50</sup> А.Каримов. Бир гапим бор уч тилло. – Т.: Адолат, 1992, 36-6.

oila qurbanlar bo'lsa, «Qo'shgani bilan qo'sha qarishi, uvali-juvali bo'lishi, farzandining rohatini ko'rishi» so'raladi.

Madaniyatimizning ko'hna manbalarida mehmondorchilik xalqimizning odamiylik, saxovat, madaniy va ma'naviy aloqasi, kengfe'llik, shirinsuxanlik kabi xislatlar mezoni sifatida juda qadrlanadi. O'zbek xalq maqollarida mehmondo'stlik, mehmondorchilik odobi masalalari pand-nasihat tarzida o'z aksini topgan:

- Mehmon-aziz, mezbon-laziz.
- Mehmon – atoyi xudo.
- Kelmoq ixtiyor bilan, ketmoq ijozat bilan.
- Mehmonning oldida mushugingni pisht dema.
- Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan.
- Shirmoy noningni berma, shirin so'zingni ber.
- Mehmon ko'rki – dasturxon.
- Mehmon otangdek ulug' va h.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlasak, qadimdan Sharqda mehmonlar uchun musofirxonalar, karvonsaroylar, rabotlar qurilganini bilib olamiz. Hozirgi kunda ham millatimizga xos mehmondo'stlik namunalarini ko'ramiz, ya'ni har bir o'zbek oilasi istiqomat qiladigan uyning alohida bir xonasi mehmonlar uchun ajratib qo'yiladi va shunga yarasha jihozlanadi.

O'zbek xalqining mehmonnavozligi haqida professor M.Quronov shunday deydi: « ...Sayyoohlarga dunyoning hamma joylarida «turist» deb qarashgan, o'zbeklar esa ularga «mehmon»deb qaraydi. Necha marta kelsa ham mezbon bo'lib kutib oladi. Ularning ko'nglini olish, xursand qilishning yo'lini qidiradi va topadi. O'zbek ana shunday bag'rikeng xalq. O'zining vaqtি, e'tibori, mablag'ini berib, birovning ko'nglini olib, o'zi xursand bo'ladi. Uning molu dunyosi butun dunyoga balki yetmas, lekin mehri yetadi.»<sup>48</sup>

Yaxshi niyat bildirish, duo-olqishlar aytish o'zbek xalqiga xos odatlardan biridir. Bola tug'ilganda uning umri uzun bo'lsin, rizqi-nasibasi mo'l bo'lsin, deyiladi. Ota-onasiga esa farzandining huzurhalovatini, kamolini ko'rishni tilaydilar. To'ylari bo'layotgan kelin-kuyovga «iloho ikki yoshning baxtini bersin, qo'shgani bilan qo'sha qarisin, serfarzand, serdavlat bo'lishsin, avlodning munosib davom-chilari bo'lsin», kabi yaxshi niyatlar qilinadi. Uzoq safar yoki ziyoratdan kelgan kishilarga «ziyoratlar qabul bo'lsin», deyiladi. Unga javoban «murodingiz hosil bo'lsin» degan lutf aytildi. Buning ma'nosi shuki,

kamolot, aqliy va axloqiy sifatlar ulug'lanadi. Dostondagi ijobjiy qahramonlarni xalq o'z donishmandlariga aylantirgan.

Demak, xalq og'zaki ijodining barcha janrlarida, jumladan dostonlarda ilgari surilgan muhim g'oyalar, ijobjiy qahramonlar timsolida mu-jassamlashgan insoniy fazilatlar, milliy qadriyatlar hozirgi yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi ishonch-e'tiqodlar, urf-odatlar, udumlar mohiyatini kelajak avlodga yetkazishning eng samarali yo'li ham xalq og'zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanishdan iboratdir. Zero, bu durdonalar turli ramziy obrazlar orqali o'tmishimiz bilan hozirimizni bir-biri bilan chambarchas bog'lab turadi, yosh-larga estetik zavq va did bag'ishlashdan tashqari axloqiy shuurini ham uyg'otadi.

### Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

- Xalq og'zaki ijodi janrlariga nimalar kiradi va ularda qanday xislatlar talqin etiladi?
- Ertaklarning o'ziga xos xususiyatlariga ta'rif bering.
- Maqol va matallarni farqi nimada?
- Qo'shiqlarning turlari va tarbiyaviy ahamiyati haqida gapiring.
- Afsona va rivoyatlar ta'rifi misollar bilan tushuntiring.
- Asotirlarning qanday turlarini bilasiz?
- Topishmoq va tez aytishlarning tarbiyaviy ahamiyati nimada?
- «Askiya» va «latifa» so'zlarining ma'nolarini tushuntiring.
- Xalq og'zaki ijodining qaysi janri faqat o'zbek xalqigagina xos?
- Masallarda voqelik nimalar orqali tasvirlanadi?
- «Doston» va «baxshi» so'zlariga ta'rif bering.
- Og'zaki va yozma dostonlar nomlarini aytинг.
- Dostonlar mazmunan qanday tavsiflanadi? Ularning har biriga misol keltiring.
- «Alpomish» dostonida qanday masalalar, tarbiyaviy tushunchalar va imunosabatlar aks etadi?
- «Alpomish» dostonining axloqiy tarbiyadagi ahamiyati nimada?

**Topshiriq.** Quyidagi matnni diqqat bilan o'qib chiqing va o'z fikringizni bildiring.

<sup>48</sup> М.Куронов. Биз англастган ҳақиқат. – Т.: Маннавият, 2008, 92-6.

## TIL QUDRATI

Qadim-qadimlarda oqil va odil bir odamning suluv qizi bo‘lgan ekan. Shu qizga ikkita farishtaning ishqini tushibdi. Qiz ulardan qaysi biriga ko‘ngil berishini bilmay qolibdi. Farishtalar qizning visoliga yetishish ilinjida yelib-yuguraverishibdi. Nihoyat, qiz ularga shunday debdi: «Men yurt farzandi bo‘la oladigan o‘g‘ilga ona bo‘lishni istayman. Uni qanday tarbiyalashga qodirliklaringni bilishim kerak. Ana shunga qarab sizlarga qarorimni aytaman. «Bu ish faqat mening qo‘limdan keladi. Men unga ilm o‘rgataman, riyoziyotdan, falakiyotdan saboq beraman. Siyosat bilan shug‘ullanadi. Ajnabiylarni egallaydi. Olamga dong taratadi», - debdi birinchi farishta.

Navbat ikkinchisiga kelganda, u aytibdi: «Avloddan – avlodga meros qoladigan asosiy boylik – til. Ona tili bor ekan, Vatan bor. Xalqning umr o‘lchovini tili belgilaydi. Dunyodagi bor go‘zallik va sehrli ona allasini eshitmoqligini baxti til bag‘rida, maqsadimni anglagandursan? Men o‘g‘lingni tiliga xiyonat qilmaslikka, qo‘shiq, ertak, dostonlar aytib, ana shu ona tilimiz uchun jonini ham ayamaslikka o‘rgataman.»

Bu gaplardan olim farishta qahqaha urib kulib, raqibini aqli pastlikda ayblabdi. O‘rtadagi tortishuv janjalga aylanibdi. «Janjallahsmanglar, - debdi qiz, - yurtda ulug‘ donishmand bor, o‘shuning huzuriga boramiz. Hammasi o‘sha joyda hal qilinadi. Uning hukmi mening uchun qonun bo‘ladi». Donishmand yoniga borishibdi. U nizo qo‘zg‘agan barcha gapso‘zlarni tinglabdi-yu. «aqli past» farishtaga debdi: «Qiz seni sevadimiyo‘qmi, bilmayman. Lekin otalik sharafiga sen loyiqsan...»

### BILASIZMI?

«Qaysar» so‘zining ma’nosini bilasizmi?

«Qaysar» so‘zining asosiy ma’nosini «Rum podshosi, podsho» bo‘lib, hozirgi kunda «o‘jar» ma’nosida ishlataladi. Bu so‘z o‘zbek tiliga arab tilidan o‘tgan, arablar esa yunoncha «Kesar»( yunonlar lotincha «Sesar» – «Sezar»ni «Kesar» deb o‘qiganlar) so‘zini o‘z tillariga moslab ayni «qaysar» shaklida olganlar. «Alpomish» dostonida Hakimbekka ko‘proq «qaysar» sifati beriladi: «Qalmoq yurtini bo‘zlatar, Borayotgan shunday qaysar, Qavatinda Barchin dilbar...», «Dushmanlarni izillatgan Hakimbek qaysaring keldi» va h.

Ko‘rinib turganiday, bu so‘z dostonda «botir», «qo‘rqmas», «mardbek» ma’nolarida qo‘llangan, zero mazkur sifatlarning shoxlarga xosligini isbotlash zarurati yo‘q...

qadrondon, sirdosh do‘sti deb bilar ekan. Kunlardan bir kun Pahlavon Muhammad kichik bir gunohi tufayli Sulton Xusaynning qattiq g‘azabiga uchrabdi. Chunki Pahlavonning kichik gunohini Sulton g‘azab otiga minib turganida yetkazishibdi. Xusayn Boyqaro:

- Pahlavonning soqol-mo‘ylovini qirib tashlanglar, so‘ng kaltadum libos kiydirib, ko‘cha-ko‘yda sazoyi qilinglar, deb buyruq beribdi. Pahlavonning bunday jazoga giriftor bo‘lganini Navoiyga aytishibdi. Navoiy, agar bu jazo amalga oshirilsa, Pahlavon Muhammadning izzat-nafsi kamshitilib, u bunga chidolmay o‘lib qolishini anglab, uni bunday sharmandalikdan qutqarish harakatiga tushibdi. Tezlikda Xusayn Boyqaro huzuriga yetib borib:

- Sultoni Bokaram, ma'lumingizki, men va Pahlavon Muhammad yoshligimizdan bir xil kiyinamiz, birga soqol-mo‘ylov qo‘yib, do‘st-birodar bo‘lib yuramiz. U boshqa kiyinib, men boshqa kiyib yursam, o‘rtadagi ahd buzilib, gapimiz tuzsiz, o‘zimiz subutsiz bo‘lib qolamiz. Buyursangiz, mening ham soqol-mo‘ylovlarimni qirsinlar, menga ham xuddi Pahlavon Muhammadga berilgandek, kalta libos kiygizilib, do‘stim bilan birga ko‘cha aylantirsinlar, - debdi.

Navoiyning shogirdi hamda do‘stiga bo‘lgan sadoqatini, mehr-oqibatini ko‘rgan Xusayn Boyqaro g‘azab otidan tushib, «Pahlavonning gunohidan o‘tdim, jazo qoldirilsin», - deb buyuribdi.

O‘zbek xalqining milliy fazilatlaridan biri mehmondorchilikdir. Har bir mahallada dasturxon bezatuvchi uquvli, ozoda va pokiza tabiatli kishi bo‘lgan. O‘zbek dasturxonining o‘ziga xos xususiyati shundaki, issiq ovqatlardan tashqari hamma noz-ne’matlar dasturxonga birdaniga qo‘yiladi. (Yevropa dasturxonidan shunisi bilan farqlanadi.) Bunday dasturxon bezatishdan maqsad mehmonlar taom va noz-ne’matlarning xiliga qarab tegishli ishtaha saqlay olishlari va ovqatlanish gigiyenasiga imkon yaratishdir. Milliy odatga binoan dasturxon to‘riga yoshi ulug‘lar o‘tiradi va duo-fotiha o‘qiladi. Unda Allohga shukronalar aytildi, o‘tganlar ruhi yodga olinadi, el-yurt xotirjamligi, qut-baraka, yoshlar kamoloti, keksalarga mustahkam iymon tilagi bildiriladi. So‘ngra mehmon va mezbonlar bir-biridan hol-ahvol so‘rashib bo‘lgach, avval non ushatiladi, choy quyiladi, keyin issiq ovqatlar tortiladi. Shu tariqa mehmon izzat-ikrom bilan kutib olinadi, va «Xush ko‘rdik», «Tashrifingizdan boshimiz osmonga yetdi», «Tez-tez mehmonimiz bo‘ling», «Kelganingiz uchun rahmat» kabi tavozeli jumlalar bilan kuzatiladi. Agar dasturxon atrofida biror kishi safarga otlansa: «Oy borib, omon kelishi, yo‘lda balo-qazoga uchramasligi» tilanadi. Yangi

olishida, aza va yo'qlov marosimlarini uyushgan holda o'tkazishda, bola tug'ilishidan tortib to motamgacha bo'lgan barcha marosim va urf-odatlariimizda keng jamoatchilik va mahalla ahlining doimo bosh-qosh bo'lishi kabi udumlarda kuzatamiz». <sup>47</sup>

Xalqimizga xos bo'lgan axloqiy me'yorlar bag'rikenglik, hojatbarorlik, mardlik, lafz halolligi, saxovatpeshalik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, to'g'rilik, donolik, mehmondo'stlik, kamtarlik, saxyilik, ephillik, sabr-qanoatlilik, rostgo'ylik, mehr-oqibatlilik, ahillik, samimiylik, andishalilik, farosatlilik, tejamkorlik, mas'uliyatlilik kabi xislatlarda namoyon bo'ladi. Xalq pedagogikasi manbalarida ana shu ajoyib insoniy fazilatlarni tarannum etuvchi behisob misollar mavjud. Jumladan, «**Ezgu ish**» rivoyatida xalq manfaatiga yaraydigan ezgulik va himmat haqida so'z yuritiladi:

«Bir alloma shogirdlari bilan har gal ko'rishganida: «Qanday ezgu ish qildinglar? Kimlarga yaxshiliklaring tegdi?» – deb so'rар ekan. Navbatdagi uchrashuvda shogirdlaridan biri: «Kechagi tunda eshigim oldiga notanish kishi kelib qoldi. Qarasam, bir faqir. Yordamga narsa tiladi. Uni ichkariga olib kirdim, izzat-hurmat bilan xonaning to'riga o'tqazib, egnimdagи choponimni unga kiydirdim. So'ng arzini eshitib, bor mol-mulkimni hadya etdim. Ustimdagи kiyimlarimdan bo'lak hech vaqo qolmadi. Shundan xursand bo'lib, huzuringizda tiz cho'kib o'tiribman», - debdi. Alloma shogird so'zlarini tinglabdi-yu, munosabatini sezdirmabdi.

Gal boshqa shogirdga kelibdi: «Qaysi kun shoh o'rdasi yonidan o'tib ketayotsam, bir odamni jazolamoqchi bo'lib turishgan ekan. Hukm bo'yicha uning bir qo'li chopilishi kerak ekan. Uni bu og'ir qyinoqdan qutqarmoq uchun o'z qo'limdan kechdim. Ko'rib turibsizki, endi yakdastman».

Ustozdan yana sado chiqmabdi. Shunda yonidagilari undan: «Bularning qaysi biri fidoyi va komilroqdir?» – deb so'rashibdi. «Bularning yaxshiliklari faqat ikki kishi uchungina qilingan yaxshilik. Odam qilgan yaxshiliklardan barcha el bahra topmog'i kerak, xalq manfaatiga yaraydigan ezgulik va himmatgina tahsinga loyiqdir», - debdi ustoz».

Xalqimizga xos bo'lgan zukkolik, hozirjavoblik, aqlilik va do'stga sodiqlik fazilatlari **«Navoiyning do'sti»** rivoyatida o'z aksini topgan. «Ulug' shoir Alisher Navoiyning Pahlavon Muhammad degan shogirdi ham do'sti bor ekan. Shoир uni juda yaxshi ko'rар, shogirdi bo'lsa ham

<sup>47</sup> Аширов А., Атаджанов Ш. Этнология. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007, 129-бет

## BU QIZIQ!

Dedim:

- Insonga hamisha kamlik qiladigan xislatlar nimalar?

Dedi:

- Ular uchta: bilim, odob, fahmu-farosat.

Dedim:

- Ularga erishish yo'llari qanday?

Dedi:

Bilimga kishi o'z mehnati orqali etishadi, odobga – bilim, ota-onha va ustozlar ko'magida erishiladi. Fahm-farosat faqatgina ato etiladi! (O.Mahmudov. «Ota farzandiga nega tanbeh beradi»).

### I.4. Xalq pedagogikasida milliy urf – odatlar, an'analar, udumlar, xalq o'yinlari va o'yinchoqlari, bayram va marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o'rni

Ma'lumki, Respublikamizda joriy etilgan uzluksiz ta'lrim tizimining barcha bo'g'lnlari, shu jumladan oliy ta'lim muassasalarining oldiga davlat va ijtimoiy buyurtmalar qo'yilgan. Oliy ta'lim muassasalarining oldiga qo'yilgan davlat buyurtmasi har tomonlama rivojlangan barkamol raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bo'lsa, ijtimoiy buyurtma yoshlar ongi va qalbiga milliy g'oyani singdirish sanaladi.

Respublikamizda qabul qilingan «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar»da milliy g'oya «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, demokratik tamoyillar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar»<sup>17</sup> ga asoslanishi qayd etilgan.

Talaba-yoshlar ongi va qalbiga milliy g'oyani singdirishda dastlab ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish orqali mazkur qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar tarkibiga kiruvchi milliy urf-odatlar, an'ana va udumlar, bayram va marosimlar avlodlar kamolotida katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Xalqimiz asrlar davomida shu qadriyatlarga sodiq qolgan, ulardan farzandlar tarbiyasida foydalana olgan.

<sup>17</sup> «Миллий истиқлол г'ояси: асосий тушунча ва тамойиллар» Т.: Узбекистон, 2000.

Istiqlol tantanasi bilan bugungi kunda barkamol avlodni asrlar osha sayqal topgan milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz ruhida tarbiyalash, madaniy merosimiz, ma'naviy boyligimizni har tomonlama o'rganib, ta'lif-tarbiya sohasida qo'llashga keng imkoniyatlar yaratildi. Yurtboshimiz I.A.Karimov: «Biz quradigan jamiyat O'zbekiston xalqining munosib turmushini, huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz qayta tiklanishini, insonning ma'naviy axloqiy barkamolligini ta'minlashi kerak»,<sup>18</sup> - deb ta'kidlaydi. Urf-odatlar, islom dini bilan bog'liq rasm-rusumlar, xalqona udumlar, marosimlar, an'analar xalq ijtimoiy hayoti, orzu-umidlari va xalqona ideallarini aks ettiradi, insonni iymon-e'tiqodda butun, ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy-ruhiy tarbiyada komil bo'lishga undaydi.

Xalqona qadriyatlar va urf-odatlarimiz islomiy qadriyatlar bilan hamohang. Ularda vatanparvarlik, halollik, elni e'zozlash, adolat, mehnatsevarlik, kamtarlik, mardlik, hushyorlik, saxiylik, mehmondo'stlik, vafodorlik, sabr-qanoat kabi insoniy fazilatlar ulug'lanadi. Adovat, kibr-havo, hasad, fitna-fasod, dilozorlik, xudbinlik, tekinxo'rlik, ilmsizlik, nodonlik, farosatsizlik kabi illatlar qoranadani.

Har bir urf-odat, udum, an'analar yuqorida ulug'langan fazilatlarni yosh avlod tarbiyasiga singdirish, qoralangan illatlardan yiroqlashtirish yoki forig' qilish kabi o'z maqsad-vazifasiga, o'z yo'naliishiga ega. Masalan, odamiylik, do'st-birodarlik, bir-biriga ixtiyoriy yordam, ahillik va o'zaro hamkorlikning yorqin namunasi bo'lgan hashar hozirgi kungacha yetib kelgan go'zal odatlardan biridir. Hashar o'zbeklarda jamoat yoki shaxs ishiga ixtiyoriy yordam berish, ko'pchilikning bir maqsadda, bir yoqadan bosh chiqarib, tezkorlik bilan bajarilishi zarur bo'lgan ishlarni bajarishda qo'llangan. Bu haqida yurtboshimiz shunday deydi: «Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'naviy hayotimizning uzviy qismiga aylangan hashar odati istiqlol davrida yangicha ma'no-mazmunga ega bo'lib, umummilliyl an'ana tusini olgani barchamizni mammun etadi. Har yili Navro'z va Mustaqillik bayramlari arafasida o'tkaziladigan umumxalq hasharlari buning tasdig'idir. ...Bu esa, hech shubhasiz, jamiyat tafakkurining yangilanishiga kuchli ta'sir qilmoqda.»<sup>19</sup>

<sup>18</sup> Каримов И.А. Истиқлол ва мънавият. Т. Ўзбекистон, 1994, 113-б.

<sup>19</sup> Каримов И.А. Юксак мънавият – сингилмас куч. Т.: Мънавият, 2008.-96-бет.

### III. 2. O'zbek xalqining axloqiy me'yorlari, mehmondo'stligi, turmush kechirish tartib - qoidalarining xalq pedagogikasida aks etishi

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan kadrlar tayyorlash milliy modelining asosini shaxs tashkil etadi. Mazkur model asosida uzlusiz ta'lif tizimida tarbiyaning uzviyligini amalga oshirish orqali barkamol shaxsni voyaga yetkazish va tarbiyalash nazarda tutiladi. Bunda esa o'zbek xalqining ma'naviy-ma'rifiy meroslari muhim o'rinn tutadi.

Shu sababli, o'zbek xalqining ma'naviy-ma'rifiy meroslari o'rganish, ulardan ta'lif-tarbiya jarayonida o'z o'mida va maqsadga muvofiq foydalanishni yo'lga qo'yish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

Ma'lumki, o'zbek xalqining aqliy-ruhiy qiyofasi, ya'ni milliy mentaliteti o'ziga xos tarixiy, etnik tabiiy-iqlimi shart-sharoitlar negizida shakllangan. Xarakterdag'i milliy o'ziga xoslikning negizini esa shu xalqning hayotiy tajribalari, urf-odatlari, marosim va ma'rakalarining yaxlit tizimi tashkil etadi. Shu o'rinda o'zbek xalqi budda, zardushtiylik, islom, sotsializm kabi to'rtta katta diniy-mafkuraviy bosqichni o'z boshidan kechirganligini ham aytib o'tishimiz joiz. Har bir mafkuraviy-diniy ta'sirlar davrida necha avlodlar almashgani va bu jarayonlarning millat fe'l-atvoriga o'chmas iz qoldirganini ham hisobga olishimiz kerak. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, «Xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqalarga hech o'xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o'zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo'ladigan bir qator o'ziga xos xususiyatlarni ko'ramiz. Misol uchun, tilimizdag'i mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqr ma'no-mazmun bilan boyitadigan iboralarni olaylik. ...Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma'naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ongu shuurimizdan chuqr joy olgan buyuk qadriyatlarning amaliy ifodasidir». <sup>46</sup>

Darhaqiqat, o'zbek milliy mentalitetiga xos jihatlardan biri jamiyat hayoti, insonlar turmush tarzining ko'proq an'ana, urf-odatlar orqali boshqarilishidir. «Biz buni, ayniqsa, xalqimizning to'y-tantanalarga o'ta o'chligida, yillar davomida yig'ib-terib elga tarqatishdan zavq-shavq

<sup>46</sup> Каримов И.А. Юксак мънавият – сингилмас куч. Т.: Мънавият, 2008. 8-бет.

Andijonning 45 foizi, Toshkent va Samarqand aholisining 29 foizi mustaqil kasb-hunar egasi hisoblangan.

2. Milliy musiqa asboblaridan g'ijjak, nay, dutor, rubob, chang, Yevropa musiqa asboblaridan skripka, saksofon, pianino, organ, gitara kabilarda ijro etilgan lirik kuylar asablarning dam olishiga, tinch-sokin holatga kelishiga kuchliroq ta'sir qiladi.

3. XIX asr o'talarida fransuz psixiatri Jan Et'en Dominik Eskiral musiqaterapiya orqali davolash usulini psixiatriya muolajalariga kiritdi.

4. Yevropada 70 dan ortiq universitetlar musiqaterapevt mutaxassislarni tayyorlaydi.

### BU QIZIQ!

1. Samarqand yaqinidagi Mo'minobod qishlog'idan 3 ming 300 yil muqaddam suyakdan yasalgan nay cholg'usi topilgan.

2. O'simliklar yoqqan tovushlarga intilib, noma'qul, masalan nog'ora sadolaridan qochib, o'z munosabatini bildirishi mumkin. Xususan, Baxning organ uchun yozgan prelyudiyasi eshitilgan tomonidagi o'simlik 35 gradusgacha, hind sitor tovushlari eshitilgan tomonidagi esa 60 gradusgacha egilar ekan.

3. Yaponlarning kuzatishlaricha, novvoxonada Motsart musiqasi yangrab tursa, xamir o'n baravar tez yetilar ekan.

4. Xitoy mirishkorlari musiqa eshittirib, nihoyatda yorqin rangli atirgullarni yetishtirgan, har tup atirgul 65 tagacha g'uncha bog'lagan.

### BU QIZIQ!

Bolta bilan qalam bir-biriga o'xshaydigan buyumlar emas. Ammo xizmati jihatidan anchayin yaqin turadi.

Bolta – qotil qo'lida o'lim quroli. O'tinchi qo'lida mehnat quroli. Hunarmand qo'lida san'at quroli.

Qalam – hasadgo'y qo'lida o'lim quroli. Savodxon qo'lida mehnat quroli. Iste'dod qo'lida san'at quroli.<sup>45</sup>

<sup>45</sup> Ў.Хошимов. «Дафтар хошимиликдаги битиклар». – Т.: Шарк, 2008.

Darhaqiqat, hashar xalqimizda mehr-oqibat tuyg'usini tarbiyalagan, zero bugun hasharda ishtirok etgan kishi ertaga shu ko'pchilik unikiga ham hasharga kelishini avvaldan bilgan. Xuddi shu odat dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri Yaponiyada ham bor ekan. «Hech qayerda uchramaydigan, faqat Yaponiyada bir-birini to'ldiradigan bir uyg'unlik bor. Bu – eng zamonaviy sanoat bilan milliylikning uyg'unligidir.

Shuning uchun ham italyan jurnalistlaridan biri hayrat bilan: «Hozirgi yaponlar yuksak taraqqiyotga erishgan bo'lsa ham xulq, odat, tafakkurda bobolari, momolaridan farq qilmaydigan odamlardir», - deb yozgan. Yaponlar yuksak texnik taraqqiyotga o'zbeklarga xos bo'lgan mehr-oqibat munosabatlarini kiritishdi va dunyoning eng qudratli davlatlaridan biriga aylandi<sup>20</sup>.

Demak, aytish joizki, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-mafkuraviy taraqqiyotida qadriyatlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Shu bois ham yosh avlod tarbiyasida xalq an'analarini, urf-odatlari, udumlari, marosimlarining mohiyatini keng tushuntirishimiz darkor.

Shu o'rinda «G'arb – qonunlar, Sharq – urf-odatlar asosida boshqariladi», -degan gapni eslashimiz joiz. Avvallari qonunchilik axloqiy-huquqiy qadriyatlar, turli irim shaklidagi ta'qiqlar, keyinchalik diniy e'tiqodning kuchayishi bilan «uvol» deyilguvchi taqiqlar ko'rinishida amalga oshirilgan. Masalan, o'ng – to'g'rilik, rostgo'ylik, chap esa egrilik, yolg'onchilikning ifodasiga aylangan. Shu bois ham kelinkuyovlar ostonaga ilk qadamni chap oyog'idan boshlashi, nikoh uzugini chap qo'lga taqishi ta'qiqlangan. Garchi bugungi kunda jamiyatimiz Davlat Konstitutsiyasi va qonunlar tomonidan boshqarilsa-da, o'zbek turmush tarzidagi ko'plab urf-odatlar qonunlar darajasida bajariladi.

Demak, xalq pedagogikasida tarbiya milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an'ana va udumlarimizning tub mohiyatini o'rganish, o'tmishni unutmaslik, bugunning qadriga yetishlik va kelajakka umid ruhida olib boriladi.

Qadriyat – «tarix sinovlaridan o'tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu-intilishlarimizga, taraqqiyot talablariga to'la javob beradigan, yillar o'tgani sari qadri ortib boradigan g'oya va tushunchalardir»<sup>21</sup>.

An'ana – kishilar ongida, hayotida o'z o'rnini topgan ijtimoiy hodisa bo'lib, avloddan avlodga o'tadigan, takrorlanadigan tartib va qoidalardir.

<sup>20</sup> Курунов М. Биз англаётган ҳақиқат. Т.: Маънавият, 2008.-100-бет.

<sup>21</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – ёнгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008 -82-бет.

**Urf-odat** – kishilarning kundalikdagi turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan ko'nikma va xulq-atvor qoidalaridir. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, mehmonlarni alohida hurmat bilan izzatlash va h.k.

**Marosim** – ko'pincha an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan hayotiy tadbirdir.

An'analing tarkibiy bo'lagi odat, odatning muhim bir qismi marosim bo'lib, odat kundalik hayotda uchrashi mumkin bo'lsa, marosim inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo'lganda vujudga keladi. Masalan, yoshlar voyaga yetganda uylanishi va turmushga chiqishi an'ana bo'lsa, ma'lum tartibga ega bo'lgan nikoh to'yi urf-odat hisoblanadi. Bu to'yda nikohdan o'tish, uzuk taqish kabi marosimlar o'tkaziladi. Yuqoridagi an'ana, urf-odat, marosimlar birligida kelinkuyov, qarindoshlar va do'stlari uchun bayramga aylanishi mumkin. Yosh mutaxassislarining o'qishni bitirib, ishga joylashishi odat bo'lsa, bunga bag'ishlab tashkil qilingan an'anaviy tadbirdar marosimga aylanadi. Barkamol shaxs tarbiyasida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, udumlar va an'analarning pedagogik imkoniyatlaridan foydalanish samarali natijalarga olib keladi. Masalan, xalqimizda salomlashish va hol-ahvol so'rash har bir kishining aqli, odobi, zakovati, madaniylik darajasini ham ko'rsatadi. Salomlashish tarbiyasi borasida qator hadislar, o'gitlar, pandnomalar mavjud. Masalan, ot mingan kishining piyodaga, ozchilikning ko'pchilikka, tashqaridan kelgan kishi ichkarida-gilarga, kichik yoshdagilarning kattalarga salom berishi odat tusiga aylangan. Muomalaning asosi bo'lgan salomlashish xalq og'zaki ijodining barcha janrlarida o'z aksini topgan. «Gar saloming bo'limasa, ikki yamlab bir yutardim», - deb yovuz kuchlar ertak va doston qahramonlariga yordam bergen, manmanlik bilan salom berishni unutganlar esa jazoga giriftor bo'lgan. «Odobingni salomingdan bilurlar» maqolida salom insonning fe'l-atvori, odobining ko'zgusi ekanligi ta'kidlangan. «Alpomish» dostonida chiltonlar Alpomishga shunday maslahat berishadi:

Xudoyim beribdi insonga kalom,  
Bemavrid ish qilib topmagin alam,  
Yaxshi ham, yomon ham shundan bilinar,  
Kim bo'lsa oldidan o'tma besalom.

Ganchkor ustalar har xil turdag'i o'yma ishlatadilar: zamin-kori, chokapardoz, lo'li-pardoz va tabaqa-pardoz. Ganchkor naqshlar katta korxonalar, ma'muriy imoratlar, madaniyat va san'at saroylarini bezabgina qolmay, keyingi yillarda juda ko'p fuqarolarning uylariga ham husn bag'ishlamoqda. Yirik inshootlar, monumental obidalar, keng savdoga mo'ljallangan o'ymakor ganch naqshlar muayyan motivdagi ornamentlar tasvirlangan qoliplarda quyilib ishlanadi. Bunday ajoyib milliy bezaklar Toshkentdag'i Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatridda, katta san'at va madaniyat saroylarida, juda ko'p ma'muriy va jamoatchilik binolarida, oshxonalar va do'konlarda keng ishlatilgan bo'lib, ular shahar husniga husn bag'ishlamoqda.

Yorqin mayin bo'yoqlar bilan an'anaviy o'ymakorlik naqshlarining birligida ishlatilishi, ayniqsa, chiroy kashf etadi. Mashhur badiiy ganchkor ustalardan O'zbekiston fanlar akademiyasining faxriy a'zosi, Respublikada xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Shirin Murodov, Xalqaro mukofotlar sovrindori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Abdulla Boltaev, elda katta hurmatga sazovor bo'lgan mohir ustalar Toshpo'lat Arslonqulov, Usmon Ikromov, Anvar Quliev, Shamsiddin G'ofurov, Quli Jalilov, O'zbekiston fanlar akademiyasining faxriy a'zosi Yusuf Ali Musaev va boshqalar yaratgan o'ymakorlik va me'morlik san'ati xalqimizning badiiy boyligidir.

Amaliy bezak san'ati turlaridan O'zbekistonda keng tarqalgan sohasi – bo'yoqli rasmlar chizishdir. Odatda, bu soha ikki xilda: ganch suvoqli devorga rasm chizish va yog'och buyumlarga rangli naqsh berishdan iborat. Mazkur hunarni naqqoshlik san'ati deb ataydilar. O'tmishda yuksak did bilan bunyod etilgan naqshli muhtasham binolar hozirgacha kishini o'ziga maftun qilib kelmoqda. Nihoyatda boy, mazmunli milliy naqshlarimiz turar joy va yirik imoratlarning devor hamda shiftlarida, oddiy idish-tovoqda, sandiq va ko'rpachalar, belanchak, cholg'u asboblari va boshqa buyumlarda jilovlanib insonni hayratga soladi.<sup>44</sup>

## BILASIZMI?

1. Odatda hunarmandchilikning kamida 32 xili mavjud bo'lgan aholi yashaydigan joyga «shahar» deb nom berilgan. 1897 y. birinchi aholi ro'yxati vaqtida katta shaharlarda aholining ko'pchilik qismi hunarmandlar hisoblangan. Masalan, Namangan aholisining 64 foizi, Qo'qonning 52 foizi, Chustning 54 foizi, Marg'ilonning 50 foizi,

<sup>44</sup> И.Жабборов. «Ўзбеклар». – Т.: Шарқ, 2008.

Sherning tishi orqali aql-zakovatda, ilmda, tafakkurda o'tkir bo'lish lozimligi, tili esa dunyodagi eng shirin va achchiq narsa ekanligi eslatib o'tiladi.

Ko'z tasvirida insonning qalb ko'zi ramziy ma'noda ifodalangan bo'lib, inson olamni ko'zi bilan ko'radi, lekin shunday narsalar borki, inson ularni qalb ko'zi bilan ko'rishi va idrok etishi kerakligi ma'nosida ifodalangan.

Aynan yoshi ulug' sher tasviri insonlar va Bahodir Yalang-to'shibiyning donoligi, tajribaga asoslangan aql-zakovati yuksak darajada ekanligi ramzi sifatida ko'rsatilgan.

Sherning tanasidagi qora zuluk shakllarida yovuzlik va tun ifodalanim, hayot oq va qora hamda tun va kundan iboratligiga ishora qilingan. Oq rang poklik, ezgulik va yorug'likni bildirsa, qora rang yovuzlik ramzi sifatida olingan.

Xulosa qilib aytganda, me'moriy obidalarda aks etgan har bir bezak, naqshning o'z siri va falsafasi bor. Ajodolarimiz tomonidan asrlar davomida barpo etilgan ulkan, mahobatli me'moriy obidalarning boy mazmuni va teran mohiyatini yosh avlodga yetkazish muhim vazifalimizdan biridir.

### Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi, milliy me'morchilik, milliy teatr va musiqa, qo'shiqchilik va xalq raqs san'ati nima uchun xalq pedagogikasi manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi?
2. Hunarmandchilikning qanday sohalarini bilasiz?
3. Hunarmandchilikka oid xalq maqollaridan misollar keltiring.
4. Bayramlar, ommaviy xalq sayllarida qanday san'at turlari namoyish etilgan?
5. Musiqaning tarbiya vositasi sifatidagi o'rni nimada?
6. Xalq qo'shiqlarida nimalar kuyylanadi?
7. Yurtimizdagи tarixiy obidalar, milliy me'morchilik namunalarining yoshlар tarbiyasidagi ahamiyati nimada?

**TOPSHIRIQ.** Berilgan matnni o'qing. Tanlagan kasbingizdan tashqari yana qanday hunarlarni egallaganligingiz haqida gapirib bering.

### O'zbek san'ati

O'zbek xalqi san'atining barcha sohalarida o'simlik ornamenti ustun turadi, ammo u doimo geometrik naqshlar bilan birga ishlatiladi.

Birgina salomlashish va hol-ahvol so'rash odobi va odati orqali xalqimizga xos bo'lgan insonni sevish va ardoqlash hissining ustunligini ko'rishimiz mumkin.

Darhaqiqat, xalq pandnomasi farzandning tug'ilishidan boshlab oila, birinchi navbatda, ota-onasi bajarishi lozim bo'lgan hayotiy va xalqchil odatlar, udumlar, rasm-rusumlar, an'analarga nihoyatda boy. Bolaning ilk bor sochini va tirkog'ini olish, tishi chiqishi, atak-chechak bo'lishi, birinchi so'zni aytishi, o'tirishga o'rganishi, birinchi qadam bosishi, kiyim kiya boshlashi, o'simliklar va hayvonot olami bilan birinchi tanishishi, tarbiyachi qo'liga berish, maktabga ilk qadam qo'yish bilan bog'liq ko'plab axloqiy tarbiya, xulq-odobga oid udumlar, odatlar, rasm-rusumlar shular jumlasidandir. Masalan, bolani beshikka belashdan oldin, beshik atrofidan, tagidan non, qoshiq, pichoq o'tkazilgan. Bu shu xonadon ma'mur va to'q bo'lsin, pichog'i moy ustida, qoshig'i kosada tursin, shu bilan birga xonadon farzandlarga to'lsin degan ramziy ma'noni anglatgan, onaga juft nonni tishlatish esa ona va bolaning rizqli-nasibali bo'lishini bildirgan. Ma'lumki, o'zbeklarda non azaldan qadrlanib, e'zozlanib kelinadi, nonga ehtirom bolalarga yoshlikdan o'rgatiladi. Ularga nonning ushog'ini yerdan yig'ib olish, oyoq osti qilmaslik zarurligi uqtiriladi. Xalqimizga xos bo'lgan non bilan bog'liq quyidagi urf-odatlar ham yuqoridaagi fikrni tasdiqlaydi:

- Dasturxon boshida nonni oila boshlig'i ushatadi.
- Endigina atak-chechak yura boshlagan go'dakning oyoqlari orasidan «yurgan yo'lidan rizq-nasibasi unsin», deb non dumalatiladi.
- Mehmonga borayotgan odam albatta, hech bo'limganda ikkita nonni qo'ltig'iga qistirib, yo'l oladi. Mezbonning uyida ham dasturxonga eng avvalo non qo'yiladi. Qaytishda ham mehmon qo'liga albatta, bir juft non tutqaziladi.
- Azaldan chaqaloq beshikka belanayotganda «boshi omon bo'lsin, nondek aziz bo'lsin», deb boshi ostiga bir burda non qo'yiladi.
- Beshikka belangan bolaning onasiga yog' surtilgan non tishlatiladi. Bolalardan biri shu nonni olib qochadi. Ortidan boshqa bolalar quvib yetishadi va «ko'lja»ni o'rtada baham ko'rishadi.
- Uzoq safarga, jangu jadallarga ketayotgan yigitlarga oy borib, omon qaytsin degan maqsadda albatta bitta nonni tishlatib, devorga osib qo'yishgan.
- Og'ir jinoyatlarda guman qilingan kimsalarga o'z aybsizligini isbotlash uchun «Gapim yolg'on bo'lsa, non ursin», - deb non bilan qasam ichirilgan.

- Vaqtı bemahalda, qorong‘ida yo‘lga chiqqan yo‘lovchi «non hamroh bo‘lsin, yomon ko‘zdan, ins-jinsdan asrasin», - deya doimo yonida non olib yurgan.

• «Nondek aziz bo‘lgin»,- deb momolarimiz duo qilishadi.

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim an'anaviy tartiblardan biri – ustozlarning shogirdlarga fotiha berish marosimidir. Bu marosim barcha kasblarda deyarli bir xil o‘tgan. Shogirdlikka, odatda bolani yoshlikdan (8-10, ayrim paytlarda 6-7 yoshlarda) ota-onasi muayyan ustaga topshirib: «Go‘shti sizniki, suyagi bizniki», degan ibora bilan, ya’ni butun taqdiri ustoz qo‘lida, nima qilsa ixtiyori o‘zida, deb qoldiradi. Yigit kasbini o‘rganib, o‘zi mustaqil ravishda mahsulot tayyorlash darajasiga yetganda ota-onasi (yetim bo‘lsa, ustaning o‘zi) fotiha ziyofatini o‘tkazish shart bo‘lgan. Masalan, etikdo‘z yoki mahsido‘z shogird ustalikni to‘liq egallab olganligini isbotlash uchun bir juft poyabzalni tikib bozorga chiqaradi. Bozorda etikdo‘zlar kalantari (oqsoqoli) uning mahsulotini tekshiradi, yaxshi, bozorbop bo‘lsa, fotiha olishga ruxsat beradi, aks holda haydab yuboradi.

Fotiha berish marosimiga katta ustalar kalantar boshchiligidagi taklif qilinadi. Ziyofatga kasb rahbarlari bilan domla ham chaqiriladi. Gap – gashtak tarzida o‘tkaziladigan o‘tirishlarda dasturxonga shirinliklar, meva-chevalar qo‘yiladi, issiq ovqatlar tortiladi. Keyin kalantar yangi sarpolar kiygan shogirdni davraga chaqirib, ustasiga va shogirdiga shunday murojaat qiladi: «Usta, siz shogirdingizni boqdingiz, kiyintirdingiz, non, tuz va pul berdingiz, shunga rozimisiz?» «Roziman!» - deb javob beradi usta. Keyin shogirddan so‘raydi: «Ustaga xizmat qilding, xizmatingga rozimisan?» «Roziman!» Shundan keyin usta-shogird o‘rtasida suhbat bo‘lib o‘tadi. Shogird ustasiga qarab: «Ko‘p xizmatingizni qildim, ko‘p tuzingizni yedim, usta rozi bo‘ling!» Usta unga javoban: «Urdik, so‘kdik, koyidik, sen ham rozi bo‘l», - deydi. Ba’zan ayrim ustalar imtihonga o‘xhash savol-javoblar o‘tkazgan. Marosim yakunida shogirdga ustalikka fotiha beriladi, shogird o‘z ustasiga, kalantarga, imkoniyati bo‘lsa hurmatli katta ustalarga ham sarpo kiygizadi. Ayrim kasblarda usta o‘z shogirdlariga ba’zi ish qurollarini hadya qiladi.<sup>22</sup>

Bunday urf-odatlar, mavsumiy va bayram marosimlari, xalqimiz orasida keng tarqalgan. Jumladan, bahoriy tengkunlikda «Navro‘z» bayrami (21-22 mart), kuzgi tengkunlikda «Mehrjon» bayrami (22

Hindiston, Eron, antik Yunoniston va qadimgi Rimdagining mashhur me’morchilik yodgorliklari bilan haqli ravishda bir qatorda turadi.

Bu obidalardan beri necha asrlardan beri vaqt sinovlariga bardosh berib kelayotganligi, betakror bezaklari va salobati bilan jahon xalqlarini maftun qilib kelmoqda. Yosh avlod nihoyatda yuksak aql-zakovat mahsuli bo‘lgan bunday arxitektura ansambllari, mahobatli binolarni ko‘rib, ulardagi mislsiz go‘zallikni his qiladilar. Hunarmand ustalar ishini ko‘rib, hunar o‘rganishga yanada qiziqishi ortadi. Shuningdek, bunday monumental qurilishlar, majmua va yodgorliklar yoshlarni axloqiy tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi.

Ajdodlarning me’morchilik qobiliyatidan faxrlanish hissi vatanni sevishga, vatanparvarlik hissining uyg‘onishiga olib keladi. Vatanparvarlik esa axloqiy tarbiyaning bosh mezonidir.

Yurtimizdagi har bir tarixiy me’morchilik obidalari o‘ziga xos murakkab arxitektura asosida qurilgan va juda katta mehnat sarflangan.

Jumladan, Samarcand shahridagi Sherdor madrasasi 1619-1636 yillarda Samarcand hokimi Bahodir Yalangto‘sh tomonidan Abdujabbor loyihasi asosida qurdirligani.

Me’mor Abdujabbor «Sherdor» madrasasining peshtoqini hech qaysi me’morchilikda takrorlanmaydigan uslubda bezaydi. Unda hayvonlar, o‘simlik va issiqlik, yorug‘lik manbai bo‘lgan quyosh orqali komil insonni aks ettirishga muvaffaq bo‘lgan. Bu me’mor Abdujabborning nafaqat naqsh tilini, balki go‘zallik falsafasini, naqshlarning ramzlarini bilgan mohir usta bo‘lganidan dalolat beradi.

Madrasanining hammani o‘ziga tortadigan jihatlaridan biri shundaki, uning peshtoqiga sher, ohu, quyosh va inson yuzining tasviri tushirilgan.

Sher boshining birinchi ramziy ma’nosi tirik mavjudotlar ichida eng aqlli va kuchli qilib insonlarning yaratilganligini anglatadi. Tasvir Samarcand hokimi Bahodir Yalangto‘shbiyning dovyurakligi, aql-zakovati, epchilligi, ziyoli va donoligiga qiyoslanib, uning burji sher, muchali esa yo‘lbarsligiga ishora qilingan.

Sherning qulog‘i esa insonlarni hushyorlikka undashi, ya’ni halol va harom luqmaning farqini hushyorlik bilan ajrata bilishga undaydi. Asarda ajdodlarimizdan Abu Nasr Forobiyning qulog haqidagi ibratli fikrlari ham keltirilgan. «Agar qulogni nimalardan berkitish kerak, deb so‘rasalar, aytgil, avval botil va bid’at so‘zlardan, ikkinchidan, behuda va foydasiz so‘zlardan, uchinchidan, g‘iybat va bo‘hton so‘zlarni eshitishdan. Chunonchi, g‘iybatga qulog solgan g‘iybatchining gunohiga sherikdir».

<sup>22</sup> Жабборов И. Ўзбеклар. – Т.: Шарқ, 2008, 155-6.

qulog‘iga yetib boribdi. Karvondagilar: «Karvon halokatga uchrabdi, bo‘lmasa bunaqa ovoz chiqarmasdi. Yordamga chaqiryapti, bormoq kerak», - deb ularning oldilariga yetib borishibdi. Suv berib, falokatga uchragan savdogarlarni saqlab qolishibdi-da, savdoga birga olib ketishibdi. Cho‘lda suvsizlikdan halokat holiga kelgan savdogarlarni saqlab qolgan narsa doira ekan. Shu-shu doira «taka-taka-tum» deb ovoz chiqara boshladimi, odamlarda tetiklik, jasurlik, dadillik kayfiyatlar uyg‘onarkan.

«Jazo» rivoyatida esa qo‘shiq sehri, insonlarga xos bo‘lgan ziyraklik, topqirlik, aql tarannum etiladi: « Bir shahzoda yolg‘iz o‘zi ovga chiqibdi. U hech qo‘rqlay, qalin to‘qay ichiga kirib bedarak ketibdi. Podshoning yuragiga g‘ulg‘ula tushibdi. Bosh vazirni oldiga chaqirib: «O‘g‘limni tezda topasan, topmay qaytib kelsang yoki yomon bir xabar keltirsang og‘zinga qo‘rg‘oshin quydiraman», - debdi. Bosh vazir odamlarini olib, to‘qayga ravona bo‘libdi. Qidirib-qidirib qarasalar, shahzodani yovvoyi hayvon o‘ldirib ketgan emish. Vazir podshoning oldiga borib bu xabarni aytishga yuragi betlamabdi. Keyin bir joyga to‘planib maslahat qilishibdi. Vazir bilan birga borgan odamlardan biri: «Mana shu to‘qayning narigi chetida bir dono chol bor, o‘sha chol nima qilish kerakligini aytib beradi, shuning oldiga boramiz», - deb maslahat beribdi. Vazir boshliq podshoning odamlari o‘sha cholning oldiga borishibdi, bo‘lgan gaplarni aytib berishibdi. Chol o‘ylanib turib: «Mayli, men o‘zim borib javobini beraman», - debdi. Bular hammasi shahzodaning o‘ligini bir yerga yashirib, podshoning saroyiga boribdilar. Zo‘r tashvishda o‘tirgan podsho darrov: «Xabar topib keldingizmi?» – deb so‘rabdi. Hamma jim turaveribdi, chunki kim to‘g‘risini aytsa, og‘ziga qo‘rg‘oshin quylishi kerak edi. Shunda haligi odam qo‘liga dutorini olib chala beribdi. Dutordan shunday mungli, qayg‘uli ovoz tarqalibdiki, podsho o‘g‘liga nima bo‘lganini darrov sezib olibdi. Podsho og‘ir qayg‘u chekibdi, keyin g‘azab bilan: «Cholning og‘ziga qo‘rg‘oshin quylisin», - deb buyruq beribdi. Haligi chol: «Meni avf eting, podshohim, menda hech ayb yo‘q, qayg‘uli xabarni men emas, mana bu dutorim aytdi, jazoni shu dutor tortishi kerak», - debdi. Podsho buyruqni chor-nochor o‘zgartiribdi: dutorning qorniga qo‘rg‘oshin eritib quyibdilar.

Ma’lumki, yurtimizdagи tarixiy obidalar, milliy me’morchilik namunalari ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan yodgorlikdir. Ularning har biri milliy boyligimiz, milliy o‘zligimizni anglatib turuvchi tarixiy xotira, saboq, odobnomalardir. Ana shu xalq durdonalari jahon me’morchiligi tarixida o‘zlarining badiiy qadr-qimmati, obro‘siga ko‘ra Misr,

sentyabr), qishning eng uzun tunida «Sada»(Olov) bayrami (22 dekabr), yozning eng uzun kunida «Angom hayit»(Suv sayli) bayrami (22 iyun) o’tkazilgan.

Bahor faslida, tabiat uyg‘onib, dalalarda yangi mehnat mavsumi boshlanishiga bag‘ishlangan «Navro‘z» bayrami nishonlangan. «Yil boshi»- yangi yil sifatida ham mashhur bayram bo‘lgan. Turli sayillar, tomoshalar, o‘yinlar, musobaqalar, xalq ijodi ko‘riklari o’tkazilgan, maxsus taomlar tayyorlangan. Navro‘z bayrami hozirgi kunga kelib, o‘z sehr va tarovatini yo‘qotmadi, balki xalqimiz orziqib kutadigan bayramga aylandi, bayram bilan bog‘liq ko‘plab urf-odatlarimiz yana qayta tiklandi. «...Yangilanish va ezgulik timsoli bo‘lgan Navro‘z falsafasi xalqimizga mansub odamiylik, mehr-oqibat, muruvvat va himmat kabi yuksak xususiyatlardan oziqlanib kelgan, ajdodlarimiz asrlar davomida qanday buyuk umuminsoniy g‘oyalardan bahramand bo‘lib, ma’naviy kamol topganining yana bir tasdig‘idir.»<sup>23</sup>

Demak, Navro‘z bayramini nishonlash, u bilan bog‘liq urf-odatlar, rasm-rusumlarni o’tkazish yoshlar tarbiyasida juda katta ahamiyatga ega. Zero, bu bayram nafaqat tabiatning qudrati va sahovatini, balki xalqimizning yuksak xususiyatlarini aks ettiradi.

Xalqimiz kuzgi tengkunlikda hosil yig‘ish yakuni, qishga tayyorgarlikning boshlanishi sifatida «Mehrjon» bayramini o’tkazgan. Hozirgi kunda bu bayram qayta tiklanib nishonlanmoqda.

Yoz oyida nishonlanadigan «Suv sayli» - «Angom bayrami» O‘rtal Osiyo iqlimi sharoitida suvgaga bo‘lgan tabiiy ehtiyoj asosida shakllangan. Suvning qadriga yetish, uni isrof qilmaslik, e’zozlash kabi xislatlarni tarbiyalashda ushbu bayramning ahamiyati katta bo‘lgan. Yoz oylarining oxiridan boshlab uzum sayli, qovun sayli, anor, anjir sayillari, turlituman tabiat va mehnat bayramlari nishonlangan.

«Sada» bayrami qadimda olov kashf etilgan kun deb nishonlangan. Islom dini kirib kelgach, bu bayram yo‘qola borgan, lekim uning ba‘zi elementlari hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Masalan, ba‘zi viloyatlarda kelinni olov atrofida aylantirish udumi hozir ham bor.

Dehqonchilik bilan bog‘liq juda ko‘p marosimlar qatorida «Shoxmoyollar» alohida quvonch va tantana bilan nishonlangan, bu kun dalaga qo‘shtu chiqarish kuni sifatida bayram qilingan. Bu bayram bilan bog‘liq udumlar kishilarni hamjihatlikka, mehrli bo‘lishga va mehnatsevarlikka undagan.

<sup>23</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – ёнгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008.-35-бет

Qurg‘oqchilik paytida yomg‘ir chaqirish marosimi, shamol chaqirish va uni to‘xtatish rasm-rusumlari o‘tkazilgan. Qishga tayyorgarlik tashvishlari bilan bog‘liq «Oblo baraka» marosimida hasharchi - o‘rimchilar bug‘doy o‘rimining oxirida bir parcha o‘rilmagan yer qolgach, har tomondan o‘rib, o‘sha yerga intiladilar. Har bir hasharchi oxirgi bug‘doy tutamini o‘rib olishga harakat qilgan va shu tutamni «ona bug‘doy» deb ataganlar. Kimki bиринчи bo‘lib oxirgi tutamga yetib kelsa, «yedim, yetdim, yetdim, Oblo baraka bersin», deb uni o‘rib oladi. Ona bug‘doy shu holigacha bog‘lanib, uyga olib boriladi va bahorgi ekish paytigacha saqlanadi. Ekin ekish boshlanganda ona bug‘doy tozalanib, bir qismi urug‘lik donga, bir qismi yanchilib, unga aralashtirib, non-patir yopiladi. Yopilgan non-patir dalaga olib chiqilib, don sepishga chiqqan dehqonlarga ulashib berilgan.»<sup>24</sup>

Bu урф-одатлар ва маросимларда юши кattалар улуг‘ланган, halqimiz kelajakka umid va ishonch bilan qarashni o‘rganganlar.

Jo‘rachilik va ulfatchilik asosida tashkil qilinadigan «gap» hozirgacha saqlanib kelayotgan урф-одатлардан бiri. Unda turli tarbiyaviy mazmundagi suhbatlar uyuşhtirilgan, ashula va raqlar ijro etilgan, mehmonnavozlikning o‘zbekona udumlariga rioya qilingan.

Diniy bayramlarimizdan Ramazon va Qurbon hayiti insonparvarlik xarakteriga ega bo‘lgan bayramlar safiga kiradi. Bu bayramlarning kelib chiqishi, mohiyati haqida juda ko‘p ma’lumotga egasiz, shu bois hayit bayramlari bilan bog‘liq ba’zi bir урф-одат va udumlar haqida to‘xtalmoqchimiz. Ramazon hayiti Ramazon oyining yakunida nishonlanadi. Ramazon oyining uchinchi kunidan boshlab eshikma-eshik yurib «Yo ramazon» qo‘srig‘i ijro etiladi. Quyida shu qo‘sriqdan namunalar keltiramiz:

Yo ramazon aytib keldik eshicingizga ,  
Qo‘chqordek o‘g‘il bersin beshicingizga.  
Yo ramazon, yo ramazon.  
Sum-sum tilla, sum tilla, suvgga salsa botmasin,  
Xudo bergen keng davlat tepkilasa ketmasin,  
Yo ramazon, yo ramazon.  
Qo‘y-qo‘zingiz boshiga chopsa otlar yetmasin,  
Osmondagi oyingiz ming yilda ham botmasin,  
Yo ramazon, yo ramazon.  
Farzandingiz ko‘p bo‘lsin, dushmaningiz cho‘g‘ bo‘lsin,  
Oltiningiz qop bo‘lsin, qator-qator saf bo‘lsin,

ma’naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi hech gap emas. Oxir-oqibatda bunday odam «Shoshmaqom» singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo‘ladi». <sup>43</sup>

Demak, yoshlarimizning madaniy saviyasini yuksaltirishimiz, buning uchun esa nafosat tarbiyasiga katta e’tibor qaratishimiz zarurdir.

Xalq pedagogikasi manbalarida milliy musiqa, qo‘sinqchilikka oid ma’lumotlar behisob. Qo‘sinqlarda xalq hayoti, xalq xarakteri, ruhiyati, shuningdek, xalq tafakkuri, dunyoqarashi, an’analari, урф-одатлари, o‘ziga xos xususiyatlari butun qirralari bilan namoyon bo‘ladi.

Inson chaqaloqlik davridayoq alla orqali qo‘sriq eshitadi, butun umri davomida qo‘sriq tinglaydi, oxirgi kunida ham yig‘i-yo‘qlov qo‘sinqlari bilan kuzatiladi, ya’ni butun umri davomida qo‘sriq insonga hamrohlik qiladi.

Xalq qo‘sinqlariga allalar, yor-yorlar, laparlar, mehnat qo‘sinqlari, mavsumiy qo‘sinqlar, muhabbat mavzusidagi qo‘sinqlar kiradi. Musiqa va qo‘sinqning yuksak did va nafosat tarbiyasidagi ahamiyati haqida xalq og‘zaki ijodida qator afsona, rivoyat, asotir va hikoyalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Masalan, «Doira» rivoyatida hikoya qilinishicha, qadim-qadim zamonlarda bir mamlakatning savdogarlari savdo qilish uchun safarga chiqishibdi. Yo’llari cho‘li Malikdan o‘tar ekan. Yo‘l yurib, yo‘l yurishsa ham oz emas, mo‘l yurishib, cho‘li Malikning qoq o‘rtasiga borib qolishibdi. Bir payt g‘amlagan suvlari ham tamom bo‘lib qolibdi. Suvsizlikdan birin-ketin sulayishib, yotib qolishibdi. Kuch-quvvatlari ketib, turib yurishga aslo madorlari qolmabdi. Karvonda bir yigit ham bor ekan. U o‘zining oxirgi meshidagi suvni safardoshlari og‘ziga tomchilab-tomchilab quyibdi. Odamlar bir oz o‘zlariga kelishibdi-yu, baribir issiq hamda chanqovdan yo‘lga tusha olishmabdi. Shunda boyagi yigit o‘ylab-o‘ylab, suvdan bo‘sagan meshini yorib, aravaning g‘ildiragiga tarang qilib tortibdi. Shundan keyin oftobga qaratib qo‘yibdi. So‘ngra uni taka-tumlata boshlabdi. Ovoziga mahliyo bo‘lib qattiqroq taka-tumlatibdi. Bora-bora uni shunchalik ura boshlabdiki, asbobning ovozi butun cho‘lni larzaga keltiribdi. G‘ayritabiyy bu ovozdan odamlar ham o‘zlariga kelib, g‘imirlay boshlashibdi. Ularda kuch-quvvat, xatti-harakat paydo bo‘libdi. Ovoz barxandan barxanga o‘tibdi, tepalikdan tepalikka ko‘chibdi. Oxiri shu cho‘lning narigi chekkasida ketayotgan boshqa karvondagilarning

<sup>24</sup> Жабборов И. Узбеклар. Т.: Шарқ. 2008. 154-б.

<sup>43</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008. 143-бет.

ma'lum. Ulug' siymolar musiqaning inson salomatligiga ta'siri haqida qator risolalar yozib qoldirganlar. Moziyga bir nazar solib, bir necha yillik tarixga ega bo'lgan «Navro'z», «Mehrjon», «Lola sayli», «Hosil bayrami». «Qovun sayli», «Uzum sayli», «Sumalak gurungi» kabi mavsumiy bayramlar va u bilan bog'liq urf-odatlarni eslaylik. Bunday bayramlarda xalq karnay-surnay, doira, nog'ora sadolari jo'rлигida o'zining jismoniy harakatlari orqali qo'shiqlar kuylab, raqslar ijro etganlar. Ana shunday tadbirlar insonni ruhan tetiklikka, jismonan bardamlikka chorlagan. Masalan, qosh o'yini, bosh o'yini, yelka o'yini, oyoq va qo'llar o'yinlarini buyuk tibbiyot allomalari inson ruhini yanada ko'taruvchi omil, deb baholaganlar.

G'arb shifokorlari ham ba'zi kasalliklarni davolashda dori-darmon o'rniga mumtoz musiqani tavsiya qilishadi. Aniqlanishicha, Betxovening 5-simfoniyasi yurak faoliyatiga xush ta'sir qiladi, «Oy sonatasi» esa asablarni tinchlantiradi. Baxning «Italiya konserti» qahru-g'azabni bosadi. Shopenning mazurkalari va Shtrausning valslari xavotirli tuyg'ularni aritadi. Chaykovskiyning «Oqqush ko'li» va Shopenning «Re-minor noktyur»ni qon bosimini tushiradi. Sharqda maqom yo'nali-shidagi og'ir qo'shiqlar tinchlantirsa, sho'x, o'ynoqi ohangdagi kuy-qo'shiqlar tetiklashtiradi. Xalqimiz nazdida yoqimli musiqa va ohang ta'sirida uyg'onadigan ijobiy his-tuyg'ular markaziy asab tizimiga ta'sir qilib, yurak ishini faollashtiradi, diqqatni bir joyga toplashga, beqarorlikdan qutulish va hissiy holatni yaxshilashga olib keladi. Bir so'z bilan aytganda, yoqimli musiqa insonni yangi-yangi zafarlarga ilhomlantiradi va uning ruhiyatidagi yashirin zahiralarni ishga soladi. Ulug' tabib Abu Ali ibn Sino ham turli kasaliklarni davolashda musiqadan keng foydalangan, har bir bemorning mijoziga qarab musiqa tanlagan.

Buyuk alloma Abu Nasr Forobiy musiqani uch turga bo'ladi: «Birinchidan, insonga xursandchilik baxsh etadi, ikkinchidan, insonda ijobiy his-tuyg'u va zavq-shavq uyg'otadi, uchinchidan, inson tasavvuriga ta'sir etib, ko'z oldiga hayotdagi eng quvonchli damlarni keltiradi», - deydi. Allomaning ta'kidlashicha, «Agar tibbiyot bilan musiqa birlashsa, odam tarbiyasida juda katta yutuqlarga erishish mumkin bo'ladi».

Darhaqiqat, milliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati yoshlarimizda nafosat tuyg'usini shakllantirish omili deb qaraladi. Ammo inson ruhiyatiga salbiy ta'sir o'tkazadigan musiqa va qo'shiqlar albatta bundan mustasno. Bu haqda yurtboshimiz shunday fikr bildiradilar: «Agar insonning qulog'i yengil-yelpi, tumtaroq ohanglarga o'rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning

Yo ramazon, yo ramazon.

Chopqillashsin toyingiz, mingdan oshsin qo'yingiz,  
Oppoq bo'lsin uyingiz, yerga yetsin molingiz,  
Yo ramazon, yo ramazon.

Elga katta to'y bering, ming yilgacha gap bo'lsin,  
Gapginangiz doimo elu-yurtga jup bo'lsin,  
Yo ramazon, yo ramazon.

Yaylovingiz ho'l bo'lsin, bug'doyingiz mo'l bo'lsin,  
Qush sayratib turgani bog'ingizda gul bo'lsin,  
Yo ramazon, yo ramazon.

Qaysi otga minsangiz uloq oling har to'ydan,  
Buvizingni qo'li arimasin hech moydan,  
Yo ramazon, yo ramazon.

Har yil boqqan qo'yingiz bo'lsin qo'sha qo'zidan,  
Ichgangina suvingiz bo'lsin buloq ko'zidan,  
Yo ramazon, yo ramazon.

O'g'loningiz sher bo'lsin, qizginangiz oy bo'lsin,  
Qadam bosgan joyida omad doim yor bo'lsin,  
Yo ramazon, yo ramazon.

«Amazon» qo'shig'ini aytuvchilar inson zotiga, uning oilasiga shu tariqa yaxshi niyat bildirganlar, uy egalari ko'ngildan chiqarib bergen pul yoki oziq-ovqat mahsulotlarini o'zaro teng bo'lib, mahalladagi bemorlar, muhtojlarga ham ularshganlar. Demak, «Amazon» qo'shig'ini aytishdan maqsad odamlarga ezgu niyat bildirish, sog'lik, omonlik, to'kin-sochinlik va osoyishtalik tilash hamda kam ta'minlangan oilalarga yordam berishdan iborat bo'lgan.

Hozirgi kunda ham bolalar bu qo'shiqni ijro etishmoqda, lekin qo'shiq boshidagi ikki misrani biladilar, xolos. «Amazon» qo'shig'inining tarbiyaviy ahamiyatini e'tiborga olib, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimida qo'shiqning matnini o'rgatish, mazmunini tushuntirish lozim bo'ladi.

Xalqimizning ajoyib o'yin-odatlardan biri «Qorxat» yozish bo'lib, bu odat hozirgi kunda deyarli unutilgan. Bu o'yin-odat xalqimizning serhimmat, qo'li ochiq, saxiy, tanti xalq ekanligini namoyish etgan. Uning qoidasi va shartlari quyidagicha bo'lgan: «Avvalo qorxat birinchi qor yoqqan kuni jamoa bo'lib, she'riy shaklda yozilgan, bu xalqimizning shoirta'bligidan darak beradi. Qorxat yozish yig'inida shoirlar, baxshilar, zukko, hozirjavob va fazil kishilar ishtirot etishgan. Qorxat

yozish kechasi she'rxonlik, kitobxonlik, baxshichilik, askiyabozlik, donishmandlar suhbatiga aylanib ketgan. Qorxatda uning shartlari bitilgan. Qorxat yozuvchining vakili xatni egasiga qorxatligini bildirmay topshirgan-u, qo'liga tushib qolmaslik uchun belgilangan masofagacha qochgan. Aks holda maktub jo'natgan taraf shartlarni bajarishi lozim bo'lgan. Qorxat shartlarida noz-ne'matni dasturxonga to'kib, katta ziyoft berish aytildi, bu ziyoft hamma uchun bayram tusini oлган. Uy egalari qorxat yozgan tomonni izzat-ikrom bilan kutib olishgan.<sup>25</sup>

Qorxat, garchi hozirgi kunda unutilib borayotgan bo'lishiga qaramay, xalq bag'rining kengligi, o'zbek dasturxonining to'kinligi, zukko va sersahovat udumlarimizdan biri sifatida milliy urf-odatlarimizning ajoyib namunasi bo'lib qolaveradi.

Xalqimizda shuningdek, raqamlar bilan bog'liq turli urf-odatlar, e'tiqodlar va tushunchalar hanuzgacha mavjud. Xalq og'zaki ijodida 3, 4, 5, 7, 9, 40 raqamlari sehrli son hisoblanadi. Kelinni olov atrofidan uch marta aylantirish, marhumning «uchi», «yettisi», «qirqi»ni o'tkazish, to'ylarda «to'qqiz tovoq» berish, bemorlarni chillayosin qilish kabi udumlar xalqimizning aynan shu «sehrli sonlar» bilan bog'liq qarashlari asosida paydo bo'lgan. Xalqimiz o'ttiz (30) sonini unchalik yoqtirmaydi va «o'ttizda o'tin bo'lgan» deydi. Lekin qirq (40) soniga hurmat bildirib, «qirqida qirchillama bo'ldi», «qirqi chiqdi», «qirqiga chidagan qirq biriga ham chidaydi», - deydi. O'n besh (15) raqami xosiyatli sanaladi. Buni «o'n besh kunlik oydek», «bo'laman deganning bolasi o'n beshida bosh bo'lar» kabi maqollarida ko'rishimiz mumkin. O'n sakkiz (18) raqami ham xosiyatli. O'n sakkiz ming olam, o'n sakkizga kirmagan kim bor, o'n sakkiz yashar yigitdek kabi ifodalardan bu raqamga hurmat bilan qaralganini ko'ramiz.

Nasroniylar o'ttiz uch (33) sonini payg'ambar Isoning umr yoshi sifatida hurmat qilishadi (u 33 yoshida chormixga tortilgan), biz musulmonlarda esa 63 sonini Muhammad payg'ambarimizning muborak yoshi deb e'zozlanadi. Hozir ham xalqimizda 63 yoshga yetgan kishilarning «payg'ambar yoshi»ga yetganligi munosabati bilan elga dasturxon yozish odati bor.

Yetti (7) raqamiga xalqimiz alohida e'tibor bilan qaraydi. Oftobda yal-yal tovlanuvchi kamalakning rangi qizil, za'faron, sariq, yashil, zangori, ko'k, binafsha kabi yetti xil ranglardan iboratligini, Qur'onning birinchi «Fotika» surasi ham yetti oyatdan iborat ekanligini ta'kidlashadi.

<sup>25</sup> М.Саттор. Ўзбек удумлари. Т.: «Фан», 1993. 140-б.(қисқартириб олинган.)

lik, qo'g'irchoq teatri, darboz, sozanda-go'yanda va masxarabozlik san'ati namoyish qilingan. O'zbek xalq teatri masxaraboz-qiziqchilar va qo'g'irchoq teatrlariga bo'lingan bo'lib, ularda askiyaboz, muallaqchi, darboz, nayrangboz (fokuschi), yog'ochoyoq, masxaraboz, qiziqchi, qo'g'irchoq o'ynatuvchilar, sozandalar ishtirot etishgan.

Ular boy zodagonlarning xasisligi, nopoligi, ta'magirligi, munofiqligini ayovsiz fosh qilganlar.

Milliy teatr taraqqiyot bosqichini o'rganar ekanmiz, xalqimiz ko'ngli zavq-shavqqa to'lgan, san'atni qadrlaydigan, yuksak didli ekanligiga yana bir bor amin bo'lamiz. Zero, «yuksak badiiyat va haqqoniylig, ezgu maqsadlarga xizmat qilish ruhi bilan sug'orilgan asarlar yaratish – barcha san'at turlari kabi bu soha uchun ham asosiy mezon bo'lishi tabiiydir».<sup>42</sup>

Musiqa madaniyatida xalq ashulalari, xalq kuylari, sozandachilik san'ati rivojlangan. Ilk to'la maqom XVI asrga oid Buxoro «Shoshma-qomi»dir. Maqomlarning asosiy mazmuni lirk sevgi va didaktik she'rlardan tashkil topgan. Hozirgacha eng sevimli maqomlar Umar Hayyom, Jomiy, Rumi, Navoiy, Bedil, Ogahiy kabi klassik shoirlarning asarlari asosida bastalangan.

Musiqa haqida Aflatun: «Musiqa insonlarni tarbiyalashda har qanday o'zga vositalardan afzaldir. Chunki ohang va uyg'unlik inson ruhi va ruhiyati tomon yo'l topadi», - degan bo'lsa, buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy:

«Ko'ngil xush ohangdan quvvat, ruh esa xush ovozdan oziq oladi», - deydi.

Qur'oni Karimdag'i suralar ohangdor ovoz bilan, qiroat ila o'qilishi ham yuqoridagi fikrlar tasdig'idir.

Bir tabiatshunos olim umrining oxirida o'zining she'riyatga, musiqaga ishtiyoqi kamaygani xususida kuyinib, agar umrimni qaytadan boshlash nasib qilganda, har haftada laoqal bir marta biroz she'r o'qish, andak musiqa tinglashni qoida qilib, shu yo'l bilan miyamning tegishli qismlarini faol holatda saqlab qolgan bo'lardim, deb yozgandi.

Sa'diy Sheroziy kuy va qo'shiqni «Ruh ozuqasi» deb bejiz ayt-magan. Kishi yaxshi kuyni tinglaganda, jaholatdan yiroqlashadi, muhabbat, sadoqat, go'zallik kabi yuksak insoniy his-tuyg'ularni qalban his etadi, natijada did va nafosat tuyg'usi shakllanadi.

Shuningdek, musiqaning inson kayfiyati va sog'ligiga ta'siri beqiyosligi bois uning tibbiyotda qo'llanilishi ko'hna tariximizdan

<sup>42</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – ёнгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008. 143-бет

hunarini ko'rsatsin, undan so'ng tegaman», - debdi. Sovchilar qaytib kelib, bo'lgan gapni podshohga so'zlabdilar. Avvaliga shohning achchig'i kelibdi va qizni o'limga buyurmoqchi bo'libdi. So'ng o'ziga kelib, gilam to'qishni o'rganibdi. Hatto mamlakat podshohlari ham hunarni qadrlaganlari va o'ziga munosib kishilarni hunarmandlar orasidan qidirganlarini ushbu ertak mazmunidan bilib oldik.

Ko'rib turganingizdek, o'zbek xalq og'zaki ijodida hunar yuksak baholanadi, bolaligidanoq hunarga mehr qo'yib, hunarmand bo'lib yetishgan asar qahramonlari faqat ma'lum bir kasb egasi bo'lib qolmay, balki aqliy, jismoniy va ma'naviy yetuk, barkamol shaxs sifatida tasvirlanadi.

O'zbek xalq pedagogikasida xalq amaliy san'ati ustalarining kasb-hunarlarini yuqori baholanib, yoshlarni hunar o'rganishga, turli kasb-hunar sohalariga qiziqtirishga g'amxo'rlik va boshchilik qilishlari kerakligi uqtiriladi. Shuningdek, zamonamizning barkamol yoshlari ilmli, hunarli bo'lishlari bilan birga aql-idrokli, fahm-farosatli, mohir hunarmand va ibratli odob-axloq egasi bo'lishi zarurligi qat'iy ta'kidlanadi.

Xalqimiz hunar egalarini qanchalik ardoqlagan va yuksak baholagan bo'lsa, axloqiy yetuklik, kasbga hurmatni ham shunchalik yuqori o'ringa qo'ygan. Xalq amaliy san'atiga, shu orqali hunar egallahsha qiziqishni uyg'otish axloqiy tarbiya bilan uyg'unlikda olib borilganligi tufayli diyorimizda o'zbek madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan qanchadan-qancha yirik mutafakkirlar, olimlar, ilmu fan, san'at va adabiyot namoyondalari yetishib chiqqan.

Xalq pedagogikasi manbalarida berilishicha, yoshlarni hunarmand bo'lishga odatlantirish, qiziqtirish, yo'llash va undash eng avvalo oiladan boshlanadi. Hunar o'rgatish orqali axloqiy tarbiyalash ham avvalo oilada keyinchalik ta'lim muassasalarida davom etadi. Oiladagi kattalar yoshlarni hunar o'rganishga yo'naltirish, ularning hunarni egallayotganlarini sinchiklab kuzatib borishi va manzur bo'lgan ishlari uchun rag'batlantirib, maqtab, mukofatlab turishlari haqida xalq pedagogikasidan juda ko'p ma'lumotlarni olish mumkin. Zero, xalq o'tmishida aytilgan axloq-odob, hunar haqidagi fikrlarni davr elagidan saralab o'tkazadi, durdonalarini ardoqlab, kelajak avlodga uzatadi. Demak, xalq amaliy san'ati namunalari yoshlarda kasb-hunarga mehr uyg'otish hamda mehnatsevarlik hissini singdirish vositasi bo'lib qolaveradi.

O'zbek xalqining teatr va musiqa san'ati ma'naviy madaniyatda muhim o'rinni egallaydi. Turli xalq bayramlari va sayillarida, to'y va ziyoftlarda doimo ommaviy xalq o'yinlari sahnalashtirilgan, askiyaboz-

Ko'rib turganimizdek, xalq tomonidan yaratilgan va katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan urf-odatlar, an'analar, bayram va marosimlar o'zbek xalqining madaniy merosida katta o'rinni egallaydi, ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oladi, kishilar o'rtasidagi munosabatlarning turli jihatlari va shakllarida namoyon bo'ladi.

Xalqimizning bunday madaniy merosi bilan faxrlanishimiz, qadimiy urf-odatlarimiz, an'ana va udumlarimizni bilishimiz, ehtiyyot qilishimiz va yosh avlodga yetkazishimiz bizning insoniy burchimiz va bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Xalq o'yinlari o'zining qadimiyligi bilan ibridoiy davrga borib taqaladi va insoniyatning shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rinni egallaydi. Eng qadimiy davrdan boshlab inson hayotida termachilik, ovchilik, chorvachilik, dehqonchilikka oid o'yin-raqslar shakllana boshlagan. Bu o'yinlar faqatgina chaqqonlik hashqi bo'lib qolmasdan, balki o'z zamonasiga mos odamlarni tarbiyalash maktabi ham bo'lgan.

Termachilik davrida mohir terimchilarning harakatli o'yinlari paydo bo'lgan. Ovchilik bilan shug'ullana boshlangach, «ov o'yinlari» yuzaga kelgan, bu o'yinlar yoshlarni ov qilishga o'rgatgan. Ovchilik negizida chorvachilik shakllangach, kattalarning chorva boqishiga oid muhim mehnat jarayonlari bolalar tomonidan o'yin shaklida takrorlanib turilgan. Dehqonchilik bilan bog'liq «Mehnat o'yinlari» bahorgi va kuzgi marosim bayramlarni yuzaga keltirdi. Shu tariqa har bir tarixiy davr o'z o'yinlarini yaratib, o'z davri kishisini tarbiyalashda muhim o'rinn tutgan, yashash uchun zarur bo'lgan sifatlarni shakllantirgan, ularni har tomonlama - ma'naviy, aqliy, jismoniy rivojlantirgan.

Sharq allomalari – Firdavsiy, Beruniy, ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Alisher Navoiy, Bobur o'yinlar xalq hayotining muhim qismi bo'lganligini ta'kidlaydilar. Xususan, Firdavsiy - shoh o'yinlari, Beruniy qadimgi xalq o'yinlari, ibn Sino o'yinning shifobaxsh xususiyatlari, Mahmud Qoshg'ariy turkiy xalqlarga oid ko'plab o'yin turlarining bayoni, Kaykovus o'yinlarda qatnashish odobi, Alisher Navoiy pahlavonlik o'yinlari, Bobur o'yinlarning zavq-shavqi haqida ajoyib fikrlar bildirganlar.

O'yinlarning mazmuni va shakli tabiiy sharoit, mehnat faoliyati, ijtimoiy axloqiy munosabatlardan kelib chiqqan. Qadimda «Qilich jangi», «Tuya poygasi», «Otliqlar poygasi», «Tuya jangi» kabi musobaqa – o'yinlar bo'lganligi ma'lum.

Xalq og'zaki ijodida, jumladan, dostonlarda yoshlarni jismoniy chiniqtirishga, barkamol bo'lishiga xos qadriyatlar ko'plab uchraydi.

Xususan, «Alpomish» dostonida ota-bobolarimizning bola jismonan sog‘lom bo‘lishiga katta e‘tibor bilan qaralganligi, Alpomishning yetti yoshida og‘ir yoyni ko‘tarib otishi unga yoshlikdan jismoniy tarbiya berilganidan dalolat beradi. Yoshlar qadimdan o‘zining jasurligi va topqirligini el oldida namoyish etib, sinovdan o‘tgan. Alpomish ham aql-zakovati, kuch-qudratini ko‘rsatib to‘qson alpning eng zo‘ri Ko‘kaldoshni mag‘lub etadi va yor vasliga yetadi. Lekin Alpomish bir zumda pahlavon bo‘lib qolmagan, albatta. Pahlavonlik shohsupasiga uni bolaligidan merganlik, olishish, nayza otish, qilichbozlik, chavandozlik, kurash kabi musobaqa - o‘yinlarini o‘ynagani sabab bo‘lgan.

M.Murodov o‘zbek xalqining boy o‘yin merosini quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganadi:<sup>26</sup>

1. Tabiiy – mavsumiy o‘yinlar.
2. Hududiy va turli joylarga xos o‘yinlar.
3. Turli yoshlarga xos o‘yinlar.
4. Turli jinsdagilar o‘yinlari.
5. Mashg‘ulot, mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘yinlar.
6. Voqeaband o‘yinlar.
7. Harakatli o‘yinlar.
8. Turli vositali o‘yinlar.
9. Hayvonlar ishtirokida o‘tadigan o‘yinlar.

Tabiiy – mavsumiy o‘yinlar har bir faslda o‘ziga xos bo‘lgan. Bahorda «Tolbargak», «Yomg‘ir yog‘adi», «Oq terakmi – ko‘k terak» o‘yinlari, yozda «Suvda quvlashmachoq», «Tez suzish», «Arqon o‘yin», «Tosh o‘yin» kabilar, kuzda «Danak», «Yong‘oq o‘yinlari», «Arg‘imchoq uchish», «Oshiq», «Tosh o‘yinlari»; qishda qor yoqqanda yaxmalak uchishgan, «Qorxat», «Qorbo‘ron» o‘yinlari odatga kirgan. Qattiq sovuq paytlarda sandal atrofida yig‘ilib «Tez ayt», «Topishmoq top», «Kim aytish» kabi o‘yinlar o‘ynalgan.

Hududiy va turli joylarga xos o‘yinlar orasida ma’lum farqlar bo‘lgan. Qishloq o‘yinlari keng dalalarda, shahar o‘yinlari kichik maydonlarda o‘tgan. Uyda «Sandal o‘yin», boshqotirma - so‘z o‘yinlari; hovlida – «Tosh o‘yinlari», «Arqon», «Bekinmachoq», «Chizma» o‘yinlar; maydonlarda – «tortishmachoq»; bog‘da – «Yong‘oq», «Danak» o‘yinlari; suvda – «Suv ostida ko‘p turish», «Quvlashmachoq» o‘yinlari; havoda – «Arg‘imchoq uchish»; osmonda – «Varvak» o‘yinlari o‘ynalgan.

do‘ppi kashtachiligi o‘zbek xalqining g‘ururi hisoblanadi, yurtimizdag‘i har bir joyning do‘ppisi o‘zaro farqlanadi. O‘zbek milliy shirinliklarini tayyorlaydigan ustalar qandolatchi, shirapaz, holvagar, shakarpaz deb atalgan. Shuningdek, qassoblik, oshpazlik, novvoylik kasblari ham mashhur bo‘lgan. Gilamdo‘zlik, kigiz bosish, savat va bo‘yra to‘qish ham amaliy san‘atning noyob turlaridan hisoblangan.

Metall buyumlarga o‘yib naqsh ishslash kasbi – kandakorlik, misdan turli buyumlarni yasash misgarlik kasbi deb atalgan. Eng serhasham badiiy amaliy san‘at kasbi zardo‘zlik hisoblangan. Zarbof kiyimlar va zardo‘zlik kasbi haqida juda ham ko‘p arxeologik va tarixiy ma’lumotlar mavjud bo‘lib, ular o‘zbek xalqining uzoq tarixiy taraqqiyotida boy an‘analarga ega bo‘lgan xalq amaliy san‘ati madaniy merosimizning yorqin namunalariga aylangan. Xalq amaliy san‘ati kasb-hunar bilan chambarchas bog‘liq. Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib, ota-bobolarimizdan 150dan ziyod hunar turlari bizgacha meros bo‘lib kelganligiga amin bo‘ldik.

Oilada farzandlarni hunarga qiziqtirish va o‘rgatish masalalari hamma vaqt dolzarb bo‘lib kelgan. Buyuk allomalar, sharq mutafakkirlari, ma’rifatparvar ziyyolilar tomonidan mehnat, hunar insonni har tomonlama ulug‘lovchi omil ekanligini ta‘kidlovchi fikrlari hozirgi kunda ham ahamiyatlidir. Xalq pedagogikasining qator manbalarida, jumladan xalq og‘zaki ijodining barcha janrlarida mehnatsevarlik va hunar tarbiyasi haqida ko‘plab ma’lumotlarni olishimiz mumkin. Masalan:

- Hunar zar, hunarsiz xor.
- Hunarli er xor bo‘lmas, do‘sit-dushmanga zor bo‘lmas.
- Hunari yo‘q kishining mazasi yo‘q ishining.
- Qunt bilan o‘rgan hunar, hunardan rizqing unar.
- Bir yigitga yetmish hunar oz.
- Tekin boylik axtarguncha o‘zingga bop hunar top kabi maqollardan tashqari ertaklarda ham xalq amaliy san‘atining biror turini o‘ziga hunar qilib olish zarurati haqida gap ketadi. Masalan: «Hunarsiz kishi o‘limga yaqin» ertagida bir mamlakatning podshohi kambag‘al o‘tinchining qizini so‘ratib sovchi yuboradi. Shunda qiz: «Podshoning nima hunari bor? Men hunarli kishiga tegaman», - debdi. Sovchilar: «Dunyoda podshohlikdan ham katta hunar bo‘ladimi? Podsho barcha hunarli fuqarolarning otasi bo‘ladi», - debdilar. Qiz bo‘lsa: «Menga hunarlilarning otasi kerak emas, hunarlikning o‘zi kerak. Zamon o‘zgarishi bilan bugun podsho bo‘lgan kishi, ertaga taxtdan surilib, tilanchi bo‘lib qolishi mumkin. Podshohingizga borib aying, menga

<sup>26</sup> Муродов. Этномаданият. Т.: Адолат. 2003. 76-78-6.

Hunarmandchilikning qadimiy davrlardan keng tarqalgan sohalari mavjud bo'lib, temirchilik, degrezlik, pichoqchilik, qulfchilik, zargarlik, zardo'zlik, duradgorlik, o'ymakorlik, xarrotlik, sandiqchilik, naqqoshlik, popopchilik, gilamdo'zlik, beshikchilik, do'ppichilik, ganchkorlik, sangtaroshlik, kulolchilik, koshinchilik, ko'ncilik, charmgarlik, mahsido'zlik, etikdo'zlik, qandalatchilik shular jumlasiga kiradi. Shu o'rinda hunarmandchilik haqida ikki og'iz to'xtalib o'tsak. Taniqli etnograf I.Jabborovning ta'kidlashicha, temirchilik rivojlanishi bilan mustaqil sohalar yuzaga kela boshlagan. Masalan, o'zbek pichog'ini pichoqchilar, qulf-kalitni qulfchilar, igna-bigizni ignachilar, ro'zg'orda zarur bo'lgan buyumlarni chilangar, mixgar, taqachilar yasaganlar. O'zbek zargarları yasagan noyob qimmatbaho bezaklar dunyoda mashhur. Yog'och buyumlarini yasash hunarmandchiliginı duradgorlar amalga oshirgan, bunda o'ymakorlik alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Shuningdek, uyro'zg'or buyumlarini yasaydigan usta-xarrotlar, egarchi, taroqchi, elakchi ustalar ham bo'lgan.

Mahalliy duradgor ustalar milliy musiqa asboblari yasaganlar. Qurilish ishlari bilan shug'ullanuvchi ustalarni gilkor(g'isht quyuvchi), suvoqchi, paxsakash deb ataganlar. Maxsus me'morlar, ya'ni mohir suvoqchi va ganchkorlar milliy me'morchilik san'atini egallab, machitmadrasalar, minora va ko'shklar qurbanlar. Sabr-toqat va og'ir mehnat talab qiladigan badiiy amaliy san'at sohasi tosh va suyak o'ymakorligi, ya'ni toshtaroshlik va sangtaroshlikdir. Sangtaroshlar asosan marmar ustunlar yasaganlar. Kulolchilik eng qadimiy va ommaviy hunarmandchilik turi bo'lib hisoblangan.

«O'zbeklarning bu qadimiy amaliy san'ati o'zining boy an'analarini, nozik va mayin naqshlari va o'ziga xos milliyligi bilan uzoq davrlardan beri uzoq-yaqin xalqlarni ham o'ziga maftun qilib kelgan». <sup>41</sup>

Rangli, sirlangan g'isht taxtalarni yasovchi ustalar koshinlar deb nomlangan, ular quruvchi bo'lsalar ham kulolchilik asboblardan foydalanganlar. Tandirlarni tandirchilar yasaganlar, teridan po'stin va bosh kiyim tikkan ustalarni po'stindo'z, telpakdo'z deb ataganlar. Shuningdek, ko'n va charmdan oyoq kiyim va turli buyum yasaganlarni charmgar, etikdo'z, mahsido'z, kavushdo'z deb nomlaganlar.

To'qimachilik va ipakchilik kasbi ham turli sohalarga bo'lingan. Pillani chuvatish bilan pillakashlar shug'ullanganlar, gazlama va iplarni bo'yoqchi, rangrez ustalar bo'yaganlar, so'ngra abrband ustalar unga naqsh chizganlar. Kashtachilik o'zbeklarning eng sevimli kasbi bo'lsa,

Karvonsaroy, choyxona, mehmonxonalarining o'z o'yinlari bo'lgan. Karvon yo'llarida uzoq yo'l yurgan yo'lovchilar oyog'ini yozish maqsadida arqon sakraganlar.

Turli yoshlarga xos o'yinlar bolaning chaqaloqligidan boshlanadi. Chaqaloq yig'lamasligi uchun unga ovunchoq – o'yinchoq berishadi va uni ovutadigan o'yinlarga jalb etishadi. Sal ulg'aygach, o'g'il bolalar ovga chiqish, urush-urush o'yinlarini, qizlar xola-xola, bola boqish, mehmon kutish kabi o'yinlarni o'ynaydilar. Turli jinsdagilar o'yinlarida qizaloqlar qo'g'irchoq o'ynasalar, o'g'il bolalar ish va urush qurollariga o'xhash o'yinchoqlarni o'ynashgan.

Mehnat faoliyati bilan bog'liq o'yinlarda termachilik, ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik va boshqa mehnat turlariga oid o'yinlar o'ynalgan.

Harakatli o'yinlar bir kishili, ikki kishili, guruh bo'lib yoki jamoa bo'lib o'ynaladigan o'yinlar kiradi. Bu o'yinlar maqsadga erishish hissini shakllantiradi, inoqlik, o'rtoqlik, birdamlik xislatlarini tarbiyalaydi.

Turli vositali o'yinlar qo'g'irchoq, tosh, tayoq, to'p, yong'oq yordamida yoki so'z, qo'shiq, raqs vositasida o'ynalgan. O'yin vositalariga ko'ra o'yinga nom berilgan. Yog'och ot, jundan to'p tayyorlash jarayoni bolalarda mehnatsevarlikni rivojlantirgan. Bolalar o'yinlarida mahalliy aholining kasb-hunar mashg'ulotlari o'z ifodasini topganligi bois o'yinchoqlarda uy-ro'zg'or buyumlari, qishloq xo'jaligi asboblari, idish-tovoqlar aks etgan. «... Har qaysi go'dak ilk bor olamni o'z atrofidagi ashyo va buyumlar, jumladan, o'yinchoqlar orqali anglashini inobatga oladigan bo'lsak, ularning inson tarbiyasidagi o'rnini beqiyos ekanligi ayon bo'ladi. O'yinchoqlar obraqi bolaning murg'ak tasavvuriga bamisolli toshga o'yilgan naqshdek muhrlanib, uning ongida bir umr saqlanib qoladi. Go'dakning ulg'ayib, kasb tanlashi, kelajakda qanday yo'ldan borishi, o'zining hayot tarzini qanday axloqiy-ma'naviy asoslarga qurishi ham, hech shubhasiz, uning bolalikda qanday o'yinchoqlar bilan oshno bo'lib o'sgani bilan belgilanadi». <sup>27</sup>

Darhaqiqat, yoshlarga bolalikdan go'zal odob-axloq fazilatlarini singdirish maqsadida o'yinchoqlardan muhim tarbiya vositasi sifatida foydalanan o'rinnlidir. «**Olijanoblik bahosi**» hikoyatida qo'g'irchoqlar misolida laqmalik va anqovlik qoralanib, olijanoblik yuqori baholanganini ko'ramiz:

«Sopoldan turli-tuman buyum, shakl va o'yinchoqlar yasaydigan bir usta kulol bo'lar ekan. Kunlardan bir kun usta loydan uch dona jippi

<sup>41</sup> И.Жабборов. Узбеклар. Т. Шарқ. 2008й 214-бет

qo‘g‘irchoq – odam yasabdi. Usta har uchala qo‘g‘irchoqqa ham bir xil jilo va sayqal beribdi. Qo‘g‘irchoqlarni shunday bejirim tayyorlabdiki, bozorga olib chiqishi bilan tezda xaridorlarni o‘ziga jalb etibdi. Qolaversa, xaridorlarni qo‘g‘irchoqlarning o‘zagina emas, balki ular bahosining turlicha ekanligi ayniqsa taajjubga solibdi.

Xaridorlar ustadan: «Qo‘g‘irchoqlar bir-biridan biror narsasi bilan farq qilmaydi-ku, nega uchallasiga ham uch xil narx qo‘ydingiz?» – deb so‘rashibdi. Darhaqiqat qo‘g‘irchoqlarning bo‘y-basti, rang, sayqal va jilolari bir xil bo‘lib, bir-biridan aytarli farqi bo‘lmasa ham birinchi qo‘g‘irchoq narxi 1 so‘m, ikkinchi qo‘g‘irchoq narxi 2 so‘m, uchinchi qo‘g‘irchoq narxi 3 so‘m deb belgilab qo‘yilgan edi.

Shunda taajjublanayotgan xaridorlarga jilmayib boqib «Yo‘q, azizlar! Ularning ko‘rinishi bir xil bo‘lsa ham, lekin qo‘g‘irchoqlarda katta farq bor! Mana, qaranglar!» – debdi kulol va qo‘liga bir cho‘p olib, birinchi qo‘g‘irchoqning qulog‘iga suqibdi. Cho‘pning uchi shu zahoti qo‘g‘irchoqning og‘zidan chiqibdi. Usta keyin o‘sha cho‘pni ikkinchi qo‘g‘irchoqning qulog‘iga suqibdi. Cho‘pning uchi qo‘g‘irchoqning narigi qulog‘ida ko‘rinibdi. Uchinchi qo‘g‘irchoqning qulog‘iga suqilgan cho‘p esa hech qaerdan yorib chiqmabdi.

– Ko‘rdingizlarmi, – debdi kulol, – bularning hulqi bir-birlaridan mutlaq farq qiladi. Mana bu qo‘g‘irchoq – laqma, – debdi usta birinchi qo‘g‘irchoqni qo‘liga olib. – Eshitganini shu zahoti og‘zidan gullaydi. Shuning uchun uning bahosi past.

Usta ikkinchi qo‘g‘irchoqni qo‘liga olibdi.

– Bu esa anqov! Bu qulog‘idan kirgan gap u qulog‘idan chiqib ketaveradi. Shuning uchun ham uning bahosi o‘rtacharoq.

Usta uchinchi qo‘g‘irchoqni qo‘liga olibdi.

– Bu esa oljanob va andishaparvar. U eshitgan har qanday hoh yaxshi, hoh yomon gapni o‘ziga kerakligini olib qoladi-da, qolganini esa yutib hazm qilib yuboradi. Shu bois uning bahosi ham yuqoridir! – debdi.

Xaridorlar usta kulolning qo‘g‘irchoq yasashdagi falsafasiga tahsinlar aytishibdi.<sup>28</sup>

Shu tariqa xalq o‘yinlari va o‘yinchoqlari ko‘p asrlar davomida ajodolarimizning aqliy, ruhiy, jismoniy kamolotga erishishida muhim o‘rin tutib kelgan. Xalq o‘yinlari, oddiy, sodda, qiziqarli, shu bilan birga epchillik, kuchlilik, topqirlik, chidamlilik kabi insoniy fazilatlarni rivojlantirishga yordam bergan.

<sup>28</sup> Каримов А. Бир гапим бор- уч тилло. – Т.: Фан, 1992. 12-бет.

### III BOB. XALQ PEDAGOGIKASIDA O‘ZBEK MILLIY MADANIYATI VA MA’NAVIYATI.

#### III.1. Xalq pedagogikasida xalq amaliy san’ati va hunarmandchiligi, milliy me’morchilik, milliy musiqa, qo‘sinqchilik va raqs san’ati, milliy teatrлarning tarbiyaviy ahamiyati

Uzluksiz ta’lim tizimidagi ta’lim-tarbiya jarayonining bitiruvchisi muayyan soha bo‘yicha bilim olishi va kasb-hunar egasi sifatida Vatan ravnaqiga hissa qo‘sishi lozim. Zero, Respublikamizda qabul qilingan milliy g‘oyaning yetakchi g‘oyalardan biri, yuqorida ta’kidlaganimizdek, Vatan ravnaqiga hissa qo‘sishni o‘ziga azmu qaror qilib olgan shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazishda milliy madaniyat va ma’naviyat muhim o‘rin tutadi.

Demak, xalq amaliy san’ati va hunarmandchiligi, milliy me’morchilik, milliy teatr va musiqa, qo‘sinqchilik va xalq raqs san’ati namunalarining falsafiy, psixologik va tarbiyaviy jihatlarini anglash, mazmun-mohiyatini chuqur bilish uchun uni xalq pedagogikasi bilan bog‘lab o‘rganish zarurdir. Chunki yuqorida ta’kidlangan san’at va hunarmandchilik turlari xalq hayotining bevosita ifodasi bo‘lib, xalqimizning ijtimoiy hayot haqidagi tushunchalarini, uning yuksak didini, estetik qarashlarini va shu bilan birga xalq pedagogikasining axloqiy tarbiya bilan bog‘liq muhim qirralarini o‘zida aks ettiradi. Shuningdek, xalqimizning uzoq tarixi, urf-odatlari, keng dunyoqarashi, orzu-umidlarini ham butun ulug‘vorligi va teranligi bilan namoyon etib, ular haqida keng va chuqur bilim beradi va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga, kasb-hunarga qiziqish uyg‘otishda muhim manba hisoblanadi.

Yurtimizda vujudga kelib, gullab yashnagan san’at turlari o‘zining jozibadorligi va betakrorligi bilan dunyoga mashhur bo‘lib, shulardan xalq amaliy san’ati xalqimizning ko‘p asrlik tarixida madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. Xalq amaliy san’atining mohir ustalari o‘z asarlariga shunchaki bezak bermasdan, balki shu bezak vositasida o‘z fikrlarini aks ettirganlar. Mavjud tarixiy obidalar, qo‘lyozmalar, xalq amaliy san’ati va hunarmandchiligi namunalari fikrimiz dalilidir.

bo'lgan vaqt oralig'idagi davr		liq anglab yetadi, uning hislatlari va ma'naviy dunyosi shakllana boshlaydi. Endi u nafaqat issiq-sovuqni, balki yaxsiyomonni ham farqlay boshlaydi, jismoniy jihatdan voyaga yetadi.
Olamning 3-4 kunlari oralig'idagi davr	24-36 yoshgacha bo'lgan davr	Bu davrda inson jismoniy hamda ma'naviy jihatdan kamolga yetadi, oila quradi, bola-chaqali bo'ladi. Biroq, shu davrdan boshlab uning jismoniy rivojlanishi sekinlashadi, undan keyingi rivojlanish esa aql-zakovati, tafakkuri – bir so'z bilan aytganda, ma'naviy-ruhiy dunyosining takomillashuvi bilan belgilanadi.
Olamning 4-5 kunlari oralig'idagi davr	36-60 yoshgacha bo'lgan davr	Bu davr ma'naviyat (ruhiyat) dunyosi. Bu davr insonning ma'naviy-ruhiy jihatdan to'liq shakllanib bo'lganini anglatadi.

Demak, yuqoridagi mulohazalarga suyanib aytish mumkinki, olam va odamzod rivojlanishi o'zaro mos ravishda moddiy dunyodan hissiy dunyoga, hissiy dunyodan ruhiyat dunyosi tomon kengayib boruvchi ulkan hayotbaxsh halqadir. («Tafakkur», 1999, №1, 86-87 betlar).



Yuqoridagi fikrlarni muxtasar qilib aytganda, yoshlarni jasurlik, chaqqonlik, mardlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan turli xalq o'yinlari, ijtimoiy-tarbiyaviy xarakterli milliy musobaqalar, jismoniy mashg'ulotlar o'zbeklarda qadimdan rivojlanib kelgan.

Demak, xalq o'yinlari bolalarda ijodiy faoliik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblangan. Lekin, afsuski, yuqoridagi xalq o'yinlarining ko'pchiligi unutilib borayotganligi, toza havoda jismonan chiniqib o'ynaladigan o'yinlar o'rnini kompyuter o'yinlari egallayotganligi achinarli hol, albatta. Biz ajoyib xalq o'yinlari yordamida barkamol avlod tarbiyalanib, uning barcha ijobiy sifatlari shakllanishini unutmasligimiz lozim.

### Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Milliy urf-odatlarning tarbiyaviy ahamiyati nimada?
2. Nima uchun milliy urf-odatlar va an'analar xalq pedagogikasi manbalari deb hisoblanadi?
3. Qadriyat tushunchasiga ta'rif bering.
4. An'ana, urf-odat, marosim tushunchalarining farqi nimada? Misollar keltiring.
5. Sizning shahringizda olov bilan bog'liq urf-odatlar saqlanib qolganmi? Ularning tarbiyaviy ahamiyati nimada deb o'ylaysiz?
6. O'zbek xalq o'yinlari merosi qanday guruhlarga bo'linadi?
7. Raqamlar bilan bog'liq urf-odatlarga misollar keltiring.

**TOPSHIRIQ.** Quyidagi matnni diqqat bilan o'qing. Bu o'yinning tarbiyaviy ahamiyatini tushuntiring.

### CHAVGON

Chavgon Sharq xalqlari orasida juda qadimiyligi o'yinlardan biri hisoblanib, o'z o'yin qoidalari hamda ko'rinishi jihatidan ko'pkari yoki xokkey o'yinlariga o'xshash bo'lgan. Chavgonda o'yinchilar maxsus suvoriyalar bo'lib, ot ustida turib, milliy chavandozlik kiyimlarida maydonga tushib o'yin o'ynaganlar. Chavgonchilar o'rtasida chavgon to'pi «talash» bo'lgan. Har ikki tomonдан 5-6 tadan o'yinchilar ishtirok etib, raqib darvozasiga kim qancha ko'p to'p kirlitsa, o'yin oxirida o'sha tomon g'olib hisoblangan.

Chavgon qo'lda tutiladigan uchi egik uzun tayoqdan iborat bo'lib, hozirgi xokkey dastasini eslatadi. Shu asbobda o'rtadagi to'p raqib darvozasi tomon olib borib uloqtirilgan. Bu o'yin ikki tanaffusli bo'lib, bir soat davom etgan. Bu o'yinni otliq bir hakam maydon ichida, piyoda ikki yordamchi hakamlar maydonning ikki chekkasida kuzatib, tartibga solib borishgan.

O'yin davomida zarur topilsa, har ikki tomon ham to'rt marta bir daqiqadan tanaffus olish huquqiga ega bo'lган. Kimki o'yin qoidasini qo'pol ravishda buzadigan bo'lsa, o'yindan chiqarib yuborilgan. O'yin qoidasi darvozaga yaqin joyda buzilsa, raqib tomon darvozasiga olti qadamdan jarima to'pi belgilangan.

Chavgon o'ynash butun Sharq mamlakatlarida bo'lgani kabi O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida ham juda ommalashgan bo'lib, xususan O'zbekistonimiz hududida IX asrdan beri o'ynalib kelingan.<sup>29</sup>

### BILASIZMI?

- Firdavsiyning «Shohnoma» asarida Siyovush bilan Afrosiyob o'rtalarida chavgon o'yini o'tkazilgani hikoya qilinadi.

- Mahmud Qoshg'ariy «Devonu lug'otit-turk» asarida chavgon o'yini tafsilotlarini beradi.

- Abu Rayxon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli ulug' asarida chavgon o'yinini Navro'z bayramidagi eng qiziqarli o'ylardan biri sifatida ta'riflaydi.

- Qomusiy olim Abu Ali ibn Sino jismoniy tarbiya haqida gapirib, chavgon o'yini to'g'risida alohida to'xtaladi.

- Kaykovusning mashhur «Qobusnomá» asarida chavgon o'yini haqida alohida bob bor.

- Shoh-shoir Bobur mirzo «Boburnoma» asarida chavgon o'yiniga shoirona ta'rif bergen.

- Taniqli adib Pirimkul Qodirovning Boburiylar tarixi haqidagi «Avlodlar dovonii» romanida Humoyunshoh va Hamidabonuning chavgon o'yini sababli tanishuvi va muhabbatni hikoya qilinadi.

- Ro'dakiy, Umar Hayyom, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi daholarning asarlarida ham chavgon o'yini tafsiloti berilgan.

Xoja Abdulkoliq G'ijduvoni, Xoja Axmad Yassaviy, Xoja Bahouddin Naqshband va h.

«**Shayx**» – arabcha «keksa, oqsoqol» ma'nolarini anglatadi. Tasavvufda piru murshidlarga nisbatan qo'llaniladigan unvon. Ko'pligi «mashoyix». Yusuf Xamadoniyidan oldin o'tgan pirlar «Shayx» unvoni bilan atalganlar.

### BU QIZIQ!

Nima uchun «5 kunlik dunyo» deyiladi?

Xalq orasida «besh kunlik dunyo» iborasi bejiz tilga olinmaydi. Olamning bugungi kunga qadar 5 kun 6 soat 56 daqiqa 12 soniyalik rivojlanish davri insonning tug'ilganidan vafot etguncha qadar bo'lган davriga mutanosibligi ana shu iboraning mohiyatini aks ettirsa, ajab emas. Darhaqiqat, jadvaldagi davrlar mazmuni ustuniga e'tibor bering.

Olamning kunlari	Kishi yoshi	Davrlar mazmuni
Olamning 1 kunlikka qadar bo'lган oraliq'idagi davr	1 yoshgacha bo'lган davr	Olamning paydo bo'lганidan to bir kunlikka qadar bo'lган oraliq insonning tug'ilganidan to bir yoshgacha bo'lган davrga o'xshaydi. Inson bu davrda faqatgina moddiy oziqqa ehtiyoj sezadi; u na yaxshilik, na yomonlik, na issiq, na sovuq, na qo'rqish, na quvonchni farqlaydi.
Olamning 1 kunligidan ikki kunligiga qadar bo'lган oraliq	1-12 yoshgacha bo'lган davr	Bu davrda u issiq-sovuqni, katta-kichikni, ya'ni moddiyat dunyosini anglay boshlaydi.
Olamning 2 kunligidan 3 kunligiga qadar	12-24 yoshgacha bo'lган davr	Bu oraliq moddiylik dunyosidir. Inson bu davrga kelib moddiy dunyoni to'-

<sup>29</sup> М.Сатюор. Ўзбек удумлари. – Т.: Фан. 1993.42-6.

## TIRIKCHILIK

Bir kishi ma'ruzasida donolik bilan debdi: «Agar xastalansangiz albatta tabibga boring, chunki tabibning ham tirikchiligi bor. Tabib sizga dori buyuradi, siz bu dorini albatta sotib oling, chunki dorifurushning ham tirikchiligi bor. Ammo sotib olgan doringizni zinhor icha ko'rmang, chunki o'zingizning ham tirikchililingiz bor.»

Shu majlisda go'rkov ham o'tirgan ekan, voizning keyingi gaplari unga yoqmay, shart o'rnidan turib, debdi: «O'sha tabib yozib bergen, dorifurushdan sotib olgan doringizni albatta iching, chunki mening ham tirikchiligidir.»

Alqissa, bu dunyoda hammaning tirikchiligi bor. Tirikchilik deb o'zimizni har tomonga uramiz, tegirmon toshlari orasidan o'tishdan ham toymaymiz. Ko'p holatlarda unutamizki, biz ta'bir qiluvchi tirikchilik rizq o'lchovi bilan belgilab qo'yilgan. Bu belgi chegarasidan o'tish hali hech kimga nasib etmagan. Qudsiy hadisda marhamat qilinadiki: «Ey Odam farzandi, agar senga ajratib qo'yilgan rizqqa qanoat qilsang, rizqing o'zi keladi va mendan ham maqtov olasan. Bordi-yu, bu taqsimga qanoat qilmasang, mol-dunyonи sening ustingga sulton, seni esa unga xizmatkor qilib qo'yaman...»<sup>40</sup>

## BILASIZMI?

Sayidlar, xo'jalar, xojalar va shayxlar kimligini bilasizmi?

**Sayid(lar)** - «janob», «boshliq», «yetakchi», «rahnamo» ma'nosini anglatuvchi so'z. Ilgarilari arablarning qabila, qavm, guruh boshlig'i, yetakchisi «sayid» deb atalgan. Keyinchalik payg'ambarimizning qizi Fotima va kuyovi hazrat Alining o'g'llari Imom Xasan va Imom Xusaynning avlodlari «sayidlar», ya'ni «payg'ambarzodalar» deb atala boshlagan. O'rta Osiyoda payg'ambarlar avlodlari sayidlarni «to'ra» deb atash odat tusiga kirgan.

«Xo'ja(lar)» – forscha «xo'jayin», «sohib» ma'nosini anglatuvchi so'z. Bu so'z haqida ikki xil fikr mavjud:

1. Xo'jalar dastlabki to'rt xalifa Abu Bakr, Umar, Usmon va Alidan (Alining Fotimadan boshqa xotinlaridan) tarqalgan avlodlar;
2. Payg'ambarimiz davridagi sarkardalarning avlodlari.

**Xoja** – forscha «xo'ja», «ega, egam» ma'nolarini anglatadi. Tasavvufda Movarounnahr tariqat mashoyixlariga berilgan unvon. Bu unvon Yusuf Xamadoniy (1048-1140) dan boshlab ishlatiladi. Masalan,

## BU QIZIQ!

1. «NON» so'zining qaerdan paydo bo'lganini bilasizmi?

Xalqaro ilmiy anjumanda taniqli olim M.I.Filanovich «Qadimiy So'g'd ma'naviyati» mavzusida ilmiy ma'ruza qildi. U Markaziy Osiyo xalqlari islom dini kirib kelguniga qadar o'zlarining xayr-baraka, hosildorlik xudosiga sig'iganligini aniqlagan. Ma'budaning nomi – NANA bo'lgan. Ma'buda Nana – to'rt qo'lli farishta. U bir qo'lida – quyosh, ikkinchisida – oy, uchinchisida yer shari va to'rtinchisida – saltanat tug'ini tutib, sherni minib turgan holda tasvirlangan. Aleksandr Makedonskiy Samarqandda Nanaga oltin haykal qurban ekan. U Roksanaga uylanayotganida bizning ota-bobolarimiz udumiga binoan, non olib kelishlarini buyuradi. Non sindirishadi! Yarmini Roksanaga, yarmini Aleksandrga berishadi. Demak, hozir o'zbeklar yoshlarni unashtirishda amal qilayotgan «Non sindirish» udumi Makedonskiygacha ham bo'lgan. Plutarxning fikricha, so'g'diyarda nonga qasamyod qilish udumi bo'lgan. Beixtiyor go'dakligimiz, onamiz bizga nonni bolalarcha «nana», «nanna» deb mehr bilan yedirayotgan lahzalar yodga tushadi (Quronov M. «Biz anglayotgan haqiqat»).

2. Inson yettita avlodga ega:

- 1) farzand;
- 2) nevara;
- 3) evara;
- 4) chevara;
- 5) kavara;
- 6) ovora;
- 7) begona.



<sup>40</sup> Тохир Малик. «Иймонлашиш умиди.» – Т.: Янги аср авлоди, 2004.

## **II BOB. XALQ PEDAGOGIKASI YOSH AVLOD TARBIYASI HAQIDAGI BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALAR IN'IKOSI**

### **II.1. Xalq pedagogikasida oila tarbiyasining aks etishi**

Xalqimiz oila ma'naviyatiga yuksak qadriyat sifatida alohida e'tibor bilan qaraydi. Oila doimiy mehru muhabbat, izzatu hurmat mujassam bo'lgan, oila a'zolari bir-birlarini sevadigan, suyanadigan bir maskan sifatida e'zozlangan. Chunki aynan oilada mehr-shafqat, muhabbat, muruvvat va oqibat tushunchalari farzand ongiga murg'akligidanoq singdiriladi, shu bois ham har bir inson uyiga, oilasiga talpinadi. Ma'naviy komillik, milliy tarbiyaning bosh va betakror o'chog'i ham bolani doimiy o'rab turgan ijtimoiy muhitning bir bo'lagi bo'lgan oiladir. Bu haqda Abdurauf Fitrat «Rahbari nujot» asarida shunday yozgan edi: «Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko'proq yaxshi va yomon ahvolni o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagisi o'quvchilardan qabul qiladilar»<sup>30</sup>.

Ma'rifatchilardan biri Rizouddin ibn Faxriddinning «Insonlarning dinu-dunyolarini tuzatmoq matlub bo'lsa, eng avval go'zal xulqqa ega bo'lmoq ila oilalarni tuzatingiz. Oilalar tuzalganidan so'ng din ham, dunyo ham tuzaladi»<sup>31</sup> - degan gaplarida katta bir haqiqat ifodalangan.

Davlatimiz rahbari oilaning muqaddasligi haqida quyidagi fikrni bildirganlar: «Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiatи va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezzilik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiyidir. Shuning uchun ham aynan oila

<sup>30</sup> Ибн Фахруддин, Ризууддин. Оила. – Т.: Мехнат, 1991.

<sup>31</sup>

### **Mavzu bo'yicha nazorat savollari:**

1. Nima uchun diniy ta'limotlarni xalq pedagogikasi bilan bog'lab o'rganamiz?
2. Ilm o'rganishga da'vat qiluvchi hadislardan misollar keltiring.
3. Islom dinida qaysi fazilatlar ulug'lanadi va qaysi illatlar qoralanadi?
4. Islom dunyosidagi oltita muhaddisning nomini aytинг.
5. Turli diniy oqimlarning zararli oqibatlari haqida gapiring.
6. Toshkent shahrining «Islom madaniyati markazi» deb e'lon qilinishining sababi nimada deb o'ylaysiz?
7. «Amir al-mo'miniyn» degan sharafga ega bo'lgan muhaddis haqida gapiring.
8. Imam al-Buxoriy asarlari nomlarini ay.ing.
9. «Al-Jome' as-sahih» asaridan misollar keltiring.
10. Imam at-Termizi qanday asarlar yozgan?
11. Imam at-Termiziyning «Sunan» hadislari to'plamidan misollar keltiring.

**TOPSHIRIQ.** Quyidagi matnni o'qing. «Har bir daqiqa mening foydamga o'tishi uchun men nima qildim?» degan savolga javob toping.

### **BAHONA**

Vaqtim yo'q deguvchilar – vaqtning qulidirlar. Vaqtim yo'q, deyish bir bahona. Bu bahona bilan odam boshqalarni emas, avval o'zini aldaydi. Xudo bizga bir kecha-kunduzda yigirma to'rt soat vaqt berib qo'yibdi. Shu vaqtning egasi o'zgalar emas, o'zimiz. Ana shu yigirma to'rt soatni taqsimlash uchun Yaratgan zot tomonidan aql, farosat, zehn ne'matlari ham berilgan. Odam vaqtga qul emas, xoja bo'lmosg'i lozim. Biz behuda ishlarga ko'p mahliyo bo'lamiz-da, zarur yumushlarga kelganda «vaqtimiz yetishmaydi», deb nolishni boshlaymiz. Hatto ertalabdan kechgacha qarta o'ynab o'tiruvchilar ham shunday deb hasrat qiladilar. Qiyomatda vaqtimizni behuda sarf qilganimiz uchun ham hisob bersak kerak...<sup>39</sup>

**TOPSHIRIQ.** Matn mazmuni bo'yicha mulohaza yuriting. «Tirikchilik» so'ziga izoh bering, hayotiy misollar keltiring.

<sup>39</sup> Тохир Малик. «Иймонлашиш умиди.» – Т.: Янги аср авлоди, 2004.

- Qari nodon kishidan ko'ra dono yosh bola yaxshi.
- Dil quvvati - iymonning salomatligidandur.
- Dushman nasihatidan uzoq bo'lganingga shukur qil.
- Ilm-fandan so'z bo'ladigan joy jannat bog'laridan sanaladi.
- Yumshoq so'z ko'ngil rishtasidir.

«Avesto» ta'limoti, Qur'oni Karim saboqlari, buyuk hadisshunoslar merosi o'zbek xalq pedagogikasida o'ziga xos o'rinni egallagan. Ushbu meros orqali o'zbek xalqi o'z farzandlarini aqlan yetuk, jismonan baquvvat, axloqan pok qilib tarbiyalashga intilgan. Ana shunday ta'limtarbiya natijasida yosh avlod teran fikrli, olijanob fazilatli, aql-idrokli, yuksak madaniyatli barkamol shaxs bo'lib voyaga yetmoqda. Shu o'rinda yosh avlodni diniy ta'limotlar asosida tarbiyalashga salbiy ta'sir etuvchi turli diniy oqimlar, diniy ekstremizm, missionerlik, fanatizm kabi qo'poruvchi illatlarning zararli oqibatlarini tushuntirishimiz, buning uchun diniy ta'limotlarni asosli tarzda to'g'ri tushuntirish zarurligini aytib o'tish joizdir. Buning uchun turli diniy oqimlardan farzandlarimizni asrashimiz, ularni hushyor va ziyraklikka chaqirishimiz, tahdidlar mohiyatini hayotiy misollar bilan to'g'ri tushuntirishimiz, bunda esa xalq pedagogikasining barcha imkoniyatlaridan, xususan, diniy ta'limotlardan oqilona foydalanishimiz lozim bo'ladi.

O'zbek xalqining islom madaniyati rivojiga qo'shgan beqiyos hissasining yuksak e'tirofi sifatida ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha islom tashkiloti - AYSESKO tomonidan 2007 yil Toshkent shahri «Islom madaniyati poytaxti» deb e'lon qilindi. Mamlakatimiz hayotidagi bu ulkan madaniy-ma'naviy voqeа haqida yurtboshimiz shunday deydi: «Bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib, uning hayrixoh va tarafdrorlari ko'payib borayotgani hech kimga sir emas. Buning asosiy sababi - birinchi galda muqaddas dinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag'rikengligi, odamzotni doimo yaxshilik va ezzulikka chorlashi, hayot sinovlarida o'zini oqlagan qadriyat va an'analarni ajdodlardan avlodlarga etkazishdagi buyuk o'rni va ahamiyati bilan bog'liq. Ayni paytda bu holat dinimizning umumbashariy madaniyat va sivilizatsiya, ilmu fan rivojiga qo'shgan buyuk hissasi bilan ham izohlanadi».

Demak, yuksak axloqiy andozalarni o'zida mujassamlashtirgan islom dini ma'rifat, ma'naviyat, tinchlik, go'zal xulq-odob ifodachisi sifatida xalq pedagogikasining muhim manbai, ajralmas bir bo'lagi bo'lib qolaveradi.

muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqr anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi.<sup>32</sup>

Dono xalqimiz uzoq asrlar davomida yaratgan oila ma'naviyati bilan bog'liq farzandlarni axloqiy tarbiyalash usul va vositalari, insoniy fazilatlar qoidalari xalq pedagogikasi manbalarida o'z aksini topgan.

O'zbek xalq pedagogikasida bolalarda ijobjiy fazilatlarni shakllantirish uchun birinchi navbatda oila a'zolari – ota-on, aka-uka, opa-singil va oiladagi kattalarga bo'lgan mehr-muhabbat hissini tarbiyalash zarurligiga amal qilingani ko'rindi. Oilada bolalarning kattalarga bo'lgan mehribonligi tarbiya natijasidagina tarkib topadigan ma'naviy fazilat ekanligi ta'kidlanadi.

Oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashda xalq donishmandlarining odob va axloq haqidagi hikmatli so'zлari hamda xalq og'zaki ijodining turli janrlaridan o'rinci foydalana bilish katta ahamiyatga egadir. Xalqimiz yaratgan maqol, matal, ertak, afsona, qo'shiq, rivoyatlarda farzand tarbiyasiga oid qator maslahat, pand-nasihatlar mavjud.

Jumladan, «Oqillik» rivoyatida oiladagi ahillik – rohat-farog'atning garovi ekanligi ta'kidlanadi:

Bir shaharda piru-badavlat, nihoyatda ittifoq bir oila yashar ekan. Oilaning butun tasarrufi tabarruk Bobo ixtiyorida bo'lib, farzandlar, nevara-chevara, jami qirq jon bir hovlida yashab, bir qozondan ovqatlanishar, hammalari oila boshlig'ini tavof etarkanlar. Ittifoqlik tufayli oila nihoyatda boyib ketibdi, kundan-kun davlati ziyoda bo'laveribdi, xonardon ahli rohat-farog'atda yashayveribdilar.

Shaharda bir olijanob donishmand yashar ekan. Kunlardan bir kun oila sarkori – Boboni ana shu donishmand sinamoqchi bo'libdi-yu, atayim uning o'zi uyida yo'qligida kelib, hovli darvozasini qoqibdi. Boboning nevaralaridan biri darvozani ochib, mo'ysafid qariyaga ko'zi tushib, unga hurmat bilan salom beribdi, uni uyga taklif etibdi.

- Bobongiz uydamar? - debdi donishmand.

- Yo'q edilar. Ichkariga kirib tura qoling, hozir kelib qolarlar! - debdi nevara iltifot bilan.

- Rahmat, bolain! Vaqtim ziqroq! Senga bir omonat gapim bor, shuni Bobong kelsalar, albatta aytgin va javobini olib qo'yгин! Aytginki: «Ittifoqjon va Davlatjonning birlari ketadigan bo'lib qolishibdi. Davlatjon qolib, Ittifoqjon ketsinmi yoki Ittifoqjon qolib, Davlatjon

<sup>32</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2008.-52-бет

ketsinmi?» - deb so‘radilar, degin. U kishiga mana shu gapning javobini aytarkansiz, deysan, uqdingmi? Men yana kelaman, - debdi donishmand.

Nabira o‘z bobosi kelishi bilan donishmand kishi tayinlab ketgan gapni unga aytibdi. Bobo bir lahza mushohada qilgach, nabirasiga debdi:

- Agar o‘sha mo‘ysafid bobo yana men yo‘qligimda kelib qolsalar, «Davlatjon ketsalar bosh ustiga ekan, lekin Ittifoqjon aslo ketmasin ekanlar», deb aytgin, deya tayinlabdi.

Kunlardan bir kun o‘sha donishmand bobo yana kelib darvoza zulfini qoqibdi. Darvozaxonada yana o‘sha nevara paydo bo‘libdi. Donishmand undan omonat gapining javobini so‘rabdi. Nevara ko‘zları yonib: «Bobom aytdilarki, Davlatjon ketsa ketaversinlaru, lekin Ittifoqjon aslo ketmasinlar ekan.» - debdi. Donishmand javobdan xursand bo‘lib, mammuniyat bilan soqollarini silabdi.

- Bobongga ayt! - debdi u viqor bilan. - Davlatjon ham, Ittifoqjon ham endi hech qaerga ketmaydigan bo‘libdilar, degin. Ittifoqjon hukmron bo‘lgan yerdan hech qachon, hech kim hatto qo‘liga kaltak olib haydasa ham Davlatjonni ketkaza olmaydi! Buni sen ham yodingda tut!

Donishmand kishi oila sardorining oqilona javobidan ko‘ngli yayrab, unga tahsinlar o‘qib, qutli-barakali hovliga mehr bilan boqaboga, o‘z yo‘liga ravona bo‘libdi. Bu rivoyatdan «Qayerda ittifoqlik xukmron ekan, Bilki davlat ziyoda, hayot ham ko‘rkam», - degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Xalq pedagogikasida ota-onan o‘z farzandini sevishi, erkalashi, ardoqlashi zarurligi, lekin me’yordan orttirib taltaytirmaslik kerakligi, aks holda uning yomon oqibatlari haqida ham turli misollarni uchratishimiz mumkin. «**Ahdning tug‘ilishi**» rivoyatida aynan shunday erka-tantiq farzand haqida so‘z yuritiladi:

«Bir kishining yakka-yu yolg‘iz farzandi bo‘lar ekan. Arzanda bo‘lgani uchunmi, u erka-tantiq bo‘lib o‘sibdi. Kap-katta bo‘lsa ham bir ishning boshini ushlay demabdi, ota-onasining yelkasida og‘ir yuk bo‘lib yuraveribdi.

Ota o‘g‘lini juda ko‘p hunar egalariga shogirdlikka beribdi, lekin arzanda biror kasbni egallash uchun hech yerda qo‘nim bilmabdi, ishga bo‘yin yor bermay juftakni rostlab qolar, jonining huzurini ko‘zlar ekan.

Shunday bo‘lavergach, ota bolasini endi hunarli emas, savodxon mullo bo‘lsin deb, katta bir domлага o‘qishga beribdi. Ilmning nozik va zahmatli talablariga arzanda o‘g‘ilning sabr va irodasi dosh berolmabdi. «Domlanikidan ham qochib uyga borsam, otam baribir meni qayergadir eltib beradi», - deb o‘ylabdi va shahardan olisdagi hilvatroq yerkarga ketib qolibdi.

ham - sadaqa. O‘z chelagingdagagi suvdan boshqalarga berish ham sening sadaqang hisoblanadi.

- Kimga oliyhimmatlilik berilgan bo‘lsa, unga hamma narsa berilgan hisoblanadi. Kimga u berilmagan bo‘lsa, unga hech narsa berilmagan bo‘ladi.

Shu o‘rinda Hazrat Ali (r.a.) nasihatları va hikmatlaridan namunalar keltirishni joiz deb topdik, zero: har bir mo‘min kishi hikmat o‘rganishga, uning mag‘zini chaqishga intilishi kerak:

- Odob ulug‘vor kiyim-kechak bo‘lsa, fikr tip-tiniq oynakdur.

- Kimki kerilib, o‘zidan mammunu - mag‘rur bo‘lib yursa, u o‘ziga nisbatan boshqalar nafratini ko‘paytiradi.

- Dushmaningdan ustun kelsang, uning gunohini kechir, so‘ngra shunday bo‘lganiga shukur ham qilgin. Sening kechirganing xudoga shukrona bildirganir bo‘ladi.

- O‘ziga do‘st topolmagan kishi odamlarning eng ojizi sanaladi, bundan ham ojizrog‘i esa oldiniga birorta do‘st topadi-yu, keyiniga uni ham yo‘qotib qo‘yadi.

- Ishonch to‘rtga bo‘linadi: ziyraklik, hikmatning farqiga borish, bir narsadan ibrat ola bilish, o‘tmish donishmandlarining aytganini bajo keltirish.

- Sahovatli bo‘l, lekin isrof qilma, andoza bilan bo‘l, lekin baxil bo‘lma.

- Yaxshi juftlik bir-biridan rizo kishilardan bo‘ladi.

- Eng zo‘r boylik – aql, eng katta kambag‘allik – axmoqlikdir. Eng dahshatli narsa – manmanlik, eng yaxshi narsa – xushxulqlikdir. Eng yaxshi kishi yaxshi xulq sohibidir.

- Aqlli kishining tili yuragining ortida bo‘ladi, axmoqning yuragi tilining orqasida bo‘ladi.

- Johil kishi yo o‘ta serharakat bo‘ladi, yo bo‘lmasa harakatining ketini o‘ylamaydigan bo‘ladi.

- Kimki odamlar ustidan hukm yuritishga jazm qilar ekan, barcha narsadan oldin u o‘zini o‘sha ishga o‘rgatsin, tilidan oldin siyrati, maslagi ulug‘vor bo‘lsin.

- Uch narsa halokatga eltadi: baxillik, nafs istagi va xudbinlik.

- Ehson qilsang, kerilib bajo keltirma, uni doimo kamtarona, uzr bayon etib qil.

- Doimo yaxshilikka intil, albatta uni topmay qo‘ymaysan.

- Kishining eslanishiga uning bilim ma‘rifati, aqlu-zakovati sabab bo‘ladi.

- Alloh har bir ishda muloyimlikni yaxshi ko'radi.
- Zolim birodaringga ham, mazlum birodaringga ham yordam qil.

Shunda u kishidan so'raydilar: «Mazlumga yordam berish masalasi tushunarli, ammo zolimga yordam berishlikni qanday tushunmoq kerak?» Rasullulloh (s.a.v.) javob berdilar: «Zolimni zulm qilishdan qaytarishing ham unga qilgan yordaming bo'ladi».

- Alloh nafratiga eng loyiq kishi odamlar bilan o'ta xusumat va adovatda bo'lguchi kishilardir.

- Kimki farovon hayot kechiray va dunyoda yaxshi nom qoldiray desa, qarindosh-urug'lariga mehribon bo'lsin, ularning ahvolidan doimo boxabar bo'lib tursin.

- Kimki Alloh va oxirat kuniga ishonsa, faqat yaxshi so'zlardan gapirsin, aks holda tilni tiyib yursin, sukul saqlasın.

- Musulmon kishiga uch kundan ortiq o'z birodaridan arazlab, gina saqlab, gaplashmay-so'rashmay yurish mumkin emasdur. Ulardan qaysi biri birinchi bo'lib salomlashsa, o'shanisi yaxshirog'idir.

Hadis ilmining yana bir mashhur vakili Imom at-Termiziyidir. Termiziy Imom Buxoriy, Imom Muslim, Abu Dovud kabi mashhur muhaddislardan hadis ilmi sirlarini o'rganadi va juda ko'p shogirdlarni ham tayyorlaydi. Termiziyning yozgan asarlari «Kitob al-ilal» («Illatli hadislari to'plami»), «Kitob at-tarix» («Tarix kitobi»), «Kitob ash-shamoil an-nabaviyya» («Payg'ambarning axloq-odob va sayru suluklari haqida kitob») kabilardir. Shulardan eng mashhuri «Sunan» nomli hadislar to'plamidir. Quyida ushbu asardan hadis namunalarini keltiramiz:

- Odamlarga shukur aytmaydigan kishi Allohga ham shukur qilmaydi.

- Ikki narsa borkim, ko'pchilik ularning qadriga etmaydi: biri - sog'liq, ikkinchi - bo'sh vaqt.

- Chinakam sabr-toqatli deb musulmon kishining musibat yuz bergandagi chidamliligiga aytildi.

- Marhum otasining do'stlari bilan doimo muloqotda bo'lib turish - eng olijanob ishlardandir.

- Qarindosh-urug'lar bilan aloqani uzgan kishi jannatga doxil bo'lmash.

- Odamlarga xayrixohliging bu sening sadaqang. Xayrli va yaxshi ishlar qilishga da'vat etishing va zulmdan qaytarishing - sening sadaqang. Adashgan kishilarga to'g'ri yo'l ko'rsatishing ham - sadaqa. Hatto kambag'allarga xushmuomalada bo'lising ham - sening sadaqang. Yerda halaqit berib yotgan biror toshni bir chekkaga olib qo'yishing

Yo'l yuribdi, mo'l yuribdi. Bir o'rmon chetiga yetib kelib, daraxt ostiga yonboshlabdi va atrofni diqqat bilan kuzata boshlabdi. Shu payt shundoqqina oyoqlari orasidagi chuqurcha ichiga tushib qolgan donni bir chumoli urinib tepaga qarab chiqarayotganini ko'rib qolibdi. Qizig'i shunda ediki, chumoli jonivor donni ming mashaqqat bilan tepaga sudrar, don endi chuqur og'ziga kelganda quyiga dumalab ketar, chumoli yana uni tishlab olib yuqoriga tortar, don esa yana pastga dumalar edi. Bolaning butun fikri-zikri ana shu chumolida bo'lib qolibdi. «Qani, oxiri nima bo'larkin» degan fikr uni shu yerga mixlab qo'ydi. Kun tushdan o'tibdi, chumoli hamon donni tortib chuqur og'ziga olib chiqaverar, bir banya qolganda esa don yana sirpanib chuqurcha tubiga tushib ketaverarmish.

Kun bota boshlabdi. Biroq chumolining don uchun kurashi hanuz davom etaveribdi. Bola ham bu savdo bir yoqlik bo'limguncha shu yerdan jilmaslikka qaror qilibdi.

Kun botay deganda, qarangki, mehnatkash, tirishqoq chumoli axiri donni chuqurcha ichidan tortib olib chiqishga muvaffaq bo'libdi. Bola ham o'zicha zahmatkash chumolini g'alaba bilan tabriklagan bo'libdi. Juda katta mehnati evaziga qo'lga kiritgan nasibasini sudrab ketayotgan chumoliga havas bilan tikilib turgan arzandaga bu hodisa, negadir, qattiq ta'sir etibdi. «Oddiy chumoliki, bir dona yemish uchun kun bo'yi tirishib mehnat qildi. Qanchalar qiyin bo'lmasin, maqsadi yo'lidagi ahididan aslo qaytmadi. Shu chumoli oldida men kim degan odam bo'ldim, axir!» - degan ajib bir o'yuning qalbini kemirib o'tibdi. Chumolining harakatini ko'rib, hamma muammo harakat bilan, g'ayrat bilan hal etilishini bola qalban his etibdi. Arzanda ortiga qaytib, o'z domlasi huzuriga kirib boribdi. So'roqsiz ketib qolgani uchun ustozidan sidqidildan uzr so'rabdi. Bola arzandalikning zararli xulq-atvorlarini o'zidan soqit qilib, ilm chashmasiga sho'ng'ibdi.»

Oila, oilada farzandning o'rni haqida ham qator xalq maqollarini aytib o'tishimiz mumkin: «Oila tinch - yurt tinch», «Oila qo'sh ustunli ayvon», «Bol - shirin, boldan bola shirin», «Bola ko'ngli - podsho», «Bola o'nga kirsa, otasi songa kirar», «Davlatning boshi - farzand», «Bola xondan ulug'», «Farzand baxti - ona taxti», «Farzand - belning quvvati», «Farzand kamoli - ota jamoli», «Farzand boqjan ota, jонни qoqqan ona», «Farzand - dilband, farzand - qanot», «Farzanding - davlating, fazilati - ziynating» va h.

Shuningdek, oilada ota va onaning o'rni haqida ham qator maqollar mavjud: «Ota - aql, ona - idrok», «Ota - bilak, ona - yurak», «Ona -

daraxt, bola - meva», «Onangni quyosh bilsang, otangni oy bil», «Ota bola uchun taxt yasar, baxt yasay olmas», «Otangga qilganiningni bolangdan ko'rarsan», «O'g'il-qiz yaxshi bo'lsa, ota-onas xursand. O'g'il-qiz dono bo'lsa, elu yurt xursand».

Har bir o'zbek oilasida qarindosh-urug'chilik munosabatlariga katta e'tibor qaratiladi, yoshlarga qarindoshlar bilan quvonchli kunlarni baham ko'rish, qayg'uli kunlarda hamdard bo'lish kabi munosabatlar bolaligidanoq singdiriladi. Buni quyidagi xalq maqollarida ko'rishimiz mumkin: «Borsang – qarindosh, bormasang – begona», «Do'st safarda bilinar, og'a-ini – kulfatda», «Oziqli ot horimas, qarindoshli qarimas», «Yeb-ichganda yot yaxshi, qayg'u kunda - qarindosh». «Inisi borning irisi bor», «Onangni kaftingga tutsang, singlingni boshingda tut», «Ota – xazina, aka-uka – tayanch» va h. Ertaklarda ham ushbu masala keng yoritiladi. Masalan, «**Aka – uka**» ertagida hikoya qilinishicha, «Aka-uka dehqonchilik qilishadi. Kech kuzda hosil yig'im-terimini teng ikkiga bo'lishadi. Kechasi uka o'yga toladi: «Akam menga qaraganda katta ro'zg'or, kel, o'z ulushimdan ozgina akamnikiga qo'shib qo'yay». Shunday qilib, kechasi akasiga bildirmay, o'z ulushidan anchasini akasinikiga qo'shib qo'yibdi, so'ngra ko'ngli tinchib, uyquga ketibdi.

Bir vaqt akasining uyqusi qochib ketibdi. U o'ylabdi: «Ukam kambag'al, mendan boshqa yordamchisi yo'q. Biz ko'pchilik bo'lsak ham, bor-yo'qchilik unchalik bilinmaydi. Kel, ukam qiyalmasini – g'allamdan ozgina uning g'allasiga qo'shib qo'yay».

Aka o'z ulushining anchasini ukasinikiga qo'shib qo'yibdi. Shundan keyingina ko'ngli tinchib, uyquga ketibdi.»

Bu ertakning mazmunidan aka-ukaning bir-biriga bo'lgan cheksiz mehrini his qildik va xalq pedagogikasida oilada farzandlar, aka-ukalarning bir-biriga mehribonligi, g'amxo'rliqi, bir-birini qadrlashi eng avvalo oila tarbiyasining natijasi ekanligini isbotlovchi yuqoridagi kabi misollar juda ko'pligiga amin bo'ldik.

Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq pedagogikasi manbalariga kiruvchi milliy musiqa, qo'shiqlar, raqs, tasviriy san'at turlari ham muhim ahamiyatga ega. Bola yoshligidan alla qo'shig'ini tinglab, o'z ota-onasi, Vatani, xalqiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalanadi.

Shuningdek, oilada farzandlarga yog'och, ganch, mis o'ymakorligi, zargarlik, zardo'zlik, kashtado'zlik, kulolchilik, milliy liboslarni tikish kabi xalq amaliy hunarmandchiligi turlarini o'rgatish orqali ularda mehnatga muhabbat uyg'ota olgan, va buning natijasi o'laroq, oilada nafosat va mehnat tarbiyasi amalgalashadi.

islom dunyosidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingen oltita ishonchli hadislar to'plamining mualliflari yashab ijod qilganlar. Yana shunisi ahamiyatlik, mazkur olti muhaddisning deyarli hammasi O'rta Osiyo xalqlari vakillari bo'lib, ular Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870), Imom Muslim ibn al-Hajjaj (819-874), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termizi (824-892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy (817-880), Imom Ahmad An-Nasoiy (830-915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Mojja (824-886) kabi siymlardir.

Ushbu muhaddislarning har biri hadis ilmining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan mashhur olimlar hisoblanadi. Hadis ilmida «Amir al-mo'miniyn» degan sharafli nomga sazovor bo'lgan Imom al-Buxoriy alohida e'tiborga molik bo'lgan buyuk olimdir. U ko'plab hadisshunos olimlardan saboq olib, muhaddislar Abdulloh ibn Muborak va boshqalarning hadis to'plamlarini to'lig'icha yod olgan. Uning ustozlaridan shayx Doxiliy shogirdining bahslashish mahoratiga, dalillarni keltirishdagi izchil mantig'iga ko'p marta qoyil qolgan, tan bergen va olqishlagan edi. Buxoriy islom mamlakatlarini kezib, jami 600 ming hadis yozib olgan, shundan 100 ming sahib va 200 ming g'ayri sahib hadisni yod bilar edi. Uning ustozni Imom Axmad al-Marvaziy «Butun Xurosondan Muhammad ibn Ismoil kabi olim chiqqan emas», - degan edi. Shogirdlaridan biri Amir ibn Fallos esa «Buxoriyga ma'lum bo'lmagan hadis, albatta, ishonchli hadis emasdur», - deydi. Imom al-Buxoriy avlodlarga boy ilmiy meros qoldirgan, u yozgan asarlar soni 20 dan ortiq bo'lib, «Al-Adab al-Mufrad», «At-Tarix as-Sag'ir», «Kitob al-Ilal», «Asomi us-sahoba» kabilar shular jumlasidandir. Ulardan eng muhimi «Al-Jome' as-Sahih» asaridir. Asarning ahamiyatli tomoni shundaki, Imom al-Buxoriygacha o'tgan muhaddislar o'z to'plamlariga eshitgan barcha hadislarini tanlab o'tirmay, qatorasiga kiritaverганлар. Imom al-Buxoriy esa turli roviylardan eshitgan hadislarni toifalarga bo'lib, ularning ishonchli, ya'ni sahihlarini ajratib alohida kitob yaratgan.

Alloma ibn Sallohnинг ta'kidlashicha, al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275ta bo'lib, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat. Imom Buxoriy nafaqat yirik olim, balki go'zal xulq-atvori, odamoxunligi, muruvvatliligi, himmatliligi va beqiyos sahovatliligi bilan ham barchamizga ibratdir.

Imom al-Buxoriyning «Al-Jome' as-sahih» asarining yozilganiga taxminan 1200 yil bo'ldi, lekin hanuzgacha islom ta'limotida muhim manba sifatida yuqori baholanib kelinmoqda. Quyida shu asardan namunalar keltiramiz:

xususda Xasan al-Basriy<sup>38</sup> aytadilarki: «Ey odam bolasi, sen tashkil topgan kundardan iboratsan. Sen uchun bir kunning ketishi umringning bir qismi ketishi demakdir». Shuningdek, Umar ibn Abdulaziz aytadilar: «Kecha va kunduz sening vujudingda o‘z ishini ko‘rsatyapti, demak, sen ham ularga amal qilib qol!»

Yuqoridagi kabi olimlar: «Manfurlikning alomati vaqtini zoe ketkazishdir», deyishgan. Va yana: «Vaqt bir qilichdir, agar sen uni kesmasang, u seni kesadi!» - deb uqtirishgan. Olimlar o‘zlari turgan mavqedan yana ham go‘zalroq darajaga intilar edilar. Shu jihatdan ularning buguni kechasidan, ertasi bugunidan afzalroq bo‘lar edi. Bu xususda ulardan biri: «Kimning buguni kechagi kuni kabi bo‘lsa, u aldangandir, va kimning buguni kechagidan yomon bo‘lsa, u la‘natlangandir!» - degan.

Islom ta‘limotida axloqiy tarbiya eng yuqori o‘rinni egalaydi, shu bois hadislar insonning ma‘naviy va axloqiy kamolotiga asos bo‘la oladigan ma‘no va mazmun kasb etgan, zero hadislar islam olamining muqaddas kitobi Qur‘oni Karimdan keyingi asosiy manbalardan biri bo‘lib, payg‘ambarlarimizning aytgan so‘zlari, fe‘l-atvorlari, axloqlari, hayot yo‘llari haqida ma‘lumot beradi, umuminsoniy fazilatlar ulug‘lanadi.

Qur‘oni karim va hadisu shariflardagi odob-axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar, asrlar davomida ajdodlarimiz hayotida tarkib topgan milliy urf-odatlar, ma‘naviyatimiz durdonalari bo‘lmish Ahmad Yassaviy, Imom Buxoriy, at-Termiziyy, Baxouddin Naqshbandiy, Abdurahmon Jomiy, Abu Nasr Forobi kabi buyuk siymolar, olimlar, yozuvchilarning odob-axloq haqidagi fikr-mulohazalari bilan o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra hamohang va hozirgi kunda ham dolzarb. Jumladan, Rasullulloh (s.a.v.) «Insonga berilgan fazilatlarning eng yaxshisi axloqdir», - deganlar. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobi esa: «Bilim, ma‘rifat albatta yaxshi axloq bilan bezatilmog‘i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi», - deb uqtiradi. Islom olamining mashhur hadisshunos olimi Imom al-Buxoriy: «Har bir odam komil inson bo‘lishi uchun o‘zi yaxshi ko‘radigan narsasini o‘zgalarga ham ravo ko‘radigan, go‘zal axloqli bo‘lishi kerak», - deb ta‘kidlaydilar. Bu misollardan Qur‘oni Karimning o‘zi nasihatlardan iborat ekanligiga, diniy ta‘limotlar hamda buyuk mutafakkirlar va muhaddis olimlarimizning odob-axloq borasida hamfikrliligiga amin bo‘ldik. Zotan, Rasullulloh (s.a.v.)ning o‘zlari «Din nasihatdur», - degan edilar.

Ma‘lumki, hadislar asrlar davomida odob-axloqning gultoji sanalib, IX asr hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblangan. Bu davrda butun

Taniqli etnograf olim I.Jabborovning ta‘kidlashicha, «Qadimdan o‘zbek oilalarida yoshiga, jinsiga va tabiatiga qarab bola tarbiyasiga alohida e’tibor berilgan. Masalan, o‘g‘il bolalarga yoshligidan otalar urug‘ining davomchisi, merosxo‘ri, oila or-nomusi va iftixori, himoyachisi, qizlarga nisbatan ustun turadigan erkaklik fazilatlarini ongiga singdirib, qizlarga esa bo‘lajak ona va uy bekasi vazifasini ado etuvchi shaxs sifatida tarbiya berishgan. Asta-sekin voyaga yetishi bilan o‘g‘il bola ota ta’sirida, qiz bola ona ta’sirida muayyan tartiblarga o‘rgatila boshlangan. Odad bo‘yicha bolalar 6-7 yoshidan mehnatga o‘rgatilib, dastavval yengil ishlarni, 10-12 yoshidan boshlab og‘ir xo‘jalik ishlarni bajara boshlaganlar. Bola tarbiyasiga ota-ona, mahalla, jamoatchilik, alohida e’tibor bergen, ayniqsa, ularning odob-ikromli bo‘lishi ko‘pchilikning diqqat markazida turgan».<sup>33</sup>

Demak, xalq pedagogikasida hunar yuksak baholangan, xalq og‘zaki ijodining barcha janrlaridagi qahramonlar faqat ma‘lum bir kasb egasi bo‘lib qolmay, balki aqliy, jismoniy va ma‘naviy kamolotga erishgan, o‘z davrining yetuk kishilari sifatida tasvirlanishi bunga yorqin dalildir.

Oilada ota-onalar o‘z farzandlariga ma‘naviy merosimiz bo‘lgan milliy urf-odatlar, an‘analar, marosimlar, udumlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning ijtimoiy, madaniy, tarbiyaviy ahamiyati va mohiyatini tushuntirib borishi ham barkamol shaxs tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Yana shuni ta‘kidlash joizki, milliy ong, milliy ruh aynan oilada ona tili orqali shakllanadi, bunga esa eng avvalo ota-ona mas’uldir.

Yuqoridagilarni muxtasar qilib aytganda, xalq pedagogikasining barcha manbalarida oila tarbiyasi, unda ota-ona, farzandlarning o‘rni, oilada tarbiya turlari, usullari va vositalari, oila ma‘naviyatiga xalqona qarashlar juda keng va atroflicha yoritilgan bo‘lib, hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Demak, biz bu bebafo qadriyatimiz – xalq pedagogikasi manbalaridan farzandlarimiz tarbiyasida foydalanishimiz zarurdir. Zero, yurtboshimiz ta‘kidlaganlaridek, «Odobli, bilimdon va aqli, mehnatsevar, iymon-e‘tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir».<sup>34</sup>

### **Mavzu bo‘yicha nazorat savollari:**

1. Oila ma‘naviyati tushunchasini ta‘riflang.
2. Barkamol avlod tarbiyasida oilaning o‘rni va ta‘siri nimada?

<sup>33</sup> Жабборов И. Ўзбеклар – Т.: Шарқ , 2008,140-бет.

<sup>34</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч . – Т.: Маънавият, 2008 -56-бет.

<sup>38</sup> Хасан ал-Басрий – олим, қавми Аллоҳ ва Расулиниңг мұхаббатида тутиб турувчи, залолатдан оғох этиб, материфат сари бошлагувчи зот.

3. «Oila – milliy tarbiyaning o'chog'i» deganda nimani tushunasiz?
4. Oilada farzand tarbiyasiga oid xalq og'zaki ijodidan misollar keltiring.

**TOPSHIRIQ.** Matndagi ilmoqli gapning ma'nosini tushuntiring.

### O'tmas pichoq

Ota qishloqdan shaharga, o'g'linikiga tashrif buyurdi. Kelinining og'rinib ish qilayotganini, o'g'liga nisbatan bo'lgan hurmatsizroq munosabatini sezgan otaxon o'g'li bilan u yoq-bu yodan nomigagina gaplashib o'tirgan bo'ldi. So'ng keliniga qarata: «Kelin, bor pichoqlarni yig'ib bersangiz, bozorga tushib bir charxlatib kelmasam, bu uyda pichoq o'tmaslashib qolibdi», - dedi. Pichoqlarni olib bozorga tushdi. Bu vaqtida o'g'il ushbu ilmoqli gap tagidagi ma'noni fahmlash bilan ovora edi.<sup>35</sup>

**TOPSHIRIQ.** Ushbu rivoyatda tarbiyaning qanday turi talqin qilinyapti?

### Ota vasiyati

Bir dehqonning hovlisida toki bor ekan. Shu tokdan olgan hosilni sotib, qishin-yozin tirikchilik qilar ekan. Bir kuni dehqon betob bo'lib qolibdi. Shunda u yolg'iz o'g'lini yoniga chaqirib bunday debdi:

-O'g'lim, mening kumin bitganga o'xshaydi. Senga aytadigan bir gapim bor. Shuni qulog'ingga isirg'a qilib ol. Gapim shuki, toklarimizning orasiga ikki xum tilla ko'milgan. Shu tillani yilda ikki marotaba – bahor ham kuzda kovlab olib, tirikchilingga yaratgin. Zora shu bilan boyib ketsang.

Otasi shu so'zlarni aytibdida, olamdan o'tibdi. Bu payt qish ekan, bola bahorni orziqib kutibdi. Bahor ham kelibdi. Yigit ketmonni qo'liga olib, toklarning tagini kovlab chiqibdi. Biroq oltin topilmabdi. Shu orada toklar sho'ra chiqazib, yaproq yoza boshlabdi. Yigit tilla qidirishni vaqtincha to'xtatib, tok bilan ovora bo'lib qolibdi. Shu yili tok chunonam hosil beribdiki, yigit uni pullab tamom qilolmabdi. «Otam toklarning orasiga ko'milgan tillalarni ikki marta – bahor hamda kuzda kovlagin, degan edilar», - deb kuzda ham kovlabdi.

Kelasi yil ko'klamda ham yigit oltin qidirib, bog'ning tit-pitini chiqarib yuboribdi. Yana oltin topilmabdi. Biroq bu yil tok o'tgan

allomalarining o'z davrida yetishgan baland ilmiy darajalarining omillaridan biri shu bo'lga bo'lsa, ajab emas.

Darhaqiqat, islam dini insonni hamma vaqt ilm egallahsha, to'g'-rilikka, halollikka, oliyhimmatlilikka, insonparvarlikka, barcha insoniy fazilatlar egasi bo'lishlikka chaqiradi. Hadisu shariflarda yomon xulq, hasad, adovat, hiyonat, kibr-havo, yolg'onchilik, poraxo'rlik, buzuqlik, munofiqlik kabi illatlar qoralanadi. «Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilanglar», - deb uqtiriladi.

Yana: «Kim nimaga erishgan, fazilat va daraja topgan bo'lsa, faqat hurmat va odob saqlash bilan erishibdi. Kimki o'z obro'-e'tiboridan, erishgan fazilatidan ayrilgan bo'lsa, bilsinki, u faqatgina bu ayriliqni odob saqlashni loyiq ko'rmagani, hurmat va e'zozni tark qilgani sababidandir», - deb ogoh qiladilar.

Islam ta'limotida ota-onaga, musofirlarga, xizmatchilarga, do'stobirodarlarga, barcha kishilarga yaxshilik qilish insonning muqaddas burchi ekanligi ta'kidlanadi. Insoniyat olamida go'zal xulq egalarini go'zal axloqli, odobili, husni xulq kishilar deb atashadi. Payg'ambarimiz Muhammad Rasululloh (s.a.v.) bunday xislatlarning timsoli bo'lga.

Islam ta'limotida sabr-qanoatli va kechirimli bo'lish eng yaxshi fazilat sifatida ulug'lanadi, zero bu sifatlar bag'ri keng, turli adovat va adolatsizlikka sabr bilan javob bera oladigan kishilardagina bo'ladi. Olijanoblik va rostgo'ylik – inson kamolotini ko'rsatuvchi xislatlardan bo'lib, biri yaxshilikni o'zi uchun emas, boshqalar uchun qilishni xohlash bo'lsa, ikkinchisi kishilar o'rtasidagi ishonchni ta'minlaydigan muhim sifat ekanligi ta'kidlanadi.

Islam ta'limotida vaqtidan unumli foydalanish masalasiga katta e'tibor qaratiladi. Har bir kishi vaqtning barcha imkonlaridan foydalanib qolishi, millatni yaxshilik va farovonlikka, moddiy va ma'naviy yuksalishga olib boradigan ishlar bilan mashg'ul bo'lmosi lozim, deb uqtiriladi.

Payg'ambarlar orasida eng uzoq yashagan hazrati Nuh alayhissalom haqlarida hikoyat qilinishicha, ming yildan ortiqroq umr ko'rganlaridan so'ng, u kishining jonini olish uchun o'lim farishtasi keladi. Va u kishidan: «Ey payg'ambarlarning eng uzun umr ko'rgani, siz dunyoni qanday tushundingiz?» – deb so'raydi. Shunda Nuh (a.s.) aytadilar: «Dunyo go'yo bir hovlining ikki eshigi bo'lib, ularning biridan kirib, boshqasidan chiqib ketdim.» Demak, vaqt tez o'tadigan va ortga qaytmaydigan, biror narsa bilan o'rinni almashirib bo'lmaydigan, inson ega bo'lga narsalarning eng nafisi va qimmatlisidir. U voqelikda xoh shaxs, xoh jamiyat bo'lsin, inson uchun asl sarmoya hisoblanadi. Bu

<sup>35</sup> О.Махмудов. Ота нега фарзандига танбех беради. – Т.: Гафур Ғулом номидаги наширист-матбаа ижодий уйи, 2005, 61-б

falokatdan qutqaradi, do'stlar orasini ziynatlaydi, dushmanga qarshi qalqon bo'ladi», - deya ummatlarini ilmga chorlaydi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) yana bir hadislarida: «Dindoshiga ilm o'rgatish yil bo'yi o'qilgan nafl namozidan ko'ra afzalroqdir», - deya marhamat qiladilar. Ya'ni, ilm mo'min uchun bir hazina ekanligini, inson ilmga erishgach, ana shu ilm hazinasini qo'lga kiritib, asl boylik sohibi bo'lishini, qalbida ilmni saqlagan kishi esa xazinadan barchani bahramand etib, hidoyatga boshlashini uqtiradilar.

Rasululloh (s.a.v.) bir kun hazrat Anasga: « Yo Anas! Ilm istagan kishi kunduzlari ro'za tutgan va kechalari ibodat bilan o'tkazganlarning savobichalik savobga noil bo'ladi. Kishining biror mavzuda ilm olishi Qubays tog'idek keladigan oltinni Allah yo'lida tarqatishdan afzalroqdir», - deganlar.

Dunyoda ilm orqali kelgan foyda eng qimmatli, eng ulug' sanalishi, kishi ilm yo'li bilan buyuk ne'matlarga erishib, yo'li yorug' bo'lishi, turli xurofotlar va nohaqliklardan ilm vositasida o'zini himoya qila olishi mumkinligi haqida, dunyo va oxiratdagi saodatning asosi ilm bo'lib, shu jihatdan ilm amallarning eng afzali ekanligi xususida islom ta'limotida keng va atroflicha ma'lumotlar berilgan.

Shuningdek, diniy ta'limotlarda ilmni haqiqiy olimdan o'rganish kerakligini, faqat shu yo'1 orqaligina haqiqiy ilm hazinasiga erishish mumkinligini aytadilar. Shu o'rinda ilm bergan ustozlarni ulug'lash va hurmatiga e'tibor berish zarurligini ham ta'kidlaydilar. Shayxul islom «Hidoya» kitobining sohiblari, ustoz Burxoniddin Marg'inoniy hazratlari hikoya qiladilar: «Buxoroi sharifning katta allomai kiromlaridan biri dars o'tayotgan edilar. Dars davomida goho o'rinalidan turib qo'yardilar. Ziyarak toliblari buning sababini so'radilar. U zot kamoli ehtirom bilan:

- Mehribon ustozimning farzandlari ko'chada bolalar bilan o'ynab yuribdilar. Goh o'ynab eshik oldiga kelsalar, darhol ustozimning hurmatlari uchun o'rnimdan turyapman», - deb javob berdilar.

Yana hikoya qiladilarki, Imam Buxoriy hazratlari bir muddat Makkai Mukarramada dars o'tganlar. Bir ziyoratchi Buxoroi sharifdag'i ustozlaridan salom va maktub olib keladilar. Shunda ustozlarining yurtidan kelganlarini bilib, quchoq ochib ko'rishib, hurmat izhor qilganlar. So'ng salom xabarini eshitganlarida, Buxoroi sharif tomoniga yuzlanib, salomga alik olib, hurmat bajo keltirganlar. Keyin maktubni ikki qo'llab olib, tabarruk qilib, ehtirom bilan xatni o'qiganlari aytildi.

Imam Buxoriy hazratlari ustozlari uzoqda bo'lsalarda, xuddi huzurlarida turgandek hurmat bajo keltirishi bizga ibratdir. Balki ulug'

yilgidan ham ko'p hosil beribdi. Yigit uni pullab juda ham boyib ketibdi. Lekin yigitning hayoli hamon otasi aytgan oltinda ekan. U shu to'g'rida hayol surib o'tirgan ekan, otasining qadrdon oshnasi kelib qolibdi. Yigit unga voqeani aytgan ekan, chol xoxolab kulibdida, keyin

- Bolam, otang aytgan oltinlarni kovlab olibsanku, - debdi.
- Otaxon, bahorda ham, kuzda ham kovlab bog'dan bir misqol ham oltin topganim yo'q, debdi.
- Nega yolg'on gapisaran? Bo'lmasa bu boyliklarni qayerdan orttirding? - debdi chol.
- Mehnat qilib topdim.
- Sen mehnatni hosil olish uchun emas, oltinni topish uchun qilding. Mehnating zoe ketmadni. Bahor bilan kuzda ishlov berilgan toklar hosilini ayamadi. Otang rahmatli ko'p aqlli odam edi. U senga mehnatdan unadigan oltinlarni aytgan, - debdi chol. Bola otasidan minnatdor bo'lib, toklarni har yili ikki marotaba parvarish qilib, mo'il hosil ko'taraveribdi.

### BILASIZMI?

«Qo'shnining qo'shnida yettidan bir haqqi bor» naqlining ma'nosini bilasizmi?

Har bir ota-onha farzandimni men zo'r qilib tarbiyaladim, uning yutuqlari sababchisi ham o'zimiz deb, kibru havoga berilmasligi kerak. Sababi farzandning kamida 30% yurib-turishlari yaxshi qo'shnilaridan ibrat olgani tufaylidir. Qo'shnining sizdag'i haqqi shu!

### BU QIZIQ!

1. Oilada erkak va ayolning o'rnini bilasizmi? Erkak g'ayrati va ilmi bilan dunyo quradi, ayol latofati va hilmi bilan. Erkak hamisha bezovta, borini sarflab dunyo kezgani-kezgan, ayol – osuda, mehrini sarflab uyini bezagani-bezagani. Erkak uchun dunyo-uy, ayol uchun uy-dunyo. Erkakning qismati jabr, ayolning qismati sabr. Chunki erkak jabr tortib taxt topadi, ayol sabr qilib – baxt.
2. Donishmandlik ma'budasi Sofiya ismli ayol. Balki shuning uchun ham donishmandlikka ko'proq erkaklar intiladilar.

## **II.2. Xalq pedagogikasida farzand tarbiyalashning metod, usul va vositalari**

Xalq pedagogikasi barkamol avlod tarbiyasi, uning kamolotiga oid barcha masalalarni o‘zida mujassam etgan. Shunga ko‘ra barkamol shaxs vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ahillik, ilm va kasb-hunarga mehr-muhabbat, adolatlilik, ziyraklik, tashabbuskorlik, e’tiqod va sadoqatlilik, oqibatlilik, odoblilik kabi fazilatlarga ega bo‘lishi, shu bilan birga chuqur ilm egallashi, vaqtning qadriga yetishi, xalq udumlari va milliy urf-odatlarini yaxshi bilishi va qadrashi, diniy ta’limotlarni to‘g‘ri tushunishi, muomala odobi va kiyinish madaniyatiga rioya qilishi lozimligi uqtirilgan.

Bu fazilatlarning aksi bo‘lgan nodonlik, badxulqlilik, manmanlik, qo‘rroqlik, yolg‘onchilik, odobsizlik, insofsizlik, sabrsizlik, baxillik, kibru havo, hasadgo‘ylik, farosatsizlik kabi illatlardan xoli bo‘lishi talab etilgan. Ana shu ijobjiy fazilatlarni yoshlar tarbiyasiga singdirish va illatlardan yiroq tutish yoki xoli qilish bo‘yicha xalq pedagogikasida qator tarbiya metodlari, usul va vositalari mavjud.

O‘git-nasihat qilish, ibrat-o‘rnak ko‘rsatish, rag‘batlantirish va qoralash kabi metodlarni xalqimiz asrlar davomida qo‘llab kelgan bo‘lib, uning quyidagi ijobjiy shakllari:

- tushuntirish;
- o‘rgatish, mashq qildirish;
- odatlantirish;
- kun tartibini rejalashtirish;
- yaxshi xislat va ishlarga undash;
- iltimos qilish;
- istak bildirish;
- maqtash;
- rahmat aytish, minnatdorchilik bildirish;
- ma’qullah;
- olqish aytish;
- duo qilish;
- alqash;
- tasalli berish;
- mukofotlash, taqdirlash;
- ishonch bildirish;
- oqlash;
- vasiyat qilish;

bilmaganlarini o‘rgatish uchun ilk oyatda «o‘qi» kalimasini indirdi. Bu esa ilohiy vahiyning ilmga bergan buyuk bahosidan dalolat. Alloh insonlarni jaholat botqog‘idan ilm yo‘li bilan ziyoga chiqardi va ularga buyuk ne’mat sifatida bu ilmlarni yozish imkoniyatini berdi. O‘qiganlar va ilm sari intilganlar haqiqatga erishadi. Shu jihatdan olim kishi juda go‘zal mavqeega ega bo‘ladi. Johil esa tubanlikka yuz tutadi».

Islomiyat jaholatni rad etib, insonlarni ilm o‘rganishga da’vat qilishini quyidagi hadisu shariflarda ko‘rishimiz mumkin:

- Rasulullohning(s.a.v.) «Beshikdan qabrgacha ilm izlang» degan hadisi islomiyat taqdim etgan yuksak qoidadir.
  - «Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir», - deya marhamat qilishlari ham ilmga bo‘lgan yuksak e’tibordan dalolat beradi.
  - «Insonlar yo o‘rgatuvchilar yo o‘rganuvchilarga bo‘linadi. Bundan boshqalari esa arzimasdur», - deya ta’kidlaydilar.
  - «Faqat ilm orqaligina najot topish mumkin, undan boshqa najot yo‘li yo‘qdir», - deya ilm olishga undaydilar.
  - «Ilm olish uchun sarflangan bir soat yuzaki ibodat bilan o‘tkazilgan bir kechadan ko‘ra xayrlidir. Ilm yo‘lida sarflangan bir kun uch oy ro‘za tutishdan afzalroqdir», - deya ilm olishga ajratilgan vaqt eng qadrli vaqt ekanligini ta’kidlaydilar.
  - «Ilm foydasiz ibodatdan afzaldir. Ilm dinning bir ko‘rinishidir», - deya dinning qudratini ham ilm orqali anglab yetish mumkinligini aytadilar.
  - Ilm o‘rgatgan kishiga ta’zimda bo‘ling va izzat-ikrom ko‘rsating. Ilm sohiblariga hurmat ko‘rsatish Payg‘ambarga bo‘lgan sevgi tufaylidir, ularga qarshi chiqish esa Payg‘ambarga qarshi chiqish kabidir», - deya ilm sohiblarini qadrash kerakligini uqtiradiilar.
  - «Olimning uyqusi ham johilning ibodatidan afzaldir, zero olim ilmini davom ettirish uchun charchoqlardan holi bo‘lish maqsadida uxtaydi», - deydilar.
  - Rasululloh (s.a.v.) «Bilganingizni barchaga o‘rgating», - deya ilmga xizmat etishga chaqiradilar.
- Jism moddiy rizq bilan oziqlangani kabi ruhiyat ma’naviy rizq bilan oziqlanadi. Ilm esa aynan shu ma’naviy rizqdir. Shu bois Payg‘ambarimiz (s.a.v.) «Ilm bilan oziqlanganlar hidoyat topadilar», - deya marhamat qiladilar. Yana bir hadisu shariflarida: «Ilm o‘rganing, ilm o‘rgangan haqni nohaqdan ajratadi. Ilm jannat yo‘lini yoritadi. Ilm insonga cho‘lda yo‘ldosh, yolg‘izlikda hamroh, kimsasizlikda jondan do’st bo‘ladi», - deydi. Va yana: «Ilm insonlarni saodatga eltadi,

tanishtirish orqali diniy qadriyatlarga munosabati shakllantiriladi. Diniy qadriyatlar esa o‘z navbatida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, xalq pedagogikasining shakllanishi va rivojlanishida diniy qadriyatlar muayyan o‘rin egallaydi.

Jumladan, islom dini insonlarni ezgulik va bunyodkorlikka da’vat etuvchi, yosh avlodni vatanga muhabbat, ajdodlarga sadoqat ruhida tarbiyalovchi, mukammal axloqiy-ma’naviy qarashlar majmui bo‘lgan bitmas-tuganmas manbadir.

Islom ta’limoti o‘tmishda yaratilgan barcha ilohiy ilmlarni hamda insoniy tajriba va fazilatlarni umuminsoniy qadriyat sifatida o‘zida jamladi, shu asnoda milliy qadriyatlarimiz qadr topib, gullab – yashnadi.

Yurtboshimiz ta’kidlashicha, «...Din azaldan inson ma’naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof vaadolat to‘g‘risidagi orzu-armonlarini o‘zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g‘oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir. Ayniqsa, ko‘p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma’nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz quadratli omil bo‘lib kelayotganini alohida ta’kidlash joiz. Nega deganda, insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o‘ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga mansub bo‘lgan fazilatlar aynan shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi».<sup>37</sup>

Darhaqiqat, agar dunyoni bilish vositasi ilm bo‘lsa, din – ruhiyatimiz tarbiyachisi, xalqimizning maqsadi, maslagi, turmush an’analarining mujassamlashmasidir. Islom ta’limoti va xalq pedagogikasini bir-biridan ayro tasavvur etib bo‘lmaydi, zero har ikkalasi ham xalqimiz ma’naviyatini shakllantirishda katta kuchga ega.

O‘zbek xalqining boy pedagogik qarashlari muqaddas Qur’oni Karim, hadislari kabi diniy ta’limotlar bilan hamohang holda o‘zbek xalq pedagogikasining muhim tarbiya vositalaridan bo‘lib kelgan va hanuzgacha o‘z qimmatini yo‘qotmagan.

Hidoyat kitobi bo‘lgan Qur’on insoniyatga ilm orqali saodatga erishish yo‘lini ko‘rsatadi. Qur’oni karimning ilk nozil qilingan oyati ham «o‘qi» deya boshlangan, bu esa islomda ilmning yuksak mavqeiga egaligidan dalolat beradi. Abul Qosim Mahmud az-Zamaxshariy bu oyatni tafsir qilarkan, shunday deydi: «Alloh taollo insonlarga

Shuningdek, xalq pedagogikasida o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda quyidagi holatlar qoralanadi:

- ta’qilash, ma’n etish;
- buyurish;
- ta’na, o‘pka-gina qilish;
- talab qilish;
- uyaltirish;
- yolvorish va ko‘ndirish;
- tanbeh berish;
- majbur qilish;
- nafrat bildirish;
- masxara qilish;
- duoyibad qilish;
- koyish va qarg‘ash;
- ayblash va uyaltirish;
- oq qilish;
- ont-qasam ichirish;
- aybiga iqror qildirish;
- ishonchsizlik bildirish;
- zarda qilish;
- ko‘r-ko‘rona ishonish;
- yomonlash va vaysash;
- urishish;
- qo‘rqitish;
- gapirmasdan qo‘yish;
- jismoniy jazo berish va h.

Hayotning mazmunini to‘g‘ri tushuntirish, farzandlarga odob-axloqni o‘rgatish, ezgu ishlarga odatlantirishda xalq pedagogikasining yuqorida ta’kidlangan tarbiya metodlaridan foydalilaniladi. O‘git va nasihat metodi xalq og‘zaki ijodining turli janrlarida o‘z aksini topgan. Masalan, xalq maqollari o‘git va nasihat shaklida beriladi:

- Yaxshi bo‘lsang kelinchak, bo‘la ko‘rma erinchak.
- Eling senga cho‘za qo‘l, unga doim sodiq bo‘l.
- Ko‘kka boqma, ko‘pga boq.
- Mehnat qilsang yasharsan, katta-katta osharsan.
- Yo‘jni borday qil, borni bolday qil.
- Yaxshilik qilsang, yashir, yaxshilik ko‘rsang, oshir.
- Obro‘ topaman desang – kamtar bo‘l.

<sup>37</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – ёнгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2008. 36-бет.

Ko'rib turganimizdek, maqollardagi odob-axloq mazmuni o'git-nasihat tarzida berilgan. Xalq dostonlarida ham tarbiyaning bu shaklini ko'plab uchratamiz. Masalan, «Erali va Sherli» dostonida ustoz o'z shogirdlariga quyidagicha nasihat qiladi:

Yaxshilikdan ajratmasin dilingni,  
Ham yaxshilik ustun qilar qo'lingni,  
Miskinlarga sarf ayla, ber pulingni,  
Men sening qurboning bo'lay, Erali.  
Kuch-quvvating g'oyiblardan tilagin,  
G'ariblarning manglayini silagin,  
Sen ulardan oltin-duo tilagin,  
Duo oltin bo'lar, bilgin Erali.  
Mulla Haydar berdi shu nasihatni,  
Sen ham bo'lding mening bir farzandim,  
Qulog'ingda tursin shu nasihatim,  
Ming yashagin, aslo o'lma, Erali.

Tarbiya metodlari ichida eng ko'p qo'llanadigan turi bu namuna, ibrat ko'rsatish, ya'ni o'rnak bo'lishdir. Buni ikki xil yo'nalishda amalga oshirish mumkin. Birinchisi, yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan insonlarning ibratli jihatlarini ko'rsatish orqali undan o'rnak olishga undalsa, ikkinchisi salbiy axloqli kishilarning nojo'ya ishlarini ko'rsatish bilan undan nafratlanishga o'rgatiladi. Buyuk allomalar va mutafakkirlarning hayot yo'li bizga doim ibrat maktabi bo'lib qoladi. Chunonchi, oiladagi kattalar ham o'z farzandlari uchun doimo o'rnak ko'zgusi bo'lmoqliklari kerak. Chunki bola barcha yaxshi fazilatlarni ham, yomon illatlarni ham eng avvalo oiladan o'rganadi, zero xalqimiz «Qush uyasida ko'rganini qiladi», deb bejiz aytishmagan.

Xalq pedagogikasidagi rag'batlantirish metodiga maqtash, ma'qullah, alqash, mukofotlash kabi shakllarni kiritishimiz mumkin. Bolalarning yaxshi fazilat ila amalga oshirgan ibratli ishlari kattalar tomonidan ma'qullansa, maqtalsa, olqishlansa, rahmat aytilsa, alqansa va imkon doirasida taqdirlansa, ular yanada yaxshi xislatlarga ega bo'lishga, yaxshi ishlarni bajarishga harakat qiladilar. Bunga o'zbek xalq og'zaki ijodidan ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Asar qahramonlari xalqni zolimning zulmidan qutqarib xalqning olqishi va rahmatiga sazovor bo'lganligi, munosib taqdirlanganligi haqidagi ertak, rivoyat, afsona, asotir va dostonlar behisob. Maqtash, alqash paytida:

8. Ahli donishmandning «Hech narsani bilmasligimni bildim» degan iqrorni esla. Lekin ahli odamdan ushbu suqrotona iqrorni hech kim eshitgan emas.(V.Alimasov. «Falsafa yoxud fikrlash lazzati». –T: Manaviyat, 2001.)

## BILASIZMI?

«Suv ketar, tosh qolar, o'sma ketar, qosh qolar» maqolining ma'nosini bilasizmi?

«Bu surayotgan davru davroning, amalu martabang, mol-dunyong yoinki husnu jamoling ham o'tar-ketar, oddiy odamlar qatoriga tushib ham qolarsan. Bas, shunday ekan, bu bahosi bo'lImagan, o'tkinchi ustunliklaring bilan kerilma, mag'rurlanma, boshqalarga past nazar bilan qarama, kamtar bo'l», – deyilmoqchi.

## BU QIZIQ!

Odamzod tanasida olti a'zo borki, ularning uchtasi o'ziga bo'yasinmaydi, uchtasi esa o'zining hukmida. Ko'z, qulqo, burun odamga bo'yasinmaydi. Ko'rgisi kelmagan narsani ko'rishga, eshitgisi kelmagan gaplar yoki tovushlarni tinglashga, xush yoqmaydigan islarni hidlashga majbur bo'ladi. Oyoq, qo'l, til esa odamning hukmida. Til bilan ilohiy kalomlarni, shirin so'zlarni aytishi yoki aksincha, buning o'rnini g'iybat, ig'vo, yaramas gaplar bilan band etmog'i mumkin. Qo'llari bilan go'zal buyumlar yaratishi yoki go'zallik obidalarini qo'porishi yoinki shu qo'l bilan ehson, hadya berishi yoki o'zgalar mulkini o'zlashtirib olishi o'z ixtiyorida. Oyoqlari esa istasa uni ibodatga, istamasa g'urbatxonaga olib borishi mumkin (Tohir Malik. «Ilymonlashish umidi»).

## II. 3. Xalq pedagogikasida diniy ta'limotlar

«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar»ida milliy g'oyaning bosh g'oyasi «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush» sanalib, yetakchi g'oyalaridan biri diniy bag'rikenglikdir. Diniy bag'rikenglik barkamol shaxslarga daxldor fazilatlardan biri hisoblanadi, shu bois yoshlarni dinlarning tarixi, ularning g'oyalari bilan

uchun eng yaxshi idish-tovoqlarni ishlataladilar, tansiq taomlar pishiradilar. Mehmondo'stlikning o'ziga xos qoidalari bolalarga pand-nasihat, maslahatlar berish orqali, shaxsiy ibrat-o'rnatko'rsatib yoshligidan o'rgatib kelinadi. Shu tariqa xalqimiz yuqoridagi kabi tarbiya metodlari, shakllari va vositalari orqali yosh avlodni ahloqiy tarbiyalab, insoniy fazilatlarga o'rgatganlar.

### Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Barkamol shaxs qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak?
2. Xalq pedagogikasida qanday tarbiya metodlari mavjud?
3. Tarbiya metodlarining ijobiyligi va salbiy shakllarini aytинг.
4. O'git-nasihat metodi haqida gapiring.
5. Ibrat-namuna metodining o'ziga xosligi nimada?
6. Rag'batlantirish metodining qanday shakllarini bilasiz?
7. Alqash va alqash-duolarga misollar keltiring.
8. Zararli tarbiya metodlariga nimalar kiradi?
9. Xalqimiz qanday tarbiya vositalaridan foydalangan?

**TOPSHIRIQ.** Quyidagi matn – o'gitni o'qing, mazmunini muhokama qiling va asosiy tarbiyaviy g'oyasini toping.

### O'z-o'zimga o'gitlarim

1. Hikmat izla! Hikmat topmagan kuning abas ketgay, abas!
2. Oldin fikr izla, keyin yoz. Fikri g'alizing so'zi g'aliz.
3. Hamma bir – biriga shogird, bir – biriga ustoz. Faqat sen hammaga shogird bo'lib yasha.
4. Quvonch va o'kinchdan qochma. Quvonchni umr oni bil, o'kinchni - ijod oni.
5. Haqni yoz, adlni yoz. Kuyib yoz, kulib yoz. Hasrat bilan yoz, hayrat bilan yoz. Biroq unutma: hayot ustidan hukm chiqarish huquqi senga berilmagan.
6. Maddohlarga ergashma, lekin ulardan qanday yashamaslikni o'rgansang arziydi.
7. Ko'p tingla, ko'p o'yla, ko'p izla. Topganlaring bari o'zingniki bo'lgach, dod sol, faryod sol! Shunda doding va faryoding o'z qalbingdagi dardchil va nafis tuyg'ularni uyg'otadi.

«Tarbiya bergan ota-onangga rahmat»;  
«Ta'lif bergan ustozingga rahmat»;  
«Ustozdan ibrat olgan aqllaringga rahmat»;  
«Barakalla, o'g'lim, qizim»;  
«Aqlu-hushing, idrokingga ofarin»;  
«Oqilaligingga tahsinlar bo'lsin» kabi jumlalar ishlataladi.

Asosan yoshi ulug'lar, ota-onalar farzandlarining ijobiyligi ishlardan minnatdor bo'lishganda o'zlarining chuqur ichki istak va niyatlarini alqash orqali amalga oshirganlar. Keyinchalik bu istak-niyatlarini Ollohdan so'raydigan bo'lganlar va shu tariqa alqash-duolar yuzaga kelgan, alqashdan oldin «ilohim» so'zi ishlatala boshlangan. Quyida alqash-duolarga misollar keltiramiz:

- (ilohim) umringdan baraka top;
- qo'ling dard ko'rmasin (dard ko'rma);
- tani-joning sog' bo'lsin;
- tuproq olsang oltin bo'lsin;
- uying bug'doyga to'lsin;
- topganing to'yga buyursin;
- fayz-barakangni bersin;
- farzandlaringni huzur-halovatini ko'r;
- baxtiyor bo'l (baxtli bo'l);
- ilohim niyattingga yet;
- ulug' martabalar nasib qilsin;
- qasd qilganlar past bo'lsin, yer bilan yakson bo'lsin;
- do'stga zor, dushmanga xor qilma;
- o'ylagan niyatlariningga yet;
- boshing toshdan bo'lsin;
- to'y bo'lsinu, g'am bo'lmasin;
- yaxshi kunlarga yetkazsin;
- ko'p bersin, ko'l bersin, keng fe'l, ketmas davlat bersin;
- biring ikki, ikking tuman bo'lsin;
- yegan noning halol bo'lsin;
- yomonning yuzini teskari qilsin;
- farishtalar omin desin va h.

Xalq og'zaki ijodining ko'plab janrlarida xalq orzu qilgan, el-yurt va hukmdorlar topshirig'ini o'zining mardligi va matonati, donishmandligi bilan ado etgan obrazlarning mukofotlanganliklari haqida bayon qilinadi. Bu asarlardagi «...Barakalla, seni o'stirgan ota-onanga rahmat», - deb, ustidan tillo, javohirlar sochibdi; «Podsho uch kunu uch tun to'y-tomosha

qilib, qizini bahodirga uzatibdi»; «...Uni jasorati va mardligi uchun shaharga hokim (yoki vazir) etib tayinlabdi»; «Tila tilagingni, - debdi va barcha tilaklarini bajo aylabdi,» - kabi jumlalardan o'z aksini topgan.

Farzandlarni yaxshi xulqi-odobi, yaxshi o'qishi, umuman, yaxshi inson bo'lib yetishi uchun alqash, maqtash, rahmat aytish, duo qilish, yaxshi tilak-istik, niyat bildirish, rag'batlantirish va mukofotlash hozirgi kunda ham keng qo'llanadi, chunonchi yoshlarni shunday chiroyli alqash-duolarga mos qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Xalq pedagogikasida bola tarbiyasida qarg'ish asosan xotin-qizlar tomonidan ishlatiladigan zararli tarbiya metodi hisoblanib keltingan.

«Qarg'ishlar duch kelgan katta-kichikni goh suvda cho'ktirib o'ladirsa, goh do'zaxning yetti kundasida kuydiradi. Ba'zilari odamxo'r devlarga duch keltirsa, ba'zilari ona sutini og'zidan keltiradi.»<sup>36</sup>

Xalqimizda qarg'ish va duo – olqishning ta'siri, ya'ni uning «tegishi» haqida ham qator iboralar bor. Qarg'ish olganlar haqida «Falonchini qarg'ish urgan»; alqash olganlar haqida esa «Falonchi kam bo'lmaydi, chunki ota-onasining (xalqining, ustozining) duosini olgan» deyishadi. Qarg'ishning zarari va olqish – duolarning ahamiyati quyidagi maqollarda o'z aksini topgan:

- qarg'ish yaralaydi, olqish davolaydi;
- kiyim dog'i ketar, qarg'ish dog'i ketmas;
- otilgan o'qdan qo'rhma, qarg'ishdan qo'rqa;
- olqish yaxshiga, qarg'ish yomonga;
- dili to'g'ridan olqish chiqadi, dili qing'irdan qarg'ish;
- el qarg'asa, tog' qulaydi, el alqasa bog' bo'ladi;
- ota-ona olqishi o't-suvga oldirmas,
- ota-ona qarg'ishi chohga tiqmay qoldirmas.

Demak, xalq an'anaviy tarbiya usulining bosh shiori: «Olqish olgan omondir, qarg'ish olgan yomondir.»

Darhaqiqat, qarg'ish ishlatgan ota-onsa va kattalarning obro'si yo'qoladi, ota-onsa va farzandlar o'rtasidagi mehribonlikka putur yetadi, oila ahilligiga darz ketadi. Ayniqsa, ota-onsa qarg'ab, oq qilsa, uning oqibati har ikkala tomon uchun yomon bo'ladi. Xalqimizning «Ura bersang eti qotar, qarg'ay bersang beti qotar» degan maqoli ham qarg'ishning zararini ta'kidlaydi. Demak, qarg'ishlarni umuman nutqdan chiqarib tashlash va ayniqsa bola tarbiyasida ishlatmaslik zarur.

Xalq pedagogikasida, uning manbalarida jismoniy jazo tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi vosita sifatida aslo uchramaydi, aksincha jismoniy

jazo yomon oqibatlarga olib kelishi ta'kidlanadi. Lekin xalq pedagogikasi tarixida tarbiya nuqtai nazaridan jismoniy jazoning shapaloq urish va quloq cho'zish shakllari ishlatilgani ma'lum.

Xalqimiz tarbiyaning turli metod va shakllarini amalga oshirishda xilma-xil tarbiya vositalaridan foydalanganlar. Xususan, xalq o'yinlari va o'yinchoqlar, xalq og'zaki ijodi, tabiat va inson munosabatlari, xalq tabobati xususiyatlari, turli to'y-tomosha marosimlari, sayil, yig'in, bazm, bayramlarda kattalar va bolalarning birgalikdagi ishtiroki, gap-gashtak va ulfatchilik, choyxona gurungi, aza ma'rakalari, uzoq safarga va ovga chiqish va h.

Tarbiya vositalaridan biri bo'lgan bolalar o'yinlarining o'z qoidalari bo'lgan. Shu qoidaga rioxha qilmagan bolalarni «o'yin buzuqi» deb o'yindan chetlatishgan. Ya'ni o'yin jarayonida bolaning yaxshi va yomon jihatlari namoyon bo'lgan. E'tibor bersangiz, tarbiya vositalarining barchasi ko'pchilik ishtirokida amalga oshiriladi va shubhasiz, bu juda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bunday bayram, sayil, gap-gashtak, yig'inlarda bolalarning yaxshi va yomon xatti-harakati ko'pchilikning ko'z o'ngida namoyon bo'ladi va shu ko'pchilik tomonidan baholanadi. Ota-onalar o'z farzandlari tarbiyasiga oid xulosalar chiqaradilar. Farzandlarning odob-axloqi haqidagi yaxshi fikrlar ota-onani quvontirsa, aksincha, farzandining xulqi haqidagi ta'na va isnodlar ularni tashvishga soladi. Bunda keksalar, ota-onalar: «Bolam, bu yurish-turishingni ko'rganlar, gap-so'zingni eshitganlar nima deydi?», «Mahalladagilardan uyat emasmi?», «Bizni uyatga (isnodga) qo'ydingku (sharmanda qildingku)», - deb aziyat chekishadi.

O'smir yoshdagagi bolalarning choyxona gurungi, gap-gashtaklarining ham o'ziga yarasha qoidasi bor. Bu choyxonaga navbat bilan taklif qilish, o'rtoqlari bilan samimiyy muomalada bo'lish, so'zlovchi gapini bo'lmaslik, navbat bilan gapirish, navbat bilan choy quyish, choyni o'ng qo'l bilan uzatish, noz-ne'matlarni teng baham ko'rish, dasturxonga undash va hokazolardir. O'smirlarning yaxshi fazilatlari ham, yomon xulqi ham bu yig'inlarda namoyon bo'ladi. Kattalarning o'git-nasihatlarini olib, ulfatchilikda qatnashgan o'smirlar odob qoidalari yaxshi o'zlashtirib oladilar.

Xalq pedagogikasida tarbiya vositalaridan yana biri mehmonorchilikdir. Marosim, yig'in, to'y-tomosha, gap-gashtak, choyxona guruning barchasi mehmonorchilikni o'z ichiga oladi. Mehmondo'stlik xalqimiz hayotiga singib ketgan eng yuksak kishilik fazilatlaridan iborat bo'lib, yoshlar tarbiyasida eng muhim tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Xonodon mezbonlari mehmonning ko'nglini olish, xursand qilish

<sup>36</sup> Йулдошева С. Халқ урф-одатлари ва анъаналари. –Т.: Ижод дунёси. 2003. 88-6.